G'.N. Murodov, D.S. O'rayeva

ADABIYOTSHUNOSLIK METODOLOGIYASI

Darslik

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

G‘.N. Murodov, D.S. O‘rayeva

ADABIYOTSHUNOSLIK METODOLOGIYASI

Darslik

60230100 – Filologiya va tillarni o'qitish (o'zbek) - bakalavriat hamda 70230502 – Adabiyotshunoslik (o'zbek adabiyoti) - magistratura yo‘nalishlari uchun darslik

Buxoro
“Durdona” nashriyoti
2023

UO'K 82.09(075)
83.3ya73
M 88
Murodov,G'.N.
Adabiyotshunoslik metodologiyasi [Matn] : darslik / G'.N. Murodov, D.S. O'rayeva .- Buxoro: "Sadriddin Salim Buxoriy" Durdona, 2023. -212 b.
KBK 83.3ya73

Ushbu darslik "**Adabiyotshunoslik metodologiyasi**" bo'yicha yaratilgan bo'lib, u filologiya ta'limi magistratura yo'nalishi va mutaxassisligi uchun tavsiya qilinadi. Shu bilan birga, undan adabiyotshunoslik bilan shug'ullanuvchi tayanch doktorantlar, mustaqil izlanuvchi tadqiqotchilar, o'qituvchilar foydalanishi mumkin.

Mas'ul muharrir:
filologiya fanlari doktori, professor A.Xolmurodov

Taqrizchilar:
filologiya fanlari doktori, professor N.Shodmonov
filologiya fanlari doktori D.Quvvatova

Darslik Buxoro davlar universitetining 2023-yil 23-martdagi 112-sonli buyrug'i bilan nashr etishga tavsiya etilgan. Ro'yxatga olish raqami 112-23.

ISBN 978-9943-9448-5-5

KIRISH

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoevning Farmon va Qarorlarida mamlakatimizda ilm-fanni rivojlantirish, badiiy adabiyot taraqqiyotini yanada yuqori bosqichlarga ko'tarish bo'yicha muhim va dolzarb fikr-qarashlar ifoda etilgan. Ushbu konseptual ahamiyatga ega nuqtai nazarlari amaliyotga tatbiq etish bo'yicha yurtimizda izchil ish olib borilmoqda.

Ilm rivojida oliy ta'limning o'rni va ahamiyati nihoyatda yuksak bo'lib hisobladi. Shu boisdan bizda bu sohaga alohida e'tibor bilan qaralyapti. Talaba va magistrantlarning bilim darajasini rivojlantirishda darslik va o'vuv qo'llanmalari katta ma'rifiy-ilmiy ahamiyatga ega. Ushbu darslik mana shu ehtiyoj asosida yuzaga keldi.

Mustaqillik yillarida kadrlar tayyorlash va ta'lim samaradorligini oshirish yo'lida bir qator islohotlar amalga oshirilib, bosh maqsad barcha sohalarda etuk mutaxassislar va raqobatbardosh kadrlar tayyorlashga qaratildi. Oliy ta'lim tizimida o'qitishning bakalavriat bosqichidan so'ng magistratura bosqichida davom ettirilishi ilmiy potensiali yanada yuqori mutaxassis kadrlarni etishtirish imkonini bermoqda.

Bo'lajak filolog-mutaxassislarga bakalavriat ta'lim yo'nalishida badiiy adabiyotning mohiyati, uning predmeti, so'z san'ati sifatidagi tabiati, adabiy tur va janrlar, badiiy obraz va obrazlilik, she'r tizimlari, badiiy tasvir va ifoda vositalari kabi adabiy-nazariy tushunchalar bosqichma-bosqich o'rgatib borilsa, magistraturada adabiyot ixtisosligi bo'yicha chuqur nazariy saboq berilishi ko'zda tutiladi. Shu maqsadda magistrlarga adabiyotshunoslikka daxldor ma'lumotlar aniq bir davrda yaratilgan badiiy asarlar tahlili jarayonida o'sha davr adabiyotining taraqqiyot tamoyillarini va usullarini o'rganish asosida tushuntiriladi.

"Adabiyotshunoslik metodologiyasi" fanida badiiy matnni tahlil va talqin qilish usullari markaziy o'rinda turadi. Bo'lajak

adabiyotshunos badiiy asarga yondashuv masallarini bilishi talab etiladi.

Mazkur fanni o'qitishning asosiy maqsadi – badiiy asarni tahlil qilish uchun yo'llanma berish, badiiy matnni chuqur va turli metodlar asosida talqin qilish, jahon adabiyotshunosligidagi adabiyotni tadqiq qilish metodlarining ichki imkoniyati va cheklanganlik tomonlarini barcha adabiy tur hamda janrlar bo'yicha yozilgan ilmiy asarlar misolida asoslab o'rganish, umuman, adabiyotshunosning ilmiy-estetik tafakkurini shakllantirishga qaratilgandir. Shu ma'noda adabiyotshunoslik metodolgiyasi va metodlari orasidagi bog'lanishni tushuntirish; adabiyotshunoslik metodlarining tarixi, asoschilari va asosiy ilmiy tamoyillarini hamda adabiyotshunoslik metodlari bilan ijodiy metodning farqini anglatish; adabiyot tarixi, adabiyot nazariyasi bilan adabiyotshunoslik metodologiyasi orasidagi mushtarakliklarni talqin qilish; tadqiq metodlarining imkoniyatlarini ochib berish; jahon adabiyotshunoslari, rus va o'zbek adabiyotshunoslarining ilmiy metodlarini aniqlashga o'rgatish kabi vazifalar ko'zda tutiladi.

Mazkur fan adabiyot nazariyasi, jahon adabiyoti tarixi, estetika, milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar, san'at sotsiologiyasi, psixologiya, falsafa, tilshunoslik fanlari bilan o'zaro o'rganadigan muammolarining umumiyligi bilan bog'lanadi.

Magistrlarda adabiyotshunoslik metodologiyasi fani bo'yicha bilimlarni shakllantirish, adabiyotshunoslik metodlarini, badiiy asar metodologik nuqtai nazardan tahlil qilishga doir muayyan bilimga ega bo'lish va ularni amaliyotda tatbiq etish muhim ahamiyatga ega. Bu jarayon bevosita adabiy-ilmiy, ma'naviy-ma'rifiy sohalarda amaliy ahamiyat kasb etadi.

Havola etilayotgan darslik bayon etilgan fikr va mulohazalarni magistrlarga etkazish maqsadida oliy ta'limning "Adabiyotshunoslik (tillar va tadqiqot yo'nalishlari bo'yicha)" mutaxassisliklari uchun tayyorlangan.

Adabiyotshunoslik ilmida biografik, tarixiy-qiyosiy, qiyosiy-tipologik, tarixiy-madaniy, sotsiologik, struktural-analiz, semiotik, lingvistik, psixologik, psixoanalitik, formal, germenevtik kabi va boshqa bir qator metodlar vositasida tadqiqot ob'ekti va predmetiga yondashiladi. Shu tadqiq usullari orasida har bir metodning o'z o'rni bor bo'lib, adabiyotshunoslar tomonidan birmuncha ko'proq qo'llanishi jihatidan alohida e'tiborni tortadi.

Yuqorida nomi zikr etilgan adabiyotshunoslik metodlaridan hech biri aslida universal emas. Biroq ular orasida har bir metod mazmun-mohiyatida inson shaxsiyati turganligi bilan kishilik tafakkuri orqali shakllantirilgan barcha fanlarga oid bilimlarga, mavjud oqimlar va qarashlarga tayanib ish ko'radiki, shu jihatiga ko'ra, u ma'lum ma'noda universallik kasb etadi va o'ziga xos yaxlit tizim shaklida namoyon bo'ladi. Qolaversa, bugungacha mavjud barcha tafakkur shakllarining insonshunoslik kesimida markazlashuvi har bir metodning universallik darajasini yanada oshiradi.

Adabiyotshunoslikda badiiy matnning har qanday tadqiqi muayyan bir yoxud bir necha metodlar vositasida amalga oshiriladi. O'zbek adabiyot ilmi o'tgan asr davomida asosan sotsialogik va analitik, keyinroq ma'lum darajada psixologik metodlar asosida ish ko'rib keldi. Faqat ymigirmanchi asrning oxiri – milliy Mustaqillik davriga kelib u jahon adabiyotshunosligida mavjud bo'lib, xorijiy tadqiqotchilar tomonidan qo'llanib kelinayotgan ayrim ilmiy tadqiqot usullariga murojaat qila boshladi. Xususan, germenevtik, struktur, semiotik, psixoanalitik metodlarga nisbatan qiziqish paydo bo'la boshladi va mazkur metodlar istifoda qilingan ba'zi bir tadqiqotlar yuzaga keldi. Masalan, salohiyatli olim Bahodir Karim buyuk so'z san'atkori Abdulla Qodiriyning epik ijodini germenevtik tarzda o'rgandi. Uning "Abdulla Qodiriy va germenevtik tafakkur"[1] nomli monografiyasida nafaqat

[1] Баҳодир Карим. Абдулла Қодирий ва герменевтик тафаккур, - Тошкент: Академнашр, 2014.

adabiyotshunosligimiz uchun yangi bo'lgan ilmiy metod metod asosida ish ko'rilgan, shu bilan bir qatorda ushbu kitobda kirish so'z o'rnida keltirilgan "Talqin nazariyasiga doir" deb atalgan muxtasar bir fasl ham borki, unda tadqiqotchi talqin nazariyasi va uning adabiyotshunoslik metodologiyasidagi o'rni xususida ham muhim ilmiy-nazariy ahamiyatga molik mulohazalar bayon etilgan.

Keyingi o'n yilliklarda struktural tadqiq usuliga ham munosabat birmuncha jonlanganini ko'rish mumkin. Muhammadjon Xolbekov, Suvon Meliev, Abdug'afur Rasulov, Bahodir Karim, Dilmurod Quronov,Qurdosh Qahramonov, Hamidulla Boltaboev kabi olimlar bu borada ayrim ishlarni amalga oshirdilar[2].

Adabiyotshunosligimizda struktur-semiotik tadqiq usullariga asoslangan dissertatsiya yaratildi.[3]

Ammo yuqorida qayd etilgan ishlar bilan kifoyalanib qolmay, milliy so'z so'z san'atimizning nodir namunalarini yanada teranroq va asosliroq o'rganishimiz uchun yangi va yuqori samara beruvchi metodlarga asoslanib ish ko'rish lozim. Buning uchun bunday ilmiy tadqiqot usullarini atroflicha o'rganishimiz va ularni fanimizga kengroq tatbiq etishimiz

---

[2] Расулов А. Структура ва структурализм. – Манба: Расулов А. Бадиийлик – безавол мезон. – Тошкент: «Шарқ» НМАК,2007. – Б. 28-56; Йўлдошев Қ. Бадиий таҳлил асослари. – УрДУ, 2008 (ҳаммуаллифликда). – 120 б.; Мелиев С. Структурализм ва структурал таҳлил ҳақида. // Ўзбек тили ва адабиёти, 2008. –№2. – Б.12-20; Холбеков М. Структур адабиётшунослик. – Тошкент: Фан, 2014 – 136 б.;Холбеков М. Ролан Барт ва структур адабиётшунослик // Ўзбек тили ва адабиёти, 2013. – № 2.– Б. 23-33; Карим Б. Структурал метод. – Манба: Карим Б. Руҳият алифбоси. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа уйи, 2016. – 266 б.;Қуронов Д. Чўлпон насри поэтикаси. – Тошкент: Шарқ, 2004. – 288 б.; Қаҳрамонов Қ. Адабий танқидда структур метод талқини. // Ўзбек тили ва адабиёти, 2009. – № 5. – Б. 34-38; Ёқубов И. Структурал поэтика имкониятлари // Ўзбек тили ва адабиёти, 2006, – № 3. – Б. 3-12; С. Мели. «Асрга татигулик кун»: романи бадиий структурасининг айрим хоссалари.// Ўзбек тили ва адабиёти, 2010. – № 2. – Б.16-23; Муродов Ғ. «Юлдузли тунлар» романида бадиий кодлар. // БухДУ илмий ахбороти. – Бухоро, 2000. – № 1. – Б. 23-27.; Саидова Р., Муродов Ғ. Бадиий матнда белги муносабатлари. – Тошкент: Наврўз, 2019. – 64 б.; Алиева Н. «Ўткан кунлар»да психологик ҳолатлар // – Ўзбек тили ва адабиёти, 2011. –№ 1. – Б. 52-59.

[3] Саидова Р.А. Бадиий матнда белги муносабатлари. Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – Бухоро, 2021.

kerak bo'ladi. Hayot taraqqiyoti, zamonaviy fanni rivojlantirish va uni jahon talablari darajasiga olib chiqish zamon talabi va ehtiyoji bo'lib turibdi.Mana shunday talab hamda ehtiyojlardan kelib chiqqan holda oliy ta'lim tizimi filologiya fo'nalishlarida talaba va magistrantlarga adabiyotshunoslik metodologiyasi, ilmiy tadqiq usullari bo'yicha tizimli bilim berish nihoyatda dolzarb masala bo'lib turibdi. Ushbu kamtarona ish mana shunday zaruratni hisobga olgan holda yaratildi.

O'zbek adabiyotshunosligida ko'p yillar davomida ilmiy faoliyatda qo'llaniladigan tadqiq usullari – ilmiy metodlar bo'yicha alohida tadqiqot va oliy ta'lim tizimida darslik yoki o'quv qo'llanma yaratilmagan. Bu haqda professor Bahodir Karimov shunday deb yozgan edi: ""Adabiyotshunoslik metodologiyasi" qismi yuzasidan ilmiy adabiyotlarda, darslik va qo'llanmalarda batafsil fikr yuritilgan emas".[4] Faqat 2011 yilga kelib aynan nomi yuqorida tilga olingan fidoiy adabiyotshunos tomonidan mazkur soha bo'yicha filologlar uchun o'quv qo'llanma yaratildi. Ushbu qo'llanmada sotsiologik, formal, struktural, psixologik, lingvistik, qiyosiy-tarixiy germenevtik metodlar bo'yicha qimmatli ma'lumot va fikr-mulohazalar o'z ifodasini topgan.

Bugungi kunda oliy ta'lim tizimidagi filologik yo'nalishlar uchun mazkur soha bo'yicha darslik yaratish ehtiyoji mavjud. Ushbu ish mualliflari mana shunday ehtiyojni hisobga olgan holda yaratildi.

Darslik, asosan, ushbu fan bo'yicha tahsil beradigan professor-o'qituvchilar hamda magistrantlar uchun mo'ljallangan. Shu bilan birga, undan adabiyotshunoslik bilan shug'ullanuvchi tayanch doktorantlar, mustaqil izlanuvchi tadqiqotchilar, o'qituvchilar foydalanishi mumkin.

Darslikdagi "Adabiyotshunoslik metodlarining ijodiy metodlardan farqi", "Qiyosiy-tarixiy metod", "Germenevtik metod", "Biografik metod", "Lingvistik metod", shuningdek, "Adabiyotshunoslik metodologiyasi" fanidan testlar to'plami"

---

[4] Каримов Б. Адабиётшунослик методологияси. – Тошкент, 2011. – Б.4

filologiya fanlari doktori, professor G'.N. Murodov, "Sotsiologik metod", "Qiyosiy-tipologik metod", "Formal metod", "Struktural tahlil metodi", "Psixologik va psixoanalitik metodlar" mavzulari filologiya fanlari doktori D.S. O'rayeva tomonidan yozildi.

1-MAVZU. ADABIYOTSHUNOSLIK METODLARINING IJODIY METODLARDAN FARQI

Reja:

1. Adabiyotshunoslik metodlari va ijodiy metodlar.
2. Adabiyotshunoslik metodologiyasi – tadqiqot metodlari yig'indisi sifatida.
3. Metodlarning dunyo adabiyotshunosligidagi tasnifi.
4. Metodlar chegarasi va o'zaro uyg'unligi.
5. Badiiy asarni tahlil qilish metodlari.

Tayanch tushunchalar: so'z san'ati, badiiy adabiyot, badiiy ijod, badiiy adabiyotning ko'pvazifaliligi, badiiy-konseptual funksiya, bilish (evristik) funksiya, kompensatorlik funksiyasi, estetik funksiya, badiiy bashorat, tarbiyaviy (didaktik) funksiya, kommunikativ funksiya, induksiya, deduksiya, analiz va sintez, tahlil, talqin, sharh, tafsir, interpretatsiya, kontekstual tahlil, immanent tahlil, sotsiologik metod, tarixiy-madaniy metod, biografik va ijodiy-genetik metod, immanent tahlil metodlari, struktural metod, stilistik metod, semiotik metod, interpretatsiya, sharh, tafsir, germenevtika.

Adabiyotshunoslik metodlari ilmiy ijod metodlari bo'lib, badiiy asar yaratishga daxldor poetik ijod metodlaridan katta farq qiladi. Adabiyotshunoslik metodlari bilan adabiyotshunos olimlar ish yuritib, ilmiy-nazariy, tanqidiy asar yaratsalar, badiiy ijod metodlaridan yozuvchi, shoir, dramaturglar foydalanib, poetik asarlar yaratadilar. Bunda ijodkorlarning romantizm, realizm, tanqidiy realizm, klassizim, sentimentalizm, modernizm va hokazo singari qator ijodiy metodlardan foydalanishlari kuzatiladi.

G.Pospelov ta'kidlaganidek, ijodiy metodlar hayotni badiiy aks ettirish tamoyillari bilan bog'liqdir.[5] Hayotni badiiy aks ettirishda esa realistik va norealistik tamoyillarga tayaniladi. Bunda realistik tamoyil xarakterlarning ularni shakllantirgan ijtimoiy-tarixiy sharoitga, ko'proq shu sharoit bilan belgilanuvchi xarakter mantiqiga muvofiq harakat qilishlarini taqozo qiladi.

Hayotni badiiy aks ettirish tamoyillari adabiyotshunoslikda "metod" deb yuritiladi. Demak, badiiy adabiyotda ikkita – realistik va norealistik ijodiy metodlar mavjud.

"Metod" atamasi ostida badiiy asarning g'oyaviy mazmuni bilan bog'liq bo'lgan hayot materialini tanlash, poetik idrok etish va baholash tamoyillari ham tushuniladi. Ya'ni, metod endi poetik tafakkur tarzi sanalib, u badiiy adabiyot e'tiborini voqelikning u yoki bu qirralariga qaratishi, tipiklashtirishi va baholashida namoyon bo'luvchi hodisa hisoblanadi. Bundan esa adabiyotning mafkura quroliga aylanishini anglatadi.

Ma'lumki, badiiy ijodda ikki muhim unsur bor. Bular – metod va uslubdir. Ularni alohida kategoriyalar sifatida tushunish, tushuntirish zarur. Bunda metod g'oyaviylik hodisasi, gnoseologik (badiiy bilish bilan bog'liq) kategorya bo'lsa, uslub badiiylik hodisasi hamda antropologik (ijodkor shaxsi bilan bog'liq) kategoriyadir. Ammo har ikkalasi ham ijodkor badiiy tafakkur tarzini anglatuvchi kategoriyalardir.

Uslub ijodkorning ijodiy individualligi, badiiy mahoratini namoyon etadi. "Uslub – odam" degan qarash ham mavjud. Bu bilan uslubning ijodkor shaxsini ifodalashi ayonlashadi. Masalan, A.Qahhorga xos qisqa jumlalar tuzish, betakror badiiy detallar funksionalligidan foydalanish adib individual uslubi, uning ijodiy o'ziga xosligi bilan izohlanadi.

Ko'pincha badiiy ijod ahli o'zi to'qigan nomlar, yaratgan obrazlari vositasida «men»lik olamini ifoda etadi. Asardagi metafora, poetik ko'chim, obrazli tafakkur tarzi shuni taqazo

---

[5] Поспелов Г.Н. Проблемы исторического развития литературы. – М.,1972. – С.258-270.

qiladi. Ko'p xollarda ijodkorlar asarlari mazmun-mohiyatida o'z dardu dunyosini aks ettirganini ochiq e'tirof qiladi. Ba'zan esa ijodkorga xos holatlar badiiy asarda bir yoki bir nechta qahramon tabiatiga singgan bo'lishi mumkin. Gohida asarning umumg'oyasi, tili, uslubi, hatto kompozitsion qurilishigacha ta'sir o'tkazishi kuzatiladi.

Hayotni badiiy aks ettirish tamoyillari, metod va uslubi adabiy yo'nalish tushunchasi bilan bevosita bog'liq bo'ladi. O'z g'oyaviy-estetik tamoyillari, ijodiy dasturiga ega bo'lsa, **adabiy yo'nalish** deyiladi. Y.Borev uning o'tmishdan XX asr adabiyotigacha quyidagi turlarini ajratib ko'rsatadi:

mifologik realizm;
o'rta asrlar simvolizmi;
uyg'onish davri realizmi;
barokko;
klassitsizm;
ma'rifatparvarlik realizmi;
sentimentalizm;
romantizm;
tanqidiy realizm;
realizm;
sotsialistik realizm;
syurrealizm;
ekzistensializm;
absurdizm va h.k.

Bu kabi adabiy yo'nalishlar badiiy tafakkur tarzi, metod va uslub kesishgan nuqtada yuzaga kelganligi bilan diqqatni tortadi.

Aytish mumkinki, muayyan davrda yashagan bir qator ijodkorlar yaratgan ko'plab asarlarda tipologik umumiylik mavjud. Tipologik umumiylik hayot materialini tanlash, uni badiiy idrok qilish va baholash tamoyillarida, asarlarning badiiy shakl xususiyatlari, uslubiy jihatlarida namoyon bo'ladi. Uzluksiz adabiy jarayonning muayyan bosqichlarida kuzatiluvchi badiiy ijodning g'oyaviy-estetik tamoyillari

asosidagi umumiylik adabiy yo'nalish haqida gapirish imkonini beradi. Negaki, adabiy yo'nalish adabiy jarayonning, badiiy tafakkur taraqqiyotining muayyan bosqichini nazariy jihatdan umumlashtirish orqali uning mohiyatini anglash imkonini beruvchi muhim adabiy-estetik kategoriyadir. Bir yo'nalish doirasidagi asarlarda turlicha ideallar, dunyoqarash barobarida tipologik umumiylik ham aks etishi tabiiydir. Binobarin, bir yo'nalishga mansub ijodkorning ham g'oyaviy, ham estetik jihatdan o'ziga xosligi inkor qilinmaydi. Shuningdek, bir adabiy yo'nalish doirasida turli oqimlar kuzatilishi mumkin. **Adabiy oqim** adabiy yo'nalishning bir ko'rinishi, o'ziga xos bir varianti hisoblanadi.

Nazariy jihatdan o'z ijodiy dasturiga ega bo'lgan, tashkiliy tuzilma sifatida shakllangan ijodkorlar guruhi **adabiy maktab** (masalan, futuristlar, akmeistlar maktabi kabi) sifatida qaraladi. sanaladi. U adabiy yo'nalish va adabiy oqimdan farq qiladi.

Badiiy adabiyot – ijtimoiy ong shakllaridan biri, insonning ruhiy faoliyati mahsuli sifatida o'zida borliqning, olam manzarasining badiiy obrazlar vositasida idrok etilishini namoyon etadi. Shuning uchun adabiyotshunoslik metodologiyasi falsafiy dunyoqarash bilan bog'lanadi. Bunda bilish nazariyasining adabiyotshunoslik metodologiyasida tutgan o'rni anglashiladi. Chunki aqliy va hissiy bilish olamni bilish, falsafiy tushunishning ko'rinishlaridir. Ijodkor aqlan idrok etgan voqea-hodisasini o'z ongida o'zgartirib, uni o'zi tanlagan badiiy obrazlar vositasida aks ettiradi va hissiy munosabatini ko'rsatadi. Lekin bu voqelik real yoki xayoliy, shuningdek, tanlangan obrazlar ham shunga mos bo'lishi mumkin. Yana adabiyot real voqelikni bevosita insonni o'zgartirish orqali bilvosita dunyoni o'zgartirish ko'rinishida talqin qiladi. Shu tariqa adabiyotda olam, odam, jamiyat haqidagi bilim va tasavvurlar sinkretlashadi.

Adabiyotda jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy, ma'rifiy taraqqiy darajasi o'z aksini ko'rsatadi. Shuning uchun u davrlashtirilib o'rganiladi. Zero, qadimgi davr adabiyoti bilan

modernistik adabiyot orasida katta farq bor. Bunday tafovvut esa ibtidoiy jamiyat kishisi bilan hozirgi zamon kishilari ongidagi olam va odam haqidagi bilimlar orasidagi farqdan kelib chiqadi.

Adabiyot taraqqiyotida mif, din, ilm-fan, san'at, axloq, huquq, siyosat kabi u singari ijtimoiy ong shakllarining alohida ta'siri bor. Adabiyotda, avvalo, miflar paydo bo'lgan. Ular qadimgi kishilarning olam va odam haqidagi dastlabki bilimlarini o'zida namoyon etadi. Xususan, insonlarning tabiat hodisalarini anglashga intilishi natijasida yuzaga kelgan miflar qadimda ijtimoiy ongning asosiy shakli sifatida dunyoning, inson va boshqa jonzotlarning paydo bo'lishi, hayot va o'lim sirlari, tabiat hodisalarining sodir bo'lishi kabi masalalarga javob izlagan.

Keyinchalik mifologik tasavvurlar falsafiy, diniy tushunchalarga o'rin bo'shatdi. O'rta asrlarga kelib olam va odam mohiyatini diniy ta'limotlar asosida tushuntirish kuchaydi. XYIII asrga kelib esa ilm-fanning etakchiligi adabiyotda ham aks eta boshladi. Hozirgi bosqichda mifologik tafakkurdan tortib to yuksak ilmiy bilishgacha parallel aks ettirilmoqda.

Badiiy adabiyot va san'at borliqni badiiy obrazlar vositasida idrok etishi va tasvirlashi jihatidan boshqa ijtimoiy ong shakllaridan farqlanadi. Xususan, badiiy adabiyot so'z vositasida ish ko'rishi, so'z uning asosiy quroli ekani bilan ajralib turadi. So'z, ayni paytda, universal bilish va ifodalash vositasidir. So'z vositasida ish ko'rgani uchun ham badiiy adabiyotning badiiy bilish imkoniyatlari ancha keng hisoblanadi. U orqali hayotdagi turli muammolar badiiy tadqiq etiladi.

Badiiy adabiyot ko'p vazifali (polifunksional) bo'lib, uning ijtimoiy hayotdagi vazifalarini quyidagilar tashkil etadi:

Bilish (evristik) vazifasi. Badiiy adabiyot kishilarning olam, odam va jamiyat haqidagi bilim va tasavvurlarini boyitadi. SHuning uchun u "hayot darsligi" deb yuritiladi. Unda

tasvirlangan insonlar hayoti orqali o'quvchi o'zi haqida chuqurroq tafakkur qiladi, bilimi oshadi, fikrlash doirasi kengayadi.

Badiiy-konseptual vazifasi. Badiiy adabiyot o'quvchini hukmdan kechinma sari undaydi. Unda tasvirlangan hayot o'quvchini chuqurroq o'ylashga va to'g'ri xulosalarga kelishga da'vatlantiradi. Asarda badiiy tahlil qilingan olam va odam manzaralari yaxlit badiiy konsepsiyani ishlab chiqishga olib keladi. Bunda ijodkorlar badiiy obrazlarga, ularning serma'noligiga tayanadi.

Kommunikativ (aloqa) vazifasi. O'tmishda, turli hududda yoki har xil tizimli tillarda yaratilgan badiiy adabiyot kelajak avlodga, turli xalqlarga ham xizmat qila oladi. Bu uning kommunikativ vazifasidan dalolat beradi. Darhaqiqat, shaxslararo, avlodlararo, millatlararo muloqotning amalga oshishida badiiy adabiyotning kommunikativ vazifasi namoyon bo'ladi. U insonlarning axborotga bo'lgan ehtiyojini qondiradi.

Tarbiyaviy (didaktik) vazifasi. "Adabi yot", ya'ni odobni yod bermoq, odob o'rgatmoq tushunchalari bilan bog'liq badiiy adabiyot shaxsni aqlan va ruhan kamolga etkazishga, jamiyat ma'naviyatini yuksaltirishga xizmat qiladi. Deyarli barcha davrlarda uning bu vazifasi ustuvor bo'lib kelgan.. Juda qadim davrlardan bunga ayricha e'tibor berib kelingan. Yosh avlodni tarbiyalashda badiiy adabiyotdan keng foydalanilgan. Jumladan, Sa'diyning «Guliston» va «Bo'ston», Kaykovusning «Qobusnoma» kabi asarlari asrlar davomida eski maktablarda darslik vazifasini bajarib kelgani ma'lum.

Kompensatorlik vazifasi. Badiiy adabiyot insonga ruhiy qoniqish baxsh etishi uning kompensatorlik vazifasi samarasidir. CHunki o'quvchi u orqali boshqa bir hayotga, begonalar turmushiga "kirib boradi", ko'rmaganini ko'radi, bilmaganini bilib oladi. Bir so'z bilan aytganda, bir muddat irreal olamda (badiiy reallikda) yashaydi. Unda yangi his-kechinmalarga duch keladi.

Badiiy bashoratchilik vazifasi. Badiiy adabiyotda "kecha" yoki "bugun"ning poetik tahlili asosida kishilik jamiyatining "erta"si haqida fikr aytish badiiy bashorat hisoblanadi. Badiiy adabiyot bu vazifasiga ko'ra, inson hayotini oldindan tasvirlaydi. Bu og'zaki badiiy ijodga aloqador ertaklardan boshlangan bo'lib, yozma adabiyotda fantastik va ilmiy-fantastik asarlarda davom etdi.

Estetik vazifasi. Badiiy adabiyot vositasida insonda go'zallik tuyg'usini rivojlantirish, badiiy-estetik didni tarbiyalash, estetik idealni shakllantirish uning estetik vazifasini ko'rsatadi.

Xullas, badiiy adabiyot insonni komillikka etaklashi, jamiyatni mukammallashtirishga, inson va jamiyatni o'zgartirish orqali dunyoni o'zgartirishga xizmat qilishi uning eng muhim vazifasidir. CHunki badiiy adabiyotda real voqeliklargina emas, yuksak ideallar, ilg'or g'oyalar ham aks etadi. Natijada mukammal inson va jamiyat haqidagi tasavvurlar boyib, orzu-intilishlar yuzaga chiqadi.

Umuman aytganda, badiiy adabiyotning vazifalari badiiy asarni turlicha tahlil qilish orqali anglashiladi. Ular adabiyotshunoslikning tadqiq usullarini tashkil etadi. Bunga quyidagi tadqiq va tahlil usullarini misol qilish mumkin.

Kontekstual tahlil metodi. Badiiy asarni kontekstual tahlil qilishda badiiy matndan kelib chiqib, u haqda fikr yuritiladi. Bunda badiiy asar matniga turli jihatlardan yondashiladi. Asarning tashqi va ichki aloqalari tarixiylik tamoyiliga tayangan holda o'zaro bog'liklikda, birlikda tekshiriladi.

Odatda, kontekstual tahlil jarayonida **immanent tahlil metodlari** tadqiqotchining imkoniyatlarini kengaytiradi. **Struktural, stilistik va semiotik metodlar immanent tahlil metodlari** qatoriga kiradi.

Immanent tahlil vositasida badiiy asarga alohida mavjudlik sifatida qaraladi va uning ichki aloqalari o'rganiladi.

Struktural metod badiiy asar qismlari va ularning o'zaro aloqalarini, matn qismlarini, uni tashkil qilgan omil va

vositalarni o'rganadi. **Struktural metod yoki strukturalizm** – matnni o'qish, uqish, huzurlanish bilan bog'liq jarayon bo'lib, talqin va tahlil asosida yuzaga chiqadi. U o'rganilayotgan ob'ektlar strukturasini aniqlashni ilmiy tadqiqotning ilk muhim vazifasi sifatida ilgari suradi. Strukturalizm XX asrning boshlarida bir qancha ijtimoiy-gumanitar fanlarda (tilshunoslik, adabiyotshunoslik, psixologiya va boshqa) pozitivistik yo'nalishdagi siyqa evolyustionizmga javob sifatida paydo bo'lgan. U matematika, fizika va boshqa tabiiy fanlarda ishlab chiqilgan struktur tadqiqot metodlaridan foydalanadi. Struktural tahlilning mohiyati muayyan asarning qaysi zamon, qanday tarixiy yoki mafkuraviy sharoitda yaratilganidan qat'i nazar, uning matnidan kelib chiqib talqin etilishi ayni shu asarning an'anaviy talqinlaridan mutlaqo o'zgacha xulosalar chiqarilishi bilan izohlanadi.

Stilistik tahlil metodi badiiy matnning uslubiy o'ziga xosligini, ijodkorning uslubiy mahoratini tadqiq qiladi.

Semiotik tahlil metodi. U badiiy asardagi tilga aloqador lisoniy belgilarning ma'no qirralarini o'rganadi.

Sotsiologik (ijtimoiy) metod badiiy asarning ijtimoiy mavjudligini, turmush bilan bog'liqligini tekshiradi. Bu metod tadqiqotchini badiiy asar voqeligi bilan real voqelik munosabatlari, uning tarixan haqqoniylik darajasi, hayot haqiqati bilan badiiy haqiqat munosabati kabi masalalarni o'rganishga yo'naltiradi. Bunday yondashuv asarning g'oyaviy-mafkuraviy tomonlarini tahlil qilarkan, qahramonlarning xarakter xususiyatlari, asardagi konfliktlar tabiati, obrazlar tizimi va h.k. kabi badiiy unsurlarning ijtimoiy ildizlarini ochib beradi. Hayot haqiqatining badiiy haqiqatga aylanish jarayoni, xarakter va prototip, tarixiy shaxs obrazi va real tarixiy shaxs munosabati kabi ijod jarayoni bilan bog'liq muammolarni o'rganishda sotsiologik metod asos vazifasini o'taydi.

Formal metod – badiiy adabiyotning shakliga, kompozitsion qurilishiga, lug'at tarkibiga ko'proq e'tiborni tortadi.

Tarixiy-madaniy tahlil metodi badiiy asarni adabiy-madaniy kontekstda o'rganib, unda tasvirlangan milliy-madaniy an'analar, davr tasvirini ochishga xizmat qiladi. CHunki har qanday badiiy asar xususiyatlari madaniy-adabiy an'analar zaminida muayyan tarixiy-ijtimoiy, madaniy muhitda paydo bo'ladi. Masalan, mumtoz adabiyotdagi aksariyat asarlarning ma'no-mazmuni faqat tasavvufiy ramziy ma'nolarni ochish orqaligina tushuniladi.

Biografik metod vositasida, asosan, yozuvchining ijodiy lobaratoriyasi o'rganiladi. Biografik metod badiiy asarni muallifining hayot yo'li kontekstida o'rganishni nazarda tutadi.

Ijodiy-genetik metod biografik metodga yaqin va u bilan birlikda qo'llanib, badiiy asarning ijodiy tarixini o'rganishni maqsad qiladi. Bu metod adabiyotshunosga hayot materialining badiiy obrazga aylanish jarayoni, badiiy matnning sayqallanish yo'lini kuzatish imkonini beradi. Mazkur metod tadqiqotchining asar qoralamalari, uning turli nashr variantlari, tarixiy hujjatlar va boshqalarni chuqur o'rganishini, aniq dalillar asosida asarning yaratilish tarixi va omillarini ochib berishini taqozo etadi.

Psixologik metod psixologiya fani bilan bog'liq bo'lib, um nafaqat badiiy asar qahramonlari ruhiyati, ya'ni psixologiyasi, balki muallif ruhiyatini ham qiyosiy o'rganishga etaklaydi. Z.Freyd, E.Fromm asarlariga qiziqishning kuchayganligi psixologik metodning adabiyotshunoslikdagi mavqeini kuchaytirdi.

Lingvistik metod badiiy asar tili, yozuvchi uslubi, matn ritmikasi masalasini o'rganish yo'lidir. Lingvistik metodning asosiy prinsiplari bevosita tilshunoslik fani bilan bog'liq bo'lib, u orqali kalit so'z, stilistik maydon tushunchalari reallashtiriladi.

Qiyosiy metod badiiy asarni boshqa asar(lar) bilan qiyosan tahlil qilish usulidir.

Komparativ tahlil metodi komparativistika (qiyosiy adabiyotshunoslik)ning ilg'or usuli bo'lib, turli adabiyotlarga mansub bo'lgan hodisalarni taqqoslab o'rganadi. Komparativ

tahlil tamoyillariga ko'ra, aynan bitta adabiyotning ichida uning davrlari, yozuvchilari va asarlari tadqiq qilinadi. Fan sifatida adabiyot tarixi uchun qiyosiy adabiyotshunoslik umummetodologik ahamiyatga ega.

Germenevtik metod yoki talqin metodi. Badiiy asarning mazmun-mohiyatini tushunish uchun tahlil va talqin qilish metodidir. U badiiy asarni tushunish jarayonining bir-biriga bog'liq jihatlarini qamrab oladi.

Talqin atamasi "interpretatsiya" termini bilan ham yuritiladi. Talqin metodi orqali badiiy asar sharhlanadi, uning mazmun-mohiyati va badiiy konsepsiyasi ochib beriladi, obrazlar vositasida ifodalangan mazmun tushuntiriladi. Bir so'z bilan aytganda, talqin metodi ijodkor tomonidan aytilgan fikr yoki yozilgan ilmiy, falsafiy, diniy, badiiy va h.k asarlar mazmunini anglash, uni ma'lum yaxlitlikda tushunish va tushuntirish usulidir. Shuning uchun mumtoz adabiyotshunoslikda u "sharh", "tafsir" atamalari bilan ham berilgan.

Aslida tahlil va talqin tushunish jarayonining ikki qirrasi bo'lib, har bir o'quvchi badiiy asarni har xil tushunadi va o'zicha talqin qiladi. Buning uchun u asar qismlarini (undagi epizodlar, personajlarning turli holatlardagi xatti-harakati, gap-so'zlari, ruhiy holatlari aloqsini) tahlil qilib, ularni tushuntirishga harakat qiladi. Natijada bir asarni har bir o'quvchi o'zicha tushunib, o'zicha talqin qilishi ayonlashadi. Shunday bo'lsa-da, bunda talqin egasi asarning umumiy va mushtarak nuqtalaridan uzoqlashmaydi. Bu esa, har bir asar mazmuni yadro (o'zak voqea) atrofidagi pereferiyalarda (yondosh voqeliklarda) aks etib turishini ko'rsatadi.

Talqin jarayonida tadqiqotchi sub'ekt, badiiy matn esa ob'ekt (manba) vazifasida keladi. Bunda asarni tushunish birlamchi, uni baholash esa ikkilamchi maqsad hisoblanadi. Demak, badiiy asar tahlili asosida uning talqiniga erishiladi.

Tahlil (analiz) metodi. Badiiy asarni tadqiqotchi sifatida o'qishga da'vat qiladi. Bunda badiiy asarni tushunish uchun u

butun (yaxlitlik) holida olinib, qismlarga ajratilai. Qismning butun tarkibidagi o'rni, mohiyati, vazifasi, boshqa qismlar bilan aloqasini ko'rsatib beriladi. Undagi o'quvchi ongi va ruhiyatiga ta'sir qiladigan, uning u yoki bu tarzda tushunilishiga asos bo'ldigan omillarni o'rganadi.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, aniq bir badiiy asar tahlilida tadqiq metodlari qorishiq holda qo'llanadi. Bunda ulardan qaysi biri etakchi bo'lsa-da, boshqalari uni to'ldiradi.

Savol va topshiriqlar:

1. Adabiyotshunoslik metodologiyasi nima uchun ijtimoiy fanlar qatoriga kiradi?
2. Adabiyotshunoslik metodologiyasi bilan adabiyotshunoslik tarixi fanining o'zaro bog'liqligi nimalarda ko'rinadi?
3. Adabiyotshunoslik metodologiyasining falsafa bilan munosabatini ochib bera olasizmi?
4. Adabiyotshunoslik metodologiyasi qaysi jihatlari bilan psixologiya faniga bog'lanadi?
5. Adabiyotshunoslik metodologiyasi va tilshunoslik munosabatini misolalar bilan tushuntira olasizmi?
6. Adabiyotshunoslik metodologiyasi va estetika bog'liqligini tushuntiring.
7. Kontekstual tahlil bilan immanent tahlil orasidagi farqni tushuntiring.
8. Kontekstual tahlil metodlari qaysilar?
9. Sotsiologik metod nimaga asoslanadi?
10. Biografik va ijodiy-genetik metodlarning o'zaro aloqasini tushuntiring.
11. Immanent tahlil metodlari qaysilar? Ularni qanday tushunasiz?
12. Adabiyotshunos faoliyatida, konkret asar tahlilida metodlarning qorishiq qo'llanishini asoslang. Bu xil qorishiqlikning sababi nimada?
13. Adabiyotshunoslikda talqin nazariyasi deganda nimani tushunasiz?
14. Germenevtik metodning vazifasini nima tashkil qiladi?

Adabiyotlar:

1. Bar L.B. Analiz xudojestvennogo proizvedeniya. – T.: O'qituvchi, 1995.
2. Bart R. Izbrannыe rabotы. Semiotika. Poetika. – M, 1989. – 254 s.
3. Baxtin M.M. Estetika slovesnogo tvorchestva. – M., 1986.
4. Gadamer G.G. Istina i metod: Osnovы filosofskoy germenevtiki. – M., 1988.
5. Jo'raqulov U. Hududsiz jilva. – T.: Fan, 2006.
6. Karimov B. Abdulla Qodiriy: tanqid, tahlil va talqin. – T.: Fan, 2006.
7. Kuznetsov V.G. Germenevtika i gumanitarnoe poznanie. – M., 1991.
8. Meliev S. Strukturalizm va struktur tahlil haqida // O'zbek tili va adabiyoti. 2008. – 2-son. – B.12-20.
9. Mixaylov A.A. Sovremennaya filosofskaya germenevtika. – Minsk, 1984.
10. Rasulov A. Badiiy asarga yondashuv asoslari. Filolog-magistrlar uchun o'quv qo'llanma. – T., 2003.
11. Rasulov A. Tanqid, talqin, baholash. – T.: Fan, 2006.
12. Rikyor P. Konflikt interpretatsiy: Ocherki o germenevtike. – M., 1995.
13. Sarimsoqov B. Adabiyotning ijtimoiy tabiati // O'zbek tili va adabiyoti. – 1995. – №2. – B.46-52.
14. Shpet G.G. Germenevtika i ee problemы // Kontekst. Literaturno-teoreticheskie issledovaniya. – M., 1989.
15. Yakobsan R. Rabotы po poetike. – M., 1987. – S.166.

2-MAVZU. SOTSIOLOGIK METOD

Reja:

1. Sotsiologik metodning mohiyati va unda ish ko'rish talablari.
2. Sotsiologik metod bilan ish ko'radigan adabiyotshunosning badiiy adabiyot bilan ijtimoiy hayot munosabatlarini tadqiq etishi.
3. Sotsiologik metodning yuzaga kelish omillari va manbalari.
4. Sotsiologik metodga vulgar va g'ayriilmiy yondashish haqida.

Tayanch tushunchalar: ijtimoiy (sotsiologik) metod, badiiy adabiyot, badiiyat namunalari, adabiy-badiiy jarayon, adabiyotshunoslik, epos, romantizm, realizm, tanqidiy realizm, naturalizm, vulgar sotsiologizm, sotsialistik realizm, pozitiv falsafa.

Adabiyotshunoslikda ijtimoiy (sotsiologik) metodning o'ziga xos o'rni va vazifalari bor.Bu ilmiy usul orqali badiiy adabiyotning ijtimoiy xususiyatlari, so'z san'atining jamiyat bilan bog'liqligi o'rganiladi.

Ma'lumki, badiiy adabiyot ijtimoiy ongning o'ziga xos shakllaridan biridir. Badiiyat namunalarini ijtimoiy nuqtai nazardan o'rganish lozimligini yuqorida aytib o'tilgapgn fikr ko'rsatib turibdi. Biroq mazkur metoddan foydalanishni adabiy-badiiy jarayon va muayyan ijodkorlar faoliyati hamda ijod namunalarini o'rganishda yakkayu yagona yo'l deb tushunish to'g'ri emas. Adabiyot taraqqiyotining muayyan bosqichi (sovet davri)da badiiy adabiyotni tadqiq etishda xuddi shunday munosabat mavjud edi. Ammo davr taraqqiyoti, tafakkur tadriji bunday nuqtai nazarning asossizligini ko'rsatib berdi. Shunga qaramay, ijtimoiy metodning ahamiyatini ham inkor etib bo'lmaydi.. Adabiy-badiiy jarayon tarixining hamma bosqichlarida yaratilgan ko'pgina asarlarda jamiyat hayoti,

davlatni boshqarish, hukmdor va amaldorlarning burch va majburiyatlari, urush va tinchlik singari muammolar o'z ifodasini topgan. Binobarin, so'z san'ati namunalarida yuqorida qayd etilgan masalalar aks etar ekan, adabiyotshunoslik ularni tadqiq va tahlil qilishi lozim bo'ladi. Bunday hollarda , tabiiyki, ijtimoiy usul imkoniyatlaridan foydalanishga ehtiyoj va zarurat yuzaga keladi.

Aytib o'tilganidek, bu metodning yuzaga kelib shakllanishi hamda adabiyotshunoslikning boshqa usullari qatoridan o'rin olishi badiiy adabiyotning tasvirlash mohiyati, o'ziga 'xos xususiyatlaridan kelib chiqadi. Insoniyat taraqqiyotining dastlabki bosqichlarida yaratilgan badiiyat namunalari, ayniqsa, epopeya janri namunalarida insoniyat, jamiyat, davlat hayoti bilan bog'liq muammolar aks etganini ko'rish mumkin Shumer-akkadlarning «Gilgamish», hindlarning «Mahobhorat», «Ramayana». yunonlarning «Iliada». «Odissiya», turkiy xalqlarning «Manas», «Alpomish», germanlarning «Nibulinglar haqida qo'shiq» eposlarida birinchi navbatda xalq, millat taqdiri, istiqboli bilan bog'liq ijtimoiy-siyosiy voqea-hodisalar tasvirlangan. Insoniyatning buyuk ijodkorlari yuksak badiiy darajaga ega bo'lgan asarlarida o'zlari mansub zamonning juda muhim masalalarini yoritganlar. Masalan, turkiy she'riyatning sohibqironi sanalgan hazrat nizomiddin Alisher Navoiy «Xamsa» tarkibiga kirgan dostonlarida davlatchilik asoslari, hukmdorning xalq oldidagi burchlari singari muammolarga asosiy e'tiborni qaratgan edi.

O'n to'qqizinchi asr davomida Evropadagi romantizm, realizm, tanqidiy realizm, naturalizm kabi oqim va metodlarga mansub bo'lgan Onore Balzak, Stendal, Gogol, Lev Tolstoy, Fyodor Dostoevskiy, Mopassan, Emil Zolya kabi atoqli yozuvchilar o'z davrlarining ijtimoiy hayot manzaralarini yuksak badiiy mahorat bilan tasvirladilar. So'z san'atida romanning epik janr sifatidagi mavqei oshib borgani sayin uning namunalarida omma, xalq hayoti namunalari teranroq, qamrovliroq ifoda topa boshladi. Tabiiyki, so'z san'ati

namunalarida ijtimoiy hayot manzaralarining tobora ko'lamliroq aks topishi adabiyotshunoslik oldiga yangi vazifa – alohida ilmiy-nazariy metod yordamida bunday asarlarni tadqiq etish qvazifasini qo'ydi.

Bu o'rinda aytish kerakki, adabiyotshunoslikda badiiy adabiyotdagi ijtimoiy turmush lavha va tasvirlarini tahlil etish tajribasi oldindan mavjud edi.

Yuqorida aytib o'tilganidek, adabiyotning ijtimoiy mohiyati va uni jamiyat nuqtai nazaridan o'rganish usullari sotsiologiya fanining mustaqil soha sifatida shakllana borishi bilan yuzaga kela boshladi. Biroq bashariyat oldida adabiyot va kishilik jamiyatining o'zaro munosabatlari muammosi antik davrdayok paydo bo'lgan edi.

Texne – san'at zaruriy bilim sohalaridan biri hisoblanib, qadimiy yunon polisi hayoti bilan chambarchas bog'langan edi. San'at, shu jumladan, badiiy adabiyotga bunday nuqtai nazar Aristotel estetikasida o'zining mukammal ifodasini topgan.

Keyingi davrlarda adabiyot va san'at hamda jamiyatning bir-biriga munosabati masalasi bir necha marta kun tartibiga qo'yildi, ayniqsa, ijtimoiy yuksalishlar davrlarida bu muammo alohida ahamiyat kasb etdi.

Muhit va ijtimoiy shart-sharoitlarning qalamkashga, umuman olganda esa, so'z san'atiga ta'siri muammosi haqidagi mulohazalarni turli-tuman badiiy-estetik oqim namoyandalari – Ma'rifatchilik o'tmishdoshi J.Dyubo, Ma'rifatchilik yillarida Volter, Russo, Lessing. A.N. Radishchev, fransuz qomuschilari, Gerder, taraqqiyparvar romantiklar, J. de Stal kabilarda uchratish mumkin. Bu masala realizm nazariyasi va amaliyotida ham muhim o'rin egalaydi.

Sotsiologiya, jumladan, san'at (adabiyot) sotsiologiyasining eng mug'im jihatlaridan biri tarixiylik (istorizm) g'oyasining ishlab chiqilishida ko'rinadi. O'n to'qqizinchi asr davomida mazkur tushuncha turli fan sohalari: falsafada (bunda ulug' faylasuf va estetik Gegelninng alohida o'rni bor), tabiatshunoslikning rivojlanishi jarayonida (CH. Darvinning

tadrijiylik nazariyasi), rus taraqqiyparvar demokratik estetikasida rivojlanib, sayqallashib bordi.

O'n to'qqizinchi asrda sotsiologiya, shuningdek, san'at sotsiologiyasi pozitivizm va mexanik determinizmning kuchli ta'siri ostida rivojlandi. Bu davrdagi adabiyotshunoslikda I. Tenning badiiy asarni muallifni o'rab turgan muhit bilan aloqadorlikda o'rgandigan madaniy-tarixiy metodi e'tibor qozona boshladi. Ten adabiy-tanqidiy qarashlarida sub'ektivizm ustuvorlik qilgan o'tmishdoshlaridan farqli ravishda adabiyotshunoslikda birinchi bo'lib metod muammosinit maydonga qo'ydi.

Madaniy-tarixiy metodologiyadan tashqari o'n to'qqizinchi asrning ikkinchi yarmida san'at va adabiyot sotsiologiyasida pozitivizm bilan bog'langan ijtimoiy darvinizm (J.M. Gyuyo), «biologiyalashgan sotsiologiya» (G. Spenser, F. Bryuneter) va boshqa bir qancha yo'nalishlar yuzaga keldi.

O'n to'qqizinchi asrning etmishinchi-saksoninchi yillarida Rossiyada, bir tomondan, narodniklarning «sub'ektiv sotsiologiyasi», ikkinchi tomondan, adabiyottshunoslik va san'atshunoslikning tarixiy-tadrijiy yo'nalishi shakllana boshladi. Adabiyotshunoslikdagi tadrijiylik madaniy-tarixiy va qiyosiy tarixiy metodlarni qo'llashda namoyon bo'ldi.

Madaniy-tarixiy metod tarafdorlari adabiyotni xalq ruhiy hayotining in'ikolsi tarzida baholay turib, so'z san'atining o'ziga xos xususiyatlari muammolariga etarli darajada e'tibor bermadilar.

Umuman olganda, o'n to'qqizinchi asr oxiri – yigirmanchi asr boshlarida sotsiologik nazariyalar pozitivizmga asoslanuvchi tadrijiy va biologik konsepsiyalardan psixologik nazariyalarga o'tish tamoyili kuzatiladi. Bu hodisa adabiyotshunoslik va san'atshunoslikda Zigmund Freydning psixoanaliz nazariyasini qo'llash bo'yicha urinishlar (Avstriyada O. Rank, Rossiyada I. Ermakov)da o'z ifodasini topdi.

Evropada bozor munosabatlarining rivojlashi, kolonianal siyosatning avj nuqtaga ko'tarilishi bu hududdagi ko'pgina

adabiyotshunos va san'atshunoslarning g'ayripozitiv va formalistik oqimlarga qo'shilishiga olib keldi. Shu bilan birga, ayni shu yillarda san'atda sotsiologizmning kuchayishini ko'rish mumkin. O'sha davr sotsiologiyasining eng atoqli namoyandalaridan biri G. V. Plexanov edi. U ijtimoiy-genetik usulga asoslanib ish ko'rgan.

O'n to'qqizinchi asrning o'ttizinchi yillariga kelib Fransiyada Ogyust Kont (1788-1857) tomonidan sotsiologiya sohasiga tamal toshi qo'yildi. U «Pozitiv falsafa ruhi» deb nomlangan asosiy tadqiqotida (Parij, 1844) insoniyatni o'sib-rivojlanib boruvchi vujud tarzida tasavvur qilib, uning taraqqiyotini uch bosqichga ajratib ko'rsatgan: bolalik, yoshlik va barkamollik davrlari. Bu faylasufning g'oyalari ikki ingliz mutafakkiri Mill va Spenserni ilhomlantirgan.

Shu asrda fransuz faylasufi va estetik Ippolit Adolf Ten (1828-1893) san'at, shu jumladan, adabiyotga «madaniy-tarixiy» yondashuv nazariyasiga asos soldi. U san'at nazariyasi bilan jiddiy shug'ullangan olim edi. «San'atdagi ideal haqida», «San'at falsafasi», «Italiya, Niderlandiya, Yunoniston san'ati» kabi tadqiqotlarida san'atning estetik, shuningdek, ijtimoiy mohiyatiga alohida e'tibor qaratdi. I. Ten yuqorida nomlari qayd etilgan ishlari bilan san'atga sotsiologik munosabatni boshlab berdi.

Ogyust Kont va Ippolit Adolf Ten sotsiologik metod strukturasini tabiiy fanlar (mexanika, biologiya...) asosan yaratdilar. Ularning ishlarida adabiyot va san'atning o'ziga xos jihatlari masalasi yoritilmagan. Garchi Ten ta'limotida san'atning deterministik (barcha hodisalarning o'zaro ob'ektiv qonuniy aloqadorligi va sababiy bog'lanishi to'g'risidagi falsafiy ta'limotga oid) taraqqiyoti boshlang'ich xususiyatga ega bo'lsa-da, mazkur nuqtai nazarlar, xususan, sotsiologik metod tushunchasi san'atni ilmiy jihatdan anglash jihatidan ijobiy ahamiyat kasb etdi. O'n to'qqizinchi asrda madaniy-tarixiy metodologiya A.N. Pipin tadqiqotlarida ifoda topgan edi.

Adabiyotshunoslikdagi mazkur metodga asosan badiiy adabiyot ijtimoiy hodisa sifatida o'rganiladi va baholanadi. SHunga muvofiq so'z san'ati va jamiyatning o'zaro aloqa-munosabatlarini o'rganish adabiyot sotsiologiyasi deb ataladi. Bu sohaning predmeti , bir tomondan, badiiy adabiyot faoliyati (jamiyatda adabiyotning ahamiyati, uning jamiyatga ta'siri, unda ijodkorning o'rni va ahamiyati, kitobxonning badiiy ijod namunalariga, shuningdek, ommaning didi, adabiy ko'nikmalarining qalam sohibiga munosabati), boshqa tomondan esa, adabiyot va adabiy shakllar (so'z san'atining tur va shakllari, uslub, mavzu, tasvir manbalari kabi)ning ijtimoiy kelib chiqishini o'rganish bo'lib hisoblanadi.

Sotsiologik metodning adabiyotshunoslik doirasida taraqqiy etishida rus demokrat tanqidchilari - V.G. Belinskiy, N.G. Chernыshevskiy, N.A. Dobrolyubov, D.I. Pisarevlar xizmatlari katta edi. Ayniqsa, o'zining jiddiy va keskin fikr-qarashlari bilan tanilgan N.A. Dobrolyubovning bu boradagi faoliyati e'tibor qozongan. U asosan «matn – voqelik» munosabatlarini oydinlashtirish bilan shug'ullanar edi. Bunda yo'l aslida badiiy adabiyotning o'ziga xos jihatlaridan faqat birigina xolos. Biroq iste'dodli tadqiqotchi mana shu muammo doirasida ham rus so'z san'atining ayrim namunalarini o'z zamonasi oldinga qo'ygan eng muhim va zarur talab va ehtiyojlarni yoritgan edi. Uning «Zulmat saltanatidagi nur» nomli tadqiqotida N.A. Ostrovskiyning «Mamoqaldiroq»dramasi tahlil etilgan. Munaqqid mazkur maqola muqaddimasida adabiyotning «xizmat» vazifasi (hayotni to'la va har tomonlama aniq, haqqoniy tasvirlash) xususida fikr yuritib, ulug' ijodkorlar (Shekspir, Ostrovskiy) mana shu «xizmat»ni bajarib yuksaklikka ko'tarilganliklarini ko'rsatgan edi.

O'n to'qqizinchi asrning oxiri va yigirmanchi asr boshlarida Rossiyada marksizmning tarqalishi, 1917 yildan boshlab bu hududda sovet tuzumining o'rnatilishi san'atshunoslik va adabiyotshunoslikda ijtimoiylik bilan bog'liq ikkita salbiy

«nazariya»ning yuzaga kelishi va amaliyotga tatbiq etilishiga olib keldi. Bular quyidagilar edi:

1) vulgar sotsiologizm;

2) sotsialistik realizm.

Vulgar sotsiologizm birinchi navbatda tarix, adabiy tanqid, san'at nazariyasi va ijtimoiy tafakkurning boshqa shakllariga marksistik nazariya aqidalaridan kelib chiqqan holda yuqorida sanab o'tilgan sohalarga xos xususiyatlarni hisobga olmasdan, ularga hukmron mafkura va dunyoqarash talab va me'yorlarni ko'r-ko'rona tatbiq etish, buning natijasida san'at adabiyot, tarix, adabiy tanqid rivojiga to'sqinlik qilishni anglatadi. Bu harakat vakillari madaniy merosdan butunlay voz kechish va bo'm-bo'sh joyda «yangi madaniyat» yaratishni o'z oldilariga maqsad qilish qo'yganlar. Ularning fikricha, eski adabiy janrlar (tregediya, komediya va boshqalar) o'z umrini yashab bo'lgan. Bunday shakllardan butunlay voz kechib, yangilarni kashf etishni taklif qilganlar. Ular faqat shu talablar bilangina kifoyalanib qolmay. o'tmishda yashab o'tgan barcha ijodkorlarni xukmron sinf mulozitmlari sifatida baholab, ularning biografiyasi va asarlarini o'rganishdan voz kechishga chaqirganlar. Garchi bu kabi nigilistik nuqtai nazarlar to'la-to'kis qabul qilingan bo'lmasa-da, sovet tuzumining barcha bosqichlarida vulgar sotsiologizm ruhi, ta'siri mavjud edi. Buf ikr isbotini yigirmanchi asr o'zbek adabiyoti tarixi misolida ham yaqqol ko'rish mumkin.

Vulgar sotsiologizm o'tgan asrning yigirmanchi-o'ttizinchi yillarida Abdulla Qodiriyning tarixiy romanlari («O'tkan kunlar», «Mehrobdan chayon»)ga, elliginchi yillarida o'zbek xalq eposi «Alpomish», Oybekning «Navoiy» romaniga nigilistik-inkor nuqtai nazaridan munosabatda bo'ldi. Bu «nazariya» namoyandalarining fikricha, yuqoridap nomlari qayd etilgan asarlarda feodal tuzum tartiboti ulug'langan, Hakimbek (Alpomish) shoh Boybo'rining o'g'li, «Navoiy» romanining bosh qahramoni esa zodogonlar tabaqasiga mansub bo'lgani uchun ularni ijobiy qahramon sifatida tasvirlash mumkin emas ekan. Tabiiyki, bunday biryoqlama, ilmiy asosdan mag'rum

mulohazalar badiiy adabiyotning o'ziga xos xususiyatlarini anglamaslik yoxud nazar-pisand qilmaslik oqibatida yuzaga kelganini qayd etish lozim. Garchi bunday fikr-qarashlar o'sha yillarda atoqli olim va san'at arboblari tomonidan keskin rad etilgan bo'lsa-da, adolatsizlik asosida qurilgan sovet tuzumidan kuch olib turgan vulgar sotsiologizm ba'zan pinhona. Ba'zan ochiqchasiga o'z faoliyatini davom ettirdi. Bu zararli harakat yigirmanchi asrning saksoninchi yillarida o'zining hali tirik ekanligini ko'rsatish uchun taniqli yozuvchi Pirimqul Qodirovning «YUlduzli tunlar» romaniga keskin hujum qilgan edi. Vulgar sotsioloizm namoyandalari mazkur adib o'z tarixiy romani uchun hind tuprog'ida mustahkam saltanat tuzgan hamda shu halq rahnamolaridan biri bo'lgan J.Neru tomonidan «dilbar shaxs» deb ta'riflangan Zahiriddin Muhammad Boburni bosh qahramon sifatida olinishiga toqat qila olmagan edilar.Sovet davlatining barbod bo'lishi va yurtimizda mustaqillik qaror topishi bilangina vulgar sotsiologik qarashlarga butunlay barham berildi.

Sotsialistik realizm san'at, shu jumladan, badiiy adabiyot mohiyati, tabiatiga butunlay zid bo'lgan soxta metoddir. Uning asosi «proletar dohiysi» deb hisoblangan siyosatchi va davlat arbobi V.I. Leninning 1905 yilda «Novaya jizn» («YAngi hayot») gazetasida chop qilingan «Partiya tashkiloti va partiya adabiyoti» maqolasi bilan qo'yilgan edi. Ushbu maqola muallifining yozishiga ko'ra, mamlakat (Rossiya imperiyasi)da yangi (sovet) tuzum o'rnatilgach, san'atning barcha turlari, ayniqsa, badiiy adabiyot partiya tashkilotlari nazoratiga olinadi. Ijodkorlarga nimalar haqida yozish bo'yicha ko'rsatmalarni hukmronlikka erishgan partiya (bolsheviklar) belgilab beradi. Ushbu material e'lon qilingan paytda bunday g'ayriaxloqiy nuqtai nazarlarning bir kun kelib amalga oshishiga aksar ziyolilar ishonmaganlar. Biroq Oktyabr to'ntarishidan ko'p payt o'tmay mazkur aqidalar hayotga tatbiq etila boshlandi.

«Sotsialistik realizm» atamasining yuzaga kelishi Anatoliy Lunacharskiy nomi bilan bog'liq. U 1906 yilda birinchi bo'lib «proletar realizmi» istilohini qo'llagan.

O'tgan asrning yigirmanchi yillarida A. Lunacharskiy «yangi ijtimoiy realizm» atamasini qo'llay boshladi. Shu o'n yillikning oxiriga kelib « u «dialektik-materialistik ijodiy metod» tarzida ishlatila boshlangan.

«Sotsialistik realizm»atamasi birinchi marotaba 1932 yilning 23 mayida «Literaturnaya gazeta» sobiq ittifoq yozuvchilar uyushmasi tashkiliy qo'mitasi raisi I.M. Gronskiy tomonidan qo'llanilgan.

1934 yilda bo'lib o'tgan ittifiq yozuvchilar uyushmasining birinchi quriltoyida mazkur «metod» sovet yozuvchilari va adabiyotshunoslarining birdan bir ijodiy usuli sifatida qonunlash tirilgan.

Sotsialistik realizm yozuvchilardan quyidagi aqidalarga qat'iy rioya qilishni talab qilgan:

1) sinfiylik – bu mezonga ko'ra har bir jamiyat bir-biriga keskin qarshi bo'lgan ikki sinf (ezuvchi va eziluvchilar) tarzida ko'rsatilishi va ular orasida murosasiz kurash tasvirlanishi lozim edi. Xuddi shu aqidaga ko'ra Abdulla Qodiriyning «O'tkan kunlar», keyinroq esa Oybekning «Navoiy» romani sovet mafkurasi vakillari tomonidan qoralangan.
2) partiyaviylik – ushbu talabga asosan sovet davrida yaratilgan har bir asarda hukmron partiya (kommunistlar firqasining etakchilik o'rni va ahamiyati atroflicha ko'rsatilishi lozim bo'lgan. Abdulla Qahhorning «Qo'shchinor chiroqlari» romanining dastlabki varianti ana shu jihatga ko'ra qoralangan.
3) ijtimoiy voqelikni inqilobiy taraqqiyotda aks ettirish - bunga ko'ra yozuvchi qaysi bir tarixiy davrni aks ettirishidan qat'iy nazar tasvirlangan hayotni proletar mafkurasi nuqtai nazaridan ifoda etishi lozim edi. O'tgan asrning elliginchi yillarida Muxtor Avezovning «Abay»,

Oybekning «Navoiy» asarlari, hatto adabiy merosga daxldor bo'lgan «Alpomish» dostoni anna shu aqida nuqtai nazaridan salbiy baholangan.

Vulgar sotsiologizm va sotsialistik realizm yigirmanchi asrning 20-80 yillarida milliy adabiyotimiz, aniqsa, adabiyotshunoslik taraqqiyotiga jiddiy zarar etkazdi. Chunki zamonaviy o'zbek adabiyotining eng sara namunalari – Abdulla Qodiriyning tarixiy romanlari, Fitrat dramalari, Cho'lponning go'zal va betakror lirik yaratmalari aynan manna shu g'ayriilmiy va g'ayrimilliy «nazariya» hamda «metod»larning xuruji tufayli inkor etilgan, ularning mualliflari «Xalq dushmani», «millatchi» sifatida qoralanishiga mafkuraviy vosita tarzida xizmat qilgan.

Ijtimoiy metod yuqorida ko'rib chiqilgan mustabid tuzum hosilasi sanalgan sun'iy va g'ayriilmiy nazariya va metodlardan jiddiy farq qiladi. U garchi adabiyotshunoslikda yagona va ustuvor ilmiy usul bo'lmasa-da, badiiy adabiyot namunalarini talqin va tadqiq etishda o'ziga xos o'rin va ahamiyatga egadir.

Yigirmanchi, ayniqsa, yigirma birinchi asrning birinchi choragida ro'y berayotgan muhim tarixiy-ijtimoiy voqea-hodisalar, axborot oqimining yil sayin kuchayishi, kitobxonlikning seziilarli darajada kamayishi, insoniyat boshidan kechirayotgan tabiiy va texnogen falokatlar adabiyotshunoslik oldiga yangi va dolzarb muammolarni hal etish masalasini ko'ndalang qilib qo'ymoqda.

Hozirgi davrda badiiy adabiyotni ijtimoiy nuqtai nazardan qayta baholash, uning hozirgi davr ko'rinishlari (modernizmning kuchayishi, romanning ixchamlashishi, jamiyatdan ajralgan insonlar obrazlarining sezilarli darajada oshishi va boshqalar) ga xolis va teran ilmiy baho berish, so'z san'ati va ijtimoiy struktura orasidagi munosabatlarni o'rganish mana shunday muammolar sirasiga kiradi. Bularni tadqiq etishda ijtimoiy metodning o'rni alohida ahamiyatga ega.

Savol va topshiriqlar

1. Sotsiologik metodning o'ziga xos o'rni va ahamiyatini izohlab Adabiyotlarko'rsating.
2. Sotsiologik metodning yuzaga kelishiga hissa qo'shgan olimlar haqida ma'lumot bering.
3. Sotsiologik metodning adabiyotshunoslik doirasida taraqqiy etishida demokrat tanqidchilarning xizmatlari qanday edi?
4. Yigirmanchi, ayniqsa, yigirma birinchi asrning birinchi choragida ro'y berayotgan muhim tarixiy-ijtimoiy voqea-hodisalar adabiyotshunoslitk oldiga qanday vazifalarni qo'ymoqda?

Adabiyotlar

1. Osnovnыe literaturovedcheskie metodы izucheniya literaturnogo protsessa. URL:http://lektsii.com/7-67226.html(data obraщeniya: 30.05.16).
2. Zinchenko V.G. Metodы izucheniya literaturы. Sistemnыy podxod URL:http://www.twirpx.com/file/142065/ (data obraщeniya: 30.05.16).
3. URL: http://www.e-osnova.ru/PDF/osnova_4_15_1848.pdf (data obraщeniya: (17.05.16).
4. E. Genneken. Sotsiologicheskiy analiz URL:http://www.textology. ru/article. aspx?aId=189 (data obraщeniya: 30.05.16).
5. URL:http://nataliabedzir.com/2013/12/11/leksii-po-metodologi-literaturo vedch/ (data obraщeniya: 14.05.16).
6. Putin D. **Sotsiologicheskiy metod** // Kratkaya literaturnaya ensiklopediya / Gl. red. A. A. Surkov. — M.: Sov. ensikl., 1962—1978.
7. T. 7: «Sovetskaya Ukraina» — Fliaki. — **1972.** — Stb. 101—104.
8. **http://feb-web.ru/feb/kle/kle-abc/ke7/ke7-1011.htm**

3-MAVZU. QIYOSIY-TARIXIY METOD

Reja:

1. Ob'ektga yondashuvning tarixiy-qiyosiy usuliga xos xususiyatlar.
2. Qiyosiy-tarixiy metod spetsifikasi.
3. Qiyosiy-tipologik usulning o'ziga xos tomonlari.

Tayanch tushunchalar: qiyosiy-tarixiy metod, komparativizm, komparativistika, adabiy ta'sir, tipologik mushtarakliklar, qiyosiy adabiyotshunoslik, janr, uslub, oqim, mifologik manba, mifologik maktab, poetik janrlarning differensiyasi, adabiyotlararo mushtaraklik.

Qiyosiy-tarixiy metod (komparativizm, komparativistika; lat. comparativus –qiyosiy) adabiyotshunoslikdagi tadqiqot usullaridan biri bo'lib, milliy so'z san'atlari orasidagi aloqa-munosabatlar, adabiy ta'sir muammolarini aniqlashda qo'llaniladi.

Ma'lumki, jahon adabiyoti namunalarida syujet, kompozitsiya. qahramon, tasvirlash usullarida o'xshashlik-yaqinlikni kuzatish mumkin. So'z san'ati namunalaridagi bunday yaqinlik hodisalari ikki guruhga ajratiladi:

1) hayot va badiiy adabiyotga xos umumiy qonuniyatlar asosida yuzaga kelgan o'xshashliklar;

2) adabiy ta'sir natijasida yuzaga kelgan o'xshashliklar

Tipologik mushtarakliklar adabiy-badiiy va tarixiy taraqqiyotning umumiy xususiyatlari, qonuniyatlari asosida yuzaga keladi. Bunda adabiy ta'sir kuzatilmaydi.

Adabiy ta'sir natijasida yuzaga kelgan o'xshashliklar adabiyotshunoslikda qiyosiy-tarixiy metod vositasida tekshiriladi.

Komparativistika (qiyosiy adabiyotshunoslik)da A.N. Veselovskiy qo'llagan istiloh – "yuzma-yuz bo'lgan oqimlar", ya'ni adabiy ta'sir va aloqalar muammolari o'rganiladi. Bunday

ta'sir bog'lanishlar turli-tuman milliy adabiyotlarning tutashgan hollardagina yuzaga keladi. Ammo shunday jarayon o'zga so'z san'at tajribasiga murojaati faqatgina qabul qiluvchi adabiyotningtabiiy ehtiyoji va rivoji talabiga ko'ra yuzaga kelishini unutmaslik lozim.

Janr, uslub, oqim, muayyan badiiy asarlar yoxud ayrim so'z san'atkorlarining ijodiy o'ziga xosligi komparativistikaning predmeti bo'lishi mumkin.

Qiyosiy adabiyotshunoslikda bir zamon doirasidagina emas, turli zamonlarda yaratilgan adabiy-badiiy hodisalar tadqiq etiladi.

Jahon adabiyoti sathidagi milliy birlik(adabiyot)larni mushtaraklik nuqtai nazaridan o'rganish shuni ko'rsatadiki, ko'pincha tipologik yaqinliklaro'zaro aloqalar bilan qo'shilib-chatishib ketadi. Bunday hollarda tadqiqotchi uchun bu hodisalarni ilg'ab olish oson bo'lmaydi. Shunga qaramay, izlab topilgan dalillar, teran mushohada orqali muayyan ilmiy-nazariy xulosalarga kelish imkoni bor.

Har qanday adabiy ta'sir o'zlashtirilgan badiiy hodisani qabul qilayotgan tomonning an'analari asosida ma'lum bir darajada qayta ishlash va o'zgartirish bilan bog'liq.

Komparativizm g'oyalari dastlab I. G. Gerder tadqiqotlari va I. V. Gyote mulohazalarida namoyon bo'ldi. Gyote butunjahon adabiyoti xususida fikr yuritgan birinchi mutafakkir edi.

Nemis filologi T. Benfeyning qadimiy hind badiiy durdonasi bo'lgan «Panchatantra» (1859)ning olmon tilidagi o'girmasi haqida yozgan bir jild hajmidagi "Kirish" tadqiqoti qiyosiy adabiyotshunoslikning o'ziga xos manifesti bo'lgan edi.

Qiyosiy-tarixiy metodning shakllanishi haqida so'z borganda, mifologik maktab asoschilaridan germaniyalik aka-uka Grimmlar - Vilgelm (1786-1859) va Yakoblar (1785-1863) tilga olinadi. Ular tomonidan yozilgan "Nemis mifologiyasi" kitobida mifologik maktabning nazariy qarashlari va qiyosiy metod xususida qiziqarli fikrlar bildirilgan. Aka-uka Grimmlar hind-evropa xalqlari og'zaki ijod namunalarini qiyosiy tahlil

qilib, ular o'rtasidagi o'xshashlik yagona ildizdan kelib chiqqan degan fikrni ilgari suradilar. Bunday holatni ular qadimgi oriy qabilalarining uzoq o'tmishdagi yagona mifologik tasavvurlari bilan izohlaydilar (keyinchalik esa miflar oriy qabilalarining dunyo bo'ylab tarqalishi natijasida turli-tuman o'zgarishlarga uchrab, o'zlarining dastlabki *ilohiy* ma'nolarini yo'qotib, ertak, epik afsonaga aylanadilar). Shu qarash asosida aka-uka Grimlar hind-evropa xalqlari miflarini qiyosiy-tarixiy aspektda o'rganib, qadimgi bobomifni tiklashni asosiy maqsad deb bildilar. Madaniy hodisalarning, hududlarning uzoq va yaqinligiga qaramay bir xilda takrorlanishi mifologik maktab vakillarini ularning kelib chiqishi (genezisi) yagonadir degan yanglish xulosalarga olib keldi. Keyinchalik ular ilgari surgan fikrlar rad etilgan bo'lsa ham, to'plangan yirik faktik material, uning tasnifi va, eng asosiysi, undan kelib chiqadigan nazariy umumlashmalar keyingi davr adabiyotshunosligining rivojiga samarali ta'sir etdi.

Yana bir nemis olimi Teodor Benfeyning nazariy qarashlari qadimgi hind eposi "Panchatantra"ning nemis tilidagi tarjimasiga (1859) yozgan so'zboshisida aks etgan. Benfeyning fikriga ko'ra, ayrim badiiy asarlarning bir-biriga yaqinligi, syujet yo'nalishidagi o'xshashliklarning sababi faqatgina yagona mif yoki mifologik manba bo'lmay, "sayyor syujetlar"dir. Boshqacha aytganda, badiiy asarlar bir xalqdan boshqasiga o'tishi mumkin. Bu fikr aka-uka Grimmlar tomonidan ilgari surilgan qarashlarga nisbatan oldinga tashlangan bir qadam edi. Ayni paytda Benfey fikrlarida cheklanganlik ko'zga tashlanadi. Buning sababi Benfey ham mifologik maktab vakillari singari barcha syujetlarning vatani Hindiston deb hisoblagan. Bunday qarash bir madaniyatning ikkinchisiga tobe deb hukm chiqarilishiga olib keladi. Lekin Benfey mifologiyasi tarixiylik nuqtai nazaridan cheklanganiga qaramay, adabiyotshunoslikda muhim bir yo'nalishga - "syujetlar migratsiyasi"ga asos bo'ldi. Biz bu erda adabiy o'zlashtirish yoxud adabiy ta'sir hodisasining

dastlabki kurtaklarini ko'ramiz va bu narsa keyinchalik yaratilgan tadqiqotlarga samarali ta'sir ko'rsatdi.

Shunday qilib, dastlab Germaniyada shakllana boshlagan qiyosiy-tarixiy metod tez orada butun Evropaga yoyildi.

Komparativizmning birinchi kitobi sifatida ingliz olimi G. M. Posnetning "Qiyosiy adabiyotshunoslik"(1886) tadqiqoti e'tirof etilgan. Evropa va AQSHda bu sohaning jadal taraqqiyoti birinchi jahon urushidan keyin, aniqrog'i, 1921 yili Parijda «Revue de littérature comparée» nomli maxsus jurnalni nashr etish boshlangandan so'ng ko'zga tashlandi. Mazkur nashrga fransuz komparativistikasining yirik vakili F. Baldansperje tomonidan asos solilgan edi.

Ikkinchi jahon urushidan keyin G'arb ilmi olamida qiyosiy adabiyotshunoslikning ikkita markazi - Fransiya (P. Van Tigem, M. F. Gyuyyar)da va AQSH V. Friderixa)da yuzaga keldi.

Rossiyada ushbu metodni birinchilardan bo'lib O. F. Miller "Tarixiy manbalar asosidagi poeziyaning axloqiy stixiyasi haqida" dissertatsiyasida (1858) qo'llab, qadimgi hind, qadimgi yunon-rim, o'rta asrlar adabiyotlaridagi mushtarak axloqiy intiholarni aniqlagan edi. O'n to'qqizinchi asrda yashab ijod etgan Aleksandr Veselovskiy qiyosiy adabiyotshunoslikning yirik vakillaridan biri hisoblanadi. Uning ilmiy-nazariy qimmati yuksak bo'lgan tadqiqotlarida komparativistika xususiy muammodan umumiy adabiyotshunoslikning metodologik konsepsiyasiga aylandi. Olimning 1870 yilda universitetda o'qigan "Adabiyot tarixining fan sifatidagi metodi va vazifalari haqida"gi ma'ruzasida mazkur metod birinchi marta nazariy jihatdan asoslab berildi. Uning ukasi Aleksey N. Veselovskiyning ham faoliyati qiyosiy adabiyotshunoslik o'zanida rivojlangan edi.

Rossiyada tarixiy-qiyosiy tadqiq usulining taraqqiyoti I.A. Veselovskiy nomi bilan bog'liq. Olimning "Tarixiy poetika" asarida adabiyotni tarixiylik parametrlari bilan tekshirishning nazariyasi ishlab chiqilgan

Adabiyotshunoslikka oid ayrim tadqiqotlarda A.N.Veselovskiy o'zidan oldingi komparativizm vakillarining davomchisi sifatida baholanadi. Biroq keyingi yillardagi tadqiqotlarda A.N.Veselovskiy ilmiy faoliyatida aka-uka Grimmlar va T.Benfey nazariyasining tutgan o'rni, adabiyotshunosning salaflari ilmiy merosiga munosabati yangi dalillar asosida atroflicha ko'rsatib o'tilgan. U "Solomon va Kitovraz haqida slavyan afsonalari, Morolf va Merling bilan bog'liq G'arb rivoyatlari" (1872) nomli doktorlik dissertatsiyasida tayyor syujetlar bilan bog'liq qiziqarli fikr-mulohazalar bildirgan. A,N.Veselovskiy o'xshash adabiy hodisalarni qiyosiy-tarixiy aspektda tahlil qilar ekan, shunday yozadi: "Ikki sharq va g'arb povestlariaro o'xshashlik ular o'rtasidagi tarixiy aloqalardan darak bermaydi: bu hol mifologik maktab vakillari zo'r berib ta'kidlaganlaridek, uzoq o'tmishning mahsuli ham emas, bu bir maromdagi psixik rivojlanishning mevasi bo'lib, u yoki bu erda bir shakl va mazmunda ifodalangan". Olimni salaflaridan farqli o'laroq, birinchi galda, adabiy g'oyalar tarixi, o'zaro aloqadorligi kabi masalalar qiziqtirgan. A.N.Veselovskiy adabiy hodisalar tahlilida badiiy asarning vujudga kelishida ijtimoiy-iqtisodiy sharoitni birinchi o'ringa qo'yadi. U katta bir faktik material bilan ish ko'rishi sababli tadqiqotida turli xalqlar adabiyoti namunalarini qiyosiy tahlil etib, muhim umumlashmalar chiqargan. Masalan, doktorlik ishida Vizantiya, slavyan, rus yodgorliklarini chuqur o'rganish o'rta asrlar G'arb adabiyotini tahlil etganda muhim ma'lumotlar berishini qayd etib yozadi: "O'rta asrlar adabiyotini o'rganuvchilar shu vaqtga qadar slavyan yodgorliklariga e'tibor qaratmadilar, biroq mening ishonchim komilki, ularni o'rganish G'arb adabiyotiga doir ayrim qarashlarni o'zgartirib, adabiy hodisalarning yuzaga kelish va shakllanish bosqichlarini o'zgacha izohlaydi". U rus adabiyoti namunalarini tahlil qilganda G'arb adabiy manbalarining muhim o'rin tutishini ham to'g'ri qayd etadi.

A.N. Veselovskiyga qadar rus adabiyoti tarixini tadqiq etganlar bu masalalarga deyarli diqqatni qaratmaganlar. U qadimgi rus madaniy muhiti o'z qobig'iga o'ralib qolmay, ijtimoiy-iqtisodiy sharoitga qarab Evropa bilan uzviy aloqada bo'lganligini isbotlab ko'rsatdi. Demak, dunyoda bir-biridan o'rganmagan va bir-biriga ta'sir ko'rsatmagan adabiyotning o'zi yo'q. Olimni o'zlashgan adabiy hodisaning shakl jihatlari emas, balki uning kirib borgan madaniy muhitdagi o'rni, yangi ma'nolar kasb etishi, unga bo'lgan munosabat kabi muammolar qiziqtirgan. Shu o'rinda A.N.Veselovskiyning adabiyot tarixiga oid qarashlari qiziqarlidir. Uningcha, "adabiyot tarixi keng ma'noda bu – jamiyat tafakkuri tarixidir...". Olim adabiyotni madaniyatning uzviy ajralmas bo'lagi sifatida tushunadi va talqin etadi. U tadqiqot olib borgan davrda adabiyot tarixining metodologik asoslari ishlab chiqilmagan edi. Uning "Adabiyot tarixining fan sifatidagi metodi va vazifalari" tadqiqoti adabiyot tarixining metodologik muammolariga diqqatni qaratganligi tufayli ham hozirgi kunga qadar o'z ilmiy ahamiyatini saqlab kelmoqda.

A.N.Veselovskiy ilmiy faoliyatining cho'qqisi "Tarixiy poetika" asaridir. Katta faktik materiallar asosida o'rta asrlar adabiyotini chuqur o'rgangan olim jahon adabiyoti rivojining qonuniyatlari bilan ham qiziqdi. Ma'lumki, Aristotel davridan beri poetika deganda poeziyaning nazariy jihatlarigina tushunilar edi. A.N.Veselovskiy esa poetikani ilmiy asosga qurishni hamda uni adabiyotning ilmiy-nazariy quroliga aylantirishni asosiy maqsad deb bildi. Uning fikricha, adabiyotshunoslikning eng umumiy masalalarini hal qilmay turib, uni adabiyot haqidagi fanga aylantirib bo'lmaydi. A.N.Veselovskiy tarixiy poetikaning asosini "Poetik tafakkur va uning shakllari evolyusiyasi"ni o'rganishda ko'rdi. Olimning adabiy turlar, poetik uslub, syujet xususidagi tadqiqotlarining asosida poetik tafakkur evolyusiyasi va bunga omil bo'lgan ijtimoiy-siyosiy tafakkur yotadi.

A.N.Veselovskiy poetik janrlar evolyusiyasini o'rganar ekan, diqqatni poeziyaning ibtidoiy shakllariga qaratdi va uning dastlabki ko'rinishlari sinkretik (qorishiq) holatda bo'lganligini isbotlab ko'rsatdi. U ilk poeziya namunalarining real hayot bilan bog'liq jihatlariga e'tibor qildi. Keyinchalik esa taraqqiyotning va poetik tafakkurning asta-sekin rivojlanishi natijasida poetik janrlarning differensiyasi boshlandi. Bu jarayonda lirikaning ajralib chiqishini olim individual psixikaning uzoq davom etgan rivojlanishi bilan bog'laydi. Bir so'z bilan aytganda, Veselovskiy "Tarixiy poetika" asari orqali jahon adabiyotining umumiy nazariyasini yaratmoqchi va adabiy jarayonning ichki rivojlanish qonuniyatlarini ko'rsatmoqchi bo'ldi. Afsuski, uning fundamental tadqiqoti yakunlanmay qolgan. Biroq u ko'targan muammolarni shunchaki sanab o'tishning o'zi ham olimning adabiyotshunoslik fanining rivojiga qo'shgan hissasini ko'rsatadi. Masalaning yana bir jihati haqiqiy olim qanday ilmiy kashfiyotlar qilmasin, agar uning ilmiy yo'nalishlari keyinchalik ham davom etmasa, u holda bu kashfiyotlar uning o'zi bilan birga tugaydi. A.N.Veselovskiy ilmiy yo'nalishi esa davom ettirildi va davom etmoqda. Taniqli adabiyotshunos, akademik V.F.Shishmarev o'tgan asrning 30-yillari so'ngida Veselovskiy haqida to'xtalib, shunday deb yozgan edi: "Biz ko'pincha tayyor fikr va qoidalarga suyanamiz, ba'zan ularni Veselovskiyga olib borishga o'zimizga hisob ham bermaymiz yoki buni unutamiz".

A. I. Kirpichnikov o'zining «G'arb va rus eposini qiyosiy o'rganish tajribasi. Lombard turkumi dostonlari» (1873) dissertatsiyasida qiyosiy adabiyottshunoslik usullariga murojaat qiladi.

Yigirmanchi asrda qiyosiy adabiyotshunoslikka oid salmoqli tadqiqotlar M. P. Alekseev, A. I. *Beletskiy*, N. K. Gudziy, V. M. Jirmunskiy, N. I. Konrad, V. F. Shishmaryov tomonidan yaratilgan.

O'tgan asrning qirqinchi yillari oxiriga kelib sovet davrida faoliyat ko'rsatgan ko'pgina adabiyotshunoslar «burjua kompa-

rativizmi» va «kosmopolitizm» vakillari sifatida quvg'inga duchor bo'lganlar.

Qiyosiy adabiyotshunoslik o'sha mao"um davrda fan predmeti sifatida taqiqlangan va ancha yillar davomida oliy ta'lim muassasalarida o'qilmagan. Faqat 1960 yilga kelib milliy adabiyotlarning o'zaro aloqalari va ta'siri bo'yicha bo'lib o'tgan munozaralardan keyin su soha oqlangan hamda fan olamiga qaytarilgan.

Zamonaviy adabiyotshunoslik falsafaning muhim rolini va uning tadqiqot ob'ektiga yondashishni rivojlantirish usullarini ta'kidlab, har bir umumiy usul tadqiqotning ob'ekti sifatida adabiyotning aynan shu tomonini ajratib turishini qayd etadi. **Qiyosiy metod** ham ulardan biri bo'lib, badiiy asarni boshqa asar(lar) bilan qiyosan tahlil qilishni nazarda tutadi.

Qiyosiy usul ilmiy-tadqiqot usuli sifatida XIX asrning ikkinchi yarmidan keng tarqala boshladi. Ikki yoki undan ko'p adabiy asarlar va adabiy tuzilmalar (yo'nalishlar, oqimlar, maktablar) taqqoslanishiga qaratilgan bu usul aslida universal mohiyatga egadir.

Asarni tarixiy modifikatsiyada tahlil qilishga mo'ljallangan bu usul Germaniya tarixchilari tomonidan ilk bor qo'llanilgan. Nemis olimi T.Benfey uning asoschisi sifatida qaraladi.

Hindlarning "Panchatantra" asaridagi hikoyalarning turli adabiyotlarga migratsiyasi shu usul vositasida birinchilardan bo'lib asoslangan.

Qiyosiy taqqoslash ikki turdagi madaniyat va til jamoasining ijodidagi yaqinlik yoki rivojlanishning umumiy ijtimoiy-tarixiy shart-sharoitlarini izohlashga, umumiy hodisalar kelib chiqishining tipologik belgilarini aniqlashga e'tibor qaratadi. Bu boradagi masalalarni qiyosiy-tipologik yondashish bilan ochib beradi, izohlaydi. Bunga, ayni paytda, tarixiy va genetik (yoki genetik-aloqa) yondashuv ham deyiladi.

Abadiy qahramonlar (masalan, ertaklardagi kenja botirlar), yaqin syujetlar, motivlar (masalan, befarzandlik, o'gaylik, safar, sinov, shart motivlari va h.k.), umumiy janrlar (masalan, mif,

afsona, rivoyat, ertak, naql, alla va h.k. kabi), adabiy yo'nalishlar, oqimlar, mavzular o'xshashligi namoyon bo'ladiki, ularning tipologik belgilarini aniqlashga to'g'ri keladi.

Qiyosiy tadqiqotlar zamonaviy madaniyatning globallashuv jarayonlarida adabiyotni milliy va xalqaro voqealar bog'liqligida tushunishga yordam beradi. SHuning uchun unda sinxronlik (bir vaqtning o'zidagi vaziyatni) ham diaxronlikni (vaqt farqini) kuzatish mumkin.

V.N Jirmunskiy tomonidan "stadial o'xshashliklar"ga e'tibor qaratib, tarixiy va tipologik asoslar asosida tadqiqot yuritish prinsiplarini yoritib berdi. Uning fikricha, adabiy hodisalarga xos umumiy qonunlarni ijtimoiy, adabiy rivojlantirish tasodif emas, balki ular kelib chiqishi umumiyligi bilan belgilanadi. Bunga esa ularning poligenetik adabiy hodisaligi ta'sir ko'rsatadi.

Qiyosiy taqqoslash adabiy hodisaning, avvalo, bo'linmas birlik sifatidagi qismlarini, ularning o'rtasidagi aloqalarni shakllantiruvchi vositalarni bilishga undaydi. Majoziy idrok yangi mazmun qurishga olib kelganini isbotlashga yordam beradi. To'g'ridan-to'g'ri va teskari idrok ulanishlari "ta'sir-idrok-harakat" yo'nalishida kechishi isbotini topadi.

Tipologik o'xshashliklar va farqlarni tushuntirish qiyosiy adabiyotshunoslikka xos muhim jihatlardan biridir. Bunda taqqoslash prnsipi etakchilik qiladi va u A.N.Veselovskiy tomonidan amalga oshirilgani kabi "vaqt sintezi bilan", lingvokulturologik (til va madaniyat kesishuvida) olib boriladi.

Qiyosiy-tarixiy adabiyotshunoslikda adabiyotning tarixiy tomoni, uning tarkibiy yo'nalishlari, uning dinamikasi va boshqalar o'rganiladi. Adabiyotga bo'lgan munosabat va qarashlarning o'zgarishi, adabiyot nazariyasining taraqqiy etishi bilan tavsiflangan adabiyotshunoslik rivojlanishining har qanday katta bosqichi uslubning tubdan o'zgarishi, yangi umumlashtirilgan uslubni yaratish istagi bilan birga keladi. Shu bilan birga, adabiyotga nisbatan eski qarashlarning yo'q bo'lib ketishi va yangilariga almashtirilishidan farqli o'laroq, avvalgi

bosqichdan meros bo'lib o'tgan usullar butunlay yo'qolib ketmaydi, balki yangi bosqichda o'z ahamiyatini yanada aniqroq, maxsus, ammo bir vaqtning o'zida asosiy usullarda saqlanib qoladi. Shunday qilib, zamonaviy adabiyotshunoslik turli davrlarda boshlangan bir necha asosiy umumiy ilmiy uslublarga ega. Dialektik-materialistik usul zamonaviy adabiyotshunoslikning yagona falsafiy usuli hisoblanadi.

Qiyosiy-tarixiy metod – XIX asrda universal deb hisoblangan. Qiyosiy tarixiy metodning asosiy qoidalari quyidagilarda ko'rinadi:

1) har bir adabiy hodisaning o'ziga xos xususiyatlari bor, ular faqat taqqoslaganda ochiladi; taqqoslash ularning ba'zilaridagi qarindoshlikni, genetik yaqinlikni aniqlaydi – umumiy manbadan, ba'zilari mavjud yoki yo'q bo'lib ketgan manba asosida kuzatiladi;

2) shu asosda adabiy hodisalar guruhlarga, tiplarga, tur va janrlarga bo'linadi;

3) qarindosh tillardagi adabiyotlar o'rtasidagi farqlarni faqat tilning umuman muhim xususiyat sifatida tan olingan uzluksiz tarixiy rivojlanish bilan izohlash mumkin;

4) tarixiy o'zgarishlar motiv va obrazlar misolida tezroq aniqlanadi; ularning ildizlari, odatda, ming yillar davomida barqaror bo'lib qoladi, bu esa ushbu elementlarning arxetiplarini o'rnatishga imkon beradi.

Qiyosiy tarixiy usul rivojlanib yaxshilanadi, janr morfologiyadan tashqari asta-sekin semantikasi va semiotikasini ham qamrab oladi.

Qiyosiy-tarixiy metod nafaqat adabiy hodisalarni va ularni taqqoslashni, balki turdosh tillar doirasida rivojlanishini aniqlashni ham maqsad qiladi.

Qiyosiy-taqqoslash usulning maqsadi ikki yoki undan ortiq tillar doirasida solishtirma hodisalarini tavsiflash, ularning tarixi va kelib chiqishini belgilashdir.

Qiyosiy-tarixiy usul genetik umumiylik tushunchasiga asoslangan bo'lib, u ob'ektiv ravishda tegishli tillarda adabiy

hodisalarning mavjudligi va o'xshashligi konsepsiyasiga asoslanadi.

Qiyosiy-tarixiy usul, o'z navbatida, bir xil tildagi adabiy hodisalarning tarixiy variantlari bilan bir qatorda, qarindosh tillardagi o'xshash ko'rinishlarini taqqoslash asosida tarixiy o'rganishga e'tibor qaratadi.

Qiyosiy-tarixiy usulning cheklanganligi, asosan, semantika sohasida va tilning yaxlit qiyofasini sinxron, amaldagi tizim sifatida qayta tiklashning iloji bo'lmagan tillarning o'xshashligini, ya'ni tipologik o'xshashliklarni tushuntira olmaslik bilan ham namoyon bo'ladi.

Qiyosiy usulning barcha turlari – adabiy hodisalarni taqqoslash, ammo qiyosiy-tarixiy, tarixiy-qiyosiy va qiyosiy-taqqoslash usullari qaysi tillarni taqqoslaganligi va taqqoslashning maqsadi bilan farqlanadi. Bu metodlar va tadqiqot usullari o'rtasidagi farqlanishga ham olib keladi. Bundan tashqari, qiyosiy-tarixiy usulning metodologik va tipologik tadqiqot usullari bilan o'zaro ta'siri masalasini unutmasligimiz kerak.

Hozirgi zamon adabiyotshunosligida **komparativistika** materialni tadqiq etishning eng muhim usullaridan biridir. **"Komparativistika" atamasining o'zi (qiyosiy adabiyotshunoslik") ushbu metodning asosini** tashkil etishini ko'rsatadi. O'zining so'nggi "Gumanitar fanlar metodologiyasiga doir" nomli tadqiqotining qoralamalarida (1974) M.M.Baxtin shunday qayd qilgan edi: "... matn faqat boshqa matn kontekst) bilan tutashib turgan holda yashaydi. Orqani ham, oldinni ham yorituvchi, mazkur matnni dialog bilan qovushtiradigan nur faqat ana shu matnlarning tutashuv nuqtasidagina porlaydi". Aynan ana shu "matnlarning tutashuv nuqtasi" "qiyosiy adabiyotshunoslik"ning predmetini tashkil etadi. Adabiyotda komparativistika tamoyillaridan kommunikativ zanjirning har qanday qismini tahlil qilishda foydalaniladi. Turli adabiyotlarga mansub bo'lgan hodisalarni taqqoslab o'rganish qiyosiy adabiyotshunoslikning maxsus sohasidir. Hammaga ma'lumki,

komparativ tahlil tamoyillari aynan bitta adabiyotning ichida uning davrlarini, yozuvchilari va asarlarini o'rganishda keng qo'llaniladi. Fan sifatida adabiyot tarixi uchun qiyosiy adabiyotshunoslik umummetodologik ahamiyatga ega. Tadqiqotchilar komparativistikannng predmeti dunyo so'z san'atining butun rivojlanishidir, deb hisoblaydilar.

Hozirgi zamon komparativistikasining eng muhim g'oyalari sirasiga ta'sir qilish va qabul qilish aktlarining teng qimmatli ekanligi g'oyasi kiradi. Aniqroq qilib aytganda, bu o'rinda yagona "ta'sir - qabul" jarayoni haqida so'z yuritish lozim. "Ta'sir ko'rsatish" va "qabul qilish" - san'atdagi o'zaro qaytuvchi aloqalarning ham yorqin misoli. Ta'sir nazariyasini tadqiqotning yagona istiqboli sifatida taqdim etishga urinmagunlaricha u hech qanday ishtiboh uyg'otmaydi. Dialog nazariyasi va filologiyani "muloqot girdobi" sifatida tasavvur etishga asoslangan qiyosiy adabiyotshunoslik badiiy axborotning jo'natuvchisi bilan uni qabul qilib oluvchining maqomlari teng ekanligidan kelib chiqadi. "Ta'sir" va "ta'sir ko'rsatish" atamalari axborot jo'natuvchining nuqtai nazari bilan bog'liqdir. "Qabul qilish" atamasi retsipientning «istiqbolini hisobga oladi. SHu bilan birga, ta'sir ko'rsatish va qabul qilish - bu ikki tomonlama, ochiq, tugallanmagan va tugallanmaydigan jarayon. Shu sababli I.G.Neupokoeva, V.M.Jirmunskiy, D.Dyurishin va boshqa tadqiqotchilar tomonidan taklif qilingan "adabiy aloqalar" atamasi to'g'riroq bo'lib tuyuladi. Bu atama qiyosiy adabiyotshunoslikning dialogik tabiatidan darak beradi. "Ta'sir ko'rsatish" retsipientning badiiy tafakkurini o'zgartiradi. Biroq sodir bo'lgan muloqot "jo'natuvchi"ning ham boshqacha bo'lib qolishiga olib keladi. Retsepsiya jarayonida qabul qilib olingan fenomenda (muallifda, an'anada, matnda) «ilgari yashirin bo'lgan ma'no qirralari ochiladi. Cho'zilib ketgan qabul qilish qabul qilinayotgan hodisaning tuzilmasi haqidagi tasavvurni o'zgartiradi.

Komparativistikannng ikkinchi tamoyili qabul qilishning sharti sifatida "duch keluvchi oqimlarning" mavjud bo'lishiga asoslangan. "Qabul qilayotgan" muhit va qabul qilayotgan muallif tashqi impulsni o'zlashtirishga tayyorlangan bo'lishlari zarur.

Ana shunda u asta-sekin tashqi omildan ichki omilga aylanadi. Qabul qilish jarayonida "o'z savollari" beriladi, materialni qayta ishlash, "qayta yaratish"ning o'z yo'li belgilab olinadi.

Retsepsiyaning ikki asosiy funksiyasini "qayta yaratish" va "qayta tiklash" atamalari bilan belgilash mumkin. Ma'lumki, "qayta yaratish" uzoq tarixga ega. Gegel uni "tushunchalarning immanent ritmiga bostirib kirish" sifatida ta'riflagan edi. V.M.Jirmunskiy "qayta yaratish" "eski materiallardan yangi narsa ijod qilish"dan iborat, deb yozgan edi. Bundan kelib chiqadiki, V.M.Jirmunskiy qabul qilishni tipologik jihatdan ijodga qondosh hodisa deb hisoblaydi. L.Ginzburgning fikriga ko'ra, "qayta yaratish" o'zi tomonidan yaratilgan dunyo manzarasini, uni gavdalantirish usullarini boshqa muallifga proeksiya qilishni ham taqozo etadi. "Qayta tiklash" dialogning boshqacha tipini bildiradi. Bu o'rinda lirik stixiyaning, qabul qiluvchi "men"ning ekspansiyasining ta'siri cheklangan. "Qayta tiklash" tarixiy yondashuvni, masofani his qilishni, "begona"ni qanday bo'lsa shundayligicha kashf qilishni taqozo etadi.

"Qayta yaratish" va "qayta tiklash" amalda ochiq ko'rinishda uchramaydi, zero har qanday retsepsiya "ikkilangan eksplikatsiya"ni, bir-biri bilan bahslashuvchi ibtidolarning o'zaro chambarchas bog'lanib ketishini, "qatlamlanishini" taqozo qiladi. Retsepient qabul qilinayotgan hodisaning muayyan qirralarini qayd etadi va uzib tashlaydi.

Komparativistika uchun, shubhasiz, chet tillarni bilish ham muhim ahamiyatga ega. Bu muallif (tanqidchi yoki o'quvchi) suyanishi mumkin bo'lgan manbalar doirasini belgilaydi. Agar muallif mazkur chet tilini bilmasa, u tarjimalardan (uning ona tiliga yoki u biladigan boshqa tillarga) foydalanishi zarur. Yuqorida aytilganlardan bunday qabul qilish yuzaki yoki juda jo'n bo'ladi, degan xulosa kelib chiqmaydi. Ijodkor uchun hatto tarjima ham foydalidir, zero bu uning taxayyuli uchun keng maydon ochib beradi. "Oxirigacha gapirish", "oxirigacha aytish" birgalikda ijod qilish jarayoni boshlanadi.

Ko'p hollarda u yoki bu ijodkor haqidagi ma'lumotlar "qabul qiluvchi muhit'da "vositachi adabiyot" yordamida yetib boradi. Ko'pincha muallif u yoki bu chet el yozuvchisi bilan shaxsiy muloqot orqali emas, balki asarlarini o'qish, teatr taassurotlari, tarjimalar vositasida tanishadi. Ikki muallif "tutashuvi"ning eng yuqori shakli qabul qilinayotgan namunaga suyangan holda yaratilgan original badiiy asardir. Adabiy tanqid, sahna faoliyati, tarjima, senzura, nashr tiplari, shuningdek, qabul qilinayotgan muallif tajribasining original ijodda o'zlashtirib olinishi retsepsiyaning asosiy aspektlarini tashkil etadi. Ko'p hollarda komparativistik tadqiqotlarning tuzilishi aynan aspekt tamoyiliga asoslangan. Bir muallifning boshqa muallif ijodiga munosabat bildirishining barcha turlari o'zaro bog'liqlikda, bir tizimda ko'rib chiqiladi. Bunda xronologik retsepsiyaga alohida e'tibor beriladi. Matnni talqin qilishning eng muhim shakllaridan biri tarjima, qiyosiy tarjimashunoslik esa komparativistikaning eng muhim bo'limlaridan biridir. D.Lixachev haqli ravishda ta'kidlaganidek, muayyan davrga mansub eng asosiy, tayanch matnlarni qiyoslash milliy madaniyatning "konseptosferasi"ni anglashga yaqinlashtiradi. Bunda janrlar nisbatini, bayon usulini, kompozitsiyani, personajlar tizimini va uni qurish usullarini, mavzu doirasini hamda motivlar tuzilmasini qiyoslash muhimdir. Til va uslub sathiga oid dalillar ham genetik aloqalarning isboti bo'la oladi.

Matniy aloqalarning mavjudligi illyuziyalar, jiddiy va hazil ishoralar, epigraflar, iqtiboslar, variatsiyalar, filiatsiyalar, reminissensiyalar, adaptatsiyalar, kollajlar, pastishlar, chuqur ma'noli sukut saqlashlar orqali aniqlanadi. Komparativistik metodologiya tahlilning muayyan bosqichlari va darajalarini taqozo etadi: "yot uslubning stereotip mikroelementlarini" tadqiq etish; adaptatsiyada - hikoya qilib berishda o'z tili va begona tilni birgalikda qo'shish usullarini o'rganish; begona materialning o'z uslubiy usullari yordamida joylashtirilishini kuzatish; to'g'ridan-to'g'ri keltirilgan iqtiboslarni va "soxta iqtiboslar"ni aniqlash; illyuziyalarni aniqlash.

O'xshash (yoki qarama-qarshi) janriy tuzilmalar, kompozitsiya sxemalari, ziddiyat tiplari, motiv va mavzularning o'zaro o'xshashligi, -personajlarni joylashtirish usullarini qiyoslash ham komparativistik tahlil predmeti hisoblanadi. Bunda ko'p hollarda bir paytning o'zida ko'plab manbalarga borib taqaluvchi adabiy hodisalarning tamoyiliga ko'ra poligenetikligini yodda tutish zarur bo'ladi. Aniqlangan o'xshashliklarni mutlaqlashtirmaslik lozim. Tahlil davomida o'xshashliklar va farqlar tizimi, mazkur qiyoslash tufayli ochib berilgan badiiy ma'no haqidagi masalani qo'yish zarur.

Ma'lumki, XIX asrning ikkinchi yarmi Rossiyada adabiyot va adabiyotshunoslik fanining jadal rivoji bilan ajralib turadi. Rus ijtimoiy-falsafiy tafakkuri tarixida muhim o'rin tutgan Rossiya mifologik maktabining asoschisi akademik F.I.Buslaev (1818-1897), qiyosiy mifologik maktab vakillaridan A.N.Afanasev (1826-1871), madaniy-tarixiy maktab vakili A.N.Pыpin (1833-1904), adabiyotshunoslik fanining psixologik yo'nalishiga mansub A.A.Potebnya (1835-1891) kabi olimlarning ilmiy faoliyati aynan shu davrga to'g'ri keladi. Ularning barchasi rus adabiyotshunosligida akademik maktab asoschilaridir. Ular orasida ilmiy tadqiqotlarining miqyosi va darajasi, jahon adabiyotshunoslik ilmiga ko'rsatgan ta'siri bilan akademik A.N.Veselovskiy (1839-1906) alohida mavqega ega. Uning tadqiqotlari qiyosiy-tarixiy metodning rivojini ko'p yillarga belgilab berdi.

A.N.Veselovskiy qiyosiy-tarixiy metod namoyandalari tadqiqotlarining yutuq va kamchiliklarini qunt bilan o'rgandi. Ulardagi rivojlantirish va tayanish mumkin bo'lgan jihatlarga e'tibor berdi, o'z ilmiy tadqiqotlarida unumli foydalandi. Olim adabiy hodisalarni tadqiq etar ekan, ularni yuzaga keltirgan sharoitga diqqat-e'tiborini qaratadi. Masalan, uning: "Menga xalq qanday yashaganini ayting, men sizga uning nima yozganini aytaman", - degan fikri ilmiy faoliyatining dastlabki davridayoq adabiy qarashlarining shakllanganidan darak beradi.

Qiyosiy adabiyotshunoslik rivoji, metodologiyasi shakllanishida akademik V.M.Jirmunskiyning (1891-1971) xizmatlari beqiyos. U o'zining dastlabki tadqiqotlaridan boshlab qiyosiy-tarixiy metodning o'zak masalalari bilan qiziqdi. Masalan, uning "Bayron va Pushkin" (1924) risolasi adabiy ta'sir yoki adabiy o'zlashtirish muammolariga yangicha yondashuvi bilan diqqatni tortadi. Ma'lumki, ushbu muammolar bilan shug'ullangan tadqiqotchilar nazaridan yuqoridagi masalalarning o'ziga xos qonuniyatlari, g'oyaviy asoslari chetda edi. Yosh adabiyotshunos esa dastlabki jiddiy ishida shunday yozadi: "Pushkin Bayrondan shoir sifatida ilhomlangan. Bunda u Bayrondan nimalarni o'rgandi? O'z ustozi poetik asarlaridagi nimalardan "ta'sirlangan" va buni o'z individual ta'bi va qobiliyatiga ko'ra qanday aks ettirgan?"

Olim ilmiy faoliyatining dastlabki yillarida adabiy ta'sir muammosining ichki qonuniyatlarini ko'rsata olmagan bo'lsada, biroq masalaning to'g'ri qo'yilishi va asoslanishi katta bir qadam edi. Ayni paytda, adabiy ta'sirni shunchaki bir passiv o'zlashtirish tarzida emas, aksincha, faol qayta ishlash, hattoki o'ziga xos kurash va buning natijasida yangi bir san'at asarining yuzaga kelishi sifatida tushunish - bu muhim prinsipial qarashdir. Uning fikricha, har qanday adabiy materialning qayta ishlanganligini aniqlash o'rganilayotgan badiiy asarning o'ziga xos jihatlarini tushunishga va muallifning ijodiy individualligini to'g'ri belgilashga xizmat qiladi. Risola hali-hanuz o'z ilmiy ahamiyatini yo'qotmaganligi sababli ham oradan ko'p yillar o'tganiga qaramay, "Tanlangan asarlari"dan joy oldi. Kezi kelganda aytib o'tish lozimki, rus adabiyotshunosligi fanidagi vorisiylik an'anasining barqarorligi V.M.Jirmunskiy ilmiy tadqiqotlariga mustahkam poydevor bo'lib xizmat qildi.

1935 yili e'lon qilingan "Qiyosiy adabiyotshunoslik va adabiy ta'sir muammolari" tadqiqoti adabiyotshunoslar tomonidan V.M.Jirmunskiy ilmiy faoliyatida "keskin burilish" deb baholanadi. Bu tadqiqotida u tarixiy-adabiy jarayonning

o'xshashligi jamiyatning ijtimoiy-tarixiy rivojlanishi bilan bog'liqligi xususidagi yangi konsepsiyani ilgari surdi.

Ma'lumki, qiyosiy-tarixiy metodning V.M.Jirmunskiygacha bo'lgan vakillari adabiy hodisalarning o'xshashligi masalasini faqat bevosita adabiy aloqalardagina ko'radilar. V.M.Jirmunskiy esa shunday yozadi: "Ayni shu nuqtai nazardan biz ijtimoiy-tarixiy taraqqiyotning bir xil rivojlanish bosqichida paydo bo'ladigan o'zaro o'xshash adabiy hodisalarni ular o'rtasidagi o'zaro ta'sirning borligi yoxud yo'qligidan qati nazar bemalol qiyoslay olamiz va qiyosiy o'rganishimiz zarur ham". V.M.Jirmunskiy qiyosiy adabiyotshunoslikning maqsad va vazifalarini jahon adabiyotining umumiy rivojlanish qonuniyatlarini o'rganishda ko'rdi. Uning fikricha, tipologik aloqalar konkret bilvosita aloqalarni yoxud adabiy ta'sirni inkor etmaydi. Milliy adabiyotlarga xalqaro adabiy aloqalarning kirib kelishi adabiy muhitda unga bo'lgan talab va ehtiyojdan darak beradi. Ayni paytda, olimning yozishiga ko'ra, har qanday adabiy ta'sir yangi muhitda uning sharoiti va talablariga moslashadi. Shu bilan birga, ijtimoiy munosabatlarning o'zgarishi natijasida turli ijtimoiy formatsiyalarda turli adabiy ta'sir vujudga keladi. Qiyosiy-tarixiy metod umumjahon adabiy jarayonini tadqiq etganda ijtimoiy-tarixiy taraqqiyotning rivojlanish qonuniyatlariga asoslanadi. Chunki tarixiy jarayon har bir geografik mintaqa doirasida o'ziga xos belgilarga ega bo'lgani holda, bir qator umumiy qonuniyatlarga ham egaki, aynan shu qonuniyatlardan kelib chiqib, turli xalqlar adabiyotlarini qiyosiy aspektda o'rganish mumkin.

V.M.Jirmunskiyning "Gyote rus adabiyotida" (1937) monografiyasi xalqaro adabiy ta'sirning yangi qirralariga diqqatni tortgani bilan muhim ahamiyat kasb etadi. Unda o'zlashgan adabiy materialning ijodiy qayta ishlanishi masalasiga e'tibor qaratiladi. Uning fikricha, adabiy asar tarjima qilinganda o'sha muhitga moslashib, adabiy jarayonga kirishib, o'sha muhitning o'z asaridek bo'lib qoladi. Boshqacha qilib aytganda, milliy adabiyotning to'laqonli mahsuliga aylanadi:

"Shu ma'noda rus Gyotesi rus adabiy va ijtimoiy taraqqiyotining muammosidir". Demak, xalqaro adabiy aloqalarni tadqiq etganda tor, ya'ni tarjima jarayoni bilan bog'liq masalalarga diqqatni qaratibgina qolmay, balki tarjima etilgan - qayta ijodiy ishlangan badiiy asar yangi adabiy muhitga qanday moslashgani, unga bo'lgan munosabat kabi muammolarni o'rganish qiziqarli natijalar berishi mumkin.

V.M.Jirmunskiy har bir adabiy hodisani tahlil qilar ekan, eng avvalo, uning paydo bo'lishiga sabab bo'lgan omil - jamiyatning ma'naviy ehtiyojlari kabi masalalarga atroflicha to'xtaladi. Olim qiyosiy adabiyotshunoslikning dolzarb vazifalarini quyidagicha izohlaydi: "Qiyosiy adabiyotshunoslik milliy adabiyotlar taraqqiyotining qonuniyatini Sharq va G'arbni qamrab olgan jahon adabiyoti kontekstida ko'radi. Bunda u, yuqorida qayd etib o'tilganidek, tarixiy sharoitning birligi va xalqaro madaniy aloqalarning doimiyligidan kelib chiqadi..." Adabiyotshunos "Alisher Navoiy va Sharq adabiyotida Renessans muammosi" maqolasida shoir ijodini unga zamondosh G'arb mutafakkirlari merosi bilan qiyosiy o'rganib, bir qator muhim tipologik nuqtalarni aniqladi. Masalaning yana bir g'oyat muhim jihati shundaki, shoir ijodiy merosi Sharq uyg'onishi kontekstida o'rganilgan. Olimning ushbu maqolasi navoiyshunoslikda birinchi marta Alisher Navoiy ijodi keng planda, qiyosiy aspektda tadqiq etilgani bilan muhim ahamiyatga ega. Undan XV asrda Sharqda Alisher Navoiy ko'targan bir qator ijtimoiy-axloqiy masalalar G'arbda ham aynan shu davrda kun tartibiga qo'yilganini bilib olamiz: "Shunday qilib Alisher Navoiyning ulkan siymosi jahon adabiyotidan tashqarida emas. O'zbek adabiyoti asoschisining ijodi G'arbdagi maslakdoshlari - shoir va mutafakkirlarning ilg'or g'oyalari bilan bevosita hamohangdir". Shunday qilib, ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitning birligi, adabiy ta'sir va adabiy aloqalarning bor-yo'qligidan qat'i nazar, dunyo miqyosidagi mutafakkir ijodkorlarning qarashlaridagi uyg'unlikka sabab bo'lgan masalani yuqoridagi tarzda qo'yib, uni atroflicha o'rganish o'z-

o'zidan Alisher Navoiy ijodiy merosini jahon adabiyoti kontekstida tadqiq etishga yo'l ochadi va navoiyshunoslik fani ufqlarini kengaytiradi.

XX asrda sovet adabiyotshunosligi fani ayrim mafkuraviy cheklashlarga qaramay, dunyo miqyosidagi ko'plab olimlarni etishtirib berdi. Shunday olimlardan biri mashhur sharqshunos akademik N.I.Konrad (1891-1970) edi. N.I.Konrad ilmiy faoliyatining asosiy qismi yapon va xitoy adabiyoti tarixi bilan bog'liq bo'lib, u o'tgan asrning 50-yillaridan boshlab qiyosiy adabiyotshunoslikning nazariy muammolari bilan izchil shug'ullana boshladi. Uning "Qiyosiy adabiyotshunoslikning zamonaviy muammolari" (1959) maqolasi alohida qimmatga ega. Olim hozirgi kunda jahon adabiyotida kechayotgan o'zgarishlar xususida gapirib, zamonaviy adabiyotlarning ikki xil unsurdan tashkil topishini to'g'ri qayd etadi: milliy adabiyot namunalari va tarjima qilingan adabiy asarlar. Darhaqiqat, xalqaro adabiy aloqalarning kuchayishi, bir xalq adabiyoti namunasining ikkinchi bir mamlakatga kirib borishida tarjimaning o'rni bo'lakcha: "Bir adabiyotning ikkinchi bir adabiyotga kirib borishida asosiy vosita tarjimadir. Biroq tarjimon faqatgina vositachi emas. O'zga tilda yozilgan adabiy asarni ona tilida qayta yaratish - bu hamma vaqt ijodiy ishdir. Tarjima asarlarining paydo bo'lishi u yoki bu darajada adabiyotni boyitadi". Jahon adabiy jarayonida kechayotgan ushbu hodisalarni o'rganish qiyosiy adabiyotshunoslikning vazifasidir. Ma'lumki, barcha adabiyotlarning rivojlanishi bir xil emas. Olim bu holni ayrim adabiyotlarning yaqin o'tmishdagi tarixiy taraqqiyoti bilan bog'laydi: "Abaydan to "Abay yo'li"gacha - xalq poeziyasidan to zamonaviy romangacha bo'lgan masofa ayrim adabiyotlar uchun katta bo'lib, qozoq adabiyoti esa buni qandaydir yarim asr davomida bosib o'tdi". Olim bunday jadal rivojlanishning o'ziga xos jihatlarini ham ko'rsatib o'tadi. Uning fikricha, tarixiy sharoitdan kelib chiqqan holda adabiyotning jadal sur'atda rivojlanishi uni rivojlangan ilg'or adabiyotlar safiga yaqinlashtirsa, boshqa bir tomondan

esa, ilg'or adabiyotlar bilan sifat borasidagi tafovutlar orta boradi. Bunday holat milliy adabiyotning yaqin o'tmishdagi tarixiy taraqqiyoti bilan izohlanadi, biroq istisno holatlar ham mavjud. Masalan, qirg'iz adabiyotining atoqli vakili Chingiz Aytmatov ijodi. Adibning asarlari allaqachon jahon adabiyoti tarixidan mustahkam o'rin olgan, lekin bunday holat kam uchraydigan hodisadir.

Shunday qilib, jahon adabiyoti sathida kechayotgan bunday murakkab jarayonlarni adabiy aloqalar tahlili orqali kuzatish mumkin. N.I.Konrad alohida adabiyot namunalarining tahlili xalqaro adabiy aloqalarni nazarda tutgan holda amalga oshadi deb ta'kidlaydi: "Mohiyat e'tibori bilan barcha madaniy xalqlarning zamonaviy adabiyotlari u yoki bu darajada bir-biri bilan aloqador bo'lib, ularning rivojlanishi ushbu aloqalar sathida kechgan va kechmokda. Bu hol milliy adabiyotning mustaqilligini inkor etmaydi, balki uning milliy o'ziga xosligini yanada ravshanroq namoyon qiladi". Bunday adabiy muammolar qiyosiy adabiyotshunoslik o'rganadigan muammolarning kichik bir tarkibiy qismidir.

Biz N.I.Konrad ilmiy faoliyati xususida so'z yuritar ekanmiz, birinchi navbatda, uning "Jahon adabiyoti tarixi" ko'p jildligining faol ishtirokchilaridan biri ekanligini qayd etishimiz zarur. Ko'p jildlikka yozgan so'zboshisida jahon adabiyoti tarixining muhim nuqtalariga e'tiborni qaratib, uni tadqiq etish yo'llarini ko'rsatib berdi. Jahon adabiyoti tushunchasini dunyo xalqlarining birgalikdagi mahsuli deb qarab, uni kishilik jamiyati madaniy-tarixiy taraqqiyotining uzviy bir qismi deb bildi. U kun tartibiga qo'ygan masalalardan biri Renessans - Uyg'onishdir. Katta faktik dalillar asosida Uyg'onish bu faqat G'arb adabiyotiga xos emasligini, bu hodisa konkret tarixiy sharoitdan kelib chiqqan holda Sharqda ham ro'y berganini isbotlab ko'rsatdi. Garchi ushbu konsepsiya bir qator bahs-munozaralarga sabab bo'lgan bo'lsa-da, biroq muammoning to'g'ri qo'yilishi Sharq tarixi, adabiyoti namunalarini keng qamrovli o'rganishga yo'l ochdi. Uning tadqiqotlarida adabiyotni xususiy, tor doirada o'rganish

emas, balki har bir milliy adabiyot namunasini eng avvalo jahon adabiy jarayonining uzviy bir qismi sifatida qarash etakchilik qiladi. Umuman olganda, A.N.Veselovskiy, V.M.Jirmunskiy va N.I.Konrad ilmiy faoliyatiga xos jihat adabiy hodisalarni keng qamrovda qiyosiy tahlil qilish, har bir hodisaning yuzaga kelish sabablari, rivoji va tanazzulini ko'rsata olishdir. N.I.Konradning ilmiy tadqiqotlari qiyosiy adabiyotshunoslikning rivojini yangi bir bosqichga ko'tardi va bu metod o'rganishi zarur bo'lgan qator muammolarni ko'rsatib berdi.

Qiyosiy-tarixiy adabiyotshunoslik adabiyotshunoslik fanining tarkibiy qismi sifatida dunyo adabiyotshunosligida o'ziga xos mavqega ega. G'arbiy Evropa va Amerika adabiyotshunosligida qiyosiy-tarixiy metod xususida bir qator tadqiqotlar yozilgan va hozirga qadar yozilmoqda, qiyosiy adabiyotshunoslikning dolzarb muammolariga oid ilmiy konferensiya, simpozium, kongresslar muntazam o'tkazilib keladi, qiyosiy-tarixiy adabiyotshunoslik bo'yicha jurnallar nashr etiladi.

Sobiq Ittifoq adabiyotshunosligida bu yo'nalishda Irina Neupokoeva 70-80-yillarda qator tadqiqotlarini nashr ettirdi. Olima ilmiy tadqiqotlarining asosiy yo'nalishi jahon adabiyoti tarixini yaratishda qiyosiy adabiyotshunoslik oldida turgan muammolarga qaratilgan. Uning "Istoriya vsemirnoy literaturы. Problemы sistemnogo i sravnitelnogo analiza" (1976) monografiyasi kishilik jamiyati tarixining yaxlitligidan kelib chiqqan holda, jahon adabiyoti tarixining qiyosiy va sistemali tahlili masalalariga bag'ishlangan. U qiyosiy tarixiy metodga tayanib, jahon tarixi va jahon adabiyoti, mintaqaviy va milliy adabiyotlar sistemasi, jahon adabiyoti tarixini davrlashtirish kabi murakkab hodisalarni tahlil etadi.

O'zbek adabiyotshunosligida ham XX asr davomida qiyosiy-tarixiy yo'nalishda bir qator e'tiborga molik tadqiqotlar yuzaga keldi. Ularda o'zbek adabiyoti mintaqadagi qardosh xalqlar adabiyoti namunalari bilan qiyosiy o'rganilib, bir qator nazariy umumlashmalar chiqarilgan. Masalan, E.Rustamovning o'zbek

mumtoz adabiyotini Sharq xalqlari adabiyotlari bilan qiyosiy tadqiq etgan doktorlik ishi hozirga qadar o'z ilmiy ahamiyatini saqlab kelmoqda. Shuningdek, Alishsr Navoiy «Xamsa»si dostonlari qiyosiy tadqiq etilgan bir qator tadqiqotlar ham mavjud. Biz bu o'rinda qiyosiy adabiyotshunoslikni yangi g'oyalar bilan boyitgan slovakiyalik mashhur adabiyotshunos D.Dyurishin bilan hamkorlikda chop etilgan to'plamni qayd etishni lozim deb bilamiz. To'plamdan xorij va o'zbek olimlarining qiziqarli maqolalari o'rin olgan. Ularda adabiyot tarixi, o'zbek adabiyotining XX asr arafasidagi qiyofasi, sobiq Ittifoq xalqlari adabiyotlarini qiyosiy o'rganish muammolariga oid e'tiborga molik fikr-mulohazalar bildirilgan. Bu to'plam orqali o'zbek olimlari xalqaro miqyosga chiqdilar.

Shunday qilib, qiyosiy adabiyotshunoslik adabiyotni o'rganishda yagona mutlaq metod bo'lib qolmay, balki u har bir milliy adabiyotni butun jahon adabiyotining ajralmas tarkibiy qismi sifatida ko'radi va tahlil etadi. Bu esa, o'z navbatida, muayyan bir adabiyotni jahon adabiyoti tarixida tutgan o'rnini belgilaшda muhim ahamiyatga ega. Bizningcha, o'zbek adabiyotshunosligi uchun qiyosiy adabiyotshunoslikning ochilmagan ufqlari ko'p. Masalan, mustaqillikdan so'ng adabiyotimizga kirib kelayotgan adabiy oqimlar va ularning paydo bo'lishi, rivojlanishi, G'arb adabiyotida tutgan o'rni kabi muammolar qiyosiy adabiyotshunoslikda o'rganiladi, baholanadi. Ayni paytda, o'zbek adabiyoti tarixi bo'yicha to'plangan materiallarni qiyosiy aspektda tahlil etib, adabiyotimizning jahon adabiyotida tutgan o'rni belgilanadi. Adabiyotshunoslik yo'nalishidagi tadqiqotlarni qiyosiy-tarixiy metod asosida o'rganishni ilmiy asosga qurish adabiyotshunoslik fanining jahonga chiqishida muhim bir vosita bo'lib xizmat qiladi.

Savol va topshiriqlar

1.Ob'ektga yondashuvning tarixiy-qiyosiy usuliga xos xususiyatlar haqida gapirib bering.
2.Qiyosiy-tarixiy metod spetsifikasi nimalardan iborat?

2. Qaysi tadqiqot qiyosiy adabiyotshunoslikning o'ziga xos manefesti bo'lgan edi?
3. V.M.Jirmunskiyning ilmiy faoliyatida "keskin burilish" deb baholangan asar qaysi edi?
4. O'zbek adabiyotshunosligida XX asr davomida qiyosiy-tarixiy yo'nalishda e'tiborga molik qanday tadqiqotlar yaratildi?

Adabiyotlar

1. Baxtin M.M. Estetika slovesnogo tvorchestva // Sost. S.G. Bocharov. 2-e izd. M., 1979. S.384.
2. Veselovskiy A.N. Istoricheskaya poetika. M., 1989. S. 16.
3. Gasparov B.M. Literaturnыe leytmotivы. Ocherki russkoy literaturы XX veka. M,, 2004.
4. Ginzburg L. Y. O literaturnom geroe. L., 1979. S. 192.
5. Dima A. Prinsipы sravnitelnogo literaturovedeniya. M., 1977.
6. Dyurishin D. Teoriya sravnitelnogo izucheniya literaturы. M., 1979. S. 143.
7. Jirmunskiy V.M. Iz istorii zapadnoevropeyskix. L., 1981. S. 76.
8. Jirmunskiy V.M. Epicheskoe tvorchestvo slavyanskix narodnostey i problemы sravnitelnogo izucheniya eposa. M., 1958. S. 435.
9. Jirmunskiy V.M. Sravnitelnoe literaturovedenie. L., 1979. S.100.
10. Jolkovskiy A.G. Blujdayuщie snы i dr. raboты. M.,1994.
11. Zinchenko V.G., Zusman V.G., Kirnoze 3.I. Metodы izucheniya literaturы. Sistemnыy podxod. Ucheb. posobie. M., 2002. S. 76.
12. Komilova S. Qiyosiy adabiyotshunoslik metodologiyasi masalasiga doir // O'TA, 2009, №6, 76-80-betlar.
13. Konrad N.I. Zapad i Vostok: Stati. Izd. 2-e, ispr. i dop. M., 1972.
14. Konstantinovich 3. Komparativistika. Amsterdam: Atlanta, 1997. S. 90.
15. Lixachev D.S. Konseptosfera russkogo yazыka // Russkaya slovesnost. M., 1997. S.280-287.

16. Neupokoeva I. G. Istoriya vsemirnoy literaturы // Problemы sistemnogo i sravnitelnogo analiza. M, 1976.
17. Rustamov E. Nekotorыe voprosы sravnitelnogo izucheniya uzbekskoy literaturы XV veka s drugimi vostochnыmi literaturami. ADD. Tashkent, 1966.
18. Smirnov I.P. Porojdenie interteksta: Elementы intertekstualnogo analiza primerami iz tvorchestva B.Pasternaka. 2-e izd. SPb., 1995.
19. Stepnov YU.S. Slovo // Russkaya slovesnost: Antologiya /M, 1997. S. 302.
20. Щeglov YU.K. Raboty po poetike vыrazitelnosti: Invariantы - Tema - Priemы - Tekst. M, 1996.
21. Eshonboev A. Qiyosiy-tarixiy metod haqida // O'TA, 2008, 4-son, 38-46-betlar.

4-MAVZU. QIYOSIY-TIPOLOGIK METOD

Reja:

1. Qiyosiy tipologik metodning mohiyati, tarixi, asosiy tamoyillari.
2. Bu metodning badiiy asarni talqin qilishdagi o'ziga xosligi.
3. Qiyosiy tipologik metod asoschilari.
4. Qiyosiy tipologik metodning o'zbek adabiyotshunosligiga kirib kelishi.

Tayanch tushunchalar: adabiy-badiiy jarayon, adabiy aloqa-bog'lanishlar, tipologik yaqinliklar, komparativistika, adabiy ta'sirga bog'liq bo'lmagan o'xshashlik, mavzu, manba umumiyligi, o'xshash psixologik unsurlar, yagona siyosiy yo'nalish, falsafiy konsepsiyalar mushtarakligi.

Adabiy-badiiy jarayon tarixi shundan yaqqol dalolat beradiki, bevosita adabiy aloqa-bog'lanishlardan tashqari turli tarixiy va estetek zamonlarga xos tipologik yaqinliklar ham mavjud. Adabiyotshunoslikda qiyosiyo-tarixiy aloqadorlik bo'yicha ko'pgina ishlar amalga oshirilgan. Ammo qiyosiy-tipologik munosabatlar tarixi, nazariyasi etarlicha tadqiq etilgan emas. Bu fikr o'zbek adabiyotshunosligiga ham xosdir. Faqat yigirmanchi asrning ikkinchi yarmiga kelib bu sohaga qiziqish yuzaga keldi. 1967 yili Belgradda komparativistika bo'yicha xalqaro uyushma ning beshinchi Kongressda mazkur masalaga alohida e'tibor qaratildi. Ushbu nufuzli anjumanda Uyg'onish, romantizm, realizm va avandgard maktablarning tipologik mushtarakligi haqida fikr yuritildi.

Aslida adabiyotshunoslar milliy so'z san'atlari orasida adabiy ta'sirga bog'liq bo'lmagan o'xshashlik, yaqinlik, muvofiqlik kabilar mavjudligini avvaldan bilganlar va bu haqda muayyan fikr-qarashlarni ham qayd etishgan. Ammo bu muammoning murakkabligi, chigalligi shundaki, ko'p hollarda adabiy ta'sir va tipologik mushtarakliklar bir-biri bilan bog'lanib-chatishib

ketadi, Ularni farqlash, ajratish oson ish emas. Shunga qaramay, har qanday qiyosiy-tarixiy tadqiqotda adabiy aloqalarni tipologik yaqinliklardan aniq ajratib ko'rsatish kerak.

Qadim zamonlardayoq tipologik mushtarakliklarni izlashga intilish tamoyili yuz ko'rsatgan edi. Atoqli muarrix Plutarx o'zining mashhur "Qiyosiy hayotnomalar" asarida bu usulni adabiy janr darajasiga olib chiqqan. Adib yigirma uch tarixiy shaxs : Demosfen – Sitseron, Perikl – Fabiy Kunktator, Buyuk Aleksandr – Sezar. Alkiviada – Koriolan kabi yunon-rimliklar juftligini yuzaga keltirgan. Bunday yondosh tarjimai hollar yagona tarixiy-bayoniy qolip asosida yaratilgan bo'lib, tarixiy shaxslar orasidagi o'xshashlik va tafovutlarni aniqlash va shu asosda ularning axloqiy qiyofasi xususida umumiy xulosa chiqarishga muljallangan edi.

Keyingi davrlarda bu janr fransuz adabiyotida Bossyuening "Motam nutqlari", Labryuyerning "Asrimizning xulq va xarakterlari", Shatobrivanning "Qabrdan maktublar" asarlarida uchraydi. Bizning kunlarimizda esa B. Delavranchi asarlarida bunday usuldan istifoda etilganini ko'rish mumkin. To'g'ri, biz yuqorida keltirgan misolar, dadillar bevosita adabiyotshunoslik metodiga daxldor emas. Shunga qaramay. biz bularni tipologik taqqoslash metodidan ijodiy foydalanish namunasi tarzida keltirdik. Perro, Bualo, abbat Dyubo bashariyat tarixidagi ikki buyuk zamon (antik davr va zamonamiz)ga xos adabiy-badiiy va ilmiy muvaffaqiyatlarni o'zaro taqqoslab, bulardan birinchisi zamonaviy ijodiyotning ilg'or tamoyillariga halokatli ta'sir ko'rsatayotganligini ta'kidlashgan.

Taniqli madaniyat namoyandalaridan biri bo'lgan Fontenel "Qadimgilar va zamondoshlarimiz xususida erkin mulohazalar" (1688) nomli mashhur asarida antik zamon insoniyatning bor-yo'g'i bolalik mavsumi, hozirgi davr esa uning balog'at davridir degan nuqtai nazarni isbotlashga harakat qilgan.

Xuddi shu kabi mulohazalar madaniyat, san'at, xususan badiiy adabiyot namunalari, adabiy-badiiy davrlar, oqimlar orasidagi tipologik xusuksityalarni aniqlash, umuman olganda

esa adabiyot tipologiyasining rivojlanishiga to'sqinlik qildi. Buning natijasida so'z san'atidagi tipologik xususityalar haqida ma'lum bir fikrlar aytib kelinsa-da, bu soha ko'p yillar davomida izchil rivojlanmadi.

O'n to'qqizinchi asrga kelib qiyosiy-tipologik metod unutila boshlandi. Ayrim mutaxassislar uning istiqboliga oshkora shubha bilan qaray boshladilar. Masalan, Vilman bunday nuqtai nazarni ilgari surgan. Uning fikricha. Asarlar orasidagi o'xshashliklarni topishga urinib, ularning mazmuni. mohiyatini noto'g'ri talqin qilish mumkin. Faqat yigirmanchi asrga kelib yana mazkur usulga qaytish ko'zga tashlandi. Masalan, tadqitqotchi Leon Sale «Revue de littérature comparée» jurnalida bosilgan "Parallel parodokslar" maqolasida mazkur metodning eskirmagani, unga qaytish yangi estetik tafakkur ehtiyoji ekanligi haqida yozgan. Tadqiqotchining bu fikri haqiqtni ifodalaydi, chunki tipologik o'xshashliklar inson fikrining sub'ektiv ifodasi bo'lmay, ular voqelikdva ob'ektiv mavjuddir. Shu sababdan tadqiqotchilar bunday mushtarakliklarni o'rganib, ilmiy jihatdan asoslab ko'rsatishlari lozim.

Jahon adabiyoti tarixida yuzaga kelgan adabiy oqimlar tipologik o'xshashliklarning mavjudligiga eng ishonchli dalil bo'la oladi. CHunki ularning yuzaga kelishini ma'lum bir manbalar va ta'sirlar bilangina izohlash mumkin emas. Deylik, Italiyada paydo bo'lgan Uyg'onish harakatini butun Evropaga tarqalishini yuqorida qayd etilgan dalillar bilan tushuntirishning iloji yo'q. Chunki Uyg'onish mazkur geografik maydonda bir davrning o'zida yuzaga kelmagan.

Yaxshi bilamizki, bu qudratli jarayon Italiyada o'n to'rtinchi asrda. Fransiya va Ispaniyada esa o'n beshinchi asrda. Angliyada o'n oltinchi asrda, Olmoniyada o'n ettinchi asrda (Reformatsiya shaklida) yuzaga keldi. Evropaning sharqida uning xususiyatlari o'n sakkizinchi asrning oxirida kuzatilgan. Ushbu davr va unga xos alomatlarni o'rgangan olimlarning fikricha, agar bu ovropacha oqim ta'sir natijasida yuzaga kelganda, u bir

zamonning o'zida Italiya andazasi bo'yicha namoyon bo'lar edi. Uyg'onish muddatlarining turlichaligi uning turli hududlardagi shakllarining mumstaqilligidan ochiq-oydin dalolat berib turibdi. E'tiorf etish kerakki. Bu jaraynga ta'sirning ham bir qadar hissasi mavjud. Ammo ijtimoiy-tarixiy shart-sharoitlar, har bir mamlakat ruhiy iqlimining o'zgachaligi tipologik mushtaraklikdan darak berishi ham ayon haqiqatdir.

Tipologik o'xshashliklar haqida yaqqol taassurotga ega bo'lish uchun u haqda batafsilroq to'xtalish hamda ularni o'rganishning ayrim turlari hususida ma'lumot berish lozim bo'ladi.

Ma'lumki, o'n ettinchi asr boshlarida deyarli bir paytda Ispaniyada gongorizm, Angliyada evfuizm, Italiyada marinizm, Fransiyada pretsioz adabiyot, Germaniyada balandparvoz usul kabi adabiy maktablar yuzaga keldi. Bularning barchasiga nafis, shu bilan birga, yuzaki g'oyalar,jimjimador uslub, ajabtovur obrazli ifodalar, tashbeh, istiora, mubolag'a, tazod, allegoriya, ramzlarni qalashtirib tashlashga moyillik ko'zga tashlanardi. Bunday harakatlar voqelikning aniq tasviridan qochib shaklga ruju qo'yishni ochiq-oydin ko'rsatib turardi. Bu hodisa Uyg'onish o'z taraqqiyotida o'ziga xos "yangi aleksandrizm" ga etib kelganini ko'rsatardi. Garchi bu jarayonda ma'lum bir darajada adabiy ta'sirning o'rni bo'lsa-da, yuqorida sanab o'tilgan maktablarning har biri mustaqil yuzaga kelgan hamda Uyg'onish va zamonning ijtimoiy taraqqiyoti tanazzulini ifodalagan. Ular mavjudligiga shubha uyg'otmaydigan bir qator uslubiy tipologik mushtarakliklarni ko'rsatadi.

Biz adabiy tur va janrlarning taraqqiyotini kuzatganimizda, xuddi shu kabi hodisalarga duch kelamiz. Fikrimizga misol sifatida evropacha realistik, naturalistik yoki yanada tor mavzu yo'nalishidagi dehqon romanini olishimiz mumkin. Xususan, dehqon romanlari 1840-1860 yillarda Shveysariya, Fransiya va Germaniyada nihoyatda rivojlanadi. Ieremiya Gotxelf, Jorj Sand, Gotfrid Keller, Jorj Eliot bu mavzuda romanlar yozganlar. O'rta asrlarda badiiy adabiyot namunalarida dehqonlar mavzusi o'z

o'rniga ega bo'lgan, ammo vaqt o'tishi bilan bu mavzuga e'tibor susayadi. YAngi tarixiy shart-sharoitda burjuaziya mavqeisining kuchayib borishi bilan adabiy asarlar sahifalarida bu mavzuga qiziqish yana kuchayadi.

Mazkur davr asarlarida mustabid hoqimiyatlar, xurofat va jaholatga qarshi norozilik, hurfikrlilikni muhofza qilish tamoiyili yorqin ko'rinadi. de Kosterning « Ulenshpigel i Lamme Gudzak haqida afsona» (1867), Pr. Merimening «Jakeriya» xronikasi (1828), Pushkinning
«Pugachev qo'zg'oloni tarixi» (1833) asarlari mana shu siraga mansub. Bu ijod namunalarida janriy o'xshashliklar g'oya va mavzu yaqinliklari bilan bog'lanib-tutashib ketgan.

Badiiy adabiyot tadqiqotchilari o'zlarining qiyosiy-tipologik ishlarida ruhiyat sohasiga alohida ahamiyat berganlar. Bunda Sent-Byov yozganidek, ijodkorlararo "ruhiy qarindoshlik"ni oydinlashtirish asosiy vazifa qilib qo'yilgan. Misol tariqasida Titu Mayoresku va Gyotening psixololgik mushtaraklikni aytish lozim. Mazkur rumin munaqqidining 1858 yilda "Har yilgi yozishmalar" to'plamida e'lon qilingan e'tirofida bu haqda shunday deyiladi: " Men Gyotening ma'naviy tadriji tarixida shunday alomatlarni topdimki, ular mening ruhiyatimdagi alomatlarga mos kelar edi, bundan tashqari, ular go'yo mening qalbimda o'sib-ungandek edi". Shu yilning o'zidayoq rumin munaqqidi Gyote bilan yozishmalari haqida gapira turib, olmon shoirining ba'zi bir xarakter xususiyatlarini o'zida topganligini qayd etgan. Gyote va Mayoreskuning tipologik mushtarakligi rumin tanqidchisining buyuk olmon klassigi hayoti va ijodiga doimiy qiziqqanligi sababini izohlashga imkon beradi. Bu ikki adabiyot arbobi xarakterlarida o'xshashlik: ochiqko`ngillilik, jamiyatda shaxsni e'zozlash, axloqiy muammolarga e'tibor, hischanlik, eng muhimi, insonparvarlik mavjud bo'lgan. Bunday mushtarakliklar faqatgina Gyote i Mayoresku orasidagina emas, boshqa ko'plab qalam sohiblari orasida ham kuzatiladi.

Qiyosiy-tipologik tadqiqotlar yanada murakkabroq hodisalarni ham qamrab olishi mumkin. Bir qator badiiy asarlar mavzu, manba umumiyligi, o'xshash psixologik unsurlar, yagona siyosiy yo'nalish, shuningdek, falsafiy konsepsiyalar mushtarakligi bilan ajralib turadi. Mana shunday ko'p qirrali, murakkab strukturali tipologik bog'lanishlar hamisha qiziqishlarga sabab bo'lib keladi. Mana shunday qiziqishlar mahsuli yuzaga kelgan ishlardan biri Tudor Vianuga taalluqli bo'lib, bu tadqiqot ikki mashhur asar – Madachning "Inson fojiasi" (1861) va M. Eminesku (1871 — 1872)ning "Memento mori" asarlaridagi ijtimoiy, axloqiy va intellektual omillarning tipologik yaqinliklarini oydinlashtirishga bag'ishlangan. Venger adibining asari Eminesku ijodi namunasidan o'n yil oldin yaratilgan va nemis tiliga tarjima qilinib, 1865 yilda chop etilgan. Garchi bu asar bilan rumin shoiri tanishgani ehtimoli bo'lsa-da, bu qarashni isbotlovchi dalillar mavjud emas. Shunga qaramay mazkur ikki ijod namunasi o'rtasida murakkab tipologik o'xshashlik aniq ko'rinadi. T. Vianu bu badiiyat namunalarini tipologik aloqadorlik muammosi nuqtai nazaridan vijdonan va juda sinchiklab o'rgangan. Dastavval birinchi marta ko'zga tashlanadigan yaqinlik – bu mavzu mushtarakligida ko'rinadi. Ikki badiiy yaratmada ham buyuk imperiyalarning o'rin almashishi fonida inson taqdirining o'zgaruvchanligi yaqqol ko'zga tashlanadi. Bu aslida «for-tuna labilis» (buqalamun qismat) deb atalgan ko'hna aqida ifodasidir. Bundan tashqari, bu asarlarda mualliflarning bir-biriga yaqin g'oyaviy va psixologik munosabatlari: 1848 yilgi inqilobga xayrixohlik, jaholatga nafrat, umidsizlik kabilar ham namoyon bo'lgan. Bunday mushtaraklik, birinchidan, zamonga xos umumiy ruhiyatdan kelib chiqqan bo'lsa, ikkinchidan, qisman 1860-1870 yillarda juda kuchli bo'lgan va moziyning romantik talqinlariga asoslangan mafkura – Shopengauer ta'limotining ta'siridir. Bunday holda tipologik o'xshashliklarning yuzaga kelishi tabiiy hol deb o'ylaymiz. Bular esa o'z navbatida manba

va ta'sirlar tadqiqisiz har bir ijodkorning tub mohiyatini anglashga yordam beradi.

Mana shunday tadqiqotlar sirasiga G. Brandesning "O'n to'qqizinchi asr Evropa adabiyotining asosiy oqimlari" deb atalgan ishini kiritish mumkin. Avvalambor aytish kerakki, bu tadqiqotning asosini qiyosiy-tipologik tahlil tashkil qilmaydi. Ishdagi asosiy boblar – "Muhojirlar adabiyoti", "Germaniyadagi romantizm maktabi", "Angliyada naturalizm", "Fransiyada romantizm maktabi", "YOsh Germaniya", shuningdek, tez-tez Daniya va Skandinaviya adabiyotlariga murojaat etib turish shundan dalolat berib turadiki, muallif umumevropa adabiyotlarining mushtarak xususiyatlarini emas, ularning o'ziga xos jihatlarini tadqiq etishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan. SHunga qaramay, mazkur ilmiy asarning umumiy mazmunidan butun Evropa adabiyotining o'n to'qqizinchi asrga xos bo'lgan tipologik xususiyatlarini anglash mumkin.

Aytish lozimki, qiyosiy-tipologik tadqiqotlar o'z oldiga boshqacha maqsadni qo'yadi. Masalan mana shunday tadqiqotlar yog'dusida XIV — XVI asrlarda butun Evropani qamragan Uyg'onish davri mushtarak bir harakat tarzida ko'z o'ngimizda yorqin namoyon bo'ladi. Dunyo madaniyati tarixida alohida o'rin tutgan shu zamonga kelib o'rta asrlar adabiyoti ta'siri, antik davrdan uzilish bartaraf etilgan, bashariyatning ma'naviy qadriyatlariga yuksak e'tibor qaratgan yangi bir dunyo yuzaga kelgan edi. Ijtimoiy va axloqiy iqlim tubdan o'zgargandi. Kitob chop etishning kashf qilinishi, ulug' geografik kashfiyotlar, yozuvchi va rassomlarning turli mamlakatlarga tez-tez safar qilishlari, urushlar tufayli yuzaga kelgan siyosiy hodisalarning jo'shqin girdoblari, yangi bir sinf – burjuaziyaning tarix maydoniga chiqishi – bularning barcha-barchasi G'arbiy va Markaziy Evropa mamlakatlarini boshqa hududlardan o'sha davrlarda ajralib-farqlanib turishiga sabab bo'lgan edi.

O'sha yillarda dastlab lotin tili madaniy aloqalarning asosiy lisoniy vositasi bo'lgan, biroq vaqt o'tishi bilan boshqa xalqlarning milliy tillari ham mana shu sharafli o'ringa egalikni

da'vo qila boshlashdi. Bu insonparvarlik, yangi zamon ehtiyojlariga muvofiq ravishda qadimgi qadriyatlarni jonlantirgan erudit (bilimdon)lar davri edi. O'sha yillardan boshlab adabiyot va san'at dunyoviy mohiyat kasb eta boshlaydi, panestetizm unsurlari kuzatiladi. Evropa Uyg'onishining eng muhim xususiyatlaridan biri shunda ko'rinadi, san'at va adabiyotda butunlay yangi bir mavzu yuzaga keladi.

Ma'lumki. Uyg'onish davrigacha so'z san'ati namunalari, shuningdek, san'atning boshqa shakllarida oddiy xalq qiyofasiz olomon tarzida tasvirlangan. Endi esa har bir inson, shuningdek, oddiy mehnat vakillari ham ozod shaxs tarzida tasvirlana boshlandi.

San'at go'zallikning antik mezonlari asosida yangidan yangi badiiy shakllarni izlay boshladi, uslub va badiiy ifoda muammolariga o'z e'tiborini qaratdi, hayotning real va mushtarak tomonlarini tasvirlashga ehtiyoj seza boshladi. Shu asosda insonparvarlikning ulug' mezonlarini tasdiqlay bordi. Su kabi xususiyatlar butun g'arbiy Evropa madniyatida namoyon bo'lgan edi va bular tipologik o'xshashliklarning o'ziga xos butun bir majmuasini yuzaga keltirgan.

Uyg'onish ortidan XVII va XVII asrlarda yuzaga kelgan klassitsizm mohiyatan oldingi davrning davomi edi. Su bilan birga, u bir kancha farqlanib turuvchi xususiyatlarga ham ega bo'lgan. Mazkur adabiy-estetik oqimning taraqqiyoti davomida turli mamlakatlardagi adabiyot muttasil ravishda aristokratik xarakterini yo'qota borib, borgan sari burjua muhitiga yaqinlashgan.

Insonning ongli ichki olamiga favqulodda qiziqish ko'pincha tashqi shart-sharoit, kiyim-kechak, tashqi ko'rinish kabilarni e'tibordan soqit bo'lishiga olib keladi. Sunga qaramay. klassitsizm davrida namuna sifatida qabul qilingan antik davr bilan aloqa-munosabatlar saqlanib qoldi. Shunga qaramay. asarlardagi axloqiy yo'nalish – insonni tarbiyalash, uning axloqiy kamoloti ustuvor ahamiyat kasb etdi. Ma'naviy

sog'lomlikning umumiy iqlimi butun adabiyotni qamrab oldi. Aql-idrok eng oliy o'lchov bo'lib qoldi, bu esa san'atda didning noziklashishiga olib keldi. San'at adabiyotning hamma sohalarida, xususan, uslubda yorqinlik va aniqlik hukmron edi. Adabiy tur va janrlar aniq shakllarga ega bo'ldi, adabiy qoidalarga gap-so'zsiz rioya qilish odatga aylandi

Davlat boshqaruvida yakkahukmronlik davrida ijodkor o'z zamonining ijtimoiy voqeligiga tobe bo'ladi. XVII asrning ikkinchi yarmida kuzatilgan kosmopolitik tamoyillar kelgusi asrda ham keng qamrov kasb etadi. To'g'ri bu davrda ham so'z san'atida adabiy ta'sir mavjud edi. Buni biz ushbu yillarda italyan madaniyatining hukmronligi intiho topgandan keyin fransuz madaniyatining hokimlik mavqesiga ko'tarilganida ko'rishimiz mumkin. Ammo badiiy taraqqiyotning o'xshash belgilarining mavjudligi eng avvalo tipologik yaqinliklarning bir butun majmuasi mavjudligidan dalolat beradi. G. Misho va Paula van Tigemaning romantizmga bag'ishlangan tadqiqotlarida bu adabiy oqimga kirib kelgan turli mamlakat adabiyotlari – oldin nemis va ingliz, keyin esa fransuz so'z san'atlari olamni hayratga soladigan darajada o'xshash yo'lni bosib o'tganlar. Ularda adabiy-badiiy bosqichlar, mavzu, xarakterlarda romantizmoldi taraqqiyotining bir-biriga juda yaqin oqimlari kuzatilgan.

Germaniyadagi romantizm doktrinasi – individualizm, tabiat olamiga murojaat, lirizm, xayolotning erkin parvozi, o'rta asrlarni ulug'lash - XVIII asr mobaynida davom etgan. Bu jarayon "Bo'ron va hujum" bosqichigacha mavjud bo'lgan.

Angliyada sensualizm, sentimentalizm va individualizm, badiiy to'qimaning mo'l-ko'lligi, o'rta asrlarga murojaat o'n to'qqizinchi asrgacha davom etgan.

Fransiyada XVIII asrning boshlaridayoq g'ayriklassitsizm tamoyillari, "qadimiylar va yangilar bahsi" aks-sado bera boshlagan edi. Fenelon i Marivo hali o'z ijod namunalarida hissiyotlarga keng o'rin bergan paytlardayoq Russo eligik ruh bilan yo'g'rilgan sahifalarni insho etgan – shu tarzda romantizmning asoslari hamda yangi tipologik o'xshashliklar

yuzaga kela boshlagan. Romantizmning mana shu dastlabki bosqichidayoq ingliz va nemis adabiyotlarining hayratlanarli o'xshash jihatlari namoyon bo'la boshlaydi.

Paul van Tigem "Evropa adabiyotlarida romantizm" deb atalgan mashhur tadqiqotida 1798 va 1803 yillar orasidagi "to'la-to'kis tipologik uyg'unlik", ya'ni bir tarafdan Uordsvort, Kolridj, Sauti, Skott, boshqa tarafdan esa Tik, Novalis, aka-uka Slegellar, Brentano, Arnim, Kleystlar ijodining boshlang'ich bosqichlaridagi mushtarakliklar haqida fikr yuritgan.

Romantizmning evropacha adabiy oqim sifatida shakllanishi davri (o'n to'qqizinchi asrning uchinchi- beshinchi o'n yilliklari)da g'arbiy va sharqiy Evropaning deyarli barcha adabiyotlarida yaqqol ko'ringan o'xshashliklarni kuzatish mumkin. Bunday yaqinliklar ijodkorlarning individualistik intilishlari, ularning chegara bilmas taxayyuloti, ehtirosning baland pardalari, klassitsizm aqidalarini keskin inkor etish, liberalizm, tabiat bilan uyg'unlikni targ'ib etish, kosmopolitik tamoyillarga zid ravishda milliy so'z san'atiga alohida e'tiborni qaratish kabilarda yorqin ko'rinadi.

Bunday tipologik bog'lanishlarning yuzaga kelishi Evropa hamjamiyatining fransuz inqilobi va Napoleon urushlari ta'siri taraqqiy etishi bilan bog'liq. Bu davrda turli adabiy ta'sirlarning o'rni avvalgi zamonlarga qaraganda sezilarli darajada kamligi seziladi, har holda bir halqning boshqa xalq ustidan badiiy jihatdan hokimligi kuzatilmaydi, zero hamma mamlakatlarda milliylik, o'ziga xoslikka intilish kuchayib bormoqda edi. Bunday mushtarakliklar XIX va XX asrlarda turli adabiy maktab, oqimlar ichida ham realizmdan davrimizning tortib eng yangi adabiy hodisalarida namoyon bo'lishda davom etganini ko'rsa bo'ladi.

Yuqorida biz keltirgan misollar bir-biridan jiddiy farqlanib turuvchi ikkita tipologik mushtarakliklar guruhi mavjudligidan dalolat beradi. Bular quyidagilar:

1)Zamonga ko'ra mos keluvchi mushtarakliklar. Bunga misol sifatida XVII asr boshlaridagi barokko maktablarini keltirish mumkin;

2) vaqt oqimida davom etuvchi o'xshashliklar. Ushbu adabiy-badiiy hodisaga adabiy oqimlarni dalil tarzida aytishimiz mumkin.

Mazkur ikkala holda adabiy ta'sir hal qiluvchi rol o'ynamagan, ular faqat yordamchi omil vazifasini o'tagan, xolos.

Tipologik mushtarakliklarning mana shu ikki shakli, shak-shubhasiz, tarixiy xarakterga ega, ular mohiyatan muayyan darixiy davrlar bilan bog'langan. Ular ko'p hollarda turli davrlarda yuzaga kelgan bo'lsa-da , o'xshash ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlar va o'zaro yaqin an'analar doirasida mushtaraklikka erishganlar.

Qiyosiy adabiyotshunoslik faqat tarixiy tipologik o'xshashliklarni tadqiq etish bilangina kifoyalana olmaydi. SHunday adabiy hodisalar ham borki. Ular bir-biridan zamon va makon jihatidan bir-biridan juda uzoqda, shunga qaramay, ular kishini hayratga soladigan darajada o'xshashlikka ega. Bunday yaqinlikni esa hech qanday yaqin ijtimoiy va tarixiy shart-sharoitlar bilan izohlab bo'lmaydi. Biz bu o'rinda ulardan ayrimlarini misol sifatida keltirish bilan kifoyalanamiz.

R. Etiembl "Qiyos – dalil bo'lolmaydi" nomli tadqiqotida XVII asr oxiridagi evropacha romantizm bilan Syuy YUan (eramizdan oldingi IV — III asrlar) ijod etgan davrdan Sun dinastiya (eramizning XIII asri)gacha bo'lgan muddatdagi xitoy she'riyati orasidagi yaqinliklarga e'tibor qaratgan edi. Ushbu asrlardagi xitoy poleziyasi, ayniqsa, Syuy Yuan she'riy ijodi ikki ming yil keyingi romantik she'riyat singari xalq ijodiga murojaat qilishi, el-ulus an'analariga soliqligi. YUksak darajadagi emotsionvalligi bilan ajralib turardi. Ham xitoy, ham Evropa romantizm poeziyasi urush, fitna, tarixiy voqealar tufayli yuzaga kelgan shiddatli siyosiy hodisalar oqimida taraqqiy topgan edi.Xuddi mana shu omillar yuqorida nomlari qayd etilgan ikki she'riyat orasidagi mushtarak alomatlarni yuzaga keltirgan.

Yana bir misol J. Monneroning tadqiqotida keltirilgan. Bu haqda L. Sele "Parallellar paradoksi" nomli ishida aytib o'tgan. Bunda aleksandriya zamoni (taxminan eramizdan avvalgi 130

yil) va Fransiyada XX asrning o'ttizinchi yillaridagi agnostitsizm va syurrealizmning ayrim oqimlari orasidagi muvofiqliklar haqida gap boradi. Tadqiqotchining xulosasiga ko'ra, bir-biridan juda uzoqda bo'lgan mazkur davrlarda juda aniq "sinkretik tiplar" yuzaga kelgan ekan. U bu o'rinda eramizning dastlabki ikki asrida yunon falsafasidagi ayrim oqimlarga gnostiklar maktabining qarshi qarshi chiqishi zamonaviy adabiyotdagi tanqidiy realizmga syurrealistlarning inkor nazari bilan qaarshiga juda o'xshab ketishini ko'rsatgan edi. Yuqoida qayd etilgan mushtaraklik qadimgi gnostitsizmning ayrim teosofik tamoyillari bilan syurrealistik tahlil yordamida "ongsizlik" yoki "ongdan tashqari"jarayonlarni izlashdagi o'xshashliklar natijasidagi yuzaga kelgan.

T. Melon tadqiqotida esa bu muammoga oid yana bir misol keltirilgan. U Evropa adabiyotining Ma'\rifatchilik davri fransuz tilidagi Afrika adabiyoti orasidagi tipologik o'xshashliklarni aniqlagan.

Bunday misollarni ko'plab keltirish mumkin. Ularning kelib chiqishini aniqlash u qadar qiyin emas. Mana shunday o'xshashliklarning asosida butun er kurrasida hamma zamonlarda ham mavjud bo'lgan umumbashariy ruhiyat yotadi. Mana shunday tipologik yaqinliklarni tadqiq etish umumjahon estetikasining xarakterli xususiyatlarini oydinlashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Aytilganidek, faqat keyingi davr (bizning zamonamiz)ga kelib so'z san'atining tipologiyasini tadqiq etish ishiga e'tibor yuzaga kela boshladi.

Tipologik tadqiqotlar olib borgan mutaxassislarning fikricha, adabiy ta'sirsiz yuzaga keladigan o'xshashliklar quyidagilarda ko'rinadi:

Mavzu, tuyg'u, g'oya. Kompozitsion qurilmalar, uslub, she'r qurilishi shakllaridagi aloqadorlik. Bunda birinchi navbatda mavzu o'xshashligiga diqqatimizni qaratamiz. San'at, badiiy adabyuiyot bilan yaxshi tanish bo'lgan har qanday kishi mazkur sohalarda tasvir etiladigan mavzular miqdorining

cheklanganini yaxshi biladi. Masalan, Gotssi[6] teatrda bor-yo'g'i o'ttiz oltita tragik kolleziya mavjudligini ko'rsatgan. A. Morua[7] esa romanlarda atigi o'n ikkita asosiy mavzu borligini aniqlagan, B. P. Xashdeu[8] ertaklarning yigirma sakkiz prototipi bo'lishini qayd etgan edi. Albatta, bu raqamlar aniq bo'lmasligi mumkin, biroq shularning o'ziyoq badiiy asarlardagi mavzularning cheklvanganligini ko'rsatadi.

Bir qancha asarlarning hissiy mazmunini o'zaro solishtirganda, ular orasida itipologik o'xshashliklar mavjudligi ko'zga tashlanadi. Paul van Tigem «Revue de littérature comparée» (1940) nashrida yozganidek, o'n sakkizinchi asrdagi adabiy oqimlarda Richardsondan Russo va Gyotegacha inson kechinmalarining jo'shqin tasvirlarini ko'ramiz. To'g'ri, bunday mushtarak hissiyotlar ifodasida adabiy ta'sirning ham o'rni bo'lishi mumkin, biroq, baribir bunda tipologiyaning ustuvorligi yaqqol ko'rinadi.

Badiiy asarlarning tipologik mushtarakligini g'oyaviy yaqinliklar ham yuzaga keltirishini aytish lozim. Bu haqda xorijiy adabiyotlarda bu muammo ancha keng va chuqur tadqiq etilgan. Masalan , Ma'rifatchilik davri tadqiqiga bag'ishlangan ikki jildlik salmoqli tadqiqot muallifi P. Azara[9] o'rta asrlarning an'anaviy aqidalariga hujum qilingan ko'plab hodisalarning g'oyaviy asoslarida o'xshashliklar bo'lganligini ko'rsatgan. O'sha davrda "nasroniylik ustidan sud" Evropaning bir necha mamlakatlarida kuzatilgan. Xurofot va jaholat tanqidi universal

---

[6] Ка́рло Го́цци (итал. Carlo Gozzi; 1720 йил 13 декабрь, Венеция —1806 йил 4 апрель,) — итальян ёзувчиси драматурги, фольклорнинг сюжет унсурлари ва комедия принциплари қўлланган эртак-пьесалар муаллифи (фьяб; fiabe)

[7] Андре́ Моруа́, туғилгандаги исми Эми́ль Салому́н Вильге́льм Эрзо́г (фр. André Maurois, Émile-Salomon-Wilhelm Herzog, 1885 йил 26 июль, Эльбёф —1967 йил 9 октябрь , Нёйи-сюр-Сен) – француз адиби, Французяси аъзоси.академии

[8] Богдан Петричейку Хашдеу (ҳақиқий исми Фаддей Александрович Хиждеу; молд. Богдан Петричейку Хашдеу; рум. Bogdan Petriceicu Hasdeu; 1838 йил 14 [26] февраль, Бессарабия —1907 йил 12 [25] август, Кимпина) — молдаван и румин ёзувчиси, шоир, филолог, публицист,тарихчи.

[9] Поль Гюстав Мари Камиль Азар (фр. Paul Hazard; 1878, Ноордпеен, О-де-Франс — 1944, Париж) — француз олими - тарихчи, файласуф. Сорбонна профессори ,педагог, фан доктори. Француз академияси аъзоси.

xususiyatga ega edi. Turli xalqlarning namoyandalari - Volter, Lessing, Genovezi, Xagedorn bu borada mushtarak konsepsiyalar bo'lganligini ko'rsatganlar. Ayni shu paytlarda Italiya, Fransii, Germaniya, Angliyada teizm (bu ta'limot ateizmning ziddi bo'lib, Xudoning mavjudligini tasdiqlaydi) yuzaga keladi, tabiiy fanlar, tabiiy huquq, dunyoviy va ijtimoiy axloqqa qiziqish kuchayadi, Didroning "Ensiklopediya"si, "Ingliz konstitutsiyasi" ko'pchilikka zavq bag'ishlaydi.

A.N.Veselovskiy tipologiyani folklor motivlari va obrazlarining "ko'chishi" bilan emas, balki ularning "o'z-o'zidan tug'ilishi" mumkinligi bilan bog'lagan edi. Bu holda o'xshashlik, odatda, bevosita aloqasiz yuzaga keladi. Bu erda so'z o'xshash vositalarga ega bo'lgan, lekin kelib chiqishiga ko'ra bir-biri bilan bog'liq bo'lmagan hodisalar haqida boradi. V.M.Jirmunskiy bunday hollarni "stadional analogiyalar" yoki "stadional parallellar" deb ataydi. D.Dyurishin esa "tipologik o'xshashliklar" haqida so'z yuritadi. Stadial analogiyalarning "sof hodisalari" Sharq va G'arbning qadimgi adabiyotlarini keng miqyosda taqqoslash paytida yuzaga keladi. Biroq tipologik tadqiqotlarda genetik izohlarni istisno qilish deyarli mumkin emas, shu sababli komparativistik ishlarning katta qismi genetik va tipologik aloqalarni bir paytning o'zida tadqiq etilishidan iboratdir. Matnlar ko'pincha genetik belgisiga ko'ra qiyoslanadi. Odatda, tagmatnlar tipologik tahlil usullaridan foydalanib taqqoslanadi. Shu bilan birga, boshqacha yondashuvlar ham bo'lishi mumkin. Ba'zan zamon va makon jihatdan yaqin bo'lgan yangi va eng yangi adabiyotlar vakillarini tipologik qiyoslash ancha samarali bo'lib chiqadi. Madaniyat va til tarixi bir qarashda bir-biri bilan hech qanday umumiylikka ega bo'lmagan turli-tuman tagmatnlar uchun umumiy manbani rekonstruksiya qilish imkonini beradi. Intertekstuallik haqidagi tasavvurlarga tayangan holda hozirgi zamon tadqiqotchilari genetik va tipologik aloqalar haqidagi masalandan uzoqlashmokdalar. Bunda matnning "reprezentativlikka" qobil emasligi, ya'ni u "reallikning ham, qandaydir boshqa bir matnning ham o'rnini bosa olmasligi"

haqidagi fikr boshlang'ich punkt sifatida xizmat qiladi. Mazkur yo'nalishga mansub komparativistlar "dialog" va "dialoglilik" atamalarini ko'p qo'llaydilar. Biroq bu tagmatnda "dialog" tushunchasi M.M.Baxtinda mavjud bo'lgan "sotsiofizik reallik" bilan aloqasini yo'qotadi. M.M.Baxtin asarning qabul qilinishining "dialoglashtiruvchi foni"ni belgilab beruvchi "matndan tashqari intonatsion-qimmatli tagmatn" deb ta'riflagan hodisa rad etiladi.

Komparativistikani intertekstual tushunish borasida hozirgi zamon adabiyotshunosi, avstriyalik Zoran Konstantinovich birmuncha boshqacha planda fikr yuritadi. Uning fikricha, yangi yondashuv, eng avvalo, "verbal chegaralardan" chiqishni, muallif va o'quvchi kategoriyalarini bir xil darajada o'rganishni taqozo etadi. Hozirgi zamon komparativistikasi bitta muallifning bitta matni bilan cheklanmaydi, balki o'rganilayotgan matnda "kondensatsiyalangan" barcha matnlarni qamrab olishga harakat qiladi. Bunda matn "palimpsest", ya'ni "ular" (muallif ham, matn ham) hayot davomida daxl qiladigan boshqa barcha matnlar bilan so'zlashuv sifatida qaraladi. Z.Konstantinovichni turli madaniyatlar bir-biri bilan tutashganda yuzaga keluvchi belgilar va kodlarning "nisbatlari" qiziqtiradi. "Hayotning barcha sohalari"ni tahlilga tortgani holda komparativistika, uning fikricha, turli madaniyatlarning o'zaro ta'siri tufayli odamlar ongida yuz bergan o'zgarishlarni o'rganadi. Shu narsa ayonki, ijtimoiy komponent Z.Konstantinovichni M.M.Baxtinga va unnig "dialog"ni tushunishiga yaqinlashtiradi.

Hozirgi zamon komparativistlarida ushbu masalani tushunishda yakdillik yo'q. Ular "intertekstuallik"ni komparativistikaning hozirgi zamon semiotik kulturologiyasi kontekstiga kirishi, adabiy aloqalarni o'rganish yo'lida oldinga qo'yilgan qadam sifatida tushunadilar. Boshqalar esa, yuqorida qayd etilganidek, "badiiy so'zning noprezentativ tabiati" haqidagi tezisni ilgari surganlari holda butun bir qator sathlarni ajratib tashlaydilar. Agar adabiyotga tizim sifatida qaralsa, bu qarama-qarshiliklar qisman bartaraf etiladi: "...bu tizimning har xil funksiyalarga ega bo'lgan turli bo'g'inlari o'zining bayon tilini kasb

etishi zarur. Adabiyotni ochiq tizimga aylantiruvchi to'g'ri va teskari aloqalar mumkin bo'lgan yagona bayon tili haqidagi masalani kun tartibidan olib qo'yadi". Bir qator tadqiqotlarda intertekstual yondashuvning ko'zga tashlanishi bu boradagi bahslarning tugallanmaganligidan dalolat beradi.

Konkret asarni o'tmishda yoki u bilan bir paytda, boshqa milliy adabiyotda yoki o'zi mansub adabiyotda yaratilgan asar bilan qiyosiy tadqiq etish mumkin. Qiyoslash ob'ekti tadqiqot maqsadidan kelib chiqqan holda belgilanadi. Deylik, asarni o'tmishda yaratilgan asar bilan qiyoslash undagi an'ana va yangilik nisbati, ayrim badiiy unsurlar genezisi haqida tasavvur hosil qilish imkonini yaratadi; boshqa milliy adabiyot vakili bilan qiyoslash asosida esa adabiy aloqa va ta'sir, milliy adabiyotlar rivojidagi tipologik umumiylik kabi masalalarni o'rganishga keng imkoniyat yaratiladi. Misol uchun Navoiy va Nizomiy "Xamsa"larini qiyosiy tahlil qilish har ikkala san'atkorning ijodiy o'ziga xosligi, ularning dunyoqarashidagi o'ziga xos jihatlarni yorqin tushunish va tushuntirish, Navoiy dahosini xolis baholash imkonini yaratadi.

Savol va topshiriqlar

1. Qiyosiy tipologik metodning mohiyati, tarixi, asosiy tamoyillari haqida so'zlab bering.
2. Bu metodning badiiy asarni talqin qilishdagi o'ziga xosliklari nimalardan iborat?
3. Qiyosiy tipologik metod asoschilari kimlar?.
4. Qiyosiy tipologik metodning o'zbek adabiyotshunosligiga kirib kelishi haqida nimalarni bilasiz?.

Adabiyotlar

1. Veselovskiy A.N. Istoricheskaya poetika. M., 1989. S. 16.
2. Dima A. Prinsipы sravnitelnogo literaturovedeniya. M., 1977.
3. Dyurishin D. Teoriya sravnitelnogo izucheniya literaturы. M., 1979. S. 143.

4. Jirmunskiy V.M. Sravnitelnoe literaturovedenie. L., 1979. S.100.
5. Jolkovskiy A.G. Blujdayuщie snы i dr. raboty. M.,1994.
6. Jo'raev M. Qiyosiy tipologik metod // Folklorshunoslik asoslari. – T.: Fan, 154-169.
7. Komilova S. Qiyosiy adabiyotshunoslik metodologiyasi masalasiga doir // O'TA, 2009, №6, 76-80-betlar.
8. Rustamov E. Nekotorыe voprosы sravnitelnogo izucheniya uzbekskoy literaturы XV veka s drugimi vostochnыmi literaturami. ADD. Tashkent, 1966.

5-MAVZU. FORMAL METOD

Reja:

1. Formal metod va uning o'ziga xos xususiyatlari.
2. Rus formal metodi asoschilari, namoyandalari.
3. Badiiy adabiyotning shaklini, kompozitsion qurilishini, lug'at tarkibini o'rganish yo'llari.
4. Formal maktabning tarixiy taqdiri.

Tayanch tushunchalar: formalizm, strukturalizm, semiotika, simvolizm, futurizm, akmaizm, akademik adabiyotshunoslikdagi eklektizm, falsafadagi impressionistik talqin, formal maktab, tarixiy ekzistensiya,

Adabiyot nazariyasi bilan shug'ullanuvchi olimlar strukturalizm va semiotika kabi ilmiy sohalarning yuzaga kelishida rus formalizmi yoki formal maktabning hissasi bo'lganligini e'tirof etadilar. Aslida bu maktab OPOYAZ (obщestvo izucheniya poeticheskogo yazыka – poetik tilni o'rganuvchi jamiyat) deb atalib, nisbatan qisqa muddat faoliyat ko'rsatgan (1916-1930 yillar). Dastlab ilmiy to'garak tarzida ish boshlagan bu filologlar jamoasida adabiyot tarixchilari (V. B. Shklovskiy, B. M. Eyxenbaum, Y. N. Tinyanov), tilshunoslar (R. O. Yakobson, E. D. Polivanov, L. P. Yakubinskiy), she'rshunoslar (S. I. Bernshteyn, O. M. Brik) bo'lgan. Ma'lum bir vaqtlarda mazkur guruh faoliyatida keyinchalik filologiya sohasiga u yoki bu darajada hissa qo'shgan A. L. Veksler, B. A. Larin, V. Pyast, L. Y. Ginzburg, E. G. Polonskaya, A. I. Piotrovskiy, M. L. Slonimskiy, V. M. Jirmunskiy, L. V. Shchrba, B. V. Kazanskiy, V. R. Xovin, V. G. Kordi, B. V. Tomashevskiylar ishtirok etganlar yoki unga yaqin bo'lishgan.

Agar G'arbda, shu jumladan, Rossiyada o'n to'qqizinchi asr oxirlari – yigirmanchi asr boshlarida yuzaga kelgan turli-tuman modernistik oqimlar (simvolizm, futurizm, akmaizm) faoliyatiga nazar tashlasak, ular o'z manifestlarini e'lon qilib, shu orqali

bilan jamoatchilikka o'zlarini tanishtirganlar. Bundpay harakatni OPOYAZ ishida ham ko'rish mumkin.

OPOYAZning manifesti sifatida o'sha yillarda Viktor Shklovskiyning "So'zning tirilishi"(1914) va "San'at vosita sifatida"(1917) ishlari yaratilgan edi. Mazkur tadqiqotlarda adabiyotshunoslikdagi san'at, xususan, adabiyotga "obrazlar tizimi" tarzidagi munosabat keskin qoralangan hamda uning o'rniga san'atga ijodkorning usuliy vositalari deb qarash nuqtai nazari olg'a surilgan. Bunday nuqtai nazar keyinchalik san'atshunoslikda "formal usul" deb atalgan.

Poetik til tadqiqotchilarining turli vakillari keyingi yillar mobaynida bunday aqidani u yoki bu darajada qo'llab-quvvatlab yoki inkor etib kelganlar. Xususan V. Shklovskiy bunday munoabatga butun ijodiy-ilmiy faoliyati davomida qat'iy rioya etgan, Y. N. Tinyanov uni muayyan darajada aniqlashtirib mukammallashtirgan.

Ammo opoyazchilarning asosiy faoliyati sovet davriga to'g'ri kelganidan, bunday faoliyat kommunist mafkurachilar tarafidan keskin va ayovsiz tanqid qilingan. Chunki bolshevistik dunyoqarash san'at, ayniqsa, badiiy adabiyotga mafkuraviy qurol sifatida qarar edi. San'atga munosabat "proletar dohiysi" sifatida tanilgan V.I.Lenin tomonidan "Partiya tashkiloti va partiya adabiyoti" nomli maqolasida uzil-kesil belgilab berilgan, san'at va adabiyot kommunistik ta'limot manfaatlarini ifodalashi lozim degan g'ayriilmiy aqida olg'a surilgan edi. Xuddi shu sababga ko'ra yigirmanchi asrning yigirmanchi yillaridayoq bolsheviklarning mutaaasib mafkurachisi bo'lgan L.D. Trotskiyning "Adabiyot va inqilob" (1923) kitobining alohida bobida formal metod keskin tadqid ostiga olindi. Shunday keyin kommunistik mafkura vakillari hamda rasmiy adabiyotshunoslik ushbu metod namoyandalarini muttasil qoralash yo'liga o'tdilar. 1930 yillardagi siyosiy-mafkuraviy jarayonlar tufayli formalizm siyosiy ayblash manbasiga aylandi.

Bu o'rinda shuni aytish kerakki, rus formal maktabi adabiyotshunoslikda bo'm-bo'sh joyda yuzaga kelgan emas.

Uning ilmiy-nazariy zamini Evropa san'atshunosligida o'n to'qqizinchi asrning oxiri – yigirmanchi asr boshlarida G. Vyolflin, O. Vansel, V. Dibelius, L. Shpitser kabi nazariyachi olimlarning tadqiqotlarida yuzaga kelgan.

Formal maktab akademik adabiyotshunoslikdagi eklektizm, shuningdek, falsafadagi impressionistik talqinlarga zid ravishda badiiy asarlarning asosan mazmuniga emas, badiiy shaklning estetik tahlili (poetik til)ga asosiy e'tiborni qaratdi. "Saklparastlar", ya'ni poetik til tarafdorlari adabiyotshunoslikni aniq fanga aylantirish istagida adabiyotning o'ziga xosligini san'atning bir turi ekanligida ko'rdilar.

Badiiy shakl muammolariga qiziqishning yuzaga kelishiga simvolizm, shu bilan birga, futurizm va akmaizmning badiiy-estetik nuqtai nazarlari sabab bo'lgan edi. O'tgan asr boshlarida faoliyat ko'rsatgan bunday adabiy oqimlarning rahnamolari o'zlarining adabiy-estetik qarashlarini maqola, manifest sifatida matbuotda e'lon qilganlar Bunday ishlarda asosiy e'tibor badiiyatga, uni yuzaga keltiruvchi badiiy shakllarga qaratilgan. Formal maktabning nazariy qoidalarini takomillashtirishda OPOYAZ namoyandalari (V.B. Sklovskiy, Y.N. Tinyanov, B.M. Eyxenbaum), Moskva lingistik to'garagi a'zolari (R.O. Yakobson, G.O. Vinokur), shu bilan birga mazkur ilmiy markazga ma'lum bir darajada yaqin bo'lgan San'at tarixi instituti hamda Sankt-Peterburgdagi olimlarning xizmatlari katta bo'lgan.

Tabiiyki, formal maktabning yuzaga kelishi va ma'lum bir muddatda faoliyat ko'rsatishining muayyan ijtimoiy-siyosiy, ilmiy-ma'rifiy sabab va omillari mavjud edi. Tarixning keskin va shafqatsiz evlilish va silkinishlari ro'y berayotgan o'sha tahlikali davr – o'tgan asrning birinchi choragida fan olamida yuzaga kelgan mazkur akademik maktab davrning muvaqqat g'oyalariga emas, so'z san'ati rivojiga mo'ljallangan intellektual harakat edi. Bu qarashni formal maktabning atoqli vakillaridan biri bo'lgan V.B. Shklovskiyning quyidagi fikri ham tasdiqlaydi: "Siyosiy mafkura badiiy asar tahlilida hech qanday ahamiyatga ega emas". Albatta, bu kabi mulohazalar sof badiiyat tarafdorlari

uchun bexavotir bo'lmagan. Ular ko'p yillar davomida "siyosiy ishonchsiz olimlar" maqomida bo'lganlar, yozgan asarlari deyarli chop etilmagan, rag'bat va mukofotlarga loyiq ko'rilmagan. Ushbu oqim namoyandalariga "shakIbozlar" tarzida qaralgan, formal maktabga mavjud tuzumga mutlaqo yot bo'lgan ijtimoiy hodisa deb baho berilgan. Bolshevizmning g'oyaviy rahnamosi hisoblangan L. D. Trotskiy 1921 yilda e'lon qilingan "Poeziyadagi formal maktab va marksizm" maqolasi bilan mazkur maktabga keskin hujum jarayonini boshlab berdi. Umuman olganda, butun sovet davrida bu kabi xurujlar davom etib kelgan.

Holbuki, aynan formal maktab jahon adabiyotshunosligida sezilarli o'rin tutgan strukturalizmning yuzaga kelishiga jiddiy ta'sir o'tkazgan. Rossiyadagi ijtimoiy silkinishlar tufayli muhojirlikka ketgan R. O. Yakobson Praga lingvistik to'garagida faoliyat ko'rsatadi. Uning filologik tadqiqotlari badiiy matnni struktur tadqiq etishda qo'llanilgan.Shuningdek, formal maktab olimlari tomonidan olingan natijalar nafaqat strukturalizm, shuningdek, poststrukturalizm, semiotika/semiologiya kabi zamonaviy fan sohalarining yuzaga kelishida ilmiy-amaliy zamin sifatida ham xizmat qilgan.

Mana shunday xuruju hujumlar oqibatida 1924 yilga kelib formalizm va uning mohiyati xususida muzozara o'tkaziladi va OPOYAZ faoliyatiga chek qo'yiladi. Ushbu maktab vakillari uchun gazeta va jurnallar o'z eshiklarini yopadilar. Natijada ularning ayrimlari (B. V. Tomashevskiy va B. M. Eyxenbaum) akademik adabiyot-shuyonoslik sohasiga o'tdilar, boshqalari esa (V.B. Shklovskiy i Y. N. Tinyanov) badiiy ijod bilan shug'ullana boshladilar. Oradan yillar o'tib, shaxsga sig'inish, ommakviy terror oqibatlari sovet davlatida muayyan darajada qoralana boshlagan iliqlik davriga kelib V. B. Shklovskiy umrining so'nggi ikki o'n yilligida OPOYAZ davridagi faoliyatiga qaytib uchun o'zida kuch topa olgan edi.

Tarix hamisha ziddiyat-paradodokslarga to'la bo'ladi. Bu fikrni formal maktab namoyandalari hayoti va taqdirida aniq

ko'rish mumkin. Formal maktabning taniqli vakillaridan birortasi ham o'sha mash'ul davrida qatag'on balosiga duch kelmagan. Ularni keskin qoralagan g'oyaviy raqiblari – sotsiologik maktab (B. C. Pereverzev, I. Grossman-Roщin), marksist-tanqidchilar (G. Gorbachyov, G. Lelevich) esa qamoqqa olingan va ko'plari otib ham tashlangan edi. Bundan tashqari. Stalin hukmronligi davrida sobiq formalistlar matbuotda taqiqlangan olimlar rukyzxatiga tushmaganlar, ular hatto 1948-1953 yillardagi navbatdagi qatog'on bo'ronidan ham omon qolishgan. Ular birin-ketin o'zlarining ilmiy mashg'ulotlariga qaytib, ilmiy faoliyatni davom ettirganlar. V. B. Shklovskiy hayoti misolida shuni aniq ko'rish mumkinki, bunday faoliyat juda samarali va sermahsul bo'lgan.

O'tgan asrning elliginchi yillari oxiri – olmishinchi yillari boshiga kelib jahon ilmiy tafakkurida formalizmga yangi qiziqish to'lqini yuzaga keldi. Bunday qiziqishni G'arb bilan bir qatorda Sharqiy Evropada, shuningdek, ma'lum darajada sobiq ittifoq adabiyotshunosligida ko'rish mumkin.

Bir paytlar formal maktabga qarshi bo'lib, u bilan kurashgan oqim va maktablar esa boshqa taqdirga duchor bo'ladilar. Sovet estetikasidagi barcha sotsiologik, shu jumladan, markstistik yo'nalishlarga siyosiy zararli ("trotskiychilik", "buxarinchilik") tamg'asi bosilgan. G'arb adabiyotshunosligiga esa bunday oqimlar mavjud emas edi. Formalistlarning bunday omadli taqdirga ega bo'lishlarining asosiy sababi ularning muvaqqat siyosiy ta'limotlarga asoslanmaganliklarida edi.Shuningdek, ularning badiiy adabiyot namunalarini tadqiq etishdagi o'ziga xos usullari ham bu boada muayyan ahamiyat kasb etishini ko'rsatish lozim. Avvalambor, adabiyotshunoslikda formal maktabning unga qarama-qarshi bo'lgan oqimlardan g'oya, metod va umumiy yondashuv jihatidan qanday farqlanishini ko'rib chiqish lozim. "G'ayriformalistik" munosabatlardagi mushtaraklik birinchi navbatda iroda lahzasi, ongli tanlovga urg'u beriladi. Markstist tanqidchi, sotsiologik metodga asoslangan tadqiqotchi badiiy adabiyotga tashqaridan

– adabiy tizim sarhadidan chetda turib yondashadilar. Bunday tashqari, ular ijtimoiy doiradagi, diniy qadriyatlar hududidagi so'z san'atining joriy holati bo'yicha qat'iy shakllangan qarashlar tizimiga ega bo'ladilar. Bunday yo'nalishlar badiiy adabiyotga aloqador hamma hodisalar ma'lum bir ijtimoiy guruh yoxud muhit g'oyalarini aks ettiruvchi muallifning ongli irodasiga bog'liq degan nuqtai nazarga asoslanadi. Binobarin, adabiy-badiiy taraqqiyot oqimidagi har qanday hodisa kimningdir ongli qarori, tanlovitga bog'liq bo'ladi.

Adabiyotni o'rganishdagi formal munosabat bunday yondashuvni inkor etmaydi. Biroq formal maktab a'zolari boshqacha – qarama-qarshi yo'lni tanlaganlar. Unga ko'ra kommunikativ tizim sifatida faoliyat ko'rsatadigan tildagi "ongsizlik" jarayonlarining universal empirik oqimiga asoslaniladi. Aniqroq qilib aytadigan bo'lsak, so'z san'ati namunalari qandaydir mafkura, ta'limot, siyosiy aqidalar talabi, tazyiqlari asosida emas, inson (muallif) tafakkurining juda chuqur qatlamlaridagi jarayonlarning mahsuli sifatida yuzaga keladi. Adabiyotshunoslikdagi formal yondashuv so'z san'atini til faoliyatining yana bir – g'oyat muhim va favqulodda noyob tizimi tarzida baholaydi va o'rganadi. Aytib o'tganimizdek, badiiy matnning ma'lum bir qatlamida ijodkor (muallif0ning siyosiy-mafkuraviy qarashlari, dunyoqarashi ham o'z ifodasini topadi. Biroq bunday qarashlar hal qiluvchi, ustuvor o'ringa ega bo'lmaydi.

Bu o'rinda aytish kerakki, adabiyotshunoslikdagi formal metod o'zaro aloqador deduktiv nazariya sifatida emas, adabiyot sohasidagi ba'zi "re zonans nuqtalari" tarzida namoyon bo'lgan edi. Mana shunday aloqa-munosabatlarni topish va o'rnatish asta-sekin butun nazariyaning shaffofligini yuzaga keltirdi. Bunda "ongsizlik" "ongli" munosabatlarga ko'chirildi, boshqacha aytganda til munosabatlari qiymatiy mulohazalarga aylantirildi.

Aytib o'tilganidek, formal maktabning fan sahnasiga chiqishi Viktor Shklovskiyning "So'zning tirilishi", "San'at usul

sifatida" degan maqolalari bilan boshlangan edi. Aynan mana shu adabiyotshunols yigirmanchi asrning saksoninchi yillariga kelib o'zining ikki jildlik "Saylanma" (Moskva, "Xudojestvennaya literatura" nashriyoti, 1983)sini chop ettirdi. Bu nashrda u butun ilmiy faoliyati davomida badiiy adabiyotga munosabatlari barqaror ekanligini ko'rsatadi. Bunday yondashuvni quyidagicha bayon qilish mumkin: adabiyot va adabiy asar hech qachon muallif rejasi, nuqtai nazarlari bilan belgilanmaydi. F. I. Tyutchev yozganidek, "adabiyot siz o'ylagan narsa emas". So'z san'ati, uning mahsuli bo'lgan badiiy matn o'zining ichiki qonuniyatlari, ob'ektiv mezonlar asosida yuzaga keladi va harakatlanadi.

Formal maktabgacha bo'lgan adabiyotshunoslik maktablarining aksariyatida so'z san'atiga u yoki bu darajada mafkuraviy hodisa sifatida qaralgan. Yigirmanchi asrning yigirmanchi-o'ttizinchi yillarida tarixiy plpndagi eklektik adabiyotshunoslik ancha keng yoyilgan edi. Unga ko'ra, adabiyot taraqqiyotining ma'lum bir davri muayyan bir ijodkorning tarjimai holi tarixiylik mezoniga asosan ocherk tarzida yoritilgan. Bunday yondashuvga adabiyo-badiiy hodisani teran tadqiq etish xususiyati mavjud emas edi. O'sha paytlarda g'arb estetikasida sof biografik plpndpgi o'nlab tadqiqotlar mavdjud bo'lgani hoda rus adabiyotshunosligida bunday ishlar deyarli yaratilmagan. To'g'ri. Merejkovskiyning Gogol, Tolstoy, Dostoevskiy haqida yozgan ishlari bo'lgan, ammo mazkur ishlarda adib tarijimai hg'olining badiiy ijodga ta'siri deyarli yoritilmagan. Ushbu asarlarni Germaniyada chop etilgan Gyote va Shiller yoxud Romen Rollanning Betxoven haqidagi biografik kitoblari bilan solishtirib ham bo'lmaydi. Buning asosiy sababi shundaki, rus (shu bilan birga sobiq ittifoq hududiga kirgan etnik birliklar) tarixshunosligi va adabiyotshunosligida tarixiy-tadrijiy jarayon oqimi birinchi o'ringa qo'yilib, muayyan bir atoqli tarixiy shaxsning buyuk xizmatlari orqa planga qoldirilgan.

Formal maktab badiiy adabiyotga bunday mafkuraviy-ijtimoiy yondashuvdan voz kechib, unga tafakkur, til nuqtai nazaridan qarash va baholash yo'lidan bordi. Uning bunday yo'li Marburg maktabi namoyandalari G. Kogen i P. Natorp, shuningdek, E. Gusserlning fenomenologiyasidagi tafakkur falsafasi bilan hamohang va mushtarak ekanligini ko'rsatadi. Shu kabi izlanishlar badiiy adabiyot hodisalarini yuzaki (ong darajasida) baholash bilan kifoyalanmay, teran (ong osti va "ongdan tashqari") tarzda o'rganish lozimligini ko'rsatdi. Bu o'rinda aytish kerakki, badiiy adabiyotdagi yuzaki va teran jarayonlar qandaydir boshqa mafkuraviy yoxud ijtimoiy sathlar doirasida emas, badiiy matn yoxud ayrim bir adibning butun ijodi yoki adabiy-badiiy jarayonning ichida ro'y berishini hashima diqqat markazida tutish lozim.

Adabiyotshunoslikdagi formal maktabning asosiy maqsadi ma'lum bir milliy adabiyotdagi barcha jihatlarni butun ichir-chikirlari bilan qayd qilib borish emas. so'z san'ati taraqqiyoti "mato"sini yuzaga keltirgan chigal "ip"larni ajratib olish, ichki qonuniyatlar oqimida yuzaga kelgan muhim qonuniyat va mezonlarni aniqlash, adib ijodi kodini hamda poetik tilini aniqlash, baholashdan iborat.Bu kabi xususiyatlar jamiyat va uning aqidalari tomonidan belgilanmay, har bir ijodkor va har bir badiiy matn tomonidan alog'ida tarzda ishlab chiqiladi. Yozuvchi kodini rasshifrovka qilish oxir-oqibat muayyan ijodkor yoki ma'lum bir asarning mog'iyatini oydinlashtirish imkonini yaratib beradi. Shunday munosabat adabiy asardagi badiiyatning yuzaga kelganini ko'rsatadi. Formal maktab a'zolarini fikricha, badiiylik yoki badiiyat adabiyotshunoslikning ustuvor muammosidir.

Aytish kerakki, formalizm vakillari o'z nazariyalarini preskriptiv, ya'ni o'ylab topilgan emas, deskriptiv (adabiyotda mavjud bo'lgan aniq hodisalar) ekanligi ni ta'kidlab kelganlar.

B. M. Eyxenbaum (1886–1959) ning 1924 yilda chop etilgan "Formal metod nazariyasi" tadqiqotida formal maktabning asosiy prinsiplari va tadrijiy rivojlanishi nisbatan

aniq va mufassal bayon etib berilgan. Mazkur ishda formalizm tayyor andaza emas, muttasil taraqqiy etib mukammallashib boruvchi usul sifatida tavsiflangan edi.Bunday tadrij birinchi navbatda adabiy-badiiy jarayonning turli bosqichlarida qo'llanavchi badiiylik tushunchasining o'sib-o'zgarib borishi bilan bog'liq.Bu haqda B.M. Eyxenbaum o'zining lingvistik tadqiqotlari bilan adabiyotshunoslikda formal maktabning bevosita izdoshi bo'lgan struktural maktab tamal toshini qo'ygan R.O. Yakobson qarashlariga asoslanib shunday deb yozgan edi: "adabiyot ilmining ixtisoslashuvi va aniqlashuvi prinsipi formal maktabning yuzaga kelishi uchun asos bo'lgan edi". A. Veselovskiy fikriga ko'ra, butun urinishlar «res nullius», ya'ni egasiz soha bo'lgan badiiy adabiyotdagi avvalgi ahvolga chek qo'yishga qaratilgan edi. Aynan ana shunday munosabat formalistlarning harakatlari boshqa "metod"lar tarafdorlari, xususan, eklektiklarning keskin qarshiligiga sabab bo'ldi. Formal maktab vakillari boshqa "metod"larni inkor etar ekanlar, aslida ularni emas, turli fanlar va har xil ilmiy muammolarni hech bir asossiz aralashtirib yuborishga qarshi bo'lganlar. Ularning nuqtai nazaricha, adabiyot fanining predmeti adabiy materialning boshqa sohalardan farq qiluvchi o'ziga xos xususiyatlarini tadqiq etish bo'lishi lozim edi. Bu haqda o'sha yillarda R.O. Yakobson aniq-tiniq qilib shunday deb yozgan: "Adabiyot haqidagi fanning predmeti adabiyot emas,adabiy asarni yuzaga keltiradigan badiiylik bo'lishi kerak"[10]

Doimo o'zgarib va rivojlanib boruvchi badiiylik tushunchasini Eyxenbaum formal metodi asosida ko'rib chiqamiz. Dastavval bunday tadrijiylik poetik (badiiy) sohani amaliy sohadan ajratish harakati bo'yicha yuzaga kelgan umumiy prinsiplardan boshlangan. Bunday prinsiplar avvalgi – psixologik jihatdan nazarda tutilgan estetika bo'lishi lozim ko'rilgan joydan o'rin olgan emas edi. Bu estetika an'anaviy tarzda shakl deb atalgan. Formal maktab asoschilarining

[10] Новейшая русская поэзия». Прага, 1921, с. 11

dastlabki tadqiqotlaridayoq asosiy o'ringa tayyor va oldindan belgilangan statik shakl emas,shaklni qo'llash, shakl hissiyoti, mazkur hissiyot xillari orasidagi almashinuv chiqadi. Viktor Shklovskiyning so'zning tirilishi, ya'ni so'zni qabul qilish, his etish haqidagi etakchi hoyasi ana shundan kelib chiqqan edi. Aslida shaklni, uning dinamikasini anglash badiiylikning yuzaga kelishi demakdir. Keyinroq Roman Yakobson Eyxenbaumning mana shu qarashini "hissiyot shakli" "ifoda tarziga e'tibor", "axborotga mo'ljal"ga, "badiiylik" esa "poetik vazifa"ga aylanadigan yanada ko'lamliroq nazariyaning aloqa jarayoni tarzida baholagan edi.

B.M. Eyxenbaum opoyazchilarning she'r va nasr poetikasi, jumladan, Viktor Shklovskiyning nasr nazariyasi, shuningdek, o'zining Anna Axmatova she'riyati. Gogol nasri haqidagi ishlarini ham nazariy tahlil qilgan. U bunday ishlarida bir tarafdan u yoki bu muallif ijodi poetikasini o'rganishda kashfiyot bo'lgan muayyan tadqiqotlarida umummetodologik muammolarni oldinga surgan bo'lsa. boshqa tomondan esa nasr va she'riyatni tadqiq etish prinsiplarini qat'iy ravishda qarama-qarshi qo'yadi. Uning ta'limotida formal metodda "usul" tushunchasi markaziy o'ringa qo'yilgan. Uningcha, aynan dinamik usul "formal unsur" tushunchasi o'rnini egallashi lozim edi.

She'riyat uchun maxsus xoslangan usullar bilan birga nasriy poetik qurilmalarga mo'ljallangan usullar ham bor. Badiiy asarni modullashtirish, barcha unsurlari o'zaro birlashib bir butunlikni tashkil etuvchi yagona tizimni shakllantirishga xizmat qiladigan she'r tadqiqiga mo'ljallangan maxsus poetik usullar ham mavjud. Bunday usullarga ritmning barcha turlari, tovush va musiqiy vositalar, parallelizmlar, sintaktik qurilmalar, takrorlar, formulalar tarzidagi semantik shakllar, kenning(jumboq)lar, tenglamalar kiradi. Ayitish kerakki. Har qanday turdagi shakllar xususida gap ketganda, barqaror shakllar nazarda tutiladi. Shakliy nutq esa umumiy inson nutqini ifodalaydi. Bunday nutqni esa keyinchalik P. O. Yakobson aloqa-munosabatning "poetik vazifasi" deb atagan edi.

Nasriy matn izchilligini shakllantiradigan, modullashtiradigan maxsus nasriy usullar ham mavjud. Ular izchil bayon bilan bog'liq suksessiv syujet, qandaydir bayoniy narrativ lavhalar, tasvirlar yoki narrativning yaxlitligini yuzaga keltiradigan bob yoxud fasllardan tashkil topgan kompozitsion izchillik bo'lishi mumkin. Bularga kompozitsion barqarorlik, nasriy suksissiyani bo'laklash bilan bog'liq barcha usullar, shu jumladan,qoliplash,ajratish, haqiqiy yoki virtual aloqa, narrativ va kompozitsion bo'laklarning turli xil eliziyalar, aksincha, ularni jo'rttaga kengaytirish, cho'zish, narrativ yo kompozion izchillikni ataylab buzish kabilar kiradi.

Formalistlar adabiyot tarixini sui generis, ya'ni adabiy shakl, adabiy usul, adabiy janr, umumlashtirib aytganda, poetika tarixi sifatida o'rganishni taklmf qilgan edilar. V. Y. Propp i O. M. Freydenberg kabi olimlarning ishlari ana shunday "tarixiy poetika"ni yaratish bo'yicha urinishlar bo'lgan. Opoyazchilardan ayniqsa Shklovskiy, Eyxenbaum i Тынyanov adabiy janrlar tarixi, shuningdek, ichki va tashqi adabiy aloqa va ta'sirlar masalariga alohida e'tibor qaratgan edilar.

Badiiy adabiyotdagi tarixiy jarayonning o'ziga xosligini anglashga qaratilgan bunday juda qiziqarli va samarador urinish-intilishlar davomida "formalistlar" adabiyot xosligini tarixiy ekzistensiya tarzida baholashga imkon beradigan bir qator tushuncha hamda konseptual yondashuvlarni ishlab chiqishga yordam berdi.

Formal maktab vakillarining ta'limotlariga asosan adabiyot tadriji ko'hna, an'anaviy janrlarni adabiy markazdan chetga surib chiqaradi, buning natijasida bo'sh qolgan hududga oldin rasm bo'lmagan janrlar kirib kela boshlaydi. Formal maktab namoyandari tadqiqotlarida bu fikrni isbotlaydigan ko'pgina misollar keltirilgan. Jumladan. O'n to'qqizingchi asr rus she'riyatida avvallari noodatiy va "xonaki" shakl sanalgan bag'ishlov Pushkin davri shoirlari ijodida etakchi lirik janrlardan biriga aylanadi. Nasr haqida gapiradigan bo'lsak. Bunday xususiyat roman strukturasida ham yaqqol namoyon

bo'lganini ko'rish mumkin. Dostoevskiy ijodida shuni aniq ko'rsa bo'ladiki, avvallari "tuban janr" sanalgan politsiya romani, shahar miskinlari haqidagi hikoyalarga xos alomatlar yirik epik janr strukturasida bo'y ko'rsatgan. Eyxenbaum yigirmanchi asr poeziyasi bhyicha fikr yuritar ekan, Aleksandr Blok lirikasi shahar va lo'lilar romansining chekka hamda "quyi" an'analarini o'zlashtirish asosida yuzaga kelganini ko'rsatgan edi.

Jahon adabiyotshunosligi tarixida alohida o'rin tutgan formal maktab faoliyati badiiyatga asosiy e'tiborni qaratgani va badiiy matn tadqiqi yo'lida dadil tajribalar qilganligi bilan alohida o'rin va mavqega ega bo'ldi. Formal maktab tadqiqotlari strukturalizmning yuzaga kelishi va kamolotida katta ahamiyatga ega bo'ldi.

Savol va topshiriqlar

1. Formal metodning o'ziga xos xususiyatlarini sanab bering.
2. Rus formal metodi asoschilari va namoyandalari kmmlar?
3. Badiiy adabiyotning shaklini, kompozitsion qurilishini, lug'at tarkibini o'rganish yo'llari nimalardan iborat7
4. Formal maktabning tarixiy taqdiri haqida ma'lumot bering.

Adabiyotlar

1.POYAZ // Literaturnaya ensiklopediya terminov i ponyatiy / Pod red. A. N. Nikolyukina. — Institut nauchnoy informatsii po obщestvennыm naukam RAN: Intelvak, 2001. — Stb. 696—697. — 1596 s. — ISBN 5-93264-026-X.

2. *Valsel O.* Problema formы v poezii Arxivnaya kopiya ot 27 avgusta 2006 na Wayback Machine. — Pg.: Academia, 1923.

3.Depretto K. Formalizm v Rossii: predshestvenniki, istoriya, kontekst. — M.: Novoe literaturnoe obozrenie, 2015.

4. Levinton G.A. OPOYAZ // Lingvisticheskiy ensiklopedicheskiy slovar. — M.: Sovetskaya ensiklopediya, 1990.

5.Levchenko YA. S. Drugaya nauka: Russkie formalistы v poiskax biografii. — M.: Izdatelskiy dom Vыsshey shkolы ekonomiki, 2012.
6.Trotskiy L. D. Formalnaya shkola poezii i marksizm Arxivnaya kopiya ot 16 iyulya 2006 na Wayback Machine (glava iz knigi «Literatura i revolyusiya», 1923).
7.Xanzen-Leve O. A. Russkiy formalizm: Metodologicheskaya rekonstruksiya razvitiya na osnove prinsipa ostraneniya. — M.: YAzыki russkoy kulturы, 2001.
8.Shklovskiy V. B. Iskusstvo kak priyom Arxivnaya kopiya ot 12 noyabrya 2006 na Wayback Machine (1917).
9.Eyxenbaum B. M. Kak sdelana «SHinel» Gogolya[1] (1919).
10.Eyxenbaum B. M. Melodika russkogo liricheskogo stixa Arxivnaya kopiya ot 29 maya 2011 na Wayback Machine (1922).
11.Eyxenbaum B. M. O. Genri i teoriya novellы Arxivnaya kopiya ot 7 marta 2007 na Wayback Machine (1925).
12.Eyxenbaum B. M. Teoriya «formalnogo metoda» Arxivnaya kopiya ot 16 iyulya 2006 na Wayback Machine (1925, opubl. na russkom yazыke 1927).
13. O'zbek adabiy tanqidi. XX asr adabiyotshunosligi. Antologiya. –T.: Turon-Iqbol, 2011.
14. Karimov B. Adabiyotshunoslik metodologiyasi. Filologlar uchun o'quv qo'llanma. – Toshkent, 2011.

6-MAVZU. STRUKTURAL METOD

1. Struktural metodning mohiyati, tarixi, asosiy tamoyillari.
2. Struktural tahlil metodining asoschilari – L.Stross, R.Bart haqida.
3. Struktural poetika.
4. Struktural tahlil metodining o'zbek adabiyotshunosligiga kirib kelishi.

Tayanch tushunchalar: struktural metod, struktural poetika, matn strukturasi, struktura, badiiy matndagi eng kichik bo'lak, badiiy matnni struktur tahlil qilish, psixologik roman, gotik roman, natural maktab, oq she'r, badiiy matn, matn, Kopengagen (glossemantika) ilmiy maktabi, Amerika (deskriptivnaya lingvistika) ilmiy maktabi, diskurs, ichki bog'lanish va aloqalar/

Strukturalizm (lat. structure –qurilish, joylashtirish) nisbatan yangi soha bo'lib, matn strukturasini o'rganish bilan shug'ullanadi. Binobarin, strukturalizmning o'rganish predmeti bu matn strukturasidir. Bu o'rinda struktura atamasining quyidagi ma'nolari borligigiga e'tibor qaratish lozim:

1)an'anaviy ma'noda: atama bu ma'noda adabiyotshunoslikda ko'pdan beri qo'llanib kelinmoqda. Bunda she'riy asarlardagi bayt, band, nasriy janr namunalarida fasl, bob, bo'lim, dramatik janrlarda remarka, diolog, monologlarning muayyan tartibda joylashishi tushuniladi;

2) yangi-zamonaviy ma'noda. Bunda esa badiiy matndagi eng kichik bo'laklarning bir-biri bilan o'zaro aloqa-munosabatlaridan tashkil topgan yaxlit qurilma – tizim tushuniladi. Strukturalizm aynan mana shu ma'nodagi strukturani o'rganish bilan shug'ullanadi.

Adabiyotshunoslikdagi strukturalizm badiiy matnni struktur tahlil qilishga mo'ljallangan va nazariy hamda metodologik konsepsiyaga ega bo'lgan alohida bir soha

hisoblanadi. Undagi izchil metodika yordamida matnning badiiy qurilmasi va tasvir vositalari tizimini teran va atroflicha tahlil qilish imkoniyati mavjud. San'at va adabiyotning istalgan hodisasi (deylik, Uyg'onish yoki barokko davri rangtasvir namunalari. Psixologik roman, gotik roman, natural maktab, qofiyali yoxud oq she'r va boshqalar muayyan o'lchamlarga ega struktura tarzida ko'rib chiqilishi mumkin).

Strukturalizmda matn, shu jumladan, badiiy matnga bir butunlik (yaxlit tizim) sifatida qaraladi. Tahlil jarayonida badiiy matnni mazmun tashkil etuvchi bo'laklarga ajratish mumkin. Bunday bo'laklarga ajratish bshqa ilmiy usullarda, masalan, anatitik metodda ham bor. Binobarin, matnni ma'lum qismlarga ajratish bu sohasining ustuvor va birdan bir yo'li deb qaralmasligi kerak. Badiiy matn qismlarga muayyan bir maqsad bilan, ya'ni bo'laklar orasidagi aloqa-bog'lanishlarni ko'rsatish va isbotlash uchungina ajratiladi. Aynan mana shunday poetik munosabatlar tufayli matn yaxlitligi yuzaga keladi.

Strukturalistlar uchun badiiy matn faqat tashqi omillar ta'siri sub'ekti bo'lib qolmasdan, u o'z immanent xususiyatlari ob'ekt bo'lib hisoblanadi.

Shuni aytish lozimki, barcha fan sohalari singari strukturalizm ham o'zining ilmiy-nazariy zaminiga ega. Uning xalaflari sifatida OPOYAZ (poetik tilni o'rganish jamiyatining a'zolari (V.Shklovskiy, B.M.Eyxenbaum, , Y. N. Tынyanov, R. O. Yakobson, E. D. Polivanov, L. P. Yakubinskiy, A. L. Veksler, B. A. Larin, V. Pyast, L. Y. Ginzburg, E. G. Polonskaya, A. I. Piotrovskiy, M. L. Slonimskiy, V. M. Jirmunskiy, L. V. Щerba, B. V. Kazanskiy, V. R. Xovin, V. G. Kordi, B. V. Tomashevskiy). Praga lingvistik to'garagi a'zolari (V.Matezius, B.Gavranek, Y. Mukarjovskiy, N. Trubetskoy) nomlarini aytib o'tish mumkin. Mazkur olimlarning aksariyati asosan til muammolari bilan shug'ullanganlar. Masalan, ular fonetikani nutq tovushlari haqidagi fan, fonologiyani esa til tovushlarini o'rganuvchi soha sifatida ko'rsatganlar. Ularning bunday qarashlarga kelishlariga, tabiiyki, Ferdinand de Sossyurning til va nutq thg'risidagi yangi

ta'limoti asos bo'lib xizmat qilgan. Ammo ularning bunday ishlari struktural tadqiqotlarni adabiyotshunoslik sohasiga olib o'tishga imkon yaratgan. Shu bilan birga. mazkur tadqiqotchilarning ilmiy asarlari filologik xarakterga ega edi. Adabiyot ilmiga strukturalizmning kirib kelishi va o'z o'rniga ega bo'lishida Kopengagen (glossemantika), Amerika (deskriptivnaya lingvistika) ilmiy maktablarining ham alohida hizmatlari bor edi.

Olimlarga keng ko'lamli badiiy strukturalarni o'rganish ko'pchilik asarlarda mazmun tashkil etuvchi takroriy jihatlarni aniqlash imkonini yaratib berdi. Jumladan, obrazlar harakatidan chetda turib zarur paytda yordamga keladigan **donator** (homiy), shuningdek, bosh qahramonga qarama-qarshi bir yoki bir turkum obrazlarni ifodalovchi antogonist mif, epos, sehrli ertaklarlarda ishtirok etadilar. Bunday obrazlar jahon eposi va yozma adabiyoti namunalarida mavjud. Masalan, "Alpomish" dostonidagi Shohimardon pir shunday badiiy timsollar sirasiga mansub. U Alpomishga homiy sifatida harakat qilib metsenat yoki donator obrazining jahon adabiyotida bir qadar keng darqalgan badiiy strukturasini namoyon etadi. Yoki Lev Tolstoyning "Urush va tinchlik" roman-epopeyasidagi "urush" bilan bog'liqboblar "tinchlik" haqidagi boblar bilan almashinib turadi hamda bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan dunyoqarashlarni ifodalaydi. Roman-epopeya tarkibidagi obraz, tashbeh, istioralar tizimi ana shu binar strukturaga bo'ysungan holda yuzaga keladi.

Strukturalizmning faol taraqqiyoti yigirmanchi asrning 50-60-yillariga to'g'ri keladi. Shundan keyin u o'z o'rnini vorisi hisoblangan porstmodernizmga bo'shatib bera boshladi. Shunisi e'tiborliki, postmodernizm uchun juda muhim bo'lgan **diskurs** tushunchasi aynan strukturalizm davrida izohlanib ilmimy iste'molga kiritilgan. Bu shundan dalolat beradiki, strukturalizm tanazzulga uchramagan, balki fanda yangi soha va yo'nalishlarning yuzaga kelishi uchun imkoniyat hamda maydon yaratib bergan. Mazkur fikr isbotini semiotika misolida ham

ko'rish mumkin, Chunki semiotik tadqiqotlar jarayorida hanuzgacha struktural usul va vositalar istifoda etilmoqda.

Strukturalizm ijtimoiy va madaniy hodisalar asosida yotuvchi modellarni oydinlashtirishga harakat qiladigan harakat bo'lib hisoblanadi. Bu ilmiy sohaning shakllanishida fanda til bo'yicha alohida yo'nalish sanalgan struktur lingvistika jeiddiy ahamiyatga ega bo'lgan. Strukturalizm vakili madaniyat hodisa (kiyim-kechak, urf-odatlar...)larini u yoki bu jamoa tomonidan istifoda etiladigan "tillar" sifatida ko'rib chiqadi.

Bu sohaning o'z tarafdorlari, muxlislari bo'lganidek, muxoliflari ham bor edi. Antissietizm (ekzistensializm, personalizm, marksizm, fenomenologiya) namoyandalari strukturalizmni kritike kak ssientistik, «hayrigumanistik» oqim deb da'vo qillganlar.

Quyidagi olimlar strukturalizmning asosiy namoyandalari deb e'tirof etilgan: F. De Sossyur, lingvist R. Yakobson (1896-1982), antropolog K. Levi-Stross (1908), literaturoved R. Bart (1915-1980), tarixchi va madaniyat nazariyachisi M. Fuko(1926–1984), psixoanalitik J. Lakan (1901–1981), faylasuf L. Altyusser (1918–1990).

Strukturalizmning asoschisi buyuk fransuz allomasi Ferdinand de Sossyur (26.11.1857–22.02.1913)dir. Sossyur til va nutq orasidagi bog'liqlik bilan birga ular orasidagi tafovutlarni ham aniqlagan. Uning fikricha, tilshunoslik asosiy e'tiborini nutqqa qaratishi va bu tizim strukturasini uning unsur hamida atamalarini belgilash orqali tavsif etishi lozim bo'ladi.

Strukturalizm o'tgan asrning yuqorida aytib o'tilgan muayyan bosqichlarida G'arb mamlakatlari, ayniqsa. Fransiyada katta ta'sirga ega edi. Hatto G'arbda paydo bo'lgan har qanday gumanitar ta'limot, nazariyaga hamisha inkor munosabatida bo'lib, ularni "burjua mafkurasi hosilasi" deb biladigan sovet estetikasi ham o'sha yillarda strukturalizm, xususan, semiotikani ma'lum darajada e'tirof etib, cheklangan holda bo'lsa-da qabul qilishga majbur bo'lgan.

Klod Levi-Stross (28.11.1908–31.10.2009) fransuz etnografi va sotsiologi, strukturnoy antropologiya vakili. Uning struktur antropologiyasining metodologik asosini struktur lingvistika va madaniyat va ijtimoiy qurilmalarning tahlili jarayonida axborot nazariyasi usullari, shuningdek, nikoh tartibi talqini, qarindosh-urug'chilik istilohlari turkumi, totemizm, marosim, niqoblar, asotirlarga ruhiy arxitiplarni ifoda etuvchi alohida tillar sifatida qarash hamda baholash "Strukturalizm – bu Levi Strossdir" - deyiladi Jan Mari Ozianing 1967 yilda nashr etilgan "Strukturalizm kaliti" kitobida.

Strukturalizm mif va badiiy matn strukturasidagi unsurlarning ichki bog'lanish va aloqalarini o'rganuvchi fandir. Bu fanga XX asrning 40-50 yillarida fransuz etnologi Klod Levi-Stross asos solgan. U Markaziy va Janubiy Amerika miflarini yig`gan va miflarni sistemalashtirish jarayonida strukturalizmning yangi metodlarini ishlab chiqqan. Levi-Stross tomonidan kollektiv ongsiz va ong osti qatlamlari invariant sifatida qaralgan. U miflarni o`rganish jarayonida bir mifning bir qancha variantlariga duch keladi. Variant xar xil, mavzu esa bir xildir.

K. Levi-Stross statik strukturalist edi. Levi-Stross ishlaridan biri "Mavzu va variantlar" deb ataladi. Bu asarda mifning mavzusiga invariant, uning turli hududlarda tarqalgan turlari, ko`rinishlari variant deb qaralgan.

Levi-Stross evropasentrizm va irqchilikning qat'iy muxolifi edi. Shu boisdan u Markaziy va Janubiy Amerikadagi tub aholining "ibtidoiy" tafakkurini maxsus ilmiy usullar yordamida tadqiq etdi va bunday tafakkur butun insoniyat tarixi uchun mushtarak ekanligini nazariy jihatdan isbatlab berdi. U hayotning boshqa qirralarida mustaqil mifologik ongni jamoaviy ongdan nisbiy tashqari hodisa tarzida ko'rib chiqib, u qadimiy va zamonaviy inson uchun umumiy ekanligini ko'rsatadi. Uning kuzatishlariga ko'ra, mifning ilmiy tahlili tafakkurning dastlabki va doimiy strukturalarini aniqlash imkoniyatini yaratib beradi. Bu strukturalar ijtimoiy taraqqiyotning har qanday taraqqiyoti

dinamikasida ham saqlanib qoladi. Tafakkurdagi doimiy barqaror strukturalarning mavjudligi ibtidoiy va madaniy odamning tafakkuri imkoniyatlari bir xilligini ko'rsatib beradi. Bu esa, binobarin, bir irqning boshqa irqlardan aqliy jihatdan ustunligi haqidagi har qanday nazariyaning ilmiy asossizligini ko'rsatadi. Levi-Stross ta'limotiga asosan mif axborotni saqlash va kelgusi avlodlarga etkazishda tabiiy tilning iideal nusxasidir. U ana shu sifati bilan badiiy strukturaning ideal strukturasi – musiqaga yaqin.

Struktural metodni ijtimoiy hodisalarga nisbatan qo'llash Levi-Strossni tarixiy yondashuv (diaxron kesim) ijtimoiy institutlar genezisini tushunishni engillashtirgani holda jamiyatni o'rganishdagi ustuvor ilmiy maqsad – uning ichki strukturasini aniqlash imkonini bermaydi. Olim faqatgina "sinxron kesim" orqali bunday maqsadni amalga oshirishga muvaffaq bo'ldi, ya'ni mazkur usuldan foydalanib an'analar va marosimlarning timsoliy shakllari, xususan, tilda mustahkam o'rin tutgan, ko'p qirrali va o'zgaruvchan tarixiy voqelikning jamoaviy tasavvurlaridagi barqaror strukturalarning "ongdan tashqaridagi" mohiyatini aniqlashga erishdi. Jamiyatshunoslikka oid tadqiqotlarda matematik usullarni qo'llash ilmiy va amaliy nuqtai nazardan juda samarali bo'lib chiqdi. Levi-Stross ta'limotiga asosan jamiyatshunoslik uchun struktur lingvistika namuna vazifasini bajaradi. Bu soha qat'iy matematik tadqiqot usullari yordamida asos ruhiy strukturalar, birinchi navbatda "men" va "boshqa" orasidagi munosabatlar strukturasini nutq darajasida yuzaga chiqishini ko'rsatadi.

Agar Klod Levi-Stross Amerika miflarni jamiyatshunoslik fani nuqtai nazaridan tadqiq etishda Sossyur tomonidan tilshunoslik uchun ishlab chiqilgan struktur metodlardan foydalangan bo'lsa, yana bir fransuz allomasi bu usullarni adabiyotshunoslikda, aniqroq qilib aytganda, badiiy matn tadqiqi jarayonida samarali qo'llay oldi.

Rolan Bart (12.11.1915 – 26.3.1980) – faylasuf, adabiyotshunos, estetik, semiotik, strukturalizm va

poststrukturalizm namoyandasi. Fotografiya nazariyasining markaziy siymolaridan biri. Ilmiy faoliyatining struktural davri "Modalar tizimi", "Semiologiya asoslari", tadqiqotlari bilan boshlangan. Bart bu asarlarda semiotika tarkibiga ko'p miqdordagi konnotativ belgi tizimlarini kiritish orqali uning doirasini yangilashga erishadi. Bunday ma'noviy semiotika Greymas tomonidan taklif etilgan aloqa semiotikasiga zid edi.

Levi-Strossdan keyin strukturalizmning eng katta namoyandasi Rolan Bartdir. 60-yillarda Rolan Bartning bir kancha maqolalari bosildi. Bular: «Mifologiyalar», «Adabiyot va ramziy til», «Belgi taassuroti», «Strukturalizm faoliyati sifatida», «Matn lazzati», «Tillarning urushi», «Asardan tekst sari», «Yozuvchilar va yozayotganlar», «Rasin» kabilar. Rolan bart zamonaviy miflar ustida ish olib borgan.

Uning «Mifologiyalar» kitobi ikki qismdan iborat bulib, 1-qismida zamonaviy miflardan namunalar bosilgan. 2-qismida mifni tahlil qilish usullari ko`rsatilgan.

"Mif –bu birnchi navbatda so`z, aytilgan fikrdir", - deydi Rolan Bart.

Rolan Bartning fikriga qaraganda, hozirgi zamon adabiyotidan belgilarni izlab topish ancha qiyin, chunki, ayniqsa, hozirgi zamon she'riyatida belgilar buzilishi paydo bo`lgan.

«Mif –narsa, konsept yoki goya bo`lishi mumkin emas», - deydi Rolan Bart. "Xohlagan narsa mifga aylanishi, aniqrog`i, xohlagan gap mifga aylanishi mumkin". Rolan Bart uz tadqiqotlarida semiotika va strukturalizmni birlashtirgan olimdir.

Fuko Mishel (15.10.1926–25.6.1984) – strukturalizmda "bilimlar arxeologiyasi" konsepsiyasini asoschisi. Uning 1966 yilda "So'z va narsalar. Gumanitar fanlar arxeologiyasi tajribasidan" nomli mashhur romani chop etiladi. Unda insonni ishlovchi, yashovchi va gapiruvchi mavjudot qurilmasi sifatida talqin etadigan zamonaviy "epistema"ning yuzaga kelishi tadqiq etilgan. "Arxeologik amaliyot"ni nazariy jihatdan shakllantirish ishi metodologik tadqiqot – "Bilimlar arxeologiyasi"da

yakunlanadi. Fuko tomonidan ilmiy iste'molga kiritilgan eng muhim tushunchalar "diskurs" va "ifoda" atamalarida ifodalangan. Fukoning fikricha, diskurs bildiruvchi yoxud nutq sohasiga taalluqli emas, aslida u ma'lum bir ob'ektlarni bo'laklash va o'rganishga imkon beradigan qoida va shartlarning to'plami bo'lib, u sohalar mushtarakligini yuzaga keltirish ular orasidagi sarhadlarni belgilashni ta'minlaydi.

Jorj Lakanning psixoanalitikaga oid asarlari, Fukoning madaniyat tarixiga oid ishlarida strukturalizm muammolari tadqiq etilgan.

Rus olimi Y.Lotman: «Strukturalizm badiiy matn bo`laklari orasidagi ichki munosabatlarni va aloqalarni o'rganish bilan shug`ullanadi», - deb yozgan. Pavel Zaryov «Adabiyotshunoslikning dolzarb masalalari va strukturalizm» deb atalgan maqolasida strukturalizmning maqsadlarini xolis ko'rsatib bergan.

Akademik I.Xrapchenkoning bu sohaga bag`ishlangan bir necha tadqiqotlari yaratildi. «Semiotika», «Adabiyotni sistem o`rganishga doir mulohazalar» shular jumlasiga kiradi.

XX asrda g'arbda paydo bo`lgan oqimlar: ekszistensializm, freydizm, abstraksionizmning paydo bo`lishi strukturalizm uchun zamin yaratgan.

Lyusen Sevning "Strukturalizm haqida" deb atalgan maqolasida quyidagilar aytib o`tilgan:

1. Strukturalizmning paydo bo`lishi va uning atoqli vakillari.
2. Bu sohaning Fransiyada rivojlanishining sabablari.
3. Strukturalizmning ikki xil ko'rinishi. Olimning fikricha, strukturalizmning Fransiyada rivojlanishining asosiy sababi mafkurada paydo bo'lgan inqiroz bilan bog'liq.

Struktura – qonuniy aloqalar bilan boshqariluvchi muayyan butunlikdir, - degan edi G. Lyusen Sev.

1962 yili sobiq ittifoqda struktura masalalariga bag'ishlangan ilmiy anjuman o'tkazilgan. Unda badiiy asarni struktura sifatida o'rganish zarur degan xulosaga kelingan.

Anjumanda strukturani o'rganish markazi belgilangan. Bu Tartu davlat universiteti bo'lib, uning rahbari professor Y.Lotman edi.

Oldin aytilganidek, yigirmanchi asrning etmishinchi yillariga kelib strukturalizm tajriba va an'analari poststrukturalizm va semiotika sohalarida davom ettirildi. Poststrukturalizmning etakchi namoyandalari R. Bart, M. Fuko, J. Derrida, J. Bodriyar, Y. Kristeva kabilar edi. Bu olimlarning ko'pchiligi o'z faoliyatlarini strukturalizm bilan boshlab poststrukturalizm va semiotika yo'nalishlarida davom ettirdilar.

Poststrukturalizmning maqsadi lingvistik reduksionizm (unga ko'ra murakkab hodisalarni nisbatan oson qonunlar asosida izohlab berilishi mumkin edi)ni bartaraf etib, yangi mutolaa texnologiyalarini joriy etishdan iborat bo'lgan. Poststrukturalizmning etakchi yo'nalishi dekonstruksiya hisoblanib, bu istiloh ancha keng ma'noda, ya'ni nafaqat g'arbiy metafizika matnlarini dekonstruksiya qilish, shuningdek, adabiy matnlarni o'rganishning mushtarak usuli tarzida tushunilgan.

Strukturalizm poetikasida bu sohaning ilmiy-nazariy asoslari, metodlari ko`rib chiqilib, badiiylikni yuzaga keltiruvchi qonuniyatlar o'rganiladi. Strukturalizm poetikasi adabiyot nazariyasining bir qismidir. Unda strukturalizmning nazariy muammolari bayon qilingan. Struktural poetikaning markazida matnning barcha bo'laklari badiiy butunlikka birikishi masalalari turadi.

Struktural poetikaga ko'ra, badiiy asar matni muayyan mavjudlik tarzida ko`rib chiqiladi va mustaqil butunlik sifatida tahlil etiladi.

Struktural tadqiqotchi matn maydoni doirasida turib, sof "ichki tahlil" bilan shug'ullanadi. Badiiy matnning unsurlarini aniqlaydi va ular orasidagi aloqalarni topadi.

Badiiy strukturaning har bir qismi mana shu strukturaning boshqa komponentlari bilan o'zaro munosabatda o'rganiladi. Rolan Bart bunday usulni yopiq usul deb hisoblagan.

Struktural poetika uchun kuyidagi operatsiyalar zarur:

1.Rivojlanib borayotgan narsa yoki hodisada muayyan darajalarni ajratib olish ("kesish").
2. Mana shu bo'lakni boshqa - oldingi, keyingi yoki qo'shni bo'laklardan alohida o'rganib chiqish.
3. Belgilangan har bir bo'lakning o'rnini, vazifasi- ni, kodlarini aniqlash va shu asosda tashkil kilingan darajalarning pog'onalarini hosil qilish.

Badiiy matnni tabiiy mustaqil rivojlanib boruvchi struktura sifatida kurib chiqar ekan, strukturalizm bu matnni unsurlar tizimi sifatida tahlil qiladi. Ular orasidagi o'zaro munosabatlarni belgilaydigan eng muhim jihatlarni topadi.

Mana shu unsurlarni struktural butunlikka joylashtirilgandagina, ularning haqqoniy ahamiyati va vazifalari ma'lum bo'ladi. Struktural poetika an'anaviy adabiyotshunoslikdan farqli ravishda har bir matnning o'ziga xos takrorlanmas mazmunini aniqlaydi. Bu o'ziga xoslik badiiy matnni bir butunlikda ko'rish va tahlil qilishda namoyon bo'ladi.

Strukturalizmda badiiy matn to'xtovsiz harakat qiluvchi va rivojlanuvchi mexanizm sifatida ko'rinadi.

Yopiq metod asosida matn tahlilini amalga oshirish uchun quyidagi jarayonlar ketma-ketligi zarur:
1. Mutolaa. Mutolaaning o'zi ham diqqat bilan o'qish, qayta-qayta o'qish, uqishni taqozo etadi.
2. Mikrotahlil (har bir bo'lakning alohida tahlili).
3. Rasshifrovka (kodlar ma'nosini ochish).
4. Ochilgan kodlar daraja deb belgilanadi va ular tizimlashtiriladi.

Yopiq tahlil davomida quyidagi vazifalarni bajarish kerak:
1. Struktural tahlil predmeti kategoriyalarini aniqlash.
2. Struktural tahlil bosqichlarini belgilash.
3. Struktural tahlil tizimlarini guruhlantirish.

Struktural poetika kategoriyalariga quyidagilar kiradi:
1. Struktural tahlil predmeti kategoriyalari.
2. Struktural tahlil jarayoni kategoriyalari
Z. Struktural tahlil tizimi kategoriyalari.

Struktural tahlil predmeti kategoriyalari:
1) belgi – ma'no
2) nutq – til
3) matn – tagmatn (yashirin matn)
4. madaniyat va tabiat
Struktural tahlil jarayoni kategoriyalari
1) mutolaa
2) mikrotahlil
3) talqin
4) rasshifrovka
5) modellashtirish.
Struktural tahlil tizimi kategoriyalari
1. Unsur – badiiy matndagi eng kichik bo'linmas qism.
2. Tizim – unsurlarning bir-biri bilan muayyan tartibda bog'lanish doirasi.
3. Munosabat – badiiy matndagi unsurlarning o'zaro aloqasi.
4. Struktura – tizimdagi ichki munosabatlarning jamiki turkumi.
5. Daraja – bir tartibdagi unsurlar yoki bir tartibdagi munosabatlarning qiymatiga ko'ra joylashishi.
6. Pog'onalashuv – darajalanish.
7. Model – tahlil qilinayotgan predmetning nazariy ekvivalenti.

O'zbek adabiyotshunosligiga yigirma birinchi asrning boshlaridan struktur metodlarga ma'lum darajada qiziqish paydo bo'ldi. O'zbek olimlaridan A. Rasulov, S. Meliev, M. Xolbekov. H. Boltaboev ushbu metodning ilmiy-nazariy o'rni haqida maqolalar yozdilar. O'zbek so'z san'atining ba`zi bir namunalari ushbu usul yordamida tadqiq etildi.

Taniqli olim M. Xolbekovning "Struktur adabiyotshunoslik" risolasi[11] alohida e'tiborga loyiq. Unda XX asr G'arbiy Evropa adabiyotshunosligida etakchi o'rin tutgan strukturalizm va struktur adabiyotshunoslik nazariyasi tamoyillari xususida fikr yuritilgan. Asarda ushbu sohaning afzal jihatlari va ba'zi bir kamchiliklari ko'rsatilgan. Hozirda struktur-semiotik usullardan

[11] Холбеков М. Структур адабиётшунослик. Рисола. – Тошкент: "Фан", 2014. 136 бет.

foydalangan holda badiiy matnni tahlil qilish tajribasi yuzaga kelmoqda. Buxorolik tadqiqotchi R. Saidovaning doktorlik ishida[12] atoqli shoir Rauf Parfining ayrim lirik asarlari aynan shu tarzda tadqiq etilgan.

Savol va topshiriqlar

1.Struktural analiz metodining mohiyati, tarixi, asosiy tamoyillari xususida nimalarni bilasiz?
2.Struktural tahlil metodining asoschilari kimlar?
3.Rolan Bartning strukturalizmga oid asarlari haqida ma'lumot bering
4. Struktural poetika operatsiyalari qaysilar?
5.Struktural metodning o'zbek adabiyotshunosligiga kirib kelishi.
6.M. Xolbekovning "Struktur adabiyotshunoslik" risolasini o'qib konspektlashtiring.

Adabiyotlar

1. Karimov B. Adabiyotshunoslik metodologiyasi. Filologlar uchun o'quv qo'llanma. – Toshkent, 2011. – 88 b.
2. Meliev S. Strukturalizm va struktur tahlil haqida. –O'zbek tili va adabiyoti. –Toshkent. 2009. № 2. B 12.
3.Murodov G'. Tarixiy roman: genezisi, keyingi taraqqiyoti. – Toshkent: Fan, 2005. – 164 b.
4.Murodov G'. "Yulduzli tunlar" romanida badiiy kodlar. – BuxDU ilmiy axboroti, 2000, 3-son.
5.Xolbekov M. Struktur adabiyotshunoslik. Risola. – Toshkent: "Fan", 2014. 136 bet.
6.Saidova R. Badiiy matnda belgi munosabatlari. - filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)dissertatsiyasi avtoreferati. Buxoro, 2021.

[12] Саидова Р. Бадиий матнда белги муносабатлари. - филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)диссертацияси автореферати. Бухоро, 2021.

7-MAVZU. GERMENEVTIKA YOKI TALQIN NAZARIYASI

Reja:

1. Adabiyotshunoslik metodologiyasi va talqin nazariyasi.
2. Germenevtika sohasi namoyandalari.
3. Tahlil va talqin tushunchalari, ularning tushunish jarayonidagi nisbati haqida.
4. Germenevtik doira tushunchasi.
5. Butun va qism munosabatlari.
6. Badiiy asarni tushunish jarayonidagi ob'ektiv va sub'ektiv jihatlar to'g'risida.

Tayanch tushunchalar: talqin nazariyasi, germenevtika, talqin qiluvchi shaxs, badiiy matn, assotsiativ tafakkur, immanent tahlil, kontekstual talqin, interpretatsiya, induksiya, deduksiya, sintez, analiz, interpretatsiya.

Adabiyotshunoslikda tahlil va talqin tushunchalari juda keng qo'llanilib, ular badiiy asarni tushunish jarayonining bir-biriga bog'liq jihatlaridir. Badiiy asarni tushunish, uning mazmun mohiyatini anglash jarayonida tahlil va talqin amallari har vaqt hozirdir. Tahlil atamasi odatda ilmda "analiz" deb yuritiladigan istilohning sinonimi sifatida tushuniladi. Analiz esa, ma'lumki, butunni anglash uchun uni qismlarga ajratishni, qismning butun tarkibidagi mohiyatini, uning boshqa qismlar bilan aloqasi va butunlikning yuzaga chiqishidagi o'rnini o'rganishni ko'zda tutadi. Ayrimlar badiiy asarni tirik organizmga qiyos etishadi-da, "uni qismlarga ajratish jonsiz tanaga aylantirishdan boshqa narsa emas" degan qarashga tayanib tahlilga qarshi chiqadilar. Biroq bu xil qarash asossizdir. Zero, adabiyotshunoslikdagi tahlil ham — o'qish, faqat bunda badiiy asarni tadqiqotchi sifatida o'qish tushuniladi. Bu xil o'qish jarayonida tadqiqotchi badiiy asarni qismlarga ajratarkan, uning

badiiyat hodisasi sifatidagi mavjudligini, undagi o'quvchi ongi va ruhiyatiga ta'sir qilayotgan, uning u yoki bu tarzda tushunilishiga asos bo'layotgan omillarni o'rganadi.

Talqin atamasini "interpretatsiya" istilohining sinonimi sifatida tushunish mumkin. Talqin badiiy asarni sharhlash, uning mazmun mohiyatini, undagi badiiy konsepsiyani idrok etish demakdir. Keng ma'noda "talqin" so'zi o'zga tomonidan aytilgan gap yoxud yozilgan asar (ilmiy, falsafiy, diniy, badiiy va h.) mazmunini anglash, uni ma'lum yaxlitlikda tushunish va tushuntirish (adabiyotshunosning maqsadi tushunishning o'zigina emas, tushuntirish hamdir) ma'nolarini anglatadi. Shu ma'noda qaralsa, mumtoz adabiyotshunosligimizda, umuman, o'tmish ilmida "talqin" so'zining ma'nosi qisman "sharh", "tafsir" atamalari bilan ham berilgan. Yana ham aniqroq aytsak, talqin badiiy asardagi "obrazlar tili"ni "mantiq tili"ga o'girmoq, obrazlar vositasida ifodalangan mazmunni tushunish va tushuntirmoqdir.

Badiiy asarni tushunish jarayonida tahlil va talqin amallari har vaqt hozir, ular tushunish jarayonining ikki qirrasidir. Aytaylik, "o'quvchi badiiy asarni tushundi" degani, mohiyatan, "o'quvchi asarni o'zicha talqin qildi" deganidir. Ayni paytda, uning asarni tushunishida tahlil unsurlari ham mavjud, zero, oddiy o'quvchi ham tushunish jarayonida asar qismlarini (mas., alohida epizodlarni, personajlarni, ularning turli holatlardagi xatti-harakati, gap-so'zlarini va h.), ularning o'zaro mazmuniy aloqalarini tasavvur qiladi. Ta'kidlanganidek, konkret badiiy asar turli o'quvchilar tomonidan turlicha tushunilishi mumkin. Biroq shunisi ham aniqki, o'quvchilar ongidagi minglab talqinlarni umumlashtiradigan mushtarak nuqtalar ham mavjud. Demak, konkret asar talqinlari nechog'li turfa bo'lmasin, ularning chegaralarini belgilab beruvchi muayyan asos, deylik, yadro(javhar) mavjudki, barcha talqinlar shu yadro atrofida hosil bo'ladi. Bu yadro esa – badiiy asarning o'zi, badiiyat hodisasini o'zida moddiylashtirgan badiiy matndir. Ayon bo'ldiki, badiiy asarni tushunish jarayoni ob'ektiv va

sub'ektiv ibtidolardan tarkib topar ekan: agar bu o'rinda talqin qilayotgan shaxsni sub'ektiv ibtido deb olsak, badiiy matn ob'ektiv ibtidodir.

Bundan shunday xulosa kelib chiqadiki, agar talqin qiluvchi shaxs badiiy matnni etarli darajada bilmasa, asar qismlarini, ularning o'zaro aloqalarini etarli tasavvur qilolmasa, uning talqini sub'ektivlik kasb etadi. Boshqa tomondan, badiiy adabiyotning obrazlar orqali fikrlashi, obrazning esa assotsiativ tafakkur mahsuli ekanligini e'tiborga olsak, talqinning sub'ektsiz mavjud emasligi ayon haqiqatdir. Chunki ijodkorning assotsiativ fikrlashi mahsuli o'laroq yaratilgan va asarda aksini topgan obrazning mazmun qirralari faqat sub'ekt ongidagina (ya'ni, uning ham assotsiativ fikrlashi asosida) qayta tiklanishi mumkin bo'ladi. Aytilganlar tushunish jarayonida tahlil va talqinning har vaqt hozirligining yorqin dalilidir. Oddiy o'quvchidan farq qilaroq, adabiyotshunos badiiy asarni talqin qilarkan, tahlilga tayanadi, uning talqini tahlil asosida yuzaga kelgani uchun ham ilmiy sanaladi. Shu ma'noda tahlil badiiy asarni tadqiqotchi sifatida o'qish va uqish demakdir.

Yuqoridagilardan ma'lum bo'ladiki, badiiy asar tahlilining maqsadi - asarni tushunish (asarni baholash ikkilamchi maqsad). Xo'sh, "asarni tushunish" deganda nima nazarda tutiladi? Bu masalada ham adabiyotshunoslikda turlichalik mavjud: ayrimlar asarga muallif tomonidan yuklangan mazmunni tushunishni nazarda tutsalar, boshqalari asarda tasvirlangan narsalardan (ob'ektiv ibtidodan) kelib chiqadigan mazmunni tushunishni nazarda tutadilar. Bu qarashlarning birinchisiga ko'ra tushunish jarayonida tahlil etakchilik qilsa, ikkinchisida talqinning mavqei ustunroq ekanligi tayin; birinchisi badiiy asarni uning ichki va tashqi aloqalarini birlikda olib o'rganishni (kontekstul tahlil) taqozo etsa, ikkinchisi badiiy asarga alohida mavjudlik sifatida qarab, uning ichki aloqalarini o'rganish (immanent tahlil) bilan cheklanadi. Biroq mazkur qarashlarning ikkisini ham mutlaqlashtirib bo'lmaydi, bu o'rinda "oraliq" mavqenining egallangani, har ikki yo'sindagi

tahlilning ham mavjudligini, ularning bir-biridan ko'zlagan maqsadi va ahamiyati jihatidan farqli ekanligini tan olingani to'g'riroq bo'ladi.

Tushunish jarayonining nazariy muammolarini o'rganuvchi soha — germenevtikaning asosiy qoidasi shuki, qismni butun, butunni qism orqali tushunish darkor. Bu qoida yuqoridagi tahlil yo'sinlarining ikkisiga ham birdek aloqador. Faqat bu o'rinda immanent tahlil "kontekst" tushunchasini asar doirasi bilan cheklab olsa, kontekstual tahlilda "kontekst" tushunchasining ko'lami kengayib boradi (konkret asar "yozuvchi biografiyasi", "muallif yashagan davr shart-sharoitlari", "muallifning ijodiy merosi", "asar yaratilgan davr adabiyoti", "milliy adabiy an'analar" kabi kontekstlar doirasiga kiradi). Kontekstual tahlil asarga muallif tomonidan yuklangan mazmunni tushunishga yo'l ochsa, immanent tahlil asarda tasvirlangan narsalarga (va, albatta, undagi muallif obraziga) tayangan holda o'quvchiga o'z mazmunini shakllantirish imkonini beradi. Mutaxassisdan farqli o'laroq, oddiy o'quvchilarning asarni tushunishida immanent tahlil unsurlari etakchilik qiladi (shu bois ham o'quvchilar ongida konkret asarning turfa talqinlari mavjud). Zero, aksariyat o'quvchilar uchun konkret asarning qay maqsadda, qanday omillar ta'sirida yozilgani ahamiyatsiz - ular asarning o'zinigina taniydilar, uning o'zidangina zavq oladilar. Aksincha, adabiyotshunos uchun bularning bari muhim, chunki asarni tarixiylik tamoyiliga tayanib, biografik yoxud sotsiologik metodlar (kontekstual tahlil) asosida tekshirib chiqarilgan xulosalar adabiy-nazariy tafakkur rivojida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Ular, tabiiyki, badiiy adabiyot rivoji hamda badiiy did tarbiyasiga faqat bilvosita ta'sir qiladilar, bu xil xulosalar bilan badiiy didga bevosita ta'sir qilishga urinish esa adabiyotga faqat ziyon keltiradi. Demak, badiiy asarni alohida butunlik sifatida ham, kontekst doirasida ham tushunish (tahlil va talqin qilish) mumkin, - ikkisining ham o'z o'rni, vazifasi va maqsadi tayinlidir.

Adabiyotshunoslik metodologiyasida induksiya, deduksiya, sintez va analiz tushunchalari ham muhim o'rin tutadi.

Germenevtika adabiyotshunoslik metodlaridan biri bo'lib, matn asosida ish ko'rishdir. Germenevtika grekcha so'zdan olingan bo'lib, "talqin", "tushuntirish" degan ma'nolarni bildiradi. Qadimgi adabiy yodgorliklarni talqin etish nazariyasi va san'ati ma'nosida qo'llanadi. Bugungi kunda germenevtika o'zining lug'aviy ma'nosidan o'sib chiqqan yangi bir mazmun kasb etmoqda. Chunki avvallari bu atama ostida faqat qadimgi adabiy yodgorliklarni talqin etish nazariyasi yotgan bo'lsa, endilikda istagan bir badiiy asar yoxud uning bir bo'lagini tahlil va talqin etish tushuniladi.

Germenevtikaning 2 ma'nosi bor. Birinchisi, u matnni talqin qilish nazariyasi va metodologiyasi (anglash, tushunish san'ati) bo'lsa, ikkinchisi, unda asarga xos xususiyatlar izohlab beriladi.

Ba`zi olimlar germenevtikaning sharqona manbalari mavjudligi haqida yozganlar. Jumladan, adabiyotshunos B. Karimov bu haqda shunday yozadi:

"Ma'lumki, adabiyotshunoslik o'tmish Sharq madaniyatida xilma-xil shakllarda mavjud bo'lgan. Biroq bir savol tug'iladi: o'rta asrlar G'arb ilm olamida Injil matnini talqin qilish vositasi bo'lgan germenevtikaga mos keladigan ilm Sharq xalqlari madaniyati tarixida mavjudmi?

Bunga javoban beixtiyor Qur'oni Karim tafsirlari, Hadisi sharif sharhlari xayolga keladi. Musulmon-Sharq dunyosida mazkur muqaddas kitob Qur'on munosabati bilan xilma-xil yo'nalishdagi ko'plab tafsirlar maydonga kelgani haqiqatdir.

Tafsirlarning esa turlari ko'p. Ibn Kasirning "Tafsirul qur'anil a'ziym" asariga doktor Abdurahmon Mur'ashliy yozgan muqaddimadagi ma'lumotlarga ko'ra, tafsirlarning lug'aviy, aqliy, fiqhiy, tarixiy, firqalar va mutasavviflarning tafsirlari kabi turlari mavjud.

Olimp tog'idagi «iloh»larning xatlari va Injil matnini sharhlash uchun g'arbda shakllangan germenevtika ta'limoti

bilan Qur'oni Karim oyatlarini sharhlash va tushuntirish tarzida vujudga kelgan ilmi tafsir orasida ham lug'at, ham mohiyat e'tibori bilan o'xshashlik bor. Aytish mumkinki, sharqda ham germenetvika o'ziga xos shaklda mavjud bo'lgan.

Ammo ilmi tafsir va ilmi sharh singari "sharq germenevtikasi" muayyan taraqqiyot bosqichlarini bosib o'tib, XX asr o'zbek adabiyotshunosligi uchun zamin bo'lgan emas. Bu ilmlar o'zining bahs yuritadigan mavzu doirasini kengaytirib, g'arbda "siljish" yuz berganidek, badiiy adabiyot ilmi doirasiga kirib kelmadi. XX asrda o'zbek adabiyotshunoslari sharqdagi an'anaviy ilmiy tamoyillarga emas, balki g'arb olimlarining ilmiy-adabiy mezonlariga murojaat etishga majbur bo'ldilar. Nima bo'lganda ham, "sharq germenevtika"si bilan g'arb germenevtikasining o'xshash va farqli jihatlari qiyosan o'rganilishi lozim bo'lgan masalalardan biridir"[13].

Germenevtikaning mustaqil usul sifatida shakllanishida Shleyermaxerning hissasi katta bo'ldi.

Yangi davr vakili Fridrix Shleyermaxerning(1768-1834) umumfalsafiy qarashlari uning vafotidan so'ng nashr qilingan "Dialektika"sida aks etgan. Dialektika uning fikricha, falsafiy asoslash san'atidir . Falsafiy bilish tafakkurning borliq bilan yaxlit birligini taqozo etadi. Mantiqiy bog'liqlik tashqi voqelikning sababiy bog'lanishiga muvofiqdir. Bilish ikki omil – organik yoki hissiy va intellektual jihatlarga bog'liq. Organik omil – material (moddiylik) beradi, intellektual omil – shakl beradi. Birinchisi xilma-xillikning xaotik o'zlashtirilishini shartlasa, ikkinchisi ularni tizimga solib, aniqlik va birlik beradi. Ikki omildan birining ustunligi doimiy tarzda inson tafakkurida almashib turadi, ya'ni ba'zan mavhum tushunchalar, ba'zan aniq xulosalar tafakkurimizda harakatda bo'ladi. Faylasuf fikricha, tafakkurning ikki – hissiy va intellektual jihatga ega ekanligi borliqni real va ideal tushunishga asos bo'ladi .

---

[13] Каримов Б. Адабиётшунослик методологияси. – Тошкент, 2011. – Б. 82.

Din falsafasi Shleyermaxer falsafasining asosini tashkil qiladi. Sheleyermaxerning din falsafasi, tarix falsafasi va axloqiy qarashlaridagi hissiyotlarning ramziylashtirilishi, ya'ni til va sa'nat vositasida inson borlig'ining aks ettirilishi haqida fikrlarida germenevtik xulosalarni kuzatish mumkin. Ya'ni hissiyotlarning til (adabiyot) va o'yin (san'at) vositasida simvollashtirilishi yagona haqiqat – inson psixologiyasi mohiyatini tushunishga imkon beradi.

Shleyermaxer fikricha, germenevtikaning predmeti – xotiraga aylangan matn. Xotira (yodgorlik)lar – tadqiqotchini vaqt, tarixiylik, madaniy til kabi sifatlar bilan farqlab turuvchi matn. Xotira (yodgorlik) odatda, uzoq va begona madaniyatga tegishli bo'ladi. Xotiraning bevosita ma'nosini bilishga mone'lik qiluvchi ko'plab tabiiy to'siqlar mavjud. Shuning uchun ular mazmunini tushunish uchun tarjima qilish, sharhlash, izohlash va shu kabilar taqozo etiladi. Shleyermaxer fikricha, aynan shu tabiiy to'siqlarni bartaraf qilish uchun germenevtika vujudga kelgan, germenevtika biz tushunarsiz vaziyatda qolganimizda zarur . Shleyermaxer ungacha bo'lgan F.Astning germenevtikani "tushunarlilikni talqin qilish" degan ta'rifini tanqid qilib, uni aynan tushunarsizlikni bartaraf etgani uchun tushunish san'ati deydi.

Agar biz matnni qotib qolgan nutq deb olsak, bunday holatda tadqiqot metodi dialog xarakteriga ega bo'lishi, ya'ni sharhlovchi va matn o'rtasida muloqot yuzaga kelishi lozim. Qotib qolgan nutq, Shleyermaxer fikricha, ob'ektiv va sub'ektiv xususiyatga ega. Nutqning ob'ektiv xususiyati, ya'ni tilli asosi sharhlashning grammatik predmetini belgilaydi. Xotira (yodgorlik)ning sub'ektiv xususiyati, ya'ni tafakkuriy asosini biz psixologik sharhlash vositasida aniqlaymiz. Zero, tushunish, interpretatsiya turlaridan emas, balki, lahzalarning birikuvidan, ikki xususiyatli lahzaning o'zaro bir-biri bilan birikuvidan hosil bo'ladi.

Germenevtikaning keyingi rivojiga katta hissa qo'shgan Shleyermaxerning yana bir yangiligi "yaxshiroq tushunish"

tamoyilidir. Bu tamoyilga ko'ra, tadqiqotchi matnni o'z ijodiy yondashuvi bilan muallifdan ham ko'ra chuqurroq va kengroq tushunishi mumkin. Mazkur tamoyil zamonaviy tadqiqotchining faqat matnda ifodalangan voqealar mazmunini emas, balki muallif hayoti, tarixiy davri kabilarni bilishi lozimligini talab qiladi. Chindan ham, inson muayyan tarixiy, ilmiy yoki badiiy asarni yaratayotganda davrining ruhi, o'zining ijtimoiy-siyosiy voqealarga munosabati, hayotiy kayfiyatini anglanmagan holatda matnga singdiradi. Matnni o'rganuvchi tadqiqotchi esa, mazmunni izohlashga oqilona, ongli yondashadi va natijada muallif nazarda tutmagan narsa-hodisalarning yangi ma'nolarini kashf etish imkoniyatiga ega bo'ladi. Shu taxlitda tadqiqotchi muallifdan yaxshiroq tushunishi mumkin.

Shleyermaxerning mazkur yondashuvi o'tgan asrda gumanitar fanlar metodologiyasida o'ziga xos o'ringa ega bo'lgan Sent-Byov biografik metodiga muvofiq keladi. Ushbu metod tarixiylik asosiga qurilgan bo'lib, bunda matn muallifi hayoti haqida ma'lumotga ega bo'lmay turib, matndan mazmun qidirish samarasiz usul hisoblanadi. Shleyermaxerning narsa-hodisalarning antropologik nuqtai nazardan, mualliflarning biografik jihatdan tahlil qilishi germenevtikaning keyingi rivojiga ijobiy ta'sir qilgan. Bundan tashqari, mutafakkirning matn ma'nosini o'rganishda rekonstruksiya metodining qo'llanilishi ham muhim ahamiyatga ega. Uning fikricha, germenevt izlanishining maqsadi matn muallifi ichki dunyosiga kirib, u bilan birga iztiroblarni his qilishi bilan amalga oshadi . Umuman olganda, F.Shleyermaxer ijodi germenevtik tadqiqotlarning keyingi rivojiga katta hissa qo'shdi.

G'arb falsafasida germenevtikaning aniq ilmiy metodologik konsepsiyadan umumilmiy ta'limotga aylanishida V.Diltey (1833-1911) ijodining o'ziga xos o'rni bor. Diltey o'z qarashlarida Shleyermaxer an'analarini davom ettirib, interpretatsiya va tushunish masalasini tadqiq etishga o'ziga xos yondashadi. Uning tadqiqotlarida inson psixologiyasi va tabiiy voqelik uzviylikda o'rganilgan. "Hayot, - Diltey fikricha, -cheksiz

va noaniq, u sirli manbalardan oqadi va noaniq maqsadlarga yo'nalgan; bizning ongimiz uning qismlarinigina bilishi mumkin; biz faqat yakka hayotiy voqealarning psixologik talqinini tushunishimiz mumkin".

Diltey barcha fanlarni tasniflab, ularni ikki – tabiat hamda ruh haqidagi fanlarga bo'ladi. Bu ikki tarmoq bir-biridan tadqiqot predmeti va qo'llaniladigan metodlariga ko'ra farqlanadi. Lekin, tabiat olami va ruhiy olam bir-biri bilan uzviy bog'langan. Tabiatning inson ruhiyati faoliyatining mavjudligini ta'minlovchi omil ekanligini hisobga olsak, aynan ruhiy olamning borligi tabiat olami bilan, tabiat olamining mavjudlik sharti ruhiy olam bilan bog'liqligini guvohi bo'lamiz. "Bundan shu ma'lumki, - yozadi, Diltey, - ikkala fan tarmoqlari bir-biridan shartli farqlanadi ... u yoki bu fan tarmog'ini bilish ularning ikkisini birga o'rganish bilan amalga oshadi... ya'ni, tabiat haqidagi fanlarni bilish ruh haqidagi fanlar doirasini kengaytiradi".

Tabiat haqidagi fanlarni o'rganishda tadqiqotning nomotetik metodlari yaxshi natija bersa, ruh haqidagi fanlarni esa, interpretatsiya metodlarisiz o'rganib bo'lmaydi. Lekin shu o'rinda aytish lozimki, Diltey tabiat va ruh haqidagi metodlarni doim dialektik munosabatda ekanligini ta'kidlaydi.

Diltey "ruh haqidagi fanlar"ni o'rganishda ikki – ingliz pozitivizmidagi sababiy-genetik tushuntirish va nemis idealizmidagi intuitiv tushunishni birlashtirishga harakat qilgan. Biroq u o'zining qarashlarida bu birlikni ta'minlay olmadi, ya'ni uning fikrlari ayrim manbalarda pozitivizmga, ayrim manbalarda idealizmga asoslangan. Diltey o'z ijodining dastlabki davrida pozitivizmga yon bosgan bo'lsa, keyingi davrda, Rikkert va Gusserl tanqididan so'ng idealistik pozitsiyada ijod qiladi. U tushunish predmetini uch turga - insonning ichki dunyosi, tashqi dunyo va o'tmish madaniyatiga bo'ladi. Faylasufning fikricha, ichki dunyoni tushunishda introspeksiya (o'z-o'zini kuzatish orqali bilish) metodidan foydalanish samarali natija beradi. Tashqi dunyoni tushunish esa, ob'ektiv olamni

anglashdek kechadi. O'tmish madaniyatini tushunishda esa, faqat germenevtik metodologiyadan foydalanish mumkin. Tarix – yaxlit holda ma'noga ega emas, uning misolida faqatgina muayyan davrlarga tegishli o'zida yopiq "madaniy tizim"larni jam etgan individual qurilmalarni ko'rish mumkin. Insoniylikning yaxlit mohiyati tabiiy-tarixiy-ijtimoiy aloqalarda namoyon bo'ladi. Diltey bu bog'lanishni "psixofiziologik hayotiy birlik" deb ataydi. Mana shu birlikda tabiat va ruh haqidagi bilimlar birlashadi. Lekin bu holatni faqat mavhumlashtirish bilan tasavvur qilish mumkin, chunki insonning ma'naviy-ruhiy olamini to'la aniqlikda bilib bo'lmaydi. "Tarixiy-ijtimoiy fanlarning predmetini tashkil qiluvchi bunday hayotiy birliklar faoliyatda birlashadi".

Faylasufning fikricha, har qanday ma'naviy mohiyatning mazmuni "hayotni aks ettirishdir", ular insondan ham, tabiatdan ham alohida mavjud bo'la olmaydi. SHuning uchun ham ularni (ya'ni ikkala fan tarmog'ini ham) bilish o'ziga xos metodologiya talab qiladi. "Tushunish va tushuntirish – ruh haqidagi fanlarda qo'llaniluvchi metod. Barcha vazifalar tushunishda jamlanadi. Aynan tushunish va tushuntirishda ruh haqidagi fanlar haqiqati ochiladi. Tushunish har bir nuqtada muayyan olamni ochadi".

Diltey ruh haqidagi fanlarni uch – tarixiy, nazariy va amaliy qismlarga ajratadi. Ruh haqidagi fanlarni o'rganishda ikki muammoni o'rtaga qo'yadi: germenevtik mantiq va gumanitar bilishda ongsizlik muammosi. Birinchi muammo mutlaqo yangi bo'lsa, ikkinchi muammo Dilteydan oldin Shleyermaxerning "yaxshi tushunish" haqidagi ta'limotida keltirilgan edi.

Interpretatsiyaning mantiqiy shakllari konsepsiyasida Diltey "Hayotning namoyon bo'lishi" va ularni tushunish shakllari haqida to'xtaladi. "Hayotning namoyon bo'lishi deganda, men nafaqat nimanidir bildiradigan hatti-harakat yoki ishorani, balki ma'nan ongimizga ta'sir qilib, nimanidir tushunishga imkon beradigan holatni nazarda tutaman. Tushunish usuli va natijasi hayotning namoyon bo'lish tipiga qarab farqlanadi".

Diltey hayotning namoyon bo'lishini uch tipini farqlaydi:
1.Tushuncha, mulohaza va xulosa (hayotning nazariy namoyon bo'lishi);
2.Hatti-harakat (hayotning tashqi namoyon bo'lishi);
3.Kechinmalar ifodasi (inson qalbining namoyon bo'lishi).

Tushunishni Diltey elementar va yuqori shaklini farqlaydi. Elementar tushunishda hayotning namoyon bo'lishining yakka, alohida holati olinadi. Tushunishning yuqori shakli deganda esa, "hayotning yaxlit aloqalari" va "insonlar ichki dunyo"sini tushunish nazarda tutiladi.

Umuman olganda, Diltey ijodi psixologizm bilan bog'liq bo'lsada, germenevtikaning falsafiy maqomini mustahkamlanishiga katta hissa qo'shdi. Faylasuf aytganidek, biz, o'zimizni, avvalo, o'zimiz yashayotgan oilada, jamiyatda, davlatda tushunamiz, tarix bizga emas, biz tarixga tegishlimiz .

XIX asrdagi fan rivoji olimlarni jarayonlarga oqilona munosabatda bo'lishga undadi. Bu esa, liberal germenevtikaning ilohiy matnlarni oqilonalik asosida tahlil qilish, sharhlashga intilishida namoyon bo'ldi. Ta'kidlab o'tish joizki, liberal, konservativ, romantik, ortodoksal, noortodoksal va boshqa germenevtik yo'nalishlarning vujudga kelishi aynan, xristian dinining tarixiy – ijtimoiy jarayonlar ketma-ketligidagi o'zgarishi bilan bog'liq.

XIX asrda shakllangan ortodoksal germenevtika vakili Karl Bart (1886-1968) liberal germenevtikachilarning ilohiy matnlarni "liberal" tahlil qilishlariga norozilik bildirib, bu haqdagi fikrlarini "Rimliklarga murojaat" nomli kitobida aks ettiradi . Ushbu asarda u dinni talqin qilishning ilgarigi – ortodoksal uslubini oqlab chiqdi. Uning fikricha, ilohiy matnlarni oqilonalashtirib ham, liberallashtirib ham bo'lmaydi. Umuman, har qanday ilohiy matn o'z holicha talqin qilinishi kerak , degan fikrni ilgari suradi.

Shuningdek, R.Bultman, G.Ebelinglarning "Yangi germenevtika" maktabini va zamonaviy konservativ germenevtika maktabini YAngi davr germenevtikasi sifatida talqin qilish mumkin .

Nemis faylasufi, ekzistensializmning yirik vakili M.Xaydeggerning (1889-1975) germenevtika rivojidagi o'rni beqiyos. Germenevtikaning ontologiyalashuvi aynan Xayddegger tadqiqotlari negizida rivojlandi. Olimning 1927 yil nashr etilgan "Borliq va vaqt" asari unga katta shuhrat olib keldi, asarning bayon qilish tili juda murakkab. Ayniqsa, Xaydeggerning borliq mohiyati haqidagi fikrlari diniy bo'lmasada, uning o'z iborasi bilan aytganda "immanent transsendental" xususiyatga ega. Uning fikricha, "borliq" o'z mazmunini insoniy cheklanganlik bilan ochadi. Aynan cheklanganlik, inson faoliyatining har qanday ko'rinishi o'lim bilan yakunlanishini ta'kidlab, faylasuf, ayni lahza, ayni mavjudlik muhimligini ilgari suradi.

Shuningdek, Xaydegger borliq masalasini muhokama qilar ekan, u tilsiz mavjud bo'la olmasligini ta'kidlaydi. Til – faqat muloqot almashish quroli emas, balki insoniy borliqning, hayot mazmunining namoyon bo'lish shartidir. Biroq shu bilan birga, "...til mazmunni nafaqat aniqlashtiradi, balki mavhumlashtiradi ham. Mazmunni izohlash uchun mukammal til kerak. Lekin har bir so'zlovchi o'z ongi, tasavvuri, dunyoqarishi chegarasidan o'tib ma'noni izohlay olmaydi. Ayni paytda til – inson uchun, nafaqat tashqi borliqning ifodalovchisi, balki o'z borlig'ini ham ifodalovchi vositadir . Faylasuf, SHleyermaxerning germenevtik doira haqidagi fikrlarini tahlil qilib, "Germenevtik doira – tushunish va talqin qilishning ma'noli, mazmunli harakatidir" , deb ta'kidlaydi.

Xaydegger til muammosini germenevtik tahlil qilib, germenevtikaning falsafiy xususiyatini mustahkamlaydi. SHu bilan birga, inson borlig'i masalasini germenevtik asosda o'rganib, tushunishni nafaqat metod, balki yashash sharti ekanligini isbotlaydi.

Rus faylasufi G.G.Shpet (1879-1940) konsepsiyasini fenomenologik germenevtika deb atash mumkin. Olim germenevtikani matn ma'nosini o'rganish san'ati, deb ta'kidlaydi . Shpet fikricha, ilgari bu san'at juda maxsus, tor

doirada o'rganilgan. Shpet ijodida esa, germenevtika, avvalo, sof psixologik holatlar – matn muallifining ichki dunyosiga sho'ng'ish, his qilish, kechinma va iztiroblarni boshdan o'tkazish, muallif tarixiy-ijtimoiy dunyosida yashash kabi holatlarni tushunish jarayonlarida namoyon bo'ladi. SHu bilan birga, u mazmunni anglashning psixologik holat bilan birga, ong va tafakkurdagi o'zgarishlar bilan uzviy bog'liq ekanligini asoslashga harakat qildi. G.Shpet shaxsan "fenomenologik germenevtika" terminini tan olmasa-da, uning tadqiqotlari aynan shu yo'nalishga mansub. Uning fikricha, aynan fenomenologiya ma'noni o'zlashtirishning yangi germenevtik metodlari bilan boyishi kerak . Boshqa tomondan, ta'kidlash joizki, germenevtikaning o'zi ham fenomenologik, semiotik, matn ma'nosining mantiqiy-semantik eksplikatsiyasi kabi yangi yondashuvlar bilan o'z mazmunini boyitadi. Shpet ijodida bu ikki metod birlashdi.

Shpet fikricha, germenevtikaning fenomenologiya bilan birlashuvi ma'noni tushunishning muhim zaruriy omilidir. Zero, "Germenevtika va fenomenologiyaning birlashuvi, "tushunish – ma'noni anglash" formulasida namoyon bo'ladi. Tushunishning tamoyilli tahlili bilan germenevtika shug'ullanadi. U "Qanday tushunish mumkin?" savoliga javob beradi. Ma'no va uni anglash metodlarining tamoyilli tahlili bilan fenomenologiya shug'ullanadi. Agar tushunishda ma'nolilikka e'tibor qaratilsa, demak germenevtika va fenomenologiya o'zaro bir-birini to'ldiruvchi yondashuvlardir" .

Shpet fikricha, har qanday matn yaralgan davrining ijtimoiy qiyofasi va tafakkur uslubi ta'siri ostida bo'ladi. SHu bilan birga, matn muallifning psixologik holati, so'z boyligi, uning tafakkur dalillari doirasi qurshovidan tashqarida bo'la olmaydi. Demak, tafakkur uslubi va til matn muallifining tabiiy ob'ektiv xususiyatidir.

Shpet ma'no masalasiga ham e'tibor beradi. "Ma'no – anglashning mazmuni. Ma'no nafaqat intuitsiya orqali, balki oqilona o'zlashtiriladi. Oqilona o'zlashtirilish esa, tushunish

orqali amalga oshadi. Tushunish – aql (tafakkur)ning sintetik funksiyasi bo'lib, u sharhlash va talqin qilishga asoslanadi". Xuddi shu holatda tushunish va talqin qilish orqali germenevtik muammo (oqilonalashtirilgan ko'rinishda) fenomenologiya bilan bog'lanadi.

Umuman olganda, G.G.Shpetning fenomenologik germenev tikasining yaratilishi germenevtika rivojidagi zaruriy bosqich bo'ldi.

XX asrning yana bir faylasufi A.N.Uaytxed (1861-1947) fikricha, tushunishga ikki yo'l orqali erishish mumkin. Agar taqdim etilayotgan ish murakkab bo'lsa, uning tarkibiy qismlarini alohida o'rganib, so'ng umumiy manzarani yaratish mumkin. Ikkinchi uslubda esa vaziyatni yaxlit holda bevosita tushunish ilgari suriladi. Birinchi uslub ichki, ikkinchi uslub tashqi yondashuv deyiladi va ular bir-birini inkor etmaydi, balki to'ldiradi. Birinchi uslubda vaziyatning qismlari orqali yaxlitlik tushunilsa, ikkinchi uslubda kauzal – sababiy omilga e'tibor qaratiladi.

Uaytxet borliqni tushunishda tilning simvolik tamoyilini ishlab chiqdi. Uning fikricha, inson tajribasining har bir komponenti (qismi) uning boshqalar tajribasi (fikr, faoliyat, odat va hokazolar)dagi ramziylik asosida yaraladi. Borliq simvolik jarayonlardan tashkil topgan, faqat uning bayon etilish tili (ifodasi) o'zgacha, xolos . Demak, borliqni, mazmunni tushunishning eng muhim jihati tilning ifodalanishida, ya'ni har kim simvolda aks etgan ifodadan o'zining hayotiy tajribasiga ko'ra ma'no chiqarib oladi. Uaytxetning bu qarashi G.Gadamerning hayotiy tajriba, ya'ni an'ana asosida tushunish tamoyiliga o'xshab ketadi.

Umuman olganda, A.N.Uaytxetning o'tgan asrda bilish metodologiyasi, mantiq faniga qo'shgan hissasi beqiyos. Xususan, olimning B.Rassel bilan hamkorlikda olib borgan ilmiy faoliyati XX asr G'arb falsafasining yangi sifatiy bosqichga o'tishiga asos bo'lgan.

Huquqshunos italyan olimi E.Betti (1823-1892) germenevtikani sharhlash nazariyasi sifatida tan olsa-da, M.Xaydegger va G.Gadamerdan farqli o'laroq, uning ontologik xususiyatini rad etadi. U o'z qarashlarida tushunishdan ko'ra, tushuntirishning ahamiyati muhim ekanligini e'tirof etadi. Ya'ni, tushuntirishning mukammalligi tushunishni osonlashtiradi. Tushunish matn ma'nosining qayta yaralishi natijasini beruvchi metodologik jarayon. Talqin metodi to'rtta qonunga tayanadi. Birinchi qonunni Betti "germenevtik masshtabdagi immanentlik qonuni" deb ataydi. Bu qonunda germenevtik rekonstruksiyaga muallif nuqtai nazarining muvofiqligi tahlil qilinadi. Bir tomondan, bu qonun Shleyermaxerning "matnda yashash" tamoyiliga qarama-qarshi bo'lmasada, ikkinchi tomondan "yaxshi tushunish" tamoyiga qarama-qarshidir. Ikkinchi qonun talqin qilinayotgan ob'ektga tegishli va bu germenevtik doira orqali amalga oshadi. Bu qonunni Betti "germenevtik tadqiqotning mazmuniy bog'liqligi va umumiylik qonuni" deb ataydi. Bu qonunning mazmuni yakkalikning tushunilishi umumiylik mazmunini yaratadi, umumiy mazmuni yakkalik haqida ma'no berishda namoyon bo'ladi. Uchinchi qonun "tushunishning muhimligi" deb atalib, sub'ektiv omilning to'liq bartaraf etilishi bilan izohlanadi. Begona fikr, eski asar mazmunini qayta tiklash uchun ular yashagan haqiqiy hayotga qaytib, haqiqiy faoliyatni his qilib, voqeani "ma'naviy ufq" orqali tushunish nazarda tutiladi. To'rtinchi qonun uchinchi qonun bilan uzviy bog'langan, u "tushunishning mazmuniy aynanligi" (adekvatligi) qonuni deb ataladi. U sharhlovchiga yo'naltirilgan bo'lib, "matndan chiqayotgan mazmunni hayotiy muhimligi bilan kelishishini" talab qiladi.

Umuman olganda, E.Bettining falsafiy merosi tushunishning fenomenologik, psixologik va gnoseologik jihatlarini boyitishga xizmat qildi.

P.Riker (1913-2005) XX asrning eng mashhur faylasuflaridan biri. U inson mohiyati haqidagi qarashlarini talqin qilish uchun XX asrdagi deyarli barcha eng dolzarb

falsafiy yo'nalishlarni tahlil qildi. SHu bois, u o'z ijodida fenomenologiya, hayot falsafasi, ekzistensializm, personalizm, psixoanaliz, germenevtika, strukturalizm, tahliliy falsafa, axloq falsafasi, siyosat falsafasi hamda antik davr merosi, Kant, Gegel, Fixte kabilarning qarashlariga murojaat qildi. Ushbu falsafiy ta'limotlarning umumiy va o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish asosida Riker ko'p qirrali fenomenologik germenevtika konsepsiyasini yaratishga harakat qildi. F.Shleyermaxer va V.Dilteydan farqli ravishda, germenevtikani psixologik emas, balki ontologik nuqtai-nazardan qayta ishladi. Riker germenevtikani faqat bilish metodi sifatida talqin etilishini tanqid qilib, uning borliq qurilishidagi o'rniga e'tibor qaratdi. Faylasuf fikricha, Gegelning "falsafiy ruhi"ga tayangan holda "germenevtika muammosini fenomenologik metodga payvandlamoq kerak" . Shu yo'ldan borib olim zamonaviy falsafani chuqur inqirozga olib kelgan ob'ektivizm va sub'ektivizm, ssientizm va antissientizm, naturalizm va antropologizm o'rtasidagi qarama-qarshiliklarni echishga harakat qiladi.

P.Riker tushuntirish va tushunish dialektikasini universal metodologiyaning sifatiy xususiyati sifatida e'tirof etadi. "Bizning paradigmamizning muhim natijasi – gumanitar fanlarni tushuntirish va tushunishning yangi yondashuvini ochadi. Ma'lumki, Diltey bu munosabatni e'tirof etib, uni dixotimiya deb atagan. Mening gipotezam Diltey qo'ygan muammoga echim topadi" . Bu javob tushuntirish va tushunishning dialektik xaraktyorida namoyon bo'ladi, ya'ni yaxshi tushunmoq uchun yaxshi tushuntirmoq kerak.

Umuman olganda, P.Riker yaratgan tadqiqot yo'nalishi rus faylasufi G.G.Shpet shakllantirgan fenomenologik germenevtikaning nazariy asoslarini yanada mustahkamladi. Uning falsafiy germenevtikaning metodologik ahamiyati haqidagi fikrlarini keyingi paragraflarda batafsil tahlil etamiz.

Zamonaviy falsafiy germenevtikaning rivoji va mustahkam asoslari nemis faylasufi X.G.Gadamer (1900-2002) ilmiy-ijodiy

faoliyati bilan bog'liq. Faylasuf o'zining "Haqiqat va metod" asari bilan germenevtikaning falsafiy ta'limot sifatida rivojlanishiga muhim hissa qo'shdi. Zero, tushunish, Gadamer fikricha, - biluvchi, faoliyat yurituvchi va baholovchi insonning mavjud bo'lish sharti. Tushunish – bu nafaqat bilish, balki dunyoni o'zlashtirish (tajriba)ning universal yo'li, u sharhlovchining o'z-o'zini tushunishi va mazmunni qidirish jarayonidir .

Gadamer o'z tadqiqotlarida haqiqatga eltuvchi metodlarni tahlil qilar ekan, avvalo, metodlarni qo'llashni tabiiy va gumanitar fanlardagi farqiga e'tibor qaratadi. Faylasuf o'zidan oldingi germenevtik tadqiqotlarni o'rganib, germenevtikaning tarixiy, psixologik, semiotik, mantiqiy-semantik, fenomenologik metodlari mavjudligini ta'kidlaydi. Hayotni tarixsiz, xotirasiz tasavvur qilib bo'lmaydi, o'tmish haqidagi tasavvursiz oldinga qadam qo'yish mumkin emas. Inson tarixni o'rganishga, mavjud manbalarni talqin qilishga, sharhlashga va tushunishga majbur. Chunki, tarix kelgusi faoliyatni, yashashning maqsadini belgilovchi mezondir. Aynan shu zaruriyat germenevtik tahlil orqali amalga oshadi.

Xullas, turli davrlarda yashagan faylasuflarning ijodi germenevtik tadqiqotlar doirasining kengayib borishiga sabab bo'ldi. Ijtimoiy-tarixiy davrlarning o'zgarishi, ma'naviy ehtiyojlar rivoji germenevtikani oddiy talqin qilish metodi darajasidan falsafiy yo'nalish darajasiga ko'tarilishiga asos bo'ldi. Lekin, germenevtikaning asl mohiyati, mazmunni tushunishga, haqiqatning haqiqatligini sharhlashga bo'lgan intilish o'zgarmadi. Zero, germenevtikaning falsafiy ahamiyati ham shundan kelib chiqadi, agar, falsafa "Haqiqat nima?" degan savolga javob izlasa, germenevtika "Haqiqatga borishning yo'li qanday? U qanday tushunilganda ayni haqiqat bo'ladi?" degan savollarga javob izlaydi.

Germenevtikaning vazifasini u yoki bu matnning mazmunini anglashga etaklash tashkil qiladi. Uning oldida har doim 2 ta vazifa turadi. 1) u matnni umumiy til hodisasi sifatida o'rgatsa, 2) uni alohida shaxsning ijod mahsuli sifatida talqin

qiladi. Shuning uchun germenevtikaning birinchi vazifasi grammatik, ikkinchi vazifasi psixologik mohiyat kasb etadi.

Grammatik talqin bo'yicha asarning leksik tizimi, til qurilishi o'rganilsa, psixologik tomondan uni yaratgan ijodkorning individual uslubi, ifoda-tasvir kombinatsiyasi o'rganiladi.

Germenevtikada biror bir badiiy asardan parcha olinadi va bu parcha izchil, ya'ni har bir so'z, fikr nega aynan shu holatda matnga kiritilgani haqida munosabat bildiriladi. Bunda matn anglatgan ma'no ham muhim ahamiyat kasb etadi. Matn va ma'no o'zaro chambarchas bog'liq. Ma'no matnning motori, ya'ni harakatlantiruvchi kuchidir. Matn ma'no bilan tirik. Lekin ma'noning o'zi ham sertarkib, murakkab hodisa. Buni Rolan Bart shunday ta'riflaydi: "Matnga ko'plik xos. Bu shunchaki, talay ma'nolar yig'indisi emas, matnda o'z-o'zicha ma'no ko'pligi vujudga keladi, shunchaki yo'l qo'yiladigan ko'plik emas, bartaraf qilib bo'lmaydigan ko'plik".

Tushunish jarayonining nazariy muammolarini o'rganuvchi soha — germenevtikaning asosiy qoidasi shuki: qismni butun, butunni qism orqali tushunish darkor. Bu qoida yuqoridagi tahlil yo'sinlarining ikkisiga ham birdek aloqador. Faqat bu o'rinda immanent tahlil "kontekst" tushunchasini asar doirasi bilan cheklab olsa, kontekstual tahlilda "kontekst" tushunchasining ko'lami kengayib boradi (konkret asar "yozuvchi biografiyasi", "muallif yashagan davr shart-sharoitlari", "muallifning ijodiy merosi", "asar yaratilgan davr adabiyoti", "milliy adabiy an'analar" kabi kontekstlar doirasiga kiradi). Kontekstual tahlil asarga muallif tomonidan yuklangan mazmunni tushunishga yo'l ochsa, immanent tahlil asarda tasvirlangan narsalarga (va, albatta, undagi muallif obraziga) tayangan holda o'quvchiga o'z mazmunini shakllantirish imkonini beradi. Mutaxassisdan farqli o'laroq, oddiy o'quvchilarning asarni tushunishida immanent tahlil unsurlari etakchilik qiladi (shu bois ham o'quvchilar ongida konkret asarning turfa talqinlari mavjud). Zero, aksariyat o'quvchilar

uchun konkret asarning qay maqsadda, qanday omillar ta'sirida yozilgani ahamiyatsiz - ular asarning o'zinigina taniydilar, uning o'zidangina zavq oladilar. Aksincha, adabiyotshunos uchun bularning bari muhim, chunki asarni tarixiylik tamoyiliga tayanib, biografik yoxud sotsiologik metodlar (kontekstual tahlil) asosida tekshirib chiqarilgan xulosalar adabiy-nazariy tafakkur rivojida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Ular, tabiiyki, badiiy adabiyot rivoji hamda badiiy did tarbiyasiga faqat bilvosita ta'sir qiladilar, bu xil xulosalar bilan badiiy didga bevosita ta'sir qilishga urinish esa adabiyotga faqat ziyon keltiradi. Demak, badiiy asarni alohida butunlik sifatida ham, kontekst doirasida ham tushunish (tahlil va talqin qilish) mumkin, - ikkisining ham o'z o'rni, vazifasi va maqsadi tayinlidir.

Adabiyotshunoslik metodologiyasida induksiya, deduksiya, sintez va analiz tushunchalari ham muhim o'rin tutadi.

Germenevtika adabiyotshunoslik metodlaridan biri bo'lib, matn asosida ish ko'rishdir. Germenevtika grekcha so'zdan olingan bo'lib, "talqin", "tushuntirish" degan ma'nolarni bildiradi. Qadimgi adabiy yodgorliklarni talqin etish nazariyasi va san'ati ma'nosida qo'llanadi. Bugungi kunda germenevtika o'zining lug'aviy ma'nosidan o'sib chiqqan yangi bir mazmun kasb etmoqda. Chunki avvallari bu atama ostida faqat qadimgi adabiy yodgorliklarni talqin etish nazariyasi yotgan bo'lsa, endilikda istagan bir badiiy asar yoxud uning bir bo'lagini tahlil va talqin etish tushuniladi.

Germenevtikaning 2 ma'nosi bor. Birinchisi, u matnni talqin qilish nazariyasi va metodologiyasi (anglash, tushunish san'ati) bo'lsa, ikkinchisi, unda asarga xos xususiyatlar izohlab beriladi.

Germenevtikaning mustaqil usul sifatida shakllanishida Shleyermaxerning hissasi katta bo'ldi.

Germenevtikaning vazifasini u yoki bu matnning mazmunini anglashga etaklash tashkil qiladi. Uning oldida har doim 2 ta vazifa turadi. 1) u matnni umumiy til hodisasi sifatida

o'rgatsa, 2) uni alohida shaxsning ijod mahsuli sifatida talqin qiladi. SHuning uchun germenevtikaning birinchi vazifasi grammatik, ikkinchi vazifasi psixologik mohiyat kasb etadi.

Grammatik talqin bo'yicha asarning leksik tizimi, til qurilishi o'rganilsa, psixologik tomondan uni yaratgan ijodkorning individual uslubi, ifoda-tasvir kombinatsiyasi o'rganiladi.

Germenevtikada biror bir badiiy asardan parcha olinadi va bu parcha izchil, ya'ni har bir so'z, fikr nega aynan shu holatda matnga kiritilgani haqida munosabat bildiriladi. Bunda matn anglatgan ma'no ham muhim ahamiyat kasb etadi. Matn va ma'no o'zaro chambarchas bog'liq. Ma'no matnning motori, ya'ni harakatlantiruvchi kuchidir. Matn ma'no bilan tirik. Lekin ma'noning o'zi ham sertarkib, murakkab hodisa. Buni Rolan Bart shunday ta'riflaydi: "Matnga ko'plik xos. Bu shunchaki, talay ma'nolar yig'indisi emas, matnda o'z-o'zicha ma'no ko'pligi vujudga keladi, shunchaki yo'l qo'yiladigan ko'plik emas, bartaraf qilib bo'lmaydigan ko'plik".

Savol va topshiriqlar

1. Adabiyotshunoslikda talqin nazariyasi deganda nimani tushunasiz?
2. Tahlil va talqin tushunchalarini izohlang.
3. "Sharh" va "tafsir" nima?
4. Germenevtika so'zi qanday ma'nolarni anglatadi?
5. Germenevtik metodning vazifasini nima tashkil qiladi?
6. "Asarni tushunish" deganda nima nazarda tutiladi?

Adabiyotlar

1. Baxtin M.M. Estetika slovesnogo tvorchestva. – M., 1986.
2. Gadamer G.G. Istina i metod: Osnovы filosofskoy germenevtiki. – M., 1988.
3. Do'stqoraev B. Romanning bir fazilati. // "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasi, 2009, 10 aprel, №15 (3998).

4. Karimov B. Adabiyotshunoslik metodologiyasi. Filologlar uchun o'quv qo'llanma. – Toshkent, 2011.
5. Kuznetsov V.G. Germenevtika i gumanitarnoe poznanie. – M., 1991.
6. Meli Suvon. Yangi tanqid (G'arb adabiyotshunosligidagi bir oqim haqida) // "Sharq yulduzi" jurnali, 2010, №4.
7. Mixaylov A.A. Sovremennaya filosofskaya germenevtika. – Mins, 1984.
8. Obщaya stilistika i filologicheskaya germenevtika. – Tver, 1991.
9. Rikyor P. Konflikt interpretatsiy: Ocherki o germenevtike. – M., 1995.
10. Shpet G.G. Germenevtika i ee problemы // Kontekst. Literaturno-teoreticheskie issledovaniya. – M., 1989.

8-MAVZU. PSIXOLOGIK VA PSIXOANALITIK METODLAR

Reja:

1. Ruhiy tahlil usuli (psixologik metod)ning mohiyati.
2. A.A. Potebnya – psixologik metod asoschisi.
3. Ovsyaniko-Kulikovskiyning psixologizm bo'yicha faoliyati haqida.
4. Freydizm va badiiy adabiyot.
5. Z.Freyd, E.Fromm asarlarida psixoanalitik metod talqini.
6. "Ong oqimi" va uning so'z san'atida ifodasi.

Tayanch tushunchalar: psixologik metod, psixoanalitik metod, psixologik maktab, badiiy ijodning psixologik muammolari, ijod psixologiyasi, badiiy asarlarning psixologik mazmuni, psixologik tasvir, psixologizm, psixoanaliz, psixoanalitik yondashuv, "ong oqimi", ong osti.

Psixologik metodning yuzaga kelishi va rivojlanishida Aleksandr Afanasevich Potebnya (1835-1891) va Dmitriy Nikolaevich Ovsyaniko-Kulikovskiy (1853 - 1920)larning xizmatlari katta bo'lgan. Ungacha adabiyotshunoslikda madaniy-tarixiy va keyinroq biografik usullardan keng foydalanilgan.

Agar o'n to'qqizinchi asr rus adabiyotshunosligi tarixiga nazar tashlasak, o'sha yillarda ustuvor mavqega ega bo'lgan madaniy-tarixiy va komparativistik metod namoyandalari orasida tortishuv, bahslar nihoyatda kuchayganini ko'rishimiz mumkin.

A.A. Potebnya bir-biriga muxolif bo'lgan mazkur guruhlarning birortasiga ham qo'shilmagan. Uning lingvistik qarashlari Gumbold ta'limotiga asoslangan edi. Olimning nazariy qarashlari asosida so'zning tub ma'nosini anglab bo'lmaslik, uning ko'plab ma'nolari tinglovchi va kitobxonning qabul qilishi va so'zni o'zicha tushunishiga bog'liqligi xususidagi ta'limot turardi. Aynan shunday qarash adabiyotshunoslikda

A.A. Potebnyaning psixologik yo'nalish deb nom olgan maktabining yuzaga kelishiga sabab bo'ldi. Mazkur ilmiy maktab madaniy-tarixiy adabiyotshunoslik zaminida yuzaga keldi. Shunga qaramay, psixologik yo'nalish vakillari madaniy-tarixiy adabiyotshunoslikdagi ikkita nuqsonni sezib, ularni bartaraf etish yo'lidan borganlar.

Avvalambor, madaniy-tarixiy oqim qo'llagan "muhit" tushunchasi isloh etildi. "Muhit" va uni tashkil etgan turli-tuman unsurlarbadiiy adabiyotga bir butunlikda ta'sir etadi, xususan, ayrim ijodkorlarga ma'lum bir hollarda turlicha ta'sir qiladi.Boshqa tarafdan esa. Muhit bosimini sezgan qalam sohiblari o'zlarining psixologik qurilmalariga ko'ra bunday ta'sirga turlicha munosabatda bo'ladilar.

Ikkinchidan esa so'z san'atining estetik tabiatiga e'tibor bermaslik va hatto nazar-pisand qilmaslik , umumadabiy mutsammolar oqimiga badiiy tafakkurni qorishtirib yuborish, adabiyot tarixini ijtimoiy fikr tarixiga doimo tenglashtirib qo'yish ilmiy asosga ega emasligi kun tartibiga olib chiqildi

Potebnyaning filologik konsepsiyasi badiiy ijodning psixologik muammolari hamda ijod psixologiyasi vaadabiyotni qabul qilish psixologiyasiga kuchli turtki berdi va adabiyotshunoslikda jiddiy burilishga olib keldi. Olimning yangi ta'limotiga qiziquvchi tadqiqotchilar ko'paya bordi. Bular orasida D.N.Ovsyaniko-Kulikovskiy, A.G.Gornfeld, V.I. Xarsiev, T.Raynov, B.Lezin kabi iste'dodli olimlar bor edi. Ular yigirmanchi asr boshlarida "Ijod psixologiyasi va nazariyasi muammolari" to'plamini nashr etishni yo'lga qo'ydilar. Ushbu to'plam sakkiz marta ketma-ket chop etildi. Mazkur majmualar adabiyotshunoslikda "pvixologik yo'nalish" mavjudligini tasdiqladi. Holbuki, Potebnya\va uning izdoshlari o'z ishlarida bunday yo'nalish haqida yozmaganlar.

Bu o'rinda A.A. Petebnya va uning izdoshlari orasida katta tafovut borligi haqida ham to'xtalib o'tish kerak. Atoqli olimning izdoshlari tashkil etgan "Xarkov maktabi" a'zolari o'z ustozlaridan konsepsiya teranligi, kengligi, tizim yaxlitligi,

universallikni meros qilib olmagan edilar. Ular istohotchi allomanitng metodologiyasini to'la-to'kis o'zlashtirish va rivojlantirishga erisha olmadilar.

"Xarkov maktabi" tor tadqiq doirasida ish olib borib, asosan ijod jarayonining psixologik masalalari va badiiy asarlarning psixologik mazmunini o'rganish bilan shug'ullandilar. Ular bu jarayonda ko'pincha badiiy matndan uzilgan holda ichki shakllar strukturasini tizimli tadqiq qilishdan uzoqlashdilar. Bunday harakat-urinishlar esa adabiyotshunoslikdagi psixologik usulning qadrsizlanishiga olib keldi.

Psixologik metodning muxoliflari bo'lgan boshqa oqim vakillari bunday vaziyatdan foydalanib, ushbu ilmiy yo'nalishni inkor qilishga kirishdilar. Mana shunday opponetlardan biri hisoblangan B.M.Engelgard o'sha paytlarda psixologik adabiyotshunoslik haqida shunday deb yozgan edi:

"Istalgan badiiy asarga psixologik usul bilan yaqinlashgan zahoti u birdaniga qayoqqadir yo'qolib qoladi, tadqiqotchi oldida uning o'rniga ichki jig'atdan emas, faqat tashqi tomonlama bog'langan turli-tuman ruhiy jarayonlar oqimi xilma-xil ruhiy jarayonlar oqimi tarzida paydo bo'lgan ijodkor tafakkuri paydo bo'ladi. Tadqiqotda shunaqa jarayonlar tavsifi ustuvor o'rinni egallaydi. Badiiy asarning u yoki bu xususiyatlari mazkur tasnifga moslashtiradi".[14]

Shu tariqa bunday xususiyatlarni ijod psixologiyasi qonuniyatlari asosida "genetik asoslash" B.Engelgardt tomonidan inkor etilib, badiiy asardan tashqaridagi va hech narsani tushuntirib bermaydigan ish ekanligi aytiladi. Garchi bunday nuqtai nazar bahstalab. formalistik munosabat bo'lsa-da, psixologik yondashuvning ayrim kemtikliklari to'g'ri qayd qilinganini tan olish lozim.

A.A. Potebnya nazariyasida bunday kemtiklik yoki og'ishlar bo'lmagan. Unda ijodkor psixologiyasi badiiy asar

---

[14] Энгельгардт Б.М. Избранные труды. - СПб, 1995. С. 36 - 37.

strukturasidan hech qachon ajratilmagan. Alloma hamisha so'z, badiiy asarni asosiy diqqat markazida tutar, birinchi navbatda ularning mohiyatini oydinlashtirish yo'lidan borardi. Uni aynan so'z va asar strukturasi masalalari: ularning shakllanishi, faoliyat ko'rsatishi, muallif va kitobxon tafakkuri bilan o'zaro aloqa-munosabatda bo'lishi, bulartorqali esa ijtimoiy psixologiya, shuningdek, muhitning boshqa omillari bilan bog'lanishi kabilar qiziqtirgan.

Potebnyaning ilmiy vorislari orasida eng mashhuri Dmitriy Nikolaevich Ovsyaniko-Kulikovskiy (1853 - 1920) edi. Potebnya mustaqil nazariya yaratgan olim bo'lsa-da, ilmiy doiralarda u qadar mashhur bo'lmagan. Ma'naviy ustozidan farqli ravishda Ovsyaniko-Kulikovskiyni fan olamida yaxshi bilishardi. Bu tadqiqotchi juda ko'p ilmiy ishlar, jumladan, Gogol, Turgenev, Pushkin, Tolstoy haqida salmoqli asarlar yaratgan. Bundan tashqari, u uch jilddan iborat "Rus ziyolilari tarixi" tadqiqotini yaratganki, bu ishni M.Gorkiy yuksak bahollagan, o'sha vaqtlardagi har bir gimnaziya talabasi bu ishdan xabrdor edi. Garchi yuqorida nomi qayd etilgan kitob sarlavhasi ziyolilar tarixiga ishora qilsa-da, unda o'n to'qqizinchi asr rus adabiyoti tarixi psixologik muammolar doirasida o'rganilgan.

Ovsyaniko-Kulikovskiy inson haqidagi fan, jumladan, filologiya. xususan, adabiyotshunoslikning bosh maqsadi insoniyatning axloqiy taraqqiyot qonuniyatlari, harakatlantiruvchi kuchlarini aniqlashtirishda deb hisoblardi. Uning fikricha, mazkur niyatga erishish uchun birinchi navbatda insondagi axloqiy ibtidoning psixologik asosini hamda psixologik sabablarini tushunish kerak bo'ladi. Olim bu muammolarning echish kaliti badiiy adabiyotda deb hisoblagan, chunki ana shu axloqiy kategoriyalar so'z san'atida teranroq va yorqinroq badiiy tajassum topadi.

Ovsyaniko-Kulikovskiy psixologik metodning ilmiy-nazariy asoslarini yoritib beruvchi maxsus tadqiqot yozishni rejalashtirgan. Chunki ungacha ushbu ilmiy usulninng nazariy aspektlari biror-bir ishda o'z ifodasini topmagan edi. Ammo u

bunday ishni yozishga ulgura olmadi. Dastlab inqilobiy talato'plar, keyin fuqarolar urushi bu maqsadning amalga oshirishga xalaqit bergan edi. Olim 1920 yili vafot etib, rejalashtirgan kitob yozilmay qoldi. Faqat mazkur maqsaddan o'ttiz sahifacha keladigan kichikroq qism – "Aqliy (ilmiy-falsafiy va badiiy) ijod psixologiyasiga doir" kitobiga kirish" saqlanib qolgan.

Bu muxtasar ish (aniqrog'i, tadqiqotning bir qismi) Ovsyaniko-Kulikovskiy tadqiqotlaridagi nazariy muammolarni aniqroq tushunishimizga yordam beradi.

Biz bu o'rinda A.A.Potebnya, Ovsyaniko-Kulikovskiy va mazkur soha bo'yicha ishlagan olimlarning qarashlariga asoslanib psixologik metodning eng muhim qirralari, alomatlari haqida fikr yuritmoqchimiz.

Badiiy asardagi "Bugun ta'bim xira", "Oqsoqolning qovog'idan qor yog'ardi" kabi iboralar adabiy qahramonning kayfiyati qanaqaligidan bizni ogoh etadi. Lekin yuqoridagi kabi jumla yoxud frazazeologizmlar o'zigina psixologizm bo'la olmaydi. Insonning ichki olamini alohida badiiy vositalar bilan tasvirlash, yozuvchining asar ishtirokchisi ruhiy dunyosiga kirib borishi, turli ruhiy holat va jarayonlar (tuyg'u, fikr, xohishlar)ni batafsil ifodalash, tuyg'ulardagi sezilar-sezilmas tafovutlarni ko'rsata olish – mana shularning barchasi ma'lum darajada badiiy adabiyotdagi psixologizmni anglatadi.

Shunday qilib, psixologizm uslubiy yaxlitlik, qahramonlarning qalb hududini teran hamda birma-bir ochib beradigan vosita va usullarning tizimi tarzida namoyon bo'ladi. Xuddi shu ma'noda psixologik roman, psixologik drama, ruhshunos ijodkor to'g'risida fikr yuritiladi.

Psixologizm odamning ichki olamiga kirish imkoniyati sifatida san'atning har qanday shakliga xosdir. Ammo so'z san'ati ruhiy holatlar va jarayonlarni o'zlashtirishdagi noyob salohiyati tufayli alohida o'rin va imtiyozga ega. Bunday salohiyat uning obrazliligida yaqqol ko'rinadi. Adabiy obrazlilikning birinchi unsuri so'z hisoblanadi. Ruhiy

jarayonlarning kattagshina qismi, jumladan, tafakkur oqimi, hissiyotlar, iroda impulslari va ehtiproslar vermal shaklda harakat qiladi hamda bunday haraktlarni badiiy adabiyot butun ko'lami va chuqurligi bilan ko'rsatish imkoniyatiga ega. San'atning boshqa turlarida esa bunday imkoniyat cheklangan. Chunki ular yordamchi shakllar va tasvir usullaridan foydalanadilar. Inson ichki olamini so'z juda aniq, batafsil ko'rsata olishi hammaga ma'lum haqiqatdir. Shu boisdan adabiyot eng psixologik san'atdir. To'g'ri, hozirgi paytda bunday imkoniyat ma'lum darajada sinkretik san'at sanalgan kinoda ham mavjud. Ammo kinoning apsosida badiiy adabiyotning janri bo'lgan ssenariy turishini ham unutmaslik kerak.

Badiiy adabiyotning har bir turida insonning ichki olamini oydinlashtirishda o'z imkoniyatlari bor. Lirikada psixologizm ekspressiv xarakter kasb etadi, unda odamning ko'ngil mulkiga chetdan qarash mushkul. Shu sababli lirik qahramon o'z tuyg'u va ehtiroslarini bevosita ifodalaydi, zero, u o'z qalb qatlamlarini tahlil qiladi . Lirik psixologizmning sub'ektivligi, bir tarafdan, uni teran va ifodali bo'lishiga yordam beradi, ikkinchi tomondan esa insonning ichki olamini bilishdagi imkoniyatlarni cheklab qo'yadi. Ma'lum bir darajada bunday dramaturgiyadagi psixoldogizmga ham taalluqlidir. Chunki bu adabiy tur janrlarida qalb asrorlarini ifoda etish asosan qatnashuvchilarning monologlari zimmasiga tushadi. Monologlar esa lirik ifodalarga o'xshab ketadi.

Insonning ruhiy-ma'naviy dunyosini ifodalashda adabiyotning epik turi nisbatan katta imkoniyatlarga ega. U o'zida har tomonlama shakllangan psixologik shakl va usullarni rivojlantirganki, biz bularni endilikda ko'rib chiqamiz.

Bu o'rinda shuni aytish kerakki, badiiy adabiyotdagi qahramonlarning ichki olamini tasvirlash o'z-o'zicha bo'ladigan jo'n jarayon emas. So'z san'atida psixologizmning yuzaga kelishi uchun jamiyatning madaniy saviyasi etarli darajada yuqori bo'lishi lozim, lekin, eng muhimi, mana shu madaniyatda inson shaxsiyati takrorlanmas qadriyat sifatida baholanishi kerak

bo'ladi. Bunday shartni bajarish inson qadri to'laligicha uning ijtimoiy, kasbiy mavqeiga bog'liq bo'lgan hamda uning dunyoga shaxsiy nuqtai nazari hisobga olinmaydigan vaziyatda imkonsizdir. Shu kabi hollarda odamning shaxsiy qarashlari mavjud emasdek ko'rinadi, chunki jamiyatning g'oyaviy va axloqiy hayotini butunlay aqidaga aylantirilgan xulqiy va falsafiy mezonlar boshqarib turadi. Aniqroq aytganda psixologizm avtoritar tuzimlardagi madaniyatlarda rivojlanmaydi. XIX—XX asrlarda yuzaga kelgan avtoritar jamiyatlarlarda san'atdagi psixologizm asosan g'ayrimadaniyat (ya'ni rasmiy madaniyatga qarshi) tizimidagina yuzaga kelishi mumkinligi ko'rinadi.

Adabiy-badiiy jarayon taraqqiyoti davomida badiiy adabiyotda har bir ijodkor uchun o'ziga xos, shu bilan birga, barcha ruhshunos-qalam sohiblari uchun mushtarak hisoblangan psixologik tasvirning vosita, shakl va usullari tizimi ishlab chiqildi. Bu tizimni tadqiq qilish har bir asardagi psixologizmning o'ziga xosligini tushunishda birinchi darajali ahamiyat kasb etadi.

Jahon so'z san'ati namunalarida inson ruhiyati ifoda topgan badiiyat namunalarini ko'zdan kechirar ekanmiz, ularda psixologik tasvirning uch asosiy shakli mavjudligini ko'ramiz, boshqa barcha psixologizmga oid usullar mana shu uch shaklga borib tutashadi. Bular quyidagilar:

1. Psixologik tasvir to'g'ridan to'g'ri ifoda etiladi. Buyuk so'z san'atkori Lev Tolstoyning "Urush va tinchlik", "Anna Karenina" va "Tirilish" asarlarida bu usuldan samarali foydalanilganini ko'rish mumkin. Ijodkor inson tuyg'ularini vaqt oqimida ko'rsatadi va shu yo'l orqali bunday kechinmalarni yuksak badiiyat bilan ifodalashga erishadi.

2. Adabiy qahramon ruhiyati bilvosita tasvirlanadi.Bunday usul bir qancha taniqli so'z ustalari, jumladan, Abdulla Qahhor tomonidan istifoda etilgan. Masalan, uning "Asror bobo" hikoyasidagi kampir eri urushdagi o'g'lidan kelgan xatlarni unga ko'rsatmasligini mehmonlarga aytar ekan.

yig'laydi. Mana yig'i o'z farzandidan qattiq xavotirda bo'lgan onaning kechinmalarini bevosita ifoda etgan.

3. Badiiy asar ishtirokchisi ruhiyati muxtasar izoh yoki ruhiy holatni ifodalovchi so'z yoxud jumla orqali ifodalanadi. A.P. Skaftimov atoqli fransuz adibi Stendal bu usuldan foydalangani haqida shunday qayd etgan edi: "Stendal ko'p hollarda tuyg'ularni verbal ifodalash yo'lidan borgan.Bunda muayyan kechinmalar haqida aytiladi, ammo tasvirlanmaydi".

Badiiy adabiyotda psixologik tasvirning turli-tuman usullari mavjud. Bular ruhiy holat va oqimlar tasvirini turlicha tashkil qilish, badiiy detallardan foydalanish, ichki olamni ifodalash vositalari kabilardir.

Aytilganidek, psixologizmning muhim usullaridan biri badiiy detaldir. Portret, peyzaj, buyumlar olami kabi tashqi detallar psixologizmning bilvosita shakllari tizimida avvaldan istifoda etib kelingan. "Rangi o'chdi", "qizarib ketdi", "ko'zi olaydi" singari portretga xos detallar psixologik holatni to'g'ridan to'g'ri ifodalaydi, tabiiyki, bunda u yoki bu portret detali personajdagi muayyan bir ruhiyi harakatga muvofiq keladi.

Peyzaj detallari ham ko'p hollarda psixologik mazmun kasb etadi. Qadim so'z san'ati namunalaridayoq tabiatning muayyan bir holatlari badiiy asarda inson kechinmalariga muvofiq yoki zid holda tasvirlangan. Bu fikr isbotini "O'tkan kunlar" romanida ham ko'rishimiz mumkin. Homidning ig'vosi tufayli Kumush diydoridan benasib qolgan Otabek oradan bir necha oy o'tib Marg'ilonga kelganida, Kumushni boshqa kishiga uzatayotganlarini tasodifan eshitib qoladi. Uning nihoyatda og'ir ruhiy holati kop-qorong'u tun bag'ridagi Xo'ja Ma'oz qabristoni tasviri bilan uyg'unlikda berilgan. Qattiq shamol esmoqda, mozordagi qurigan shoxlarda boyqushlar sayraydi . Bunday peyzaj tasviridagi detallar, tabiiyki, bosh qahramon qalbidagi umidsizlik, alam-nadomatlarning naqadar ulkan ekanligidan darak berib turibdi.

Portret va peyzajdan farqli ravishda jahon so'z san'atida psixologik tasvirni yuzaga keltirishda buyumlar olamiga murojaat etish ancha kech boshlangan. Xususan, adabiy-badiiy jarayonning realizm, tanqidiy realizm bosqichlarida bunday usul ancha samarali qo'llanilganini ko'rish mumkin. Jumladan, badiiy tasvirning mohir ustalaridan hisoblangan Anton Chexov ijodida buyumlar orqali qahramon ruhiy olamini ko'rsatishga alohida e'tibor berilgan. Bunday xususiyatni uning "Uch yil" asarida yaqqol ko'ramiz. Hikoya qahramoni Laptev uyga kirib sevgilisi unutib qoldirgan shamsiyani qo'liga olib o'par ekan, qalbi baxtga to'layotganini his qiladi. Bunday psixologik vosita taniqli o'zbek yozuvchisi Abdulla Qahhorning bir qancha ijod namunalari, xususan, "Anor" hikoyasida muvaffaqiyatli qo'llanilgan. Hikoyada tasvirlangan engi yirtilgan qalami yaktak. Qozon rangi chiqqan go'ja, o'g'irlangan anor – bularning barchasi asar qahramoni Turobjonning faqirlikdan ruhan iztirob chekishini ko'rsatib-ta'kidlab turibdi.

Shuningdek, badiiy ijod namunalarida psixologik tasvirning ayrim hollarda dastlab paradoksal ko'rinadigan "sukut saqlash" usuli ham qo'llaniladi. Bu usulda ijodkor ma'lum bir vaqtgacha ichki olamidagi jarayon haqida hech narsa aytmaydi, shu tarzda u kitobxonni o'zicha psixologik tadqiqot olib borishga chaqirgandek bo'ladi. Buyuk so'z san'atkori Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" romanining dastlabki bobida mazkur usul ishlatilgan. Asarning etakchi qahramoni Otabek Marg'ilonga savdo ishi bilan kelganida tasodifan Mirzakarim qutidorning yakkayu yagona sohibjamol qizini ko'rib qoladi. Yosh yigitning qalbida sevgt olovi kundan kunga avj ola boshlaydi, ammo yozuvchi ushbu sevgi ibtidosini ancha vaqtgacha kitobxonga ma'lum qilmay turadi.

Aytish kerakki, psixologizmning umumiy shakl va usullari har bir yozuvchi tomonidan o'ziga xos tarzda qo'llaniladi. Shu sababli psixologizmning barcha qalam ahli uchun umumiy bo'lgan shaukllari yo'q. Uning turli shakl va ko'rinishlari inson ruhiyatini har tomondan o'zlashtirish va oydinlashtirish g'amda

shu tarzda kitobxonni psixologik va estetik tajribalar bilan ma'naviy jihatdan boyib borishiga imkoniyat yaratib beradi.

Yigirmanchi asrning birinchi choragiga kelib ruhshunoslik fanida yangi bir yo'nalish paydo bo'ldi. Endi adabiyotshunoslik psixologik metod bilan bir qatorda psixoanalitik usulni ham qo'llay boshladi.

Bu yangi va zamonaviy munosabat yoxud usul badiiy adabiyot namunalarini Zigmund Freyd (1856-1939)ning konsepsiyasi asosida ong osti. "ongsizlik" yoki ruhiy olamning eng teran qatlami ifodasi sifatida tadqiq qilish imkoniyatini berdi. Freyd mazkur metodni Da Vinchi, SHekspir, Gyote, Tomas Mann, Dostoevskiy ijodiyotini tahlil qilishda qo'llab, ularning shaxsiyatidagi psixoseksual taraqqiyot va o'zi tomonidan ishlab chiqilgan "Edip kompleksi" nazariyasiga aoslandi. Zigshmund Freydning eng qobiliyatli shogirdi va safdoshi bo'lgan Karl Yungng jamoaviy "ongsizlik" tushunchasini ishlab chiqib, psixoanalitik munosabat yo'nalishini o'zgartirdi.

Psixoanalitik metod ham adabiyotshunoslikning alohida tadqiq usullaridan biridir. Uning o'ziga xos xususiyati, eng avvvalo, psixologiya fani bilan bog'liq ekanligida ko'rinadi. Bu metodda nafaqat badiiy asar qahramonlari ruhiyati, psixologiyasi, balki muallif ruhiyatini ham qiyosiy o'rganiladi. Z.Freyd, E.Fromm asarlariga qiziqishning kuchayganligi psixologik metodning adabiyotshunoslikdagi mavqeini kuchaytirdi.

Mazkur metod XIX asr oxirlari – XX asrning boshlarida shakllandi. Uning asoschisi psixoanaliz, avstriyalik vrach-psixoanalitik Zigmund Freyddir. U 1856-1939 yillarda yashagan. Z.Freyd o'zining ko'p yillik amaliy faoliyati, kuzatish va izlanishlari natijasida "Ruhiy bezovtalik tadqiqi" (1895), "Tushlar talqini" (1900), "Kundalik hayot psixopatologiyasi"(1904), "Chechanlik va uning ongsizlikka munosabati"(1905), "Seksuallik nazariyasi xususida uch ocherk" (1905), "Leonardo da Vinchi psixoseksuallik nazariyasiga chizgi sifatida" (1910), "Totem va tabu" (1913), "G'ayriodatiy

lazzatlanish tamoyili", "Omma psixologiyasi va inson "men"i tahlili" (1921), "Men va U" (1923), "Tamaddun va undan norozilar" (1929), "Muso va yakkaxudolik" (1939) kabi qator tadqiqotlar asarlarini yozgan. Olim psixoanalizning markaziy konsepsiyalarini ishlab chiqqan, asoslashga uringan va amaliyotda qo'llagan. SHu bois Z.Freyd, tom ma'noda, psixoanaliz amaliyoti va nazariyasining asoschisi hisoblanadi. Psixoanaliz falsafasi va nazariyasiga tatbiqan freydizm istilohining qo'llanishi ham shu sabablidir.

Freyddan so'ng psixoanaliz taxminan uch yo'nalishda davom etgan. Birinchi yo'nalish freydizmning o'zak muammolari, konseptual jihatlarini rivojlantirish, ba'zi holatlarda boshqacharoq talqin etishga qaratilgan bo'lib, o'zining A.Adler, K.Yung, J.Klayn, J.Lakan, E.Fromm kabi mashhur vakillariga ega. Ular freydizmning nazariyotchilari sanaladilar. Ikkinchi yo'nalish freydizm nazariyasini turli sohalarga tatbiq etishga qaratilgan. Bu yo'nalish vakillari sirasiga dunyo miqyosidagi faylasuf va falsafashunoslar, siyosatchi va siyosatshunoslar, san'atkor va san'atshunoslar, pedagoglar, antropologlar, etnograflar kiradi. Uchinchi yo'nalish esa tor professional faoliyat bilan cheklanadi. U ruhiy bemorlarni psixoanaliz usulida muolaja qilish bilan shug'ullanadi. Ular vrach-psixoanalitik deb nomlanib, hozirda dunyoning barcha hududlarida faoliyat yurgizadilar.

Z.Freyd birinchilardan bo'lib badiiy ijod mahsuli bo'lgan baddiy asarlarni psixoanalizga nisbatan ham ob'ekt, ham sub'ekt sifatida tanladi. Natijada adabiyot psixoanaliz uchun ob'ekt va sub'ekt vazifasini bajardi. Buning oqibatida psixoanaliz nazariy adabiyotshunoslikning bir tadqiq usuli, uning tarkibiy qismiga aylandi.

Badiiy adabiyotga xos obrazli tafakkur Freydga psixoanaliz usulini ishlab chiqish uchun os bo'lgan. Freydizm nazariyasining asos konsepsiyasini ham aynan shu narsa tashkil etadi.

Freyd, Yung, Fromm, Adler va Lakan kabi mashhur psixoanalitiklar ijodida bevosita adabiy asarlar tahliliga asoslangan

tadqiqotlar talaygina. Ular biror adabiy asarga murojaat qilish orqali o'z qarashlarini asoslashga harakat qilishgan. Xususan, Freyd isbot etmoqchi bo'lgan fikriga dalil sifatida biror badiiy asarni manba sifatida tanlab, o'sha asarning insonshunoslik nuqtai nazaridan tutgan darajasini ta'kidlashni ko'zda tutgan. Masalan, Freyd "Kundalik hayot psixopatologiyasi" nomli tadqiqotida qahramonlar nutqida ishlatilgan so'zlar orqali ularning ong ostidagi yashirin istaklari ifodasi namoyon bo'lishini ta'kidlaydi. Ikkinchidan, qahramonning bunday chuqur psixologizmda ochilishi asar muallifining yuksak mahoratidan dalolat berishini e'tirof etadi. Freyd fikricha, asardagi nomantiqiy, tushunarsiz ifodalar mohiyatini anglamay turib, yozuvchining ifoda uslubiga to'g'ri baho berib bo'lmaydi.

Freyd o'z asarlarida Shiller, F.Dostoeevskiy asarlari tahlilidan foydalangan. Xususan, u "Dostoevskiy va padarkushlik" asarida muallif biografiyasi asosida tadqiqot olib borgani kuzatiladi.

Freydning "Seksuallik xususida uch ocherk", "G'ayriodatiy lazzatlanish tamoyili", "Kundalik hayot psixopatologiyasi" kabi asarlarida psixoanalizning sof nazariy-metodologik, tibbiy-psixologik jihatlari asoslab berilgan.

Freyd o'z tadqiqotlarida, birinchi navbatda, muallifning ijodiga emas, shaxsiyatiga e'tibor qaratadi. Uning fricha, Dostoevskiyning serqirra shaxsiyatini to'rt tomondan o'rganish mumkin: yozuvchi sifatida, nevrotik sifatida, mutafakkir-etik sifatida va gunohkor sifatida. Uning ta'kidlashicha, Dostoevskiy asarlaridagi shahvatparastlar, jinoyatchilar, qotillar, xudbin va telbalar obrazi aynan muallifning[3] ichki dunyosidagi yashirin istaklaridan va uning biografiyasi bilan bog'liq ba'zi hodisalardan kelib chiqadi. Uningcha, yozuvchi ijodidagi padarkushlik talqini ham ayni sabablar oqibati o'laroq namoyon bo'ladi. Umuman aytganda, Freyd Dostoevskiy shaxsiyatini ambivalent munosabatning tipik namunasi sifatida talqin etganligi kuzatiladi. Bunday munosabat yozuvchining nafaqat yaqinlari yoki atrofidagi begona kishilarga, o'quvchilariga nisbatan, balki o'ziga nisbatan ham ko'zga tashlanadi. Freyd yozadi: "Har holda, uning shaxsiyati sadistik qirralardan xoli emas. Undagi

qahru g'azab, sabrsizlik, azoblashga moyillik istaklari o'z yaqinlariga munosabatida, o'quvchi bilan ichki muloqotida yaqqol ko'zga tashlanadi. Arzimas masalalarda u o'zgalarga nisbatan, asosiy holatlarda o'ziga nisbatan sadist hisoblansa, ayni paytda, hech kimdan yordamini ayamaydigan, yumshoq ko'ngil, ezgu qalbli kishi sifatida namoyon bo'ladiki, bu undagi mozaxizmdan dalolat".

Ma'lumki, otasining o'limiga garchi Dostoevskiy jismonan sababchi bo'lmagan bo'lsa-da, o'zini chuqur gunohkor his etgan. Bunday hissiyot manbai uning ongi ostidagi otasining o'limiga bo'lgan intilish bo'lib, aybdorlik hissining yozuvchi faoliyatida namoyon bo'lish shakli esa, ayni mozaxistik sublimatsiyadir.

Freyd Dostoevskiy psixologiyasidagi mana shunday murakkab va chigal holat ifodasini "Aka-uka Karamazovlar" romanida ko'rgan. Ma'lumki, romanda otasining o'limini maqsad qilib yashayotgan Dmitriy Karamazov istagi boshqa Karamazov (Smerdyakov) tomonidan amalga oshiriladi. Dostoevskiy ifoda usulida aynan o'sha qotil Karamazovga nisbatan simpatiyaning etakchilik qilishi Freyd uchun kalit vazifasini o'taydi. Uningcha, aslida qotil bir ijrochi, xolos. Haqiqiy qotil esa, otasining o'limini ich-ichdan istab yurgan Dmitriy. Shu ma'noda Dmitriyning ichki iztiroblari, o'z navbatida, Dostoevskiyning ham iztiroblaridir. Uning ruhiy bemorligi – aynan Dostoevskiyning dardi. Shuning uchun muallif bu qahramonidan nafratlanar ekan, ayni nafrat barobarida qotil Karamazovni o'zining xaloskori, deb biladi.

Shu kabi tahlillar asosida Freyd "Aka-uka Karamazovlar" romanini jahon adabiyotining ikki buyuk asari – "Shoh Edip" va "Gamlet"dan yuqori qo'yadi. Dostoevskiy romani haqida: "Bu yo'nalishda rus yozuvchisining romani bir qadam olg'a ketadi" deydi.

Freyd "Chechanlik va uning ongsizlikka munosabati" asarini bevosita adabiy manbalar, ijodiy jarayonlar tahlili orqali yozgan. Unda chechanlikning estetik funksiyasi psixologik omillar tizimi sifatida asoslangan. Chechanlik va uning genezisi,

chechanlikning ongsizlik bilan munosabati, chechanlik va komizm turlari masalalari psixoanalitik usulda tahlil etilgan. Freyd chechanlikning "favqulodda sub'ektiv komizm" (Ch.Lupps), "mulohazalar o'yini" (K.Fisher), "g'oyalar bilan o'ynashish" (J.Paul), "tasavvurlar ziddiyati", "ma'nisizlik ichidagi ma'ni" (Ch.Lups), "anglanmagan ma'nining bir lahzalik anglovi" (Kant, Gemmans) kabi ta'riflarini asosan inkor etadi. Uningcha, chechanlik so'zning ifoda usuli (texnikasi) va an'ana-xotira (assotsiativ ekskurs)ning mushtarak vazifasi sifatida namoyon bo'ladi. Bunda, albatta, aytuvchi bilan eshituvchi munosabati bo'lishi shart.

Freydga ko'ra, chechanlikning ifoda usuli quyidagi shakllarda namoyon bo'ladi:

I. Zichlash: a) qorishiq so'zlar yasash bilan; b) modifikatsiya yo'li bilan.

II. Ayni bir so'zni takror ishlatish: a) butun va qism; b) o'rin almashtirish; v) kichik modifikatsiya; g) boshlang'ich ma'nosiga tamoman zid bo'lgan ma'noda qo'llash.

III. Ikki ma'nolilik: a) xususiy ot ma'nosining predmetga o'tishi; b) istioraviy va predmetlik ma'nosi; v) xususiy ikki ma'nolilik (so'z o'yini); g) ikki ma'noli talqin; d) ishora orqali anglashiladigan ikki ma'nolilik.

Freydning fikricha, mazkur usullarning barchasi so'z iqtisodi, zichlash deb ataluvchi asosiy nuqtada umumlashadi. Freyd chechanlikning mohiyatini kulgidan olinadigan qoniqish hissida emas, balki kulgi orqali yuzaga chiqadigan ong osti istaklarining g'alaba qilishida, deb tushuntiradi.

Chechanlikning o'z aytuvchisi va tinglovchiga ko'rsatadigan ta'sir kuchi avvalo, gapning ifoda shakli bilan bog'liq. Ayni paytda, aytuvchi uchun nozik lutfning kulgili joyi yo'q. Uni o'z lutfining boshqa birov tomonidan qabul qilinishi qiziqtiradi. U shundan lazzat oladi. Uning lutfidan ta'sirlanib kuluvchi kishi esa lutfning ma'nosidan emas, balki bu lutf xotirasi qatida yashirin nimanidir eslatgani uchun kuladi.

Chechanlik va tush munosabatidagi umumiylik ularning har ikkisida ong osti motivlarining mavjudligida ko'rinadi. Tush inson ongi ostidagi istaklar, ramzlar vositasida sodir bo'ladi.

Chechanlik kutilmaganda, favqulodda paydo bo'ladiki, ularning nega yuzaga qalqib chiqqanini anglash qiyin. Bu esa uning ongsizlikdan kelib chiqishini ko'rsatadi»[9], – deb yozadi Freyd. Shuningdek, chechanlikda ham tushdagi kabi ma'nisizlik va ziddiyatlilik hukm suradi. Masalan, Afandi latifalarining birida podsho uni kalaka qilish, ustidan kulish uchun eshagining labini kesib qo'yadi. Buni ko'rgan Afandi podshoning otining dumini kesadi. Bundan bexabar podsho Afandiga eshagingizning labi-labiga tegmaydigan kulog'ich bo'lib qolibdimi desa, Afandi otingizning keti ochilib qolganiga kulaveradi-da, deygan ekan.

Ushbu latifada Afandining qilgan ishida ma'no bo'lmasa ham, gapida ma'no borligi favqulodda kontrastni keltirib chiqargan. CHunki uning bu chechan javobi podshogi bir lahza dovdiratib qo'yadi.

Psixoanaliz chechanlik va komizmni aynan bir narsa emas, balki insonga qoniqish beruvchi ikki hisning ketma-ket keladigan bosqichlari sifatida talqin etadi. Ya'ni chechanlik bevosita ongsizlik psixologiyasining mahsuli bo'lsa, komizm anglatish arafasidagi ongsizlikdir. Shu ma'noda: "Chechanlik – bu komizmga ongsizlik hududidan ko'rsatilgan ta'sir" hisoblanadi.

Freyd yumorni chechanlik va komizmdan farqli o'laroq, "himoya mexanizmi", deb ham ta'riflaydi. Uningcha, yumor – insonni iztirobdan himoya qiluvchi avtomatik vosita. "Yumor iztiroblar qurshovida turib, lazzatlana olishdir" deydi Freyd.

Umuman, Freydning chechanlik, komiklik va uning turlari haqidagi qarashlari sof psixoanalitik talqinga ega. U adabiy asar muallifi, qahramoni va o'quvchiaro munosabatda, muallifning badiiy talqin usullarida o'zining psixoanalitik nazariyasiga xos ong osti jarayonlari tizimini ko'rishga harakat qiladi.

Adabiyotga psixoanaliz metodi asosida yondashish Freydning bir qator izdoshlari, shogirdlari ijodida ham uchraydi.

Xususan, Erix Fromm psixoanalizga doir qator qarashlarini adabiy manbalar vositasida talqin etgan. Masalan, u inson tabiatidagi nekrofillik holatini ochib beradi. Bunga u ingliz yozuvchisi Richard Xyuz (1900-1976)ning "Chordoqdagi tulkinisa" asaridagi fashizmning asoschisi bo'lgan Adolf Gitler tushiga doir bir epizodni misol keltirib, "inqiroz sindromi"ga xos unsurlarni ko'rsatib berdi. Shuningdek, Gitler shaxsiyatidagi nekrofillik sindromini asoslab berishga uringani kuzatiladi. U Gitlerning butun faoliyatini nevroz holati, deya talqin etadi.

E.Fromm Frans Kafkaning «Jarayon» romanini ham psixoanalitik usulda tadqiq etgan. Uningcha, Kafkaning «Jarayon» romanidagi har bir obraz, voqea va detallarni ramzlardir. Fromm roman qahramoni Yozef K. faoliyatida tushga xos ramzlar tili etakchilik qilishini asoslashga uringan. Uning talqinicha, hibs Yozef K. hayotidagi turg'unlik, bosib o'tilayotgan, ammo yashalmayotgan umr uchun berilayotgan mavhum (ong osti) jazo. Yozef K.ning butun fojiasi o'zi yashab kelgan odatiy hayotiga qaytishga urinishida, shu hayotini himoya qilishida ko'rinadi. Olim mazkur asardagi hibs, sudgacha bo'lgan jarayonlar va boshqa talay detallar tizimini Yozef K. ongi ostida kechayotgan murakkab va chigal psixologik jarayon, degan xulosaga keladi.

Fransiyalik psixoanalitik Jan Lakan va uning zamondoshlari M.Fuko, A.Greymas, R.Bart, Levi-Stroslar ijodida til hodisalariga nisbatan psixoanalitik yondashuv etakchilik qiladi.

J.Lakanning «Matnlar» asari struktural psixonalizning namunasi hisoblanadi. U inson shaxsiyatini chuqur anglashning eng samarali usuli sifatida nutq tahlilini ko'rsatadi. O'zining psixoanalitik tadqiqotlari natijasiga suyanib, nutq elementlarini individuum mohiyatini aks ettiruvchi ramzlar tizimi, degan xulosaga keladi. Insonning nutqi, uningcha, inson tomonidan boshqariladigan jarayon emas, aksincha, boshqaruvchi vazifasini bajaradi. Ayni shu jihat insonni bilishda uning faoliyatiga emas, tiliga asoslanishni taqozo etadi. Agar

tadqiqotchi nutq kodlarini to'g'ri echa olsagina individuumning ong osti olamiga yo'l topishi mumkin. J.Lakan nutq tahlili jarayonida anglangan individuum mohiyatini uch qatlamli tizim, deb tushunadi: a) real; b) tasavvurdagi; v) ramziy. Uningcha, til fenomenisiz shaxs mohiyatini anglash mumkin emas.

J.Lakan o'zining struktural psixoanaliz metodi haqida shunday yozadi: "Biz til hodisalarini ishlashda o'ta murakkab va chuqur ketamiz. Chunki shu yo'l bilan ijodkor ruhiyati va ijod asoslariga tayanmay turib ham poetika qonunlarini yarata olamiz".

"Lakan psixoanalitik kursining o'ziga xosligi shundaki, u faqat til hodisalari bilan cheklanmaydi, balki o'z-o'zidan adabiyotshunoslikka ham daxl qiladi", – deb yozadi bu haqda rus olimi L.Filippov.

Umuman, ma'lum cheklanishlariga qaramasdan, psixoanaliz metodi jahon adabiyotshunosligida qo'llab kelinyapti. Z.Freyd. E.Fromm, J.Lakan, K.Yung, A.Adler kabi mashhur psixoanalitiklar tadqiqotlari esa bevosita adabiyotni o'rganishga emas, balki psixoanalitik nuqtai nazarni asoslashga qaratilgandir.

Adabiy asar muallif ijodiy jarayoni (ilhom onlari)dagi murakkab ong osti oqimini o'zida muhrlagan vosita o'laroq namoyon bo'ladi. Bunda muallif ham, asar qahramoni ham, asar voqeligi ham shu holat hukmi, boshqaruvi ostida harakat qiladi, Ayni holatning badiiy asar uchun universal mohiyat kasb etish-etmasligi ikki narsa bilan bog'liq: a) muallifdagi haqiqiy ijod jarayonining davomiyligi, iste'dod darajasi; b) asarning zamon nuqtai nazaridan maydonga kelish ko'lami, uning qaysi adabiy tur yoki janrda yozilganligi.

Har bir asar hajmidan qat'i nazar ma'lum bir vaqt birligida tug'iladi. Bu jihat ijod jarayonining real voqelik ta'siridan uzilib qolmasligini ta'minlaydi. Natijada, badiiy asar psixoanalitik-sub'ekt sifatida universallashadi. Lekin bunda asosiy omil sifatida vaqtnigina ko'rsatish o'zini oqlamaydi. Bu o'rinda muallifning iste'dod darajasi, geniysi ham muhim hisoblanadi.

Katta epik asarlarda, dramaturgiyada bunday holatlarning universal mohiyat kasb etishi o'ta og'ir. Hatto jahon adabiyoti ko'lamida ham yuz foiz universallik holati kuzatilmaydi.

Dastlab Evropa adabiyotida, so'ngra Amerika va boshqa millatlar adabiyotida psixoanaliz metodi asosida yozilgan badiiy asarlar maydonga kelgan.

Agar badiiy asar muallifi yo nevrotik yoki favqulodda genial ijodkor sifatida namoyon bo'lsa, mazkur holatda ijodkor ko'proq mohir psixoanalitik sifatida ko'zga tashlanadi. Bunda badiiy voqelik, qahramon, syujet, kompozitsiya muallifning psixoanalitik ob'ektiga aylanadi. Oqibatda bunday badiiy asarga psixoanalitik yondashuv boshi berk ko'chaga kirib qoladi. Bunday asar tahlilida psixoanaliz o'z kashfiyotlarini takrorlashdan boshqa hech narsa topmaydi. Badiiy asarning o'zi ham sun'iylik xavfi ostida qoladi.

XX asrda modernizm nomi bilan mashhur hodisa, asosan, psixoanaliz nazariyasiga tayanadn. Uning negizida yotuvchi futurizm, abstraksionizm, dadaizm, syurrealizm, ekzistensializm, absurdizm kabi qator falsafiy konsepsiyalar voqelikka psixoanalitik yondashuvdan kelib chiqadi. U.Folkner, J.Joys, M.Prust, S.Bekket, A.Rob-Griy, F.Kafka, A.Kamyu kabi qator yozuvchilar ijodi fikrimizga dalil bo'la oladi. SHuningdek, Afrika, Lotin amerikasi, yapon, xitoy, hind, eron, turk va arab adabiyotlarida ham shunday holatni kuzatish mumkin. Keyingi yillarda o'zbek ijodkorlarining-da ba'zi eksperimentlar qilishga urinayotganlari ma'lum.

Rossiyalik olimlar F.Bassin, M.YAroshevskiylarning yozishicha: "Ayniqsa, Ikkinchi jahon urushidan so'ng psixoanaliz badiiy adabiyot, san'at, kino, shuningdek, psixosomatik meditsina sohasiga chuqur kirib bordi".

Fransuz psixiatori A.Bryuk psixoanalitik yondashuv inson salomatligi uchun katta xavf tug'dirishi mumkinligidan ogoh etadi. S.Viderman kabi psixoanalitiklar o'z faoliyatlari davomida psixoanalitik metodining ijobiy natija berishiga shubha bilan qaraganlar. Ba'zi xulosalarga ko'ra, inson ruhiy holatiga

psixoanalitik yondashuv psixoterapiya sohasini boshi berk ko'chaga olib kirib qo'ygan.

Freydning psixoseksual qarashlari u hayotligidayoq o'z shogirdlari, izdoshlari tomonidan shubha ostiga olingani ma'lum. Xususan, K.Yung, L.Adler, E.Fromm, J.Lakan kabi mashhur psixoanalitiklar Freydning barcha aqliy va noaqliy faoliyatlar negizida seksual mayllar yotadi, degan qarashlarini inkor etganlar.

Demak, psixoanaliz qo'lga kiritgan yutuqlar inson tabiatida mavjud murakkab holatlarni – ong osti (ongsizlik)ni ma'lum ma'noda kashf etadi. Agar u sof freydizm nazariyasi bilan adabiyotga yondashsa, haqiqiy ma'nodagi adabiyotshunoslik taraqqiyotiga xizmat qila olmaydi.

Yigirmanchi asrning eng ommaviy falsafiy-psixologik ta'limotlaridan biri bo'lgan freydizmni o'rganish adibga inson, qahramon ruhiy olamining murakkab qatlamlarini bilish va badiiy tasvirlashga yordam bergan. Inson (qahramon) tafakkurining o'ziga xos murakkab, ko'p qirrali, hududsiz olami, uning bir-biridan ajralib turuvchi, "mustaqil" qatlam ("ong", "ong osti", "ongdan tashqari")larga bo'linishi, shaxs xatti-harakatlari, faoliyati, xarakteri mana shu qatlamlarning strukturasi, o'zaro, ichki munosabat-aloqalaridan kelib chiqishi, jismoniy-seksual hissiyotlarning odam psixologik tadriji, evrilishlaridagi o'rni va ahamiyati freydizm ta'limotida ilmiy dalillar, tahlil va tadqiqlar orqali ochib berilgan.

Ruhshunoslikdagi psixoanaliz ta'limoti asoschilari, xususan, Zigmund Freyd shaxsni o'rganishda asosiy e'tiborni uning ichki strukturasiga qaratganlar. Bunday tadqiq ko'p asrlar davomida insoniyat uchun qorong'i, noma'lum bo'lgan sirli hodisalarni bilish, baholash imkoniyatini yaratdi[15]. Z. Freydning eng katta xizmati uning psixoanalitik metodni ishlab chiqqanligida ko'rinadi.

---

[15] Фрейд З. Я и Оно. – Москва: ЭКСМО, 2009.

Freyd va uning tarafdorlari fikricha, inson ruhiyati asosida shahvoniy mayl (libido) va qotillikka intilish (tanatos) yotadi. Bu ikkalasi bir-biriga chambarchas bog'liq bo'lib , hayotning ibtidoiy – tashkil etuvchi hamda vayron qiluvchi omillarini ifodalaydi. Bunday nuqtai nazar freydizm vakillarini san'at tarixidagi dastlabki bosqichlarni tahlil etisha olib kelgan. Ular aynan qadimiy zamonlarda yaratilgan asarlardagi erotik poydevor o'z fikrlarini isbotlashga xizmat qiladi deb hisoblaydilar. Freyd metodologiyasining mexanikasi butunjahon so'z san'atida u yoki bu shaklda namoyon bo'luvchi "edipona kompleks"ga olib boradi degan fikrda edilar. Albatta, bunday qarashlarga to'la-to'kis qo'shilish qiyin. Leukin shunga qaramay. Freyd ta'limotining inson ruhiyatini o'rganishda juda katta afzalliklari borligini ham e'tirof etish lozim.

Z. Freyd tomonidan badiiy adabiyot namunalariga murojaat etish quyidagi maqsadlarni ko'zlagan edi:

1) maxsus seksuallik yozuvchining ruhiy komplekslari sifatida uning asarlarida ifoda topishi ijodiy jarayonlarning o'ziga xos oqimini yuzaga keltirishdagi o'rnini aniqlash ("Dostoevskiy va padarkushlik", 1928):

2) ruhiyat sohasi komplekslarini oydinlashtirish ("Uch quticha mavzusi", 1912):

Mazkur tadqiqotlarda Freyd ikki xil tahlil manbasini ko'rsatadi:

1) ijodkor shaxsiyati:

2) adabiy matn (bunda muallif talqinchi va tahlilchi sifatida ishtirok etadi).

Talqin davomida mavzu, obraz tizimi, badiiy materialni tanlash va uning motivatsiyasi, personajlarning harakat chizmasi, ularning hatti-harakatlari mexanizmi muhimligi ayonlashadi.

Psixoanaliz quyidagi ruhiy komplekslarni aniqlashga intiladi:

"1) o'g'il bolada onaga intilish va u bilan bog'langan otaga nisbatan tajovuzkor munosabat (Edip kompleksi), qizaloqlarda esa otaga intilish va uni onadan qizg'anish (Elektra komplesi);

3) o'limga intilish, bu tuyg'uga qarshi o'z-o'zini saqlash instinti (o'lim va hayot instintlari);

4) mavjud reallik bilan ziddiyatga kirishuvchi lazzatlanish istagi;

5) gunohkorlik iuyg'usi va bichilishdan qo'rqish.

Agar badiiy asar psixoanalizi muallifning ruhiy kompleksiga guvohlik beruvchi belgi-ramzlarni axtarish bilan bog'liq bo'lsa. U ruhiy tarjimai hol, ijod psixologiyasiga aloqador bo'ladi. Zigmund Freyd davomchilari psixoanaliz uchun material sifatida badiiy asarlardan tashqari biografik va avtobiografik hujjatlarni oldilar va shu asosda ramzlarning sub'ektiv talqinini yaratdilar. Xuddi shu sababga ko'ra adabiyot tahliliga bunday munosabat ko'pgina adabiyotshunoslarda shubg'a uyg'otdi.

Postfreydizm adabiyotshunosligi psixoanalizi muntazam ravishda ijodkor shaxs komplekslari diagnostikasidan uzoqlashib bordi. Unda talqin ob'ektini aniq tasnif qilish bilan bog'liq ijobiy intilish yuzaga keldi.

Psixoanalitik munosabat doirasida shunday ob'ekt tarzida quyidagilar qatnashishi mumkin:

-muallif shaxsiyati;

-matn mazmuni;

-matn shakli (va uning istalgan unsuri);

Matn retsepsiyasi (talqinchini qabul qilish).

Psixoanaliz faqat matnga mo'ljallangandagina samarali bo'ladi (bu jarayon "matnga yo'naltirilgan adabiy talqin" deb ataladi). Bunday munosabat davomida talqinchi siqib chiqarilgan mazmunni qayta yaratish uchun tashqi – matndan tashqaridagi hujjatlarga emas, badiiy asarda namoyon bo'lgan eng xayoliy realiyalarga murojaat qiladi.

Yigirmanchi asrdan boshlab G'arb, xususan, Amerika adabiyotida "ong oqimi" mansub asarlar salmoqli o'rin egallamoqda. Biz bu o'rinda "ong oqimi" va uning zamonaviy

o'zbek adabiyoti ifodasiga alohida to'xtalib o'tmoqchimiz. O'z fikrlarimizni atoqli milliy ijodkorimiz Odil Yoqubovning "Ulug'bek xazinasi misolida ko'rsatishga harakat qilamiz.

"Ong oqimi" adabiy yo'nalish, badiiy tafakkur tipi sifatida (ba'zi amerikalik adabiyotshunoslar uni janr sifatida ham tushuntiradilar) insonning ong, ong orti va ongsizlik (bu atama shaxs ruhiyatining nihoyatda chuqur, sirli, genetik-ajdodiy qatlamlarini anglatadi) darajalarini nihoyatda ta'sirchan, qabariq berish imkoniyatlariga ega.

"Ong oqimi"ga mansub adib ichki monolog, ichki tahlil, tush tasvirlari orqali inson ruhiy olamining juda chuqur, uning o'zi uchun ham noma'lum, qorong'u, g'ira-shira burchaklariga kirib boradi va ularda yashiringan taassurotlar "ong oqimi" romani bayoniy (epik syujetli) asarlardan farqli tarzda tasvir markaziga voqeani emas, qahramon ruhiy dunyosini, uning tadriji, harakati, dialektikasini qo'yadi. Tabiiyki, "ong oqimi" romanida voqea, epik tasvirga ham o'rin ajratiladi, ammo bu voqea, epik tasvir muayyan hissiy-emotsional kechinmalar, ruhiy munozaralar olamida namoyon bo'ladi.

"...Realistik adabiyot "ong oqimi" (ichki monolog)ni tasvir usullaridan biri deb biladi, unda inson ongidagi jarayonlar voqelik bilan bog'lanadi va uni badiiy idrok etish vositasi bo'lib qoladi. O'tgan asr boshlaridan shakllangan "ong oqimi" adabiyoti esa unga xayotni badiiy, aks ettirishning universal metodi deb karadi, inson ruhiyatida kechuvchi jarayonlarni aslicha aks ettirishga intildi, ularni vokelik bilan bog'lash, mantiqiy izchil ko'rinishga keltirish, qolipga solishdan voz kechdi"[16].

"Ong oqimi" jahon ruhshunoslik fanining oliy cho'qqilaridan bo'lgan freydizm ta'limoti negizida paydo bo'lgan. Jeyms Joysning "Uliss", Uilyam Folknerning "Shovqin va g'azab", Uoldo Frenkning "Bayram" asarlari "ong oqimi" romanining mumtoz namunalari hisoblanadi.

---

[16] Қуронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. - Тошкент: Академнашр, 2013. - Б. 288.

60-80-yillar romani, shu jumladan, Markaziy Osiyo tarixiy romani adabiy-badiiy tadriji, o'zgarishlari, sifat yangilanishlarini boshdan kechirar ekan, birinchidan, milliy romanchilik maktabi an'analari, badiiy tajribalarini o'z ijodiy-badiiy ideallari, intilishlariga muvofiq ravishda qabul qilib, ularni rivojlantirdi, ikkinchidan, G'arbdagi adabiy-poetik yutuqlarni, zamonaviy badiiy yangiliklarni o'z strukturasida u yoki bu darajada aks ettirishga harakat qildi. Bu harakat va intilishlar in'ikosi "Ulug'bek xazinasi" romanida mavjud.

"Ulug'bek xazinasi" – realizm, romantizm, "ong oqimi"ning o'ziga xos badiiy sinkretizmi namunasi. Aniqroq aytganda, realistik romanda romantizm ijodiy metodining ayrim badiiy tasvir vositalari, prinsiplari hamda "ong oqimi"ning poetik-badiiy usullari tajassumi kuzatiladi.

To'g'ri, romanda an'anaviy Sharq romantizmi alomatlari yangi romanchilik maktabining ilk namunalari("O'tkan kunlar", "Doxunda")day qabariq, yorqin kuzatilmaydi. Ular badiiy matnning ayrim bo'laklarida, ba'zi personajlarning portreti tasvirida mavjud.

"Ong oqimi"ga xos belgi-xususiyatlar esa ancha kuchli va aniqroqdir. Bu hodisa nafaqat "Ulug'bek xazinasi", shuningdek, 70-yillar Markaziy Osiyo romaniga xos.

"Ong oqimining badiiy ifodasi, – deb yozadi bu sohaning o'zbek adabiyotiga kirib kelishini maxsus tadqiq etgan T.Jo'raev, – yoxud badiiy reallashuvi yozma matn shakllarida yana ong oqimini tashkil qiladi Bunday adabiy asarlarda, shunday qilib, personaj ong oqimiga duch kelamiz. Mazkur ong oqimi endi bilvosita avtor tomonidan qayta yaratilgan ong oqimidir. U adabiyotda shu qadar erkin va mustaqilki, endi u muallifga "bo'ysunmaydi", avtor unga buyruq bera olmaydi, o'z izmiga sola olmaydi, aksincha unga to'la erk beradi" [17]

---

[17] Т. Жўраев. Онг оқими ва тасвирийлик: филол. фан. номз. ... дис. – Тошкент, 1994. – Б. 8.

"Ulug'bek xazinasi"dagi "ong oqimi" alomatlari, asosan, personaj nutqi va u bilan bog'liq badiiy tasvirlarda namoyon bo'lgan. Romandagi bosh qahramon psixologizmi ichki monolog, xotira, tush kabi badiiy unsurlar orqali yuzaga chiqarilganki, bularning barchasi asar matnini "ong oqimi" namunalariga yaqinlashtirib, tutashtirib turibdi. Bosh qahramon tasviridagi psixologizmning kengligi, chuqurligi, ko'p qirraliligi syujet dramatizmi, badiiy xronotop, yozuvchining badiiy-falsafiy konsepsiyasi kabi vositalarga bog'liq.

Savol va topshiriqlar

2. Ruhiy tahlil usuli (psixologik metod)ning mohiyati haqida ma'lumot bering.
2. Adabiyo1tshunoslikda psixologik metod asoschisi kim?
3. Ovsyaniko-Kulikovskiyning psixologizm bo'yicha faoliyati xususida nimalarni bilasiz?
4. XX asrda freydizm va jahon adabiyoti munosabatlari qanday edi? .
5.Z.Freyd, E.Fromm asarlarida psixoanalitik metod talqini.
6. "Ong oqimi" va uning so'z san'atida ifodasi to'g'risida ma'lumot bering.

Foydalanilgan adabiyot:

1.Psixoanaliz i literatura / Psixoterapevticheskaya ensiklopediya // [Elektronnыy resurs] .– Rejim dostupa: http://dic.academic.ru/ ic.nsf/ enc_psychotherapeutic/ 281/Psixoanaliz. – Data dostupa: 20.03.09.
2.Zelinskiy, S. A. Tvorchestvo i psixoanaliz // [Elektronnыy resurs]. – Rejim dostupa: http://zhurnal.lib.ru/z/ zelinskij_sergej_ alekseewich/tytyt.shtml. – Data dostupa: 21.03.09.
3. Jo'raev T. Ong oqimi va tasviriylik: filol. fan. nomz. ... dis. – Toshkent, 1994.

4.Rankur-Laferer, D. Russkaya literatura i psixoanaliz / D.Rankur-Laferer / Per. s angl. – M.: Ladomir, 2004. – 1013 s.
5.Zimovets, S. Pushkin: tolkovanie snovideniy / S.Zimovets //Arxetip. – 1996. – №2. – S. 98–107.
6.Murodov G'. Tarixiy roman: genezisi va badiiy taraqqiyoti. – Toshkent: Fan, 2005.
7.Toporov V.N. O «poeticheskom» komplekse morya i ego psixo fiziologicheskix osnovax / V.N.Toporov // Mif. Ritual. Simvol. Obraz. Issledovaniya v oblasti mifopoeticheskogo / V.N.Toporov. – M.: Progress-Kultura, 1995. – S. 578–605.
8.Yaroshenko, L.V. Mifologicheskaya kritika i psixoanaliz. Mif i arxetip // Neomifologizm v literature XX veka: Ucheb.-metod. posobie / L.V.Yaroshenko. – Grodno: GrGU, 2002. – S. 10–19.
9. Zigmund Freyd dahomi yo soxta olimmi? // YOzuvchi, 2001, 2-son.
Filippov L. Strukturnыy psixoanaliz J.Lakana i sub'ekt tvorchestva v strukturnom literaturovedenie // YUqoridagi kitobda. 44-bet.
10. Freyd 3. Psixologiya bezsoznatelnogo. – M, 1989. – S. 225-242.
11. Freyd 3. «Ya» i «Ono». Kniga 2. – Tbilisi, 1991.S.407-426.
12. Freyd 3. Vvedenie v psixoanaliz (Posleslovie). – M.: Nauka, 1989. – S.430-434.
13. Fromm E. Dusha cheloveka. – M., 1992. – S.79.
15.Engelgardt B.M. Izbrannыe trudы. - SPb, 1995.
16.Quronov D., Mamajonov 3., SHeralieva M. Adabiyotshunoslik lug'ati. - Toshkent: Akademnashr, 2013.

9- MAVZU. BIOGRAFIK METOD[18]

Reja:

1. Biografik metodning o'ziga xos xususiyatlari.
2. Biografik metod tarixi, asoschilari, vakillari.
3. Ijodiy-genetik metodning biografik metodga yaqinligi.
4. Biografik metod va biografik janr masalasi.

Tayanch tushunchalar: biografik metod, biografik janr, muallif-shaxs, muallif-ijodkor, avtobiografiya, biografiya, ijodkorning filologik, adabiy-estetik bilimlari, psixobiografiya, ijodkorning falsafiy dunyoqarashi, ijodkorning falsafiy dunyoqarashi.

Biografik metod – adabiyotshunoslikdagi alohida ilmiy tadqiqot usuli, badiiy asarga ijodkor shaxsi orqali nazariy-amaliy jihatdan yondashuv yo'li. "Biografiya" lotincha so'z bo'lib, "bios" – hayot, "grapho" – yozmoq, "metod" esa yo'l, usul tushunchalarini anglatadi. "Biografik metod" birikmasi mohiyatan "birovning hayoti haqida yozmoq yo'li" ma'nosini bildiradi.

Biografik metod adabiyotshunoslikdagi qadimiy va an'anaviy metodlardan biri bo'lib, tadqiqot uchun olingan manbani "muallif – asar" munosabati yo'nalishida tadqiq etadi.[19] Bunda muallif, nafaqat ijodkor, avvalo, inson sifatida o'rganiladi. Shuning uchun biografik metodda ijodkorning biografiyasi va shaxsiga uning asari bilan bog'liqlikda o'rganiladi. Shu ma'noda biografik metod ijodkorning yaratgan asari orqali uning tarjimai holini o'rganish usuli sifatida qaraladi. Demak, ijodkor hayotidagi ma'lum bir voqea-hodisalar uning yozgan asarlarida qaysidir tarzda o'z aksini topgan bo'ladi. Mana shu o'rinda

---

[18] Бу маъруза матнининг ёзилишида ф.ф.ф.д (PhD), доцент О.И.Адизова ҳам иштирок этган.

[19] Ўраева Д., Қувватова Д. Жаҳон адабиётшунослиги терминларининг изоҳди луғати. – Т.: Турон Замин Зиё, 2016.

biografik metod bilan biografik janr masalasini chalkashtirmaslik kerakligi ravshanlashadi.

Adabiyotshunos Yuriy Borev biografik metodni "badiiy asarni yozuvchi shaxsi orqali o'qish uslubi", deya ta'riflaydi.[20] Bundan anglashiladiki, biografik metod yozuvchining hayot yo'lini hamda uning tomonidan yaratilgan badiiy asarni o'zaro juftlikda, birini ikkinchisidan ajratmagan holda, dialektik bog'liqlikda, ijodkorning ijod mahsulini o'zaro bog'liklikda olib tekshiradi. Shuning uchun biografik metodni ijodkor tarjimai holini o'rganishdan iborat, deb qarab bo'lmaydi.

Biografik metodda muallif, ya'ni yozuvchi-ijodkor, avvalo, inson sifatida o'rganiladi. Uning asarlarida yozuvchining hayoti bilan bog'liq nuqtalar aks etgani dalillanadi. Ijodkorning biografiyasiga kirib borilib, shu orqali uning shaxsidagi eng muhim qirralar ochib beriladi. Yozuvchi hayotidagi ayrim e'tiborli holatlar uning yaratgan asarida ham aks etgani asoslanadi.

Olimlar aytganidek, u orqali ijodkorning shaxsiy hayotiga, yashagan muhitiga, ruhiy-psixologik holatiga, shaxsiy qiziqishlariga, asarni yozishga turtki bergan ilhom faktorlariga, ijodkor laboratoriyasiga va shu kabi qator tarixiy-individual masalalarga jiddiy e'tibor beriladi.[21] Biografik metod vositasida, asosan, yozuvchining ijodiy lobaratoriyasi o'rganiladi. Ijodkor hayotidagi ma'lum bir voqea-hodisalar uning yozgan asarlarida qaysidir tarzda o'z aksini topgani aynan biografik metod vositasida dalillanadi.

Bu metodning eng muhim qirrasi shundaki, unda muallif-shaxs bilan muallif-ijodkor farqlanmaydi. Muallif xarakter-xususiyati u yaratgan obrazda mujassamlangan bo'ladi, deb qaraladi. Ijodkor biografiyasiga tayanib, u yaratgan asar va asar qahramonlari tushuntiriladi. Shuning uchun biografik metod adabiy portret yaratishda eng qo'l keladigan metod sanaladi.

---

[20] Борев Ю. Искусство интерпретации и оценки. – М., 1981. – С.56.

[21] Каримов Б. Биографик метод / Руҳият алифбоси. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2016. – Б.166.

Yana u esse, ocherk kabi janrlardagi asarlarni yaratishda ham juda qo'l kelmoqda.

Biografik metod hujjatlarga tayanib ish ko'radi. Tarixiylik, aniqlik, hujjatlilik unga xos prinsipial talablardan hisoblanadi. Biografik metodning to'la samara bilan ishlashi uchun aniq bir ijodkor hayoti va faoliyati haqidagi hujjatlarga ega bo'lish lozim. Afsuski, ko'plab ijodkorlarimiz haqida ma'lumot beruvchi hujjatlar hali to'la yig'ilgan emas.

Biografik metodda bitiklar, xatlar, avtobiografik matnlar, kundaliklar, memuarlar, qo'lyozmalar – umuman, aniq dalillar muhim o'rin tutadi.[22]

Biografik metod tadqiqotchini muallifning individual hayot tarzi, shaxsiy turmushi, hayot yo'li, kechmishi, ichki kechinmalari, xarakter-xususiyati, bir so'z bilan aytganda, biografiyasi (yoki avtobiografiyasi)ga qiziqtiradi.

Ma'lumki, **avtobiografiya** (tarjimai hol) – insonning o'z-o'zini anglashidan iborat yozma matnni ifoda etsa, **biografiya** bir insonni boshqa bir insonning anglashi natijasida paydo bo'lgan yozma matndir. Bunday matnlarda, albatta, ijodkorning tug'ilishi va vafoti, oilaviy sharoiti, oila a'zolari, farzandlari, yoru birodarlari, ijtimoiy kelib chiqishi, nasl-nasabi, yashash joyi, ma'lumoti, faoliyati, diniy e'tiqodi va boshqalar e'tiborga olinadi. Adabiyotshunos Bahodir Karimov biografik metod xususida to'xtalar ekan, shuni nazarda tutib, uni avtobiografiyadan farqlash muhimligini alohida eslatib o'tadi: "Bu metodni tarjimai holdan iborat tarzida sodda tushunmaslik kerak. Zotan, biografik metod ijodkor tarjimai holining oddiy xronologik tavsif va tasnifi emas; yozuvchining tug'ilgan yili, yashagan joyi yoki muhiti, asarlarining yozilgan yili va, nihoyat, ijodkorning vafot etgan yili – bularning bari biografik ma'lumotlar hisoblanadi... Bunda biografik voqelikning izi asarlarda kolishini hech kim inkor kilmaydi".[23]

---

[22] Dilthey W. Gesammelte Werke. Bd. VII. Stuttg, 1992. – S.246.

[23] Каримов Б. Биографик метод / Руҳият алифбоси. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2016. – Б.166.

Ta'kidlanganidek: "Biografik metod adabiyotni shunday o'rganish usuliki, bunda yozuvchi biografiyasi va shaxsiyatiga badiiy ijodining asosiy belgilovchi momenti tarzida qaraladi".[24]

B.Karimov fikricha, badiiy ijod mohiyatini, ijodkor psixologiyasini, badiiy asar ildizlarini ochishda biografik metod muhim ahamiyat kasb etadi.[25]

Ijodkor merosini to'laqonli tushunish va xolis baholash uchun uning hayot yo'li haqida to'liq tasavvurga ega bo'lish talab etiladi. Bunda biografik metodga tayanib ish yuritish esa muhim samara beradi. Hozirgacha milliy adabiyotshunosligimiz tarixida qanchadan-qancha nom qoldirgan ijodkorlar merosi muayyan darajada tadqiq qilingan. Albatta, ularni to'laqonli tushunish va xolis baholash maqsadida bu ijodkorlarning hayot yo'li bilan bog'liq ma'lumotlarga ham imkon qadar tayanilganini inkor qilib bo'lmaydi.

B.Karimov: "biografik metod aynan "psixobiografiya", ya'ni yozuvchining psixologik biografiyasi tarzida adabiyotshunoslikka tatbiq etilmadi",[26] – deydi. Darhaqiqat, shunday. Negaki, biografik metod badiiy asarni uning muallifi hayot yo'li kontekstida o'rganishni nazarda tutar ekan,[27] tabiiyki, o'sha asarda ijodkorning ichki ruhiy kechinmalari, o'y-fikrlari, orzu-istaklari, alam-iztiroblari, armon-intilishlari, ko'rgan-bilganlari, boshidan o'tkazgan yaxshi-yomonliklari, orttirgan hayotiy tajribalari va bilimlari aks etishini e'tibordan chetda qoldira olmaydi. Ijodkorning bunday psixobiografiyasi esa ma'lum ma'noda uning badiiy asarlaridagi vokea-hodisalar bayonida, yaratgan obrazlari tizimida o'z ifodasini topadi. Mana shundan ijodkorning individual mahorati, yaratgan asarining originalligi yuzaga chiqadi.

---

[24] Литературный энциклопедический словарь. – М. 1987. – С.54.

[25] Каримов Б. Биографик метод / Руҳият алифбоси. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2016. – Б.166-176.

[26] Каримов Б. Биографик метод / Руҳият алифбоси. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2016. – Б.166-176.

[27] Қуронов Д. Биографик метод / Адабиётшуносликка кириш. – Т.: Ўқитувчи, 2002.

Badiiy asarlarda ijodkor shaxsiyati ba'zan yorqin, ba'zan esa yashirin aks etgan bo'ladi. Buni faqat asar kontekstidan bilib olish mumkin. Shu jihatiga ko'ra, yaratilgan asarlarni ikkiga: a) muallif biografiyasi kontekstida yorqin aks etgan asarlar; b) muallif biografiyasi kontekstida yorqin aks etmagan asarlar tarzida farqlash mumkin.

Yozuvchi biografiyasi kontekstida yorqin aks etmagan asarlarga ko'pincha tarixiy mavzuda yaratilgan ayrim asarlar misol bo'la oladi. Bunday asarlarda garchi muallif o'z biografiyasini yorqin bayon etmasa-da, uning mazmunidan o'sha ijodkorning o'tmish davr voqeliklariga ijtimoiy-ruhiy munosabati, shaxsiy qarashlari anglashilib turadiki, natijada, unda biografik alomatlar paydo bo'ladi. Masalan, Odil Yoqubovning "Ulug'bek xazinasi" romani shoh, falakshunos olim Mirzo Ulug'bek yashagan tahlikali onlardan, uning biografiyasidan hikoya qiladi. Bu asarda muallif biografiyasi esa yo'qdek go'yo. Lekin, bizningcha, har qanday asarda uning muallifi biografiyasiga oid nimadir chizgilar bo'ladi. Shuning uchun har qanday asarni biografik kontekstda olib o'rganish mumkin. Aytaylik, Odil Yoqubovning "Ulug'bek xazinasi" romani biografik kontekstda olib o'rganilsa, quyidagi ikki holat namoyon bo'ladi:

birinchidan, Mirzo Ulug'bekning hukmdor va olim qiyofasi, hayot yo'li, yaqinlari, boshidan kechirganlari yorishadi;

ikkinchidan, asar muallifi, XX asrning zabardast adiblaridan biri Odil Yoqubovning o'tmish tariximizga, Mirzo Ulug'bek yashagan XV asr davr voqeliklariga, o'sha zamonga xos ijtimoiy-siyosiy muammolarga munosabati, bu haqdagi shaxsiy mulohazalari, tarixiy voqelikni badiiy idrok etish salohiyati, uni ko'rgandek talqin etish mahorati, o'sha davr va uning odamlari haqidagi fikr-kechinmalari anglashiladi.

Shunisi borki, biografik metodni faqat adabiyotshunoslikning tadqiq usuli deb qaramaslik kerak. U orqali faqat yozuvchi va shoirlar hamda ular yaratgan badiiy asarlar tadqiqot ob'ekti sifatida tanlanmaydi, balki ijodning har

qanday turida, xoh u badiiy, xoh u ilmiy-nazariy yoki amaliy bo'lsin shaxs dunyoqarashi bilan bog'liqligi sababli bu metod uchun manba bo'la oladi. Shuningdek, biografik metod orqali ijodning fan-texnika, san'at, siyosat, madaniyat kabi har xil shakllariga nisbatan yondashish mumkin. Bundan esa biografik metodning universal xarakter kasb etishi oydinlashadi.

Biografik metod bilan tadqiqot yuritganda, izlanuvchi bir necha muhim omillarga tayanib ish yuritadi. Bu omillar esa quyidagilardan iboratdir:

1. Ijodkorning filologik, adabiy-estetik bilimlari. Bu omil biografik metodda etakchilik qiladi. Chunki, har qanday ijod turi va shakli uchun so'z asosiy ifoda quroli sanaladi. Har qanday fikr yoki ilg'angan, anglangan va his qilingan voqelikni ifodalashda so'zga tayanib ish yuritiladi. Bundan ko'rinadiki, biografik metod tayanadigan asosiy kuch ham so'zdir.

Ijodkor so'z bilan ishlashini inobatga olib, uning so'zga badiiy jilo berishiga ahamiyat qaratiladi. Zero, badiiy asar matnidagi har bir tovush, har bir so'z va gap ham ijodkor shaxsiyatidan darak berib, ijodiy individualligi, badiiy mahorat qirralari, poetik kashfiyotlari, eng muhimi, o'ziga xos iste'dodi va iqtidorini anglashga yo'l ochadi. Shunga qarab, uning muayyan tarixiy davr yoki muhitda tutgan o'rni ham belgilanadi.

Ma'lumotlarga qaraganda, Abdulla Qahhor tabiatan kamgap bo'lsa-da, g'ayratli inson bo'lgan. Ehtimol, uning ijod uslubiga xos muhim belgi: badiiy matnni yaratishda kam so'zdan foydalanish, so'zni o'ta iqtisod qilib, o'rinli qo'llash fazilati mana shu tabiiy xususiyati natijasidir. Ijodkorning badiiy kashfiyoti, avvalo, u qo'llagan so'z va iboralarda ko'rinadi. Bunday poetik kashfiyotlar esa ijodkorning inson sifatida topag'onligidan, bu borada iqtidor va iste'dod sohibi bo'lib tug'ilganiyu kamol topganligidan dalolat beradi.

Ma'lumki, shoir Faxriyor ijodida ikkigina: oy va bolta so'zlaridan iborat she'r mavjud. Shu ikki so'zning yonma-yon keltirilishi badiiy ijod mahsuli – she'riy asar sifatida o'rganilar ekan, bunda ijodkorning miyasida kechgan o'y-fikrlar, tasavvur-

tushunchalar, ruhiy holatlar inobatga olinadi. SHoirning qancha so'zdan emas, shu so'zlarni qanday mazmunlarda qo'llaganiga e'tibor qaratiladi.

2. Ijodkor (shoir, adib, dramaturg yoki olim)ning maishiy turmushi. Bunda ijodkorning shaxsiy hayoti: oilaviy turmushi, qarindosh-urug'lari, do'st-birodarlari bilan munosabati, yashash tarzi, uy-joyi, jamiyatdagi mavqei, mansabi, unga aloqador odat va qiliqlar, qiziqishlar, xatti-harakatlar, mimikalar, shaxsiy buyumlar, hatto transport vositalari, jonivorlarga munosabati va boshqalar e'tiborga olinadi. Sh.O. Sent-Byov yozganidek: "...ijodkorni oila davrasida, o'ziga xos odatlari bilan tasavvur eta olish" lozim. Negaki, "buyuk ijodkorlar ham oddiy odamlar kabi mayda turmush tashvishlaridan xoli bo'lmaydilar".

Shu jihatdan Abdulla Qahhorning asarlarida nega ba'zan ovqatlanish holatlari juda ta'sirchan ifodalangani diqqatni tortadi va buning sababi bilan qiziqtiradi. Bir qarashda buni hamma ilg'ayvermaydi ham. Bu jihatdan adibning "Shilpildoq" hikoyasi, rafiqasi Kibriyo Qahhorova shoshib chuchvara qilib, ko'p chuchvaralar qozonga qaynatish uchun solinganda ochilib ketib, go'shti xamiridan ajralib, mohiyatini yo'qotgani uchun xijolat tortayotganida: "Xijolat bo'lmang, chuchvara emoqning ma'nisi go'shtni xamirga o'rab eyish bo'lsa, shunday qilib eyaveramiz", - degan kinoyasi yodga keladi. Mazkur dalillar, ayni paytda, adibning milliy ovqatlarimizni sevganidan, ularni juda miriqib iste'mol qilishni yoqtirganidan dalolat beradi. Lekin asarlarda ijodkor biografiyasi, maishiy turmush tarziga xos ma'lumot va dalillar xronologik izchillikda, muayyan ketma-ketlikda ifoda etiladi, degan qat'iy xulosaga kelmaslik lozim. Ijodkorning maishiy hayoti va ijod jarayoni bilan bog'liq kattayu kichik holatlar qanday ko'rinishda berilishidan qat'i nazar biografik tadqiq jarayonida muhim o'rin tutadi va muayyan ahamiyat kasb etadi.

Biografik metod ijodkor hayoti va faoliyatini, uning maishiy turmushini keng va atroflicha qamrab olishga qaratilishi

boisidan muallif biografiyasiga oddiy axborot manbai sifatida yondashmaydi, balki undan mantiqli nuqtalarni, o'rnak bo'larli jihatlarni izlaydi.

3. Ijodkorning geni, insoniy biologik xususiyatlari va taqdiri. Biografik metod orqali ijodkor individualligi muammosi tadqiqot markaziga qo'yilar ekan, unda genetik-biologik omil etakchi o'ringa ko'tarilishi tabiiy. Binobarin, adabiyot tarixida ijodiy jarayonga ota-bobosi, tog'asi, umuman aytganda, biror yaqin qarindoshi ta'siri ostida, aniqrog'i, ular bilan qondoshligi sababli kirib kelganlar ham ko'pchilikni tashkil etadi. Shuning uchun ular ijodkorlikni o'zlari uchun taqdir ishi, Olloh ne'mati deb qaraydilar va unga mas'uliyat bilan yondashadilar. Bu o'rinda Navoiyning shoir tog'alaridan, Maxtumqulining bobosi va otasidan, A.S.Pushkinning shoirtabiat amakasidan, Ogahiyning amakisi Munisdan va hokazo ta'sirlanganini eslash kifoya. Yoxud aksariyat shoir va yozuvchilar bolaligida onasidan, buvisidan eshitgan alla va ertaklari, xalq qo'shiqlari o'zi uchun ijod eshigini ochishga kalit bo'lganligini e'tirof etadilar. Bunga Hamid Olimjonning Komila enasidan eshitgan ertaklari haqidagi fikrlari yorqin dalildir. Yana uning yoshligida bobosining yaqin o'rtog'i bo'lgan Fozil Yo'ldosh o'g'lidan qayta-qayta tinglagan "Alpomish" dostoni haqida keyinchalik "Bu doston mening shoirlik beshigim bo'ldi" degan qaydi ildizi qadim ajdodlarimiz ongi va ruhiyati bilan tutash "genetik xotira"mizga borib taqalishini inkor etish mushkul.

Shu kabi hayotiy vaziyatlarni inobatga olib, Y.Borev: "San'atkorning individual taqdiri uning ijodini talqin etishda kalit vazifasini o'taydi", – deydi.[28]

4. Ijodkor (shoir, adib, dramaturg yoki olim)ning falsafiy dunyoqarashi. Har bir sohada ijod qiluvchi inson hayoti davomida o'zi egallagan bilim va tajribalari asosida anglagan hayot haqiqatini bayon etishga intiladi. Bu esa uning falsafasini (dunyoqarashini) namoyon etadi.

---

[28] Борев Ю. Искусство интерпретацц и оценки. – М., 1981. – С.51.

Ijodkor shaxsiga va u yaratgan asarga biografik yondashuv, ayni paytda, o'sha ijodkorning inson sifatida falsafiy dunyoqarashi shakllanishiga nimalar, qanday ijtimoiy-siyosiy, ilmiy-badiiy, madaniy-ma'naviy omillar ta'sir ko'rsatganini aniqlashga da'vat qiladi. Natijada biografik metodning vazifalari ko'lami kengayadi. Endi o'sha ijodkorning yashagan ijtimoiy muhiti (jamiyat va oila), u muloqotda bo'lgan insonlar (ota-onasi, do'stlari, ustozlari va hokazo), ilmiy yoki badiiy ijodga ilhomlantirgan doiralar, to'garaklar, u o'qigan kitoblar, ijtimoiy mavqei, jamoatchilikdagi o'rni va hokazolar singarilarni jiddiy o'rgana boshlaydi. Tadqiqotchining bu borada to'plagan ma'lumotlari esa ijodkor falsafasini shakllantirgan omillarni chuqur bilib olishga zamin hozirlaydi.

Ijodkorlar orasida shundaylari ham borki, tabiatan falsafiy talqinga juda moyildirlar. Bunday xarakterdagi ijodkorlarning asarlarini, odatda, bir o'qiganda tushunish qiyin kechadi. Masalan, Rauf Parfi she'riyati ramziy-timsoliy belgilarga, falsafiy mushohidalarga boyligi juda ko'p o'zbek tanqidchilari tomonidan e'tirof etilgan. Chunki Rauf Parfida har qanday umuminsoniy voqelikdan falsafiy xulosalar chiqarishga moyillik kuchli.

Badiiy ijodda falsafiy omilning namoyon bo'lishi ijodkor hayotidagi tragik vaziyatlar bilan ham bog'liq. Qolaversa, ijodkorlarning falsafiy dunyoqarashi ular yaratgan asarlarda nechog'lik namoyon bo'lganini ochib berish uchun biograf-tadqiqotchi muayyan darajada falsafiy dunyoqarashga ega bo'lishi, o'z zamonining falsafasidan, muammolaridan, shuningdek, jahon falsafasi tarixidan yaxshigina xabardor bo'lishi, badiiy ijodda aks etadigan falsafiy konsepsiyalarni, umuminsoniyat tomonidan qabul qilingan falsafiy qarashlarni bilishi lozim sanaladi.

5. Ijodkor (shoir, adib, dramaturg yoki olim)ning psixologizmi. Ijodkorning ichki ruhiy olami, uning turli psixologik holatlari va vaziyatlari, qalb kechinmalari psixologik omil sifatida biografik metod uchun muhim sanaladi. Shundan

kelib chiqib, ko'p hollarda biografik metod "psixobiografiya" deb ham yuritiladi. Bunda badiiy ijodning yosh psixologiyasi bilan mushtarak jihatlariga alohida e'tibor qaratiladi. Psixologik holatlarni turli rakurslarda, butun nozikliklari bilan insoniyatga xos bo'lgan umumpsixologik holatlar negizida yoritishga va asoslashga urinish seziladi. Tadqiqotchining o'tkir nazari, iste'dodi, tajribasi orqali muallifning o'z boshidan kechirgan ruhiy holatlaridan chin iqrori dalillanadi. Muallifning faqat o'zigagina ma'lum bo'lgan ichki dunyosi uning asl hayoti ekani ochib beriladi. Muallif o'z ichki dunyosini tasvirlar ekan, aslida uni yashirishga uringani ko'rsatiladi. Go'yo u birovning hayoti xususida gapirayotgandek bo'lsa-da, aslida o'zini aytib berayotgani, o'z hislarini targ'ib etayotgani anglashilib turadi. U o'zini bo'lganidek emas, xohlaganidek ko'rsatadi. Faqat buni "o'zim" degani cho'chiydi yoki andisha qiladi. Bunda muallif yaratgan obraz uning hislarini ifodalash vositasiga aylanadi.

Psixologik omil biografik tadqiqot uchun, birinchidan, bevosita ijodkorning biografik dunyosi, real borlig'i bilan bog'liq bo'lib, mazkur individiumga xos psixobiologik, psixosotsiologik unsurlarni namoyon qilsa, ikkinchidan, ayni unsurlarning badiiy asarda, voqelik va obrazlar talqinidagi o'rnini aniqlashga xizmat qiladi. Ko'pincha ular tadqiqot jarayonida biri-ikkinchisini to'ldirib keladi.

Biografik metod tatbiq qilingan asarlar, odatda, uch ko'rinishda namoyon bo'ladi:

birinchisi – ijodkor shaxsiyatini markaziy o'ringa qo'yib o'rganishga asoslanuvchi, akademik yo'nalishga yaqin biografik tadqiqotlar. Bunga Sh.Sent-Byov, A.Morualarning "Adabiiy portretlar" kitoblarini, "Ajoyib kishilar hayoti" (JZL) seriyasidagi asarlarni misol qilib ko'rsatish mumkin;

ikkinchisi – adabiy portret janridagi asarlar. Masalan, A.Moruaning "Uch Dyuma", "Prometey yoxud Balzak hayoti" yoki Yan Parandovskiy, S.Sveyg kabilarning asarlari;

uchinchisi – ma'lum bir ijodkor-shaxsning hayoti asos qilib olingan biografik romanlar va biografik qissalar.

Xullas, biografik metodning shakllanishi va taraqqiyot jarayonlari jahon estetik tafakkuri tizimidagi qonuniy hodisa hisoblanadi. SHu sababli bu metod hozirgacha ma'lum ma'noda o'z vazifasini o'tab kelyapti.

Biografik metod, ayni paytda, psixologik va tarixiy-madaniy metodlarning kelib chiqishiga ta'sir ko'rsatgan. Ayniqsa, **ijodiy-genetik metod** biografik metodga yaqin va u bilan birlikda qo'llanib, badiiy asarning ijodiy tarixini o'rganishni maqsad qiladi. Bu metod adabiyotshunosga hayot materialining badiiy obrazga aylanish jarayoni, badiiy matnning sayqallanish yo'lini kuzatish imkonini beradi. Mazkur metod tadqiqotchining asar qoralamalari, uning turli nashr variantlari, tarixiy hujjatlar va boshqalarni chuqur o'rganishini, konkret dalillar asosida asarning yaratilish tarixi va omillarini ochib berishini talab qiladi.

Badiiy ijod namunasini biografik metod asosida o'rganish borasidagi ilk qadamlar Evropada XIX asrning birinchi yarmi fransuz ilmiy-adabiy muhitida ko'zga tashlanadi. Aniqrog'i, 1804-1869 yillarda yashab o'tgan fransuz tanqidchisi va shoiri Sharl Ogyusten Sent-Byov (fransuzcha yozilishi: Charles Augustin de Sainte-Beuve) biografik metodning nazariy asoschisi, unga xos etakchi xususiyatlarni aniqlab, asosiy tamoyillarini ishlab chiqqan va uni badiiy asarlarni o'rganishga ilk bor keng tatbiq etgan olim hisoblanadi. Biroq bu tadqiq usulining ildizlari juda qadimga borib taqaladi. Adabiyotshunoslik ilmida qadimdan biografik metodga xos xususiyatlardan foydalanib kelingan.

Evropa ijtimoiy muhitida Uyg'onish davriga kelib, inson tasviri va talqini o'zarishga yuz tutgani ma'lum. Shundan so'ng inson mohiyatan yaratiq emas, balki yaratuvchi ham ekani asoslana boshlandi. Adabiyotda insonparvarlik targ'ibi kuchayib, hatto bu asosiy yo'nalishga aylandi. Arxaik adabiyotda ma'budlar boshqaruvida talqin etib kelingan inson obrazi Uyg'onish davri adabiyotida ekssentrik tadqiq ob'ekti maqomini

egalladi.[29] Endi barcha narsalar: borliq va mavjudot, voqelik va harakat, makon va zamon kabilar inson va uning shaxsiyatiga bog'lab talqin etila boshlandi. Uning borliqqa ta'sir ko'rsata olish qudrati ko'rsatib berildi. Odam aql-zakovati, qo'li bilan yaratilgan predmetlar (kema, to'p, miltiq singari), makonlar (qal'a, saroylar) tasviri va targ'ibi badiiy asarlarda etakchi o'rin egallay boshladi.

Ijtimoiy fanlar olamida muhim sanalgan biografik metod ilk bor V.Dchlipe tomonidan taklif qilingan. Faqatgina Sh.O.Sent-Byov uning nazariy mohiyatini, o'ziga xos tamoyillariyu imkoniyatlarini ilmiy jihatdan birinchilardan bo'lib izohlab bergan olimdir. Olimning bu boradagi qarashlari uning "XVI asr fransuz poeziyasi va teatrining tarixiy va tanqidiy obzori" (1828), "Adabiy portretlar" (1836-1839), "Dushanba kunlaridagi suhbatlar" (1851-1862), "YAngi dushanba kunlari" (1863-1870), "Imperiya davrida SHatobrian va uning adabiy guruhi" (1861) nomli kitoblarida o'z aksini topgan.

Sh.O. Sent-Byov ijodkorga va u yaratgan asarga oilasi (ota-onasi, aka-ukasi, opa-singlisi), atrof-muhiti, diniy qarashlari, ijtimoiy holati, tabiatga munosabati, yutuq va kamchiliklari, ojiz tomonlari, kasalligi va boshqalar albatta ta'sir ko'rsatishini ta'kidlaydi. U 1821 yili Burbon nomidagi kollejda ta'lim olgan vaqtida falsafa o'qituvchisi Damironning "Har qanday ijod namunasi muallif shaxsiyati bilan bir butunlikda o'rganilishi lozim" degan fikri e'tiborini tortgan. Damironning bunday fikrga kelishiga "Fransuz falsafasi tarixi" kitobi asos yaratgan. SHu-shu, bu kitob talaba SHarlning ham eng sevimli kitobiga aylangan. Kollejda va keyingi ta'lim jarayonlarida tabiat, fiziologiya, ximiya, tibbiyot, mantiq, til va adabiyot ilmlarini mukammal o'rgangan Sent-Byov uchun Damiron fikrlari umri va ijodiy faoliyati davomida tayanch konsepsiya bo'lib qoldi.

Sent Byov 1829 yil birinchilardan bo'lib ilmiy salohiyatlilar to'garagini ochgan va qobiliyatli ijodkor yoshlar bilan ishlagan.

---

[29] Алимуҳаммедов М. Антик адабиёт тарихи. Дарслик. – Тошкент: Ўқитувчи, 1979.

Ulardan ijodkorlar guruhini tuzib, "Sharl Ogyusten de Sent Byov biografik maktabi"ni tashkil etgan. Shuning ta'sirida u 1829 yildan boshlab "Revyu Parij" jurnalida ilk adabiy portretlarini chop eta boshlagan.

Sent Byov 1832 yildan adabiyotda portret janri ustida ijod qilishda faollik ko'rsatdi. Uning dastlabki ilmiy tadqiqoti aynan falsafiy mavzuda bo'lib, "Barhayot ruh haqida" deb nomlanadi. Shundan so'ng olim Kornel, Bualo, Lofanten va, ayniqsa, romantizm adabiyotining qator vakillari haqidagi adabiy portretlarini birma-bir e'lon qila boshladi. Keyinchalik esa ularni jamlab, "Adabiy portretlar" nomli to'plamini nashr qildirdi. Sent Byov bu yo'nalishda "Adabiy tanqidiy portret" ("Critiques et portraits litteraires", 1832-1836), "Adabiy portretlar" ("Portraits litteraires", 1862-1864), "Zamonaviy portretlar" ("Portrait contemporains" 1869) kabi asarlarini yaratdi va ularda yozuvchilar ijodini tahlil qildi.

Biografik tanqidchilik va uning tarixi: u umuman olganda, qadimiy yoki an'anaviy deb ataluvchi tanqidchilikdir. U yangi tanqidchilik paydo bo'lguniga qadar ham mavjud edi va adabiy tanqidchilikni janr va badiiy asarlarni tahlil qiladigan bir sohaga aylantirdi.

Sent-Byovning biografik tanqidchiligi, uning tarafdorlari va unga qarshilarni vujudga keltirdi. Bu bilan Sent-Byov ikki xil qiyofada gavdalandi: a) tanqidchiga o'qishni biladigan va boshqalarga badiiy asarlarni o'qishni o'rgatadigan kishi; b) tanqidchilik abadiy ijodkorlikdir degan ta'rifni o'zida namoyon etdi.

Bu esa tanqidchi, avvalombor, kitobxon ekanligini ko'rsatadi. Bu kitobxon san'at asarini qayta yaratadi. XIX asrda Sent-Byov tomonidan rivojlantirilgan biografik tanqidchilik shaxsni yaratuvchanlik faoliyatining markaziga qo'yadi.

Sent-Byovning fikricha, yozuvchi va uning asari o'rtasida umumiy bog'liqlik bo'lishi lozim. Yozuvchining bilimlari, fikrlari uning asari yaxshi qabul qilinishi uchun juda muhimdir. Biror-bir yozuvchining fikrlarini anglash va ob'ektiv baholash uchun

uning shaxsini va qanday inson ekanligini bilish muhimdir. Sent-Byov badiiy asarning yuragida (mag'zida) o'rganish lozim bo'lgan qalb, e'tiqod, baxtli yoki baxtsiz hissiyotlar bor deydi. Uningcha, badiiy asar tayyor ritorika (dabdabali nutq)ni qo'llash orqali emas, aksincha, iste'dod bag'rida, samimiy va oddiy ijoddan dunyoga kelishi lozim.

Yozuvchilarning kundalik hayotdagi faoliyatlarini o'rganib turib, Sent-Byov ularning badiiy ijodlaridagi chehrasini topishga harakat qiladi. U har qanday tarixiy davr silsilasida muayyan ijodkorning o'rniga urg'u berdi. Uning ma'lum bir davr adabiyoti yoki uning alohida bir turi (yo she'riyat, yo nasr, yo dramaturgiya kabi) tarixiy taraqqiyotida individual o'rin egallashini asosladi.

Sh.Sent-Byovdan keyin mashhur kishilarning badiiy-estetik (biografiyasini yozish an'anasini fransuz yozuvchisi Andre Morua (1885-1967) davom ettirdi. Adabiy konsepsiyasi Sent-Byovga yaqin bo'lgan Morua biografik metodga mos ravishda romanlashtirilgan biografiyalarni maromiga etkazib yozdi. A.Moruaning adabiy-estetik qarashlari fransuz, ingliz va rus madaniyatiga asoslangan. U Shekspir (ingliz), Balzak (fransuz), L.Tolstoy (rus) kabi adiblar haqida fikr yuritib, ularni «Bashariyat uchun insoniyat tomonidan bino etilgan uch buyuk yodgorlik», deb baholadi. A.Morua ingliz adablaridan Bayron va Shelli, Dikkens va Brouning, Uelles va B.Shouning, rus adiblaridan I.Turgenev, A.P.Cexov, L.Tolstoylarning, fransuz adabiyotining yirik vakili O.Balzakning ijodini yuksak maqomlarda baholadi.

A.Morua fransuz adabiyoti tarixi hamda XX asr fransuz yozuvchilari haqida «Labryuyerdan Prustgacha» (1964), «Prustdan Kamyugacha» (1963), «Jiddan Sartrgacha» (1965), «Aragondan Monterlengacha» (1967) nomli kitoblar yozdi. Uning to'rt jildlik tadqiqotlarida biografik metodning ilmiy-nazariy prinsiplari o'z ifodasini topgan. F.Narkirer «Andre Morua» haqidagi kitobida uning barcha asarlarini ijodga biografik yondashuv metodi birlashtirib turishini ta'kidlaydi.

Olimning kitoblaridan tanlab olingan adabiy maqolalar 1970 yili rus tilida «Adabiy portretlar» nomi bilan nashr etildi.

Badiiy asar va ijodiy jarayonni biografik o'rganish tarafdori bo'lgan Evropa olimlari orasida Sent-Byovdan qariyb yuz yil keyin yashagan Andre Moruaning butun ilmiy-ijodiy faoliyati adabiy jarayonni biografik talqin etishga qaratilgan edi. Uning «Uch Dyuma», «Olimpio yoki Viktor Gyugo hayoti» asarlari jiddiy izlanishlar mahsulidir. Olim uchun insonning o'zi, uning hayot tarzi va ijodi muhim edi.

Andre Morua Onore de Balzakning «Gorio ota» (1843) romanini undagi qahramonlarning xatti-harakatlari, psixologik holatlari, dardu alamlari va kayf-safolarini ijodkor (roman muallifi) hayoti yo'li orqali ochishga e'tibor qaratgan. Natijada asar personajlari Rastinyak hamda Votren shaxsidagi Balzak tabiatiga xos xususiyatlarni ochib beradi. Adib asarlaridagi obrazlar tabiatining eng muhim va asosiy jihatlarini Balzakning o'ziga bog'lab tushuntiradi.

Biografik metodning evropacha talqindan bir qadar farqli ko'rinishi XX asrning 20-yillarida G.O.Vinokurning «Biografiya va madaniyat» kitobida ko'zga tashlanadi. SHuningdek, o'tgan asrning 60-70-yillarida nashr etilgan «Ilmiy ijod», «Ilmiy kashfiyot va uni qabul qilish», «Zamonaviy psixologiyada ilmiy ijod», «Adabiy va ilmiy ijod» kabi ilmiy to'plamlarda biografik metod va ijodiy jarayon muammolari tadqiq etilgani kuzatiladi.

B.M.Kedrov, M.G.Yaroshevskiy, B.S.Meylax, A.Mashkovskiy-larning qator tadqiqotlari aynan biografik metod masalalarini o'rganishga qaratilgani bilan e'tiborni tortadi. V.S.Baraxov «Adabiy portret yaratish san'ati» xususidagi kitobini e'lon qilgan.

O'zbek adabiyotshunosligida adabiy portretdan farq qiladigan, biografik metod imkoniyatlariga asoslangan tadqiqotlar yaratmoqdalar. Jumladan, A.Rasulov yozuvchi biografiyasi bilan uning asari orasidagi uzviy bog'lanish, ruhiy yaqinlik bo'lishini alohida ta'kidlab: «Yozuvchi holati bilan ijodi orasida uzviy bog'liqlik bor... Har qanday asarda yozuvchi ruhi, holi, qalbi aks etadi. Asarlar sinchiklab o'rganilsa,ular yozuvchi

holati, ruhiyati haqida ko'p narsalar so'zlab beradi»,[30] – deydi. Yana olim adabiyotshunoslikda badiiy asarni talqin etishda yozuvchi ruhiyati, kayfiyati, holatini o'rganuvchi soha borligini va u biografik metod yoxud badiiy asarga yozuvchi holati nuqtai nazaridan yondashish deyilishini qayd etadi.[31] U o'zbek adabiyoti tarixidagi Abdulla Qahhorning «O'tmishdan ertaklar», Oybekning «Bolalik», G'afur G'ulomning «Shum bola», Said Ahmadning qamoqxona hayotidan olib yozilgan hikoyalari va boshqa ko'plab asarlarni aynan shu metod asosida tadqiq qilish o'zining yaxshi samaralarini berishini tavsiya etadi.

Navoiyshunos A.Qayumov zamondosh o'quvchiga Alisher Navoiyning "Layli va Majnun" dostoni qahramonlarini tanishtirar ekan, "Layli va Majnun" risolasining "Ota va farzand", "Etimlik", "Motam navhalari" kabi fasllarida Majnunning onasi qabri ustida chekkan faryodi orqali Navoiyning onalarni naqadar ulug'lashini asoslab bergan. "Majnunning onani yodlab chekkan navhalari o'ttiz to'rt baytni tashkil qiladi", – deb ta'kidlaydi olim. Ularda ona ta'rifining eng yuksak cho'qqiga chiqqanligini anglagan olim "Majnun onani o'z jonining qiblasi, shu qiblaning nuri, o'zining Ka'basi" deb ta'riflashi orqali, musulmon olami va islom dunyosida bundan ortiq ta'rif yo'qligini oydinlashtiradi. Bu aslida Navoiyning onalarga yuksak ehtiromi namunasi ekanligini, hayotda undan ortiqroq darajaga ko'tarishning iloji yo'qligini ham kitobxonga uqtiradi. Shu tariqa, A.Qayumov "Layli va Majnun" deb nomlagan risolasida shoirning sevgi qissasidan tashqari, hamma zamonlar uchun birdek muhim insoniy munosabatlar, tuyg'ular, orzu-istaklarni qay darajada tarannum etganini to'liq isbotlaydi. Navoiy asarlarini avvalo, shu jihatdan anglashning o'ziyoq, yuksak insoniy fazilatlarni tarbiyalashga qodir. Shu ma'noda, A.Qayumov talqinidagi bu dostonning bayoni yoki tahliliy tarjimasi orqali kitobxonlar asarni o'z qiziqishlari darajasida uqishi mumkin. Olim dostonning har bir bobi, baytini sinchiklab

[30] А.Расулов. Илми ғарибани қўмсаб.... – Т.: «Маънавият», 1998.
[31] А.Расулов. Танқид, талқин, баҳолаш. – Т.: «Фан», 2006.

o'qib, uning asosiy mohiyatini va voqelar bayonini bugungi o'zbek tilimizga maroqli hikoya qilib berishiyoq yosh avlod uchun muhim tarbiyaviy ahamiyatga ega.

A.Qayumov yana shunga e'tibor qaratadiki, Alisher Navoiy juda muhim gaplarni favqulodda jasorat bilan aytgan. Masalan, shoir "Sab'ai sayyor" dostoni bosh qahramoni Bahrom tilidan, birinchidan, u o'z ijodiy niyatini ma'qullatib oldi. Bulardan eng muhimi, shoirning o'z vijdoniga xilof narsa yozmaganidir. Ikkinchidan, Husayn Boyqaroni Bahromga o'xshatdi, uning taqdiridan ogoh qildi. Agar Sulton Husayn maishatni tark etmasa, uni ham Bahrom singari taqdir kutadi degan fikrni aytadi.

A.Qayumov "Saddi Iskandariy" risolasida Alisher Navoiyni faqat romantik tuyg'ular ifodachisi, yoxud, tasavvufiy yo'nalish ijodkori emas, avvalo xalq va davr masalalariga real yondashgan, ramziy tushunchalarda ham inson shaxsi mohiyatini reallashtirgan shoir sifatida talqin etishni maqsad qilib qo'yadi. Shu ma'noda, olim shoirning ilm va ma'rifatni barcha narsadan ustun qo'ygani, olimlarning faqat ayrim sohalarning bilimdonlari sifatida emas, avvalo, yuksak tafakkur egasi bo'lgan mukammal insonlar tarzida keltib o'tganiga ahamiyat beradi.

Demak, o'zbek adabiyotshunosligida ham biografik metodda asarlar yozilayapti. Bunga I.Sultonning «Navoyning qalb daftari», N.Karimovning «Cho'lpon», D.Quronovning «Cho'lpon: hayoti va ijodi» kabi kitoblari ham misol bo'la oladi.

Umuman aytganda, biografik metod muallifning biografiyasidagi mayda-chuyda elementlarigacha sinchkovlik bilan o'rganish – geneologiya, oilaviy muhit, bilim va ma'rifat, tashqi ko'rinish, ichki dunyo, sevgi va muhabbat, intim munosabat, iqtisodiy ahvol, yumshoq yoki qo'rs tabiat belgilarini batafsil ochib berishni targ'ib qiladi. Agar asar biografik metod asosida o'rganilsa, undan yozuvchining o'zi bilan bog'liq iqrorlari ham ochila boradi. Yozuvchi uni o'zi o'ylab toptan to'qima obrazlar tili bilan aytadi. Ammo, bir qarashda

buni ilg'ash qiyin, chunki u obraz adibning o'ziga sira o'xshamaydi. Badiiy asardan yozuvchi tabiatiga xos xususiyatlarni anglash, his etish uchun bevosita u yashagan ijtimoiy va oilaviy muhit, unga xos ma'naviy-ruhiy, e'tiqodiy qarashlarni anglash zarur bo'ladi.

Xullas, biografik metod tarixini, namoyondalarini, dunyo adabiyotshunosligidagi yutuqlari hamda tajribalarini chuqur o'rganish badiiy asarlarni o'ziga xos tarzda tushunish va tushuntirish uchun amaliyotda qo'llash, albatta, o'zining ijobiy natijalarini beradi.

Savol va topshiriqlar

1.Biografik metodning o'ziga xos xususiyatlari xususida o'z qarashlaringizni yozma ravtishda bayon qiling.
2. Biografik metod asoschilari va taniqli vakillari kimlar edi?
3. Ijodiy-genetik metodning biografik metodga yaqinligini asoslashga harakat qiling.
4. Biografik metod va biografik janr masalasi haqida nimalarni bilasiz?

Adabiyotlar

1. Meylax B.S. Biografiya kak metodologicheskaya problema / Chelovek nauki. – M.:Nauka, 1974. – S.12.
2. Morua A. Literaturnыe portretы. – M.: Progress, 1971. – S.224-225.
3. Narkirer F. Morua – literaturnыy kritik / Andre Morua. Literaturnыe portretы. – M.: Progress, 197. – S.8.
4. Sent-Byov Sh. Per Kornel / Literaturnыe portretы. – M.: Xudojestvennaya literatura, 1970. – 47 s.
5. Sent-Byov Sh. Didro / Literaturnыe portretы. – M.: Xudojestvennaya literatura, 1970. – 117 s.
6. Treskunov M. Sent-Byov / Literaturnыe portretы. – M., 1970. – 33 s.

10-MAVZU. LINGVISTIK METOD

Reja:

1. Lingvistik metodning o'ziga xosligi va uning tilshunoslik bilan bog'liqligi.
2. Dunyo filologiya ilmida lingvistik, lingvopoetik, etnolingvistik, lingvomadaniy, lingfolkloristik metodlarning o'rni va ahamiyati.
3. O'zbek adabiyotshunosligida lingvopoetik tadqiq usuli mohiyati.
4. Lingvistik metod turlari.

Tayanch tushunchalar: lingvistik metod, lingvopoetika, etnolingvistika, lingvokulturologiya, lingfolkloristika, psixolingvistik fonetika, tarixiy fonologiya, sinxron fonologiya, tipologik fonetika, tipologik fonologiya, badiiy nutqning monologik va dialogik shakllari/

Lingvistik metod badiiy asar tili, yozuvchi uslubi masalalarini o'rganish yo'lidir. Lingvistik metodning asosiy tamoyillari bevosita tilshunoslik fani bilan bog'liq bo'lib, u orqali kalit so'z, stilistik maydon tushunchalari reallashtiriladi.

Til juda serqirra, ko'p aspektli ijtimoiy-ruhiy hamda fiziologik hodisa va jarayon bo'lganligidan uning qirralarini alohida-alohida o'rganuvchi tilshunoslik sohalari paydo bo'lgan. Bular: ***tarixiy (diaxron) tilshunoslik, sinxron tilshunoslik, naturalistik va struktural tilshunoslik, areal, statistik lingvistika, psixolingvistika, sotsiolingvistika, lingvistik tipologiya,*** *amaliy tilshunoslik,* ***komparativistika*** kabi oqim (maktab, yo'nalish)lardir. Ular yaxlit tizim sifatida olingan serqirra tilning qirralarini alohida olib o'rganishga xizmat qiladi.

Shuningdek, tilning turli sath birliklarini o'rganishga ixtisoslashgan **fonetika (fonologiya), leksikologiya, semasiologiya,** morfologiya, frazeologiya (paremiologiya),

leksikografiya, grammatika, sintaksis, morfemika, so'z yasalishi (derivatsiya), uslubiyat (stilistika), lingvopoetika, etnolingvistika, lingvokulturologiya, lingfolkloristika singari maxsus bo'limlari shakllangan bo'lib, ular hamisha yonma-yon yashab kelmoqda. Mazkur bo'limlar tilning turli katta-kichik birliklarini o'rganishga ixtisoslashgan.

Lingvistik ilmiy tadqiqotlarda asosiy tadqiq manbai – til haqidagi bilimlardir. Tilshunoslikning tadqiq manbaini ijtimoiy aloqa – aralashuv vositasi bo'lgan til tashkil qiladi. Chunki til fikrni shakllantirish, ifodalash va uqishning eng asosiy vositasi hisoblanadi.

Til bo'yicha izlanganda, uning ayrim qirrasi *tadqiq predmeti* sifatida tanlanadi. Masalan, Alisher Navoiy g'azallarida tarixiy fonetika, statik (tavsifiy) fonetika, psixolingvistik fonetika, tarixiy fonologiya, sinxron fonologiya, tipologik fonetika, tipologik fonologiya muammolari kabi. bu esa o'zbek adabiyotshunosligida ham lingvistik metod o'ziga xos o'rin tutishidan dalolat beradi.

Agar tadqiq manbai, predmeti va metodi to'g'ri tanlansa, ilmiy tadqiq ilk qadamdan boshlab to'g'ri yo'ldan boradi. Bitta birlikning turli tomonlarini xilma-xil yo'naiishlarda o'rganish imkoniyati mavjuddir.

Badiiy asar tili badiiy til hisoblanadi va u oddiy muloqot, so'zlashuv tilidan farq qiladi. Ana shu farqli belgilarni ochish uchun lingvistik metoddan foydalaniladi. Rus olimi G.Vinokur: "Badiiy til deganda, badiiy asarlar yozishda ishlatiladigan til tushuniladi", – deydi. Darhaqiqat, badiiy asarlar yozishda ishlatiladigan til "umumxalq tili", "milliy til", "adabiy til" atamalari bilan yuritiluvchi, kundalik aloqa-aralashuvda foydalanadigan tildan o'ziga xos xususiyatlari bilan farqlanadi. Aslida kundalik muloqotda ishlatiluvchi til ham, badiiy til ham axborot etkazish va axborot olish uchun xizmat qiladi. Lekin muloqot tili orqali oddiy axborot etkazilsa, poetik til badiiy axborotni etkazish uchun ishlatiladi. Shuning uchun olimlar

tomonidan muloqot tili aloqa-aralashuv vositasi, poetik til esa badiiy muloqot vositasi sifatida ko'rsatiladi.

Poetik til deganda, badiiy tasvir vositalari (tashbeh/o'xshatish, istiora, metafora, metonimiya, sinekdoxa, kinoya singari ko'chim, troplar, ramz, tashxis (jonlantirish), talmeh, tazod, epitet (sifatlash), majoz singari ifoda unsurlari ishlatilgan, ular orqali bezak va bo'yoq berilgan tilni tushunmaslik kerak. Chunki shunday asarlar ham uchraydiki, ularda bu xil vositalar ishlatilmagan yoki kam ishlatilgan bo'ladi. Negaki, ularsiz asar tili badiiylikdan mahrum bo'lib qolmaydi. Badiiy tilning belgilovchi asosiy xususiyatlari obrazlilik (tasviriylik) va emotsionallikdan iboratdir. Poetik tilning o'ziga xosligini belgilovchi eng muhim spetsifik xususiyatlar obrazlilik va emotsionallik hisoblanadi.

Badiiy til, avvalo, umumxalq tiliga asoslanadi. Shu sababli uni yangi bir hodisa deb qaramaslik lozim. Kundalik muloqotda ishlatib kelinayotgan odatiy so'zlarni badiiy maqsadda qo'llasa, undan badiiy so'z o'sib chiqadi. Masalan, "quloq" so'zining odatiy ma'nosi "odamning qulog'i"dir. Bu o'rinda u odamning tana a'zosini bildiradigan somatizm sifatida oddiy so'z hisoblanadi. Ammo "devorning qulog'i", "mushukning qulog'i", "radioning qulog'i" birikmalari tarkibida u oddiy emas, badiiy bo'yoqdor so'zga aylanib, obrazlilik va emotsionallik kasb etadi. Asar matnidagi o'rniga qarab yangidan-yangi ma'no qirralarini namoyon qiladi. Uning ma'no sig'imi kengayib, tasviriyligi ortadi. Ba'zan u orqali qahramon xarakter-xususiyati ham ochib beriladi. Masalan, "U quloq chiqib qoldi" deganda, insonning eshitgan gapini etkazuvchi xususiyatiga ishora va kinoya qilinadi.

Lingvistik metod vositasida badiiy asar qahramonlarining nutqidagi emotsionallik undagi sahnaviy epizodlar, dialoglar, personajlarning nutqi, monologi asosida tekshiriladi. Jumladan, olimlar aytganidek, personajlar o'rtasidagi dialog konkret hayotiy situatsiyada kechishi tufayli, birinchidan, hayotiy holatning hissiy bo'yoqdorligi dialog vositasida yanada

boyitiladi; ikkinchidan, dialogning hissiy tonalligi hayotiy holat hissiy fonida anglashiladi. Bunda muallif nutqidagi hissiylik hamda qahramonlar nutqidagi emotsionallik bir-biriga bog'liq holda bir-birini to'ldiradi.

Badiiy asar tilida muallif nutqi bilan qahramonlar nutqi ajratiladi. Chunki asarda tasvirlanayotgan voqealik, u kechayotgan joy, vaqt, sharoit, ishtirokchilar tasviri, ta'rifi, xarakter-xususiyatlari, psixologiyasi, portret chizgilari bevosita muallif tilidan bayon etiladi. Bu avtor (muallif) nutqi deb yuritiladi. Muallif nutqi vositasida asar qismlari, voqealar, tafsilotlar yaxlit badiiy matn ko'rinishida birikib keladi. Muallif nutqi orqali asarning yaratilgan davrini ham bilib olish mumkin.

Yozuvchilar ko'pincha milliy til imkoniyatlaridan foydalanish barobarida uni kengaytirishga ham sababchi bo'ladilar.

Odatda, asardagi har bir personajning nutqi uning xarakter-xususiyati, milliy-madaniy dunyoqarashi, muhiti, yashash sharoiti, jamiyatdagi o'rni, ma'naviy qiyofasi, diniy-ma'rifiy darajasi kabi jihatlarga muvofiq beriladi. Shuning uchun qahramonlar xarakterini yaratishning asosiy vositalaridan biri personaj nutqi sanaladi.

Badiiy nutqning monologik va dialogik shakllari bir-biridan farqlanadi. Monologik nutq shakli bir kishi tomonidan so'zlangan nutqni bildirsa, dialogik nutq shakli suhbat-muloqotda bir necha kishining ishtirokini anglatadi. Odatda, lirik asarlarda monologik nutq, dramatik asarlarda dialogik nutq etakchilik qilsa, epik asarlarda ularning har ikkisi ham keng o'rin tutadi. Bunda muallif nutqi, asosan, monologik ko'rinishda, personajlar nutqi esa dialogik ko'rinishda beriladi.

Badiiy til – sinkretik til deyish mumkin. Negaki, unda adabiy til, milliy til (umumxalq tili), muloqot tili kabilarga xos xususiyatlar o'zaro munosabatda aks etadi.

Adabiy til deganda, umumxalq tilining grammatik, imloviy va orfoepik jihatlardan me'yorlashtirilgan shakli tushuniladi. Badiiy til umumxalq tili asosida shakllanadi va ko'pincha adabiy

til me'yorlariga yaqinlashadi. Lekin badiiy asarlarda o'rni kelganda shevaga xos so'zlardan ham foydalaniladi.

Badiiy asarda muallif va u yaratgan qahramonlarning his-tuyg'u va kechinmalarini jonli, yorqin ifodalashga xizmat qiluvchi vositalar tilshunoslik hamda adabiyotshunoslikda "poetik vositalar", "sintaktik figuralar", "stilistik figuralar" deb nomlanadi. Ular ham tasvir, ham ifoda uchun xizmat qiladi. Ular ijodkorning muayyan badiiy-estetik maqsadga erishishiga yordam beradi. Bular quyidagilarda yorqin kuzatiladi:

1. Davr koloritini(ruhini) berish uchun. Lug'atdagi eskirgan so'zlar – arxaizm va istorizmlar tarixiy mavzudagi hamda yangi paydo bo'lgan so'zlar – neologizmlar esa zamonaviy mavzudagi badiiy asarlarda davr koloritini berish uchun juda zarur hisoblanadi. Bunday asarlarning qahramon va personajlari nutqida o'z davriga xos so'z va so'z birikmalarining qo'llanilishi obrazning ishonarli va to'laqonli chiqishini ta'minlaydi.

2. Dialektizmlar badiiy asarda joy koloritini berish, muayyan bir xudud kishilarigagina xos bo'lgan jihatlar (urf-odatlar, tasavvurlar, aqidalar, narsa-buyumlar va h.k.)ni xalq jonli tilida ifodalashda qo'l keladi. Asarda tasvirlanayotgan hudud, unda yashayotgan personajlar tili va xarakterini to'laqonli badiiy talqin etish uchun foydalaniladi.

3. Badiiy obraz, personaj harakat qilayotgan muhitni aniq va ishonarli tasvirlash uchun ular mansub bo'lgan muhitda ishlatiladigan varvarizm, vulgarizm, argo va jargonlar qo'llaniladi. Ular ham personajlarning nutqini individuallashtirishga, ruhiyatini ochishga, real qiyofasini yaratishga yordam beradi.

4.Tasvir predmetiga munosabatni ifodalash uchun emotsional bo'qdorligi nuqtai nazaridan bir-biridan farq qiladigan so'zlar tanlanadi. Jumladan, bunda ko'pincha sinonim so'zlarga murojaat qilinadi.

Badiiy asarlarda, xususan, lirikada so'zlarning o'z ma'nosidan ko'ra, ko'chma ma'nosidan foydalaniladi. Bu esa semantik satxdan og'ish deb qaraladi. So'zlarning ko'chma ma'noda

qo'llanishi trop (ko'chim) deb ataladi. Uning metafora, metonimiya, sinekdoxa, kinoya singari bir qator ko'rinishlari mavjud. Ular orqali tilda goh ortiqchalik, goh tejamkorlik yuz beradi.

Metafora narsa-hodisalarning o'zaro o'xshashligiga asoslangan badiiy ko'chim turidir. Uni "yashirin o'xshatish" deb ham ataydilar. Shuning uchun metafora topishmoq janrining etakchi tasvir va ifoda usuli sanaladi.

Metaforada o'xshatilayotgan narsa tushirib qoldirilgani holda o'xshayotgan narsa uning ma'nosini bildiradi. Leksik metaforaning mazmuni bir so'z doirasida anglashilishi mumkin bo'lsa, matn ichidagi metaforaning ma'nosi matndagi boshqa so'zlar bilan aloqada oydinlashadi. Demak, metaforalarning ma'nosi har bir inson ongida turlicha assotsiatsiyalarni uyg'otishi mumkin.

Ma'no ko'chishining yana bir keng tarqalgan turi metonimiyadir. Metonimiya (gr. "o'zgacha nomlash", "boshqa narsa orqali atash") narsa-hodisalar o'rtasidagi aloqadorlikka asoslangan ma'no ko'chish usulidir. Bunda narsa-hodisa, holat yoki harakat bilan ular egallagan joy (shahar oyoqqa turdi), vaqt (omadli kun bo'ldi), harakat (tepib yubordi), vosita (tilida bildirdi); narsa va uning egasi, yaratuvchisi (Navoiydan o'qidi), narsa va u yasalgan modda, xom-ashyo (tillalarini olib, kumushdan yasalganlarini qoldirdi), ruhiy holat, xususiyat va uning tashqi belgisi (ko'zi ochildi) kabi aloqalarga asoslaniladi.

Ko'rinadiki, metonimiya fikrni lo'nda va ta'sirli ifodalashga xizmat qiladi. Ba'zan u metafora, sinekdoxa bilan qorishiq holda ham kela oladi.

Sinekdoxa ham badiiy ko'chim turlaridan btiridir. Unda butun va qism, yakka va umum aloqasi asosida ma'no ko'chishi yuz berishi sababli metonimiyaning bir ko'rinishi sifatida qaraaladi.

Ma'no ko'chishining yana bir turi "kinoya" (ironiya)dir. U teskari o'xshatishga asoslangan ko'chim sanaladi.

Ko'chimning yana bir turi allegoriya bo'lib, unda mavhum tushunchalar aniq narsa-hodisalar orqali ifoda qilinadi. Ular turg'un holatga kelib qolgan. Masalan, badiiy asarlarda hamisha "tulki" ayyorlik, cho'chqa "ifloslik" kabi ko'chma ma'nolarda qo'llanadi.

Badiiy adabiyotda mohiyatan allegoriyaga yaqin bo'lgan ko'chimning bir turi sifatida simvol (ramz) ham qo'llanadi. Ramzning allegoriyadan farqi shundaki, u muayyan kontekst doirasida ham o'z ma'nosida, ham ko'chma ma'noda uchraydi.

Tilning ko'plab qirralari, rang-barang ijtimoiy, madaniy, tabiiy (biologik, fizik, genetik va h.k.), ruhiy hodisalar bilan juda murakkab aloqa-munosabatlari bor. Tilning o'zi ham behad murakkab butunlik bo'lib, uning lisoniy va nutqiy tomonlari bor.

Tilshunoslik yo'nalishlari deganda, inson tilining ayrim qirralarini chuqurroq tadqiq qilishga (o'rganish va tavsiflashga) ixtisoslashgan, o'ziga xos tadqiq metodlariga ega bo'lgan tilshunoslik turlari tushuniladi. Tilshunoslik yo'nalishlari esa hamisha ma'lum bir tadqiq metodlari bilan bog'liq bo'ladi. Tilshunoslik yo'nalishlari etakchi bo'lgan metod nomi bilan yuritiladi: tarixiy tilshunoslik, qiyosiy tilshunoslik, tipologik tilshunoslik kabi.

Lingvistik tadqiq metodlari tilshunoslikning barcha bo'limlari uchun umumiy bo'lib, ayni bir usul bilan tilning fonetik qurilishi ham, leksik, fonologik tomoni ham tadqiq qilinishi mumkin. Masalan, tarixiy tilshunoslikda tarixiy morfemika, tarixiy sintaksis, tarixiy stilistika bo'limlari shakllangan.

Tilning ayrim sath birlik (bo'lim)larini o'rganishga ixtisoslashgan tadqiq usullari ham bor. Bunga semantik sintaksis, lingvistik semantika kabilar misol bo'ladi.

Tilshunoslikda lingvistik tadqiq metodlari juda ko'p. Tilni tadqiq etish usullarining bosqichma-bosqich almashinib, yangilanib borishi, bir-birini to'ldirishi, til mohiyatiga chuqurlasha borishi til tarixini o'zida namoyon etadi.

Ilmiy maktablar ko'p hollarda metod nomi bilan atalishi

kuzatiladi: "Qiyosiy-tarixiy tilshunoslik", "Naturalistik tilshunoslik", "Geneologik tilshunoslik", "Formal tilshunoslik", "Funksional tilshunoslik", "Areal tilshunoslik", "Struktur tilshunoslik", "Deskriptiv tilshunoslik", "Matematik tilshunoslik", "Kompyuter tilshunosligi", "Psixologik tilshunoslik" (psixolingvistika), "Komparativistika", "Antropolingvistika, "Semiotik lingvistika" kabi.

Odatda, tadqiq metodlari bir-birini almashtirib turadi. Bir metod asosida ochilgan qonuniyatlar boshqa bir metod bilan aniqlangan hukmlarni rad etishi mumkin. Bunday inkor esa predmet mohiyatiga chuqurlasha borishning bir bosqichidir.

Lingvistik tadqiq metodlari, odatda, *sixronik* va *diaxronik tadqiq usullari* sifatida ikki guruhga ajratiladi. **Sinxron tadqiq va tahlilda** tilning ma'lum bir davrdagi turg'un holati va uning hodisalari tadqiq manbai sifatida olinadi. Bu davr hozirgi kun ham, bundan bir necha asr muqaddam ham bo'lishi mumkin. Sinxron tahlilda bir davrda yonma-yon turgan lisoniy hodisalar tavsiflanadi.

Diaxron tadqiq va tahlilda bir lisoniy hodisa turli taraqqiyot davrlarida olib ko'riladi. Bunda hodisalar orasida birin-ketinlik (oldin-keyinlik) munosabatlari o'rganiladi.

Tahlil usullari an'anaviy (oldingi, eski, avvalgi) va yangi (hozirgi, zamonaviy) sifatida ikkiga ajratiladi. Masalan, neogrammatika yangi tahlil usullaridan biri sanaladi.

Sinxron formal tavsifiy metodning asosiy tamoyillarini tilga ijtimoiy hodisa sifatida yondoshish; til va nutq hodisalarini bir-biridan farqlamay, birgalikda tavsiflash; so'z yoki qo'shimchaning shakli, tovushlarning talaffuz xususiyatlari – umuman, til birliklarining his organlariga ta'sir etadigan tomonlariga tayangan holda ularning turli qurshovlardagi shakliy, ma'noviy va vazifaviy xususiyatlarini tizimlashtirish tashkil qiladi. Bu metodning metodologik asosi fahmiy (empirik)-nominalistik-materialistik bo'lib, hodisalarni tizimlashtirish ratsional (idrokiy) usullarda amalga oshiriladi.

Aytish kerakki, XI-XIX asr yozma yodgorliklarining, alohida

adiblarning tili va uslubi xususiyatlari shu metod vositasida tavsiflanadi. Bu metod statistik (matematik) va eksperimental (akustik va rentgenografik) tahlil usullari bilan murakkablashtirilgan ko'rinishlarda ham qo'llaniladi. Uning statistik tahlil ko'rinishi Bahrom Bafoevning "Alisher Navoiy asarlari leksikasi", Xosiyat Nazarovaning "Bobur asarlari leksikasi", Z.Xolmonovaning "Shayboniyxon" dostoni leksikasi" kabi tadqiqotlarida kuzatiladi.

Qiyosiy-chog'ishtirma tavsifiy usul me'yoriy imlo va talaffuz, sheva (jonli so'zlashuv) va adabiy nutq farqlarini aniqlash va tavsiflash, turli xalqlar tillarini qiyoslash, bir tilda ifodalangan ma'no yoki vazifani boshqa tilda qanday usul va vosita bilan berilishi mumkinligini aniqlash ustida izlanishlar olib borishda qo'llanadi.

Bu tadqiq usulining metodologik asosi fahmiy-nominalistik-materialistikdir. Undan paradigmalarni ajratish va tavsiflashda keng foydalaniladi.

Mantiqiy grammatika usuli tilni mantiq bilan bog'lash, uning hodisalarini mantiq tushuncha va kategoriyalari asosida sharhlashga olib keladi. Uning asosiy tamoyillari tilni tafakkurning shakli deb tushunish, so'z va tushunchani tenglashtirish, poetik sintaksis masalalariga ko'proq e'tibor berishdan iborat. Bunda tillararo umumiyliklar (lisoniy universaliyalarga alohida e'tibor qaratiladi.

Qiyosiy-tarixiy metod – tillar oilalari va katta guruhlari orasidagi qarindoshlik, o'xshashlik, farqlarning kelib chiqish sabablarini o'rganishga qaratilgan tadqiq usullari majmuasidir. Uning komparativistik, naturalistik, yosh grammatik – individual psixologik bosqichlari mavjud. Uning asosiy tamoyillari tilni tabiiy-ruhiy hodisa deb tushunishga, tillar orasidagi oilaviy munosabatlarga qaratilgan. Tillarning flektiv, agglutinativ, amorf, polisintetik kabi morfologik tiplari ajratiladi. Tilshunoslik so'z va qo'shimchalarning kelib chiqishi (etimologiyasi) tadqiqiga e'tibor beriladi.

Struktural tahlil usulining to'rt ko'rinishi: 1) deskriptiv;

2) glossematik; 3) funksional; 4) generativ tahlil usuli va tilshunosligi iavjud bo'lib, bir-biridan tubdan farq qiladi va turli maqsadni ko'zlaydi. Unda til (lison) semiotik, ya'ni shartli belgi (ishora, ramz)lar tizimi sifatida tushuniladi. Lisoniy birliklar mohiyati ularning adigmatik, sintagmatik va ierarxik munosabatlari orqali aniqlashtiriladi.

Lison va nutq deskriptiv lingvistikada nerika struktural izmida ham, glossematikada ham farqlanadi. Lekin bu ikki yo'nalishda lison va nutq tamoman boshqacha-boshqacha tushuniladi.

Nutq hodisalarini izchil farqlovchi struktural tilshunoslik (lingvistik strukturalizm)ning o'nlab tahlil va tadqiq usul hamda yo'nalishlari bor. Struktural tahlil usulida (va u bilan aloqador bo'lgan tipologik, komponent, kontekstual v.b. lison va nutq hodisalari farqlanadigan tahlil usullarining barchasida) idrokiy-dialektik-idealistik metodologiya etakchilik qiladi.

6.Tipologik umumiylik (lingvistik universaliya)lar tahlil usuli *bir*-biri bilan yaqin (qarindosh) yoki uzoq, o'zaro aloqalarda bo'lgan va bo'lmagan tillarning qurilishi, u yoki bu turdagi ma'no va vazifalarni ifodalashdagi umumiylik (o'xshashlik) va farqlarni (xususiyliklarni) qiyoslab o'rganish usulidir. U qiyosiy-chog'ishtirma, mantiqiy grammatika, qiyosiy-tarixiy usul va glossematika tushuchalari bilan aloqadordir. Metatil (tilustilik), metayazik uning eng asosiy tushunchalaridir.

Tipologik tadqiqotlarda qiyoslanadigan haqqoniy (real) til (obekt-til)larda umumiylikning ifodalanish vosita, usul, shakl, ko'rinishi va vazifalari qiyoslanib, har bir qiyoslanayotgan tilning qurilish xususiyatlari haqida tegishli xulosalar chiqariladi.

Distributiv tahlil usuli doirasida shakllangan **transformatsiyalash (aylantirish) usuli** oddiy sintaktik qurilmalardan murakkabroqlarini, bir turdagi sintaktik qurilmadan boshqa turdagisini ma'lum qoidalar asosida hosil qilish yo'l va vositalarini tadqiq va tahlil etishga mo'ljallangan. Bu tahlil usuli mashina tarjimasida, matnlarni avtomatik tahlil

jarayonlarida keng qo'llaniladi, ko'p holda injener (kompyuter) lingvistikasi va matematik lingvistika bilan qorishib ketadi.

Komponent tahlil usuli. deskriptiv va funksional lingvistika ichida shakllangan tahlil usulidir. Bu usul ma'noli lisoniy birliklar (morfema va leksemalar)ning ma'nolarini tarkibiy qismlarga (semalarga) ajratib, bu birliklar ma'lum lisoniy paradigmalarda qaysi tarkibiy qismi (semasi) bilan kirishi va qaysi semasi bilan farqlanishining tahlil va tavsifini beradi. Ma'lum paradigmani tuzuvchi, birlashtiruvchi semalar integral (birlashtiruvchi, umumiy), paradigmalarda har bir birlikni ajratuvchi semalar esa differensial (farqlovchi) sema deyiladi.

Bir lisoniy birlik turli semalari asosida turli-tuman paradigmalardan o'rin egallashi sababli (bu lisoniy birlikning turli paradigmalardagi differensial semalari uning umumiy lisoniy ma'nosida birlashtiriladi (komponent sintez) va kontekstual tahlil usuli vositasida har bir semaning kuchayish va zaiflashish o'rinlari (relevant va irelevant pozitsiya va holatlari), minimal, qulay va noqulay kontekstlari (voqelanish sharoitlari) aniqlanadi. Bu usul idrokiy-dialektik-idealistik metodologiyaga tayanadi.

Statistik usul har xil katta-kichiklikdagi matnlarda ayrim-ayrim lisoniy hodisalarning (tovush, harf, bo'g'in, so'z, olinma va o'zlashmalar, yangi va eskirayotgan so'zu qo'shimchalar, har xil qurilmalar v.h.) qo'llanilish miqdorini aniqlash uchun ishlatiladi. Bu usul tadqiqotchini qiziqtirgan hodisa, uning xillarining ma'lum bir turdagi matnda ishlatilish miqdorini sanash va mutanosiblik (proporsiya) asosida qo'llanilish chastotasini aniqlashga xizmat qiladi.

Eksperimental (instrumental) fonetik tahlil usuli fizikaning akustika, rentgenologiya bo'limlari inkishofi natijasida tovushning baland-pastligini, cho'ziq-qisqaligini o'lchaydigan ossilograf, og'iz bo'shlig'idagi nutq organlari harakatining aksini beradigan palatograf va rentgenograflarnng ixtirosi bilan uzviy boliqdir.

Ko'rinadiki, tilni turli jihatdan tadqiq etish usul va yo'li juda ko'p. Hozirgi kunda ikki yo'nalishdagi kompyuter lingvistikasida: 1) kompyuter yordamida til ta'limi; 2) kompyuter vositasida matnlarni tadqiq qilish va mashina tarjimasi yo'nalishlarida katta ishlar amalga oshirilmoqda, yangi-yangi tadqiq usul va vositalari ochilmoqda.

R.N. Yusubova tadqiqotida hozirgi o'zbek poeziyasida lisoniy tejamlilik va ortiqchalik A.Oripov lirikasi misolida o'rganilib, shoirning tildan foydalanish, til birliklarini tanlash va qo'llashda lisoniy tejamkorlik mahorati stilistik nuqtai nazardan ochib berilgan.

Savol va topshiriqlar:

1. Badiiy til orqali etkazilgan badiiy axborot bilan oddiy axborotning farqi nimada?
2. Badiiy tasvir va ifoda vositalari badiiy tilning belgilovchi xususiyati bo'la oladimi?
3. Muallif va personaj nutqining badiiy matndagi o'rni va roliga ta'rif bering.
4. Ko'chimlarning turlari va vazifalari, shakllanishi haqida nimalar bilasiz?

Adabiyotlar:

1. Apresyan Y.D. Idei i metodы sovremennoy strukturnoy lingvistiki. – M.: Prosveщenie, 1966.
2. Baxtin M.M. Estetika slovesnogo tvorchestva. – M.: Iskusstvo,1986.
3. Vinokur G.O. O yazыke xudojestvennoy literaturы. – M.,1991.
4. Grigorev V. Poetika slova. – M.,1979.
5. Ivanov S.N. Grammatik tadqiqotlarning metodologik muammolari. Rus tilidan I.b. Birshaev tarjimasi. – Samarqand: SamDU, 2004. – 80 b.
6. Qosim Y. Yangi o'zbek she'riyatida ramzlar // O'zbek tili va adabiyoti. – 1998. – №5. – B.3-8.

7. Lapasov J. Badiiy matn va lisoniy tahlil. – T.: O'qituvchi, 1995.
8. Ne'matov H., Hamroeva Sh. Lingvistik tadqiqot metodikasi metodologiyasi va metodlari. – Buxoro, 2005. – 98 b.
9. Nurmonov A. Lingvistik tahlil metodlari. – T.: Akademnashr, 2010.
10. Общее yazыkoznanie. Metodы lingvisticheskix issledovaniy. – M., 1973
11. Polyakov M. Voprosы poetiki i xudojestvennoy semantiki. – M., 1986.
12. Teoriya metaforы. – M.,1990
13. Tomashevskiy B.V. Stilistika. – L.,1983
14. Yusubova R.N. Hozirgi o'zbek poeziyasida lisoniy tejamlilik va ortiqchalik (A.Oripov lirikasi misolida): Filol. Fan. nomz... diss. Avtoref. – T., 2011. – 25

GLOSSARIY

Absurd adabiyot – XX asrda Evropada paydo bo'lgan modernizmga doir adabiy oqim.

Adabiyot nazariyasi - adabiyot va ijtimoiy hayot orasidagi bog'liqlikni, so'z san'atining kishilik jamiyati taraqqiyoti bilan bog'liq holda rivojlanishini, adabiy tur va janrlar tabiatini, ularning o'ziga xos xususiyatlarini, badiiy asar tuzilishi, uni tashkil etuvchi qismlarni, asarning tili, ifoda uslubini, badiiy-tasviriy vositalarni, adabiy yo'nalish, adabiy uslub, adabiy maktab, ijodkorning badiiy mahorati kabi masalalarni o'rganadi.

Apokaliptik adabiyot – insoniyatning kelajagi haqida, xususan, dunyoning inqirozi haqidagi qarashlarni talqin etuvchi adabiyot.

Jahon adabiyotida adabiy tanqidiy tafakkur - joriy adabiy jarayonni tahlil qiladi. YAratilayotgan asarlarning g'oyaviy-estetik qimmatiga baho beradi. Adabiy jarayonda paydo bo'layotgan o'zgarish, yo'nalish, uslublarni aniqlaydi. Asarlarning kishilar did, tafakkuriga ta'siri haqida fikr bildiradi.

Jahon adabiyoti tarix" – jahon xalqlari adabiyotning taraqqiyoti tamoyillarini, har bir davrning o'ziga xos xususiyatlarini, ijodkorlarning ijodiy faoliyatini o'rganadi.

Jahon adabiyoti tushunchasini belgilovchi mezonlar – umuminsoniylik, milliylik, individuallik.

Filologiya - grekcha so'z bo'lib, philo - *sevaman*, logos - *so'z, bilim* demakdir.

Obraz - so'zning o'zagi "raz" (chiziq) bo'lib, undan "razit"(chizmoq, yo'nmoq, o'ymoq), undan "obrazit"(chizib, o'yib, yo'nib shakl yasamoq) paydo bo'lgan. Ana shu "obrazit" so'zidan "obraz" atamasi vujudga kelgan. Bu so'z "umuman olingan tasvir" ma'nosini bildiradi. Obraz ham umumlashgan, ham individuallashgan xususiyatni o'zida gavdalantirgan hodisadir.

Badiiylik - hodisalarni hayotiy, jonli manzaralarda, kishini ta'sirlantiradigan, unda tasavvur uyg'otadigan qilib tasvirlash. Badiiylik barcha san'at turlariga xos hodisa.

Badiiy to'qima - obrazning ichki-tashqi qiyofasi, maqsad, intilishlarini namoyon etuvchi voqealarni o'ylab topishdir.

Realistik obrazlar - xarakter-xususiyatlari, xatti-harakatlari hayotdagi kishilarga mos keladigan obrazlar.

Romantik obrazlar - ijodkorlarning orzu-xayollarini ifoda etgan kishilar siymosidir. Ularda ijodkorlarning orzu-umidlari, jamiyat to'g'risidagi, kishilar haqidagi niyatlari namoyon bo'ladi.

Xayoliy-fantastik obrazlar - romantik obrazlarga o'xshab ketadi. Bu obrazlarda ijodkorlarning hayotga ideal munosabati, dunyoqarashi ifodalangan bo'ladi. Xayoliy-fantastik obrazlar mo"jizaviy, ilohiy xususiyatlar egasi qilib ko'rsatiladi. Xalq dostonlari, ertaklaridagi qahramonlarni xayoliy-fantastik obrazlar deyish mumkin.

Majoziy obrazlar - muayyan narsa-hodisalar qiyofasini umumlashtirib ifodalovchi ramziy obrazlardir. Jumladan, so'fiyona adabiyot asarlarida yor deyilganda Xudo nazarda tutiladi. Gul, lola muhabbat, sevgi izhori ramzi sanaladi.

Allegorik obrazlar - majoziy obrazlarning biri sanaladi. Allegorik obrazlar, odatda, masal va ertaklarda bo'ladi. Masal, ertaklarning asosiy qahramonlari esa hayvonlar, jonivorlardir. Ularda ayrim odamlarning fe'l-atvoridagi kamchilik, illatlar ko'rsatiladi.

Xarakter - o'z xatti-harakatlari, maqsad, intilishlari, o'y-kechinmalari, dunyoqarashi, fe'l-atvori bilan alohida ajralib turadigan to'laqonli obrazdir. Shuning uchun har qanday obraz badiiy xarakter bo'la olmaydi. Asardagi etakchi qahramon har jihatdan faol bo'lsa, o'zining barcha jihatlari bilan yorqin ko'rinib tursagina u badiiy xarakter bo'la oladi.

Personaj - badiiy asardagi barcha qahramonlar, jumladan, badiiy xarakter darajasiga ko'tarilmagan qahramonlar ham personaj hisoblanadi.

Shakl va mazmun - voqea-hodisalarning tashqi ko'rinishini aks ettirish orqali ularning ichki mohiyatini gavdalantirish.

Mavzu - ijodkor tanlagan hayotiy voqealar, u yoritgan asosiy muammolarning umumlashmasi. Adabiy asar uchun asos qilib olingan fikr va maqsad uning mavzusidir.

G'oya - ijodkor maqsadini boshqarib, uning qarashlari, hodisaga yondashishlarini ma'lum bir izga solib turadigan ana shu hodisa.

Konflikt - lotincha conflictus degan so'z bo'lib, "to'qnashish" degan ma'noni bildiradi. Ziddiyat, to'qnashuv hayot taraqqiyotini ta'minlovchi asos bo'lgani singari badiiy konflikt ham asarning qiziqarli bo'lishining etakchi vositasidir.

Kompozitsiya - lotincha compositio so'z bo'lib, "tuzilish, qurilish, tarkib" demakdir. Badiiy asar kompozitsiyasiga quyidagicha ta'rif-tavsif berish keng tarqalgan: "badiiy asar qismlari, detallari, badiiy tasvir vositalarining ma'lum maqsad asosida muayyan tartibda joylashtirilishi".

Syujet - fransuzcha sujet so'z bo'lib, "narsa, mazmun, mavzu" degan ma'noni bildiradi. Asar mazmunini tashkil etadigan, qahramonlar o'rtasidagi aloqa, munosabatlar tizimi.

Sentimental adabiyot – mohiyatida voqelikni hissiy talqin qilish turuvchi 18-asrda Angliyada paydo bo'lgan adabiy oqim.

Fabula - lotincha fabula so'z bo'lib, masal, hikoya qilish demakdir. Badiiy asar fabulasi deganda asar uchun asos bo'lgan hayotiy material nazarda tutiladi. "Fabula — asar voqealarining mantiqiy jihatdan uzviy bog'liqlikdagi yaxlit silsilasi" ham deyiladi. O'z ma'no va mohiyatiga ko'ra bu ikki termin bir-biriga sinonimik xarakterga ega bo'lib, hozirgi adabiyotshunoslikda **syujet** termini faol

qo'llaniladi. **Fabula** termini esa asta-sekin iste'moldan tushib qolmoqda".

Ekspozitsiya - lotincha expositio so'z bo'lib, "tushuntirish" degan ma'noni anglatadi. Voqealar kechgan joy, davrning ijtimoiy manzarasi, qahramonlar unib-o'sgan muhit shart-sharoiti kabilar tasviri ekspozitsiya deb yuritiladi. Ekspozitsiya asarning istalgan o'rnida bo'lishi mumkin.

Tugun - badiiy asarda qahramonlar o'rtasidagi ziddiyatlarning paydo bo'lishi. Tugun, ko'pincha, qahramonlarning ilk bor uchrashuvi yoki biror jiddiy muammo yuzasidan tortishishi tufayli paydo bo'ladi. Voqealar tuguni faqat qahramonlar o'rtasida emas, qahramonning aynan o'zining o'y-kechinmalari bilan ham bog'liq bo'lishi mumkin.

Voqea rivoji - syujetdagi voqealarning ma'lum tugundan so'nggi rivojlanish jarayoni. Tugun to'satdan yuzaga kelganday bo'lishi mumkin. Biroq voqea rivoji uzoq davom etadigan jarayon.

Perepetiya - syujet voqealari rivoji davomida paydo bo'lgan yangi tugunlar yoki chigalliklar.

Voqealar kulminatsiyasi - asar syujetidagi voqealarning eng yuqoriga ko'tarilib, asosiy qahramonlar xarakteri, qiyofasini ko'rsatadigan epizod. **Echim** - syujet voqealari va qahramonlar taqdirining hal bo'lishini gavdalantiruvchi epizod.

Muqaddima - muallif o'quvchiga o'z maqsad-muddaosini ma'lum qilib, asari haqida tushuntirish, izohlar berishi.

Xotima - qahramonlarning asar syujeti voqealari tamom bo'lgandan keyingi taqdiri haqida ma'lumot beruvchi qismi.

Portret - fransuzcha portrait so'z bo'lib, "tasvir" degan ma'noni bildiradi. Badiiy asarda portret qahramon obrazini yaratishga asos bo'ladigan omillar orasida eng muhimidir. CHunki yozuvchi voqealarda ishtirok etayotgan, o'ylayotgan, qanaqadir maqsadlari bo'lgan qahramon qiyofa, ko'rinishini albatta gavdalantiradi.

Qahramon portreti uning suratini ko'rsatish uchungina emas, balki ruhiy dunyosidagi holat, o'zgarishlarni anglash, tushunish uchun ham zarur vosita bo'ladi.

Detal - ijodkor e'tiborni qaratgan personajlar ko'rinishi, qiyofasi xususidagi mulohazalar ularning tashqi jihatlari haqidagina emas, ichki holatlari to'g'risida ham muayyan tasavvur olish imkonini beradi. Bu esa detallar asosida hosil bo'ladi. Detal qahramon portretini emas, uning fe'l-atvorini ko'rsatishda ham alohida ahamiyat kasb etadi. Detal qahramon xarakter-sajiyasini yorqinlashtirgani singari, joy manzaralarini aniq gavdalantirishga ham asos bo'ladi.

Kulteranizm – 17-asr Ispaniya adabiy muhitida maydonga kelgan adabiy oqim. Antik YUnon madaniyatini ideallashtirish, san'atda noziklik va jimjimadorlikni targ'ib etish ushbu adabiyotning muhim xususiyati sanaldadi.

Lirik chekinish - ijodkorning syujet voqealarini to'xtatib, ular tufayli o'zida paydo bo'lgan ichki kechinmalarni bayon etishi.

Peyzaj - fransuzcha paysage so'z bo'lib, "mamlakat", "joy" degan ma'noni bildiradi. Peyzaj badiiy asarda aks ettirilgan tabiat manzaralari, voqea-hodisalar kechgan joylar ko'rinishi tasviridir. U qahramonlar holat, kayfiyatini gavdalantirishning muayyan vositasi hisoblanadi.

Sayyor syujet - bir xil mavzu, bir xil qahramonlar taqdiri naql qilingan asarlar. Sayyor syujet barcha milliy adabiyotlar tarixida mavjud hodisa.

Badiiy asar tili - adabiy til me'yorlariga tayanadigan, umumxalq tiliga asoslangan, hamma uchun tushunarli ifodalarni qamrab olgan, ijodkorlar tomonidan jilolangan til. Badiiy asar tili ilmiy asarlar tilidan **tasviriylik, emotsionallik, obrazlilik, aforizm** kabi xususiyatlari bilan farq qiladi.

Dialog - yunoncha dialogos so'z bo'lib, "ikki kishi o'rtasidagi so'zlashuv" degan ma'noni anglatadi.

Monolog - ham yunoncha (monos — bir va logos — so'z, nutq) so'z bo'lib, u badiiy asarda ishtirok etuvchi personajlarning o'z-o'ziga yoki boshqalarga qaratilgan nutqi sanaladi.

Jargon - fransuzcha jargon so'z bo'lib, "buzilgan til" degan ma'noni bildiradi. Binobarin, jargon sun'iy, yasama tildir. U muayyan guruh kishilari doirasidagina qo'llanadi. Jargon so'zlar ham barcha kishilarning nutqida ishlatiladigan so'z, iboralardan tarkib topgan bo'ladi.

Metafora - yunoncha metaphora so'z bo'lib, "ko'chirish" degan ma'noni anglatadi. U narsa-hodisalar o'rtasidagi o'xshashlikka asoslangan bo'ladi. Biroq metafora aynan o'xshatish emas.

Metonimiya - ikki tushuncha o'rtasidagi yaqinlikka asoslangan o'xshashsiz ko'chim. Metonimiya yunoncha metonomadzo so'z bo'lib, "qayta nomlash"dir.

Sinekdoxa - yunoncha synekdoche so'z bo'lib, unda bir qism yoki bo'lak orqali yaxlit, butun narsa bildiriladi va aksincha. YA'ni, bir butun hodisa orqali uning ayrim bo'lagi haqida mulohaza yuritiladi.

Allegoriya(majoz) - yunoncha allos — boshqa, o'zga va agoreuo — gapiraman, demakdir. U ertak va masallarda, ayniqsa, keng qo'llanadi. Masalan, tulki qiyofasida ayyor kishilar nazarda tutiladi. CHumoli mehnatkash, zahmatkash odamlar timsoli sanaladi. Allegoriya fikrni pardalab, sal yashirib ifoda qilishning eng o'ng'ay shakli hisoblanadi

Jonlantirish - kishilarga xos xususiyatlarni jonsiz va mavhum narsa-hodisalarga ko'chirishdir. Masalan, *xo'mraygan bulutlar* deyiladi. Bunda kishilarga xos xo'mrayish jonsiz bulutga ko'chirilgan bo'ladi. Asarlarda tog'-tosh, shamol, daraxt, mevalar xuddi odamlarga o'xshatib gapirtiriladi.

Sifatlash - narsa-hodisaning biror bir belgi, xususiyatini aniq-ravshan alohida ajratib ko'rsatishdir. Sifatlash ikki xil bo'ladi. Birinchisi oddiy sifatlash bo'lib, unda narsa-hodisalarning o'tkinchi belgilari ta'kidlanadi. Ikkinchisi,

doimiy sifatlash bo'lib, bunda narsa--hodisalarning doimiy xususiyatlari aytiladi.

O'xshatish - narsa-buyumning ma'lum bir belgisini boshqa narsa-buyumga solishtirishdir. O'xshatish fikrni yaqqol ifodalash imkoniyatini beradi.

Mubolag'a narsa-hodisalarning xususiyat, belgilarini kuchaytirib, orttirib tasvirlashdir. Mubolag'a muayyan narsa-hodisalarni boshqalaridan alohida ajratib ko'rsatish maqsadida qo'llanadi.

Intonatsiya - lotincha intonare so'z bo'lib, "qattiq talaffuz etish" degan ma'noni bildiradi. U so'zlovchining, asar muallifining hodisaga munosabatini anglatuvchi ifoda vositasi sanaladi. Badiiy asarda intonatsiyani turli tinish belgilari, misralarning joylashish tarzi bildirib turadi.

Parallelizm - ikki yoki undan ortiq narsa-hodisani yonma-yon qo'yish orqali mazmunni yorqinlashtirish uslubi sanaladi. Unda narsa-hodisalar bir-biri bilan muqoyasa qilinadi yoki zidlashtiriladi. Ushbu yo'l bilan fikr aniqlashtiriladi, uning ta'sirchanligi kuchaytiriladi.

Takror - parallelizmga yaqin tasvir usuli hisoblanadi. Matnda u aniq ko'rinib turadi. CHunki takror ayrim so'z, iboralarning ma'lum bir tartib asosida qayta-qayta qo'llanishidir. Takror muayyan maqsadga muvofiq qo'llanadi. Takrorning anafora, epifora, misralar takrori singari ko'rinishlari bor.

Anafora - yunoncha anaphor so'z bo'lib, "yuqoriga ko'tarilish" degan ma'noni bildiradi. Bunda bir xil so'z yoki so'z birikmasi she'r misralari boshida aynan bir xil tarzda takrorlanib keladi.

Inversiya - lotincha inversi so'z bo'lib, "o'rin almashtirish" degan ma'noni bildiradi. Bunda gap bo'laklari grammatika me'yorlari tartibidan farqliroq tarzda qo'llanadi. Inversiya ta'kidlanmoqchi bo'lgan fikrga mantiqiy urg'u berish, uni kuchaytirish, ta'sirchanligini oshirish maqsadida qo'llanadi.

Antiteza - fikr ta'sirchanligini oshirish maqsadida qo'llanadigan ifoda usullaridandir. U qarama-qarshi fikrlarni ifodalash uchun ishlatiladi.

Ritorik murojaat - tantanavorlik, ko'tarinkilik yoki kesatish, kuchli g'azab, nafratni ifodalash uchun qo'llanadigan xitob shaklidagi ifoda usulidir.

Sillabik she'r tizimi - bo'g'inlar miqdoriga asoslanadi. Turkiy xalqlar, jumladan, o'zbek xalq she'riyati, shuningdek, italyan, polyak, fransuz, ispan, rumin xalqlari she'riyati ham sillabik she'r tizimiga mansubdir.

Metrik she'r tizimi - esa bo'g'inlarning uzun-qisqaligiga, unlilar holatiga asoslanadi. Grek, lotin, arab she'riyati shunday xususiyatga ega.

Mif – obrazli tafakkurning ilk shakli. Ilohiy axborotlarning insoniyat tomonidan qayta talqin etilgan (buzilgan) namunasi.

Sillabo-tonik she'r tizimi - bo'lsa, urg'uli, urg'usiz bo'g'inlarning ma'lum tartibda kelishiga asoslanadi. Rus she'riyati shundaydir.

Tonik she'r tizimi - misralarda urg'usiz bo'g'in qancha bo'lishidan qat'i nazar, ritm hosil bo'lishi, urg'ularning bir maromda kelishiga asoslanadi.

Tipologik yondashuv – jahon adabiyoti namunalarining syujet, obraz, badiiy g'oya nuqtai nazaridan o'rganilishi.

Epos – jahon xalqlarining milliy, umuminsoniy, badiiy-estetik qarashlari aks etgan folklor namunasi.

Ekzistensializm - modernizm falsafasi negizida XX asrda shakllangan falsafiy-badiiy oqim. Ekzistensiya – mafjudlik demakdir.

Germenevtika - Germenevtika-atamasi "tushuntirish", "talqin qilish" degan ma'nolarni bildiradi. Uning ayrim yo'nalishlari qadimgi Gretsiyada yuzaga kelgan.SHarq adabiy tanqidiy tafakkurida bu atama qo'llanmagan bo'lsada, uning mohiyatiga munosib yo'sinda fikrlash tarzi Mahmud Qoshg'ariy davrlaridayoq mavjud bo'lgan. "Germenevtika"

yunoncha so'zdan paydo bo'lib, ""tushuntiraman, "talqin qilaman" degan ma'noni anglatgan. Qadimgi yunon mifologiyasi Germesni olimi ilohlarining qosidi, ahli tijorat piri sifatida ko'rsatgan. Qadimgi YUnonistonda ellinizm davrida savdo karvonlari o'tadigan yo'llarga Germes haykali tiklanganligi bejiz emas. SHarq-musulmon adabiyotida Surush obrazi bot-bot uchraydi. U hojatbaror, mushkullarni hal qiluvchi kuch sifatida ko'rsatiladi[32]. Germes tilni, yozuvni kashf etgan kuch ham hisoblanib, tushuntirish, talqin masalalari uning nomi bilanbog'lanadi. Germes xudolar mujdalarini odamlarga olib kelgan, ularning tushuntirib, talqin qilib bergan. Germenevtika-talqin nazariyasi, ma'noni anglatish ta'limoti bo'lib, aksariyat hollarda qadimgi matnlarni sharhlashda qo'llanilgan. Ilk bor germenevtikadan "Iliada" va "Odissiya" asarlari talqinida foydalanilgan. Keyinchalik Arastu va Aflotunlar germenevtika haqida asar yozdilar, g'arb va sharqda ularning asarlari keng, teran talqin qilina boshlandi.

Ontologiya – yashash ilmi. Martin Xaydegter-XX asr germenevtika fanining nodir namoyandasi. U ontologiya ilmining asoschilaridan. F. Shleyermaxer fikricha, germenevtika tushunish nazariyasi; V. Diltey qarashicha, germenevtika gumanitar fanlarning umumiy metodi bo'lsa, M.Xaydegger ta'rificha, germenevtika dunyoni anglashning o'ziga xos tizimi. Uningcha, til bilishning tarixiy ufqi, "yashash uyi". Til bizning mazmun mohiyatimizni sirtga (yuzaga) olib chiqadi. Xaydegger fikricha, "germenevtika – borliqning sodir" bo'lishi. U shoir she'ri, serma'no matnlar orqali o'zini namoyon etadi. Agar inson anglashdan mosuvo, tushunishdan yiroq bo'lsa, uning tirikligidan ma'no yo'q, deb hisoblaydi. Gans Georg Gadamar germenevtikani gumanitar fanlar metodi deyish bilan cheklanmadi. U

[32] Хўжаев Т. Навоий шеъриятидаги Суриш образига доир.//Ўзбек тили ва адабиёти, 2006 , № 1. – б.

germenevtika asosida ontologik ta'limotni yaratdi. Endi til germenevtik ontologiyaning asosi sifatida qabul qilindi. Ontologik metod adabiyotshunoslikda asar tili, strukturasining yashovchanligi to'g'risida qarashdir. Y. Borev "Talqin va baholash san'ati" kitobida badiiy asarni ontologik metod asosida yoritish usuli haqida yozib, badiiy asar yashovchanligini belgilovchi, ichki ziddiyatlar kurashiga asoslangan xususiyatlarning etti qatlamini sanaydi[33]. Bizning davrimizda adabiy asarni tushunishning bu tarzi filologik tadqiqotlar va tanqidchilik sohasiga ham kirib, uning mohiyatini adabiy asarning asl matnini tiklash va uning adabiyot tarixidagi ahamiyatini aniqlashga qaratilgan tadqiqot usullaridan birini tashkil etadi

Mikrotahlil - Mikroanaliz - qunt bilan o'qish, mag'zini chaqish orqali tahlil qilish. Adabiy matnni sinchiklab o'rganish, birinchidan, undagi uzuq-yuluqlikni, yamoq-yasqoqni, ikkinchidan, matndagi "singan", "majruh bo'lgan" o'rinlarni, uchinchidan, bir uslubning begona uslub bilan almashib qolishini, to'rtinchidan, matnga singishib ketmagan, "begonaligicha" qolib ketgan obrazlarni, beshinchidan, asar milliy ruhiyati-holatda ro'y bergan o'zgarishlarni bexato ko'rsatadi.

Struktural tahlil - Adabiyotshunoslikda tuzilma (struktura), belgi, ishoralar (semiotika) tahlil yo'sini mavjud. Badiiy asar g'oyaning shaklanishiga ko'ra quriladi- kompozitsion qiyofaga kiradi. Tuzilma - adabiy matn strukturasi. Tuzilma misoli tana - struktura, u yaratiladi. Strukturali tahlil aniq tuzilmani, so'zning o'z o'rnida qo'llanishini tekshiradi. XX asr o'zbek adabiyotida shunday asarlar borki, ular turli talqinlarga ega. "Go'zal", "Xalq", "Birinchi muhabbatim", "Men nechun sevaman, O'zbekistonni", "O'zbegim" singari she'rlar necha bor talqin qilindi. Xususan, A.Oripovning "Tilla baliqcha"si sertalqin she'rlardan biridir.(

---

[33] Борев Ю. Искусство и интерпретации в оценки. М. 1981. С.61 62.

M.Qo'shjonov, YAshar Qosim, S.Meli talqinlari). Muhimi, mazkur she'r talqinida so'zlarning o'rni, qo'llanishi masaalsiga e'tibor berildi.

5. **Adabiy portret** . Portret fransuzcha «partrait»- tasvir so'zidan olingan **bo'lib, lugaviy ma'noda aslini tasvirlash demakdir**[1]. Istilohiy ma'noda esa ikki hodisani ifodalaydi:

1. Adabiy asarda kishining tashqi ko'rinishi, qiyofasi, kiyim-kechagi, o'zini tutishini anglatadi. Portret badiiy obraz yaratishning muhim shartlaridan biridir.
2. Ayrim yozuvchi, shoir, jamoat arbobi, san'atkor yoki olimning hayoti va faoliyatini ilmiy-estetik jihatdan umumlashtiruvchi asar turini bildiradi.

.Esse . "Esse" lotincha -" exigo" so'zidan olingan bo'lib, " chamalayman, o'lchab ko'raman" degan ma'noni anglatadi. Erkin tuzilishga ega, juz'iy mavzularda, shaxsiy mulohaza va qarashlarni ifodalovchi, unchalik katta hajmga ega bo'lmagan asar esse hisoblanadi.

Kritika - grekcha "Hukm qilmoq" so'zidan olingan.

Vulgar sotsiologik qarash - adabiy hodisani sub'ektiv talqin etish, noto'g'ri, buzib baholash, sxematizmga yo'l qo'yish

Futurizm - adabiy oqim, lotincha kelajak so'zidan. San'atdagi realizmni , madaniy merosni inkor etib, uning o'rniga yangi an'an yaratmoqchi bo'lgan oqim. Turlari: egofuturizm, kubofuturizm.

Nigilistik qarash adabiy hodisani noto'g'ri talqin etish

Barokko - portugalcha nomaqbul shakldagi gavhar so'zidan olingan. 16 asrning oxiri 17 asrd Evropad yuzaga kelgan uslub. Baroko davri adabiyotning tushkunlik davri hisoblanadi.

Belleteristika – keng ma'noda badiiy adabiyot, tor ma'nod nasriy badiiy asarlar tushuniladi.

Realizm – lotincha narsaga oid haqiqiy so'zidan. Asosiy ijodiy metodlardan biri. Voqelikni, hayotni badiiy obrazlarda

---

[1] Хотамов Н.,Саримсоков Б. Адабиётшунослик терминл. русча-изохли лугати. Т.,»Укитувчи»,1979,238-бет.

murakkabligi va butun to'laligi bilan to'g'ri va hg'aqqoniy akes ettirish.

Modernizm -«O'zbekiston adabiyoti va san'ati» gazetasida «Istilohlar» ruknida berilgan «Modernizm» sarlavhali muxtasar sharhda modernizmning lug'aviy ma'nosi, paydo bo'lishi, mazmuni, uning «dekadans», «avangard» atamalari bilan bog'liq jihatlari hamda tub farqli xususiyatlari va boshqa ayrim tomonlari qisqa, xarakterli tarzda bayon etilgan. Ushbu sharh muallifi A.Otaboy «modernizm»ning umumiy nuqtalariga qisqa-qisqa izoh berib o'tgan bo'lsa-da, prinsipda bu atama haqida daslabki zarur ma'lumotlarni bayon etgan. Jumladan, munaqqid «dekadent» va «modern» atamalari o'rtasidagi farqni izohlarkan, «modern» san'atini yaratishga kirishganlar «dekadent»lar kabi o'zlaridan oldin o'tgan badiiy oqimlar bilan aloqada bo'lmaganini, balki bog'liqlikdan tamoman voz kechish hisobiga «modern» asarlar yaratishga erishganini aytib shunday yozadi: «SHu boisdan ham, «modern»ni «eng yangi», «zamonaviy»dan ko'ra kengroq ma'noda, butkul yangi, g'ayrian'anaviy, oldingilardan farqli hodisa sifatida olib qarash o'rinli»(O'zAS, 1996, 2.02.). Shu o'rinda ta'kidlash joizki, XX asrning 70-80-yillarida, sobiq ittifoq davri rus adabiyotshunosligida, san'atshunosligida «modernizm» bilan bog'liq amalga oshirilgan tadqiqotlardagi ayrim kuzatishlar o'zbek tanqidchiligida ushbu mavzudagi ilk izlanishlarga o'ziga xos turtki bergan, muayyan ma'noda, ta'sirini ham o'tkazgan. Jumladan, D.Zatonskiy «modernizm» atamasiga to'xtalib shunday yozadi: «Modernizm» termini, yuqorida aytganimdek, ehtimol, muvaffaqiyatli topilgan atama emasdir. Biroq, bu terminsiz – boshqasi yo'qligi tufayli, – aftidan, ish yuritib bo'lmaydi, magarki, XX asr g'arb san'atida nimalar ro'y berayotganini bilmoqchi bo'lsang. Zero, ushbu termin bilan aniqlik kiritilgan voqea

mavjuddir...»[34]. S.S.Xorujiy yozadi: «Modernizm... bu uslubga behad ishonch, uslubga sig'inish, uslubning mistikasi va mifologiyasi»[35]. Darhaqiqat, «modernizm», «postmodernizm», «absurd», «ekzistensializm» kabi tushunchalar haqida jahon adabiyotshunosligi miqyosida fikr yuritish, o'z qarashlarini, ilmiy xulosalarini g'arblik etuk mutaxassislar erishgan natija-andozalar bilan asoslash, zarur o'rinda, ular bilan hatto bahslasha bilish va shu asnoda o'zbek adabiyotida bo'y ko'rsatayotgan yangi uslublar haqida fikr yuritish adabiy tanqid metodologiyasining muhim xususiyatlaridan biriga aylanib bormoqda.

Yozuvchi P. Qodirov modernizm mavzuiga bag'ishlangan chiqishlarga o'z munosabatini bildirib, «Ma'naviyat, modernizm va absurd»(O'zAS, 2004, 26.04.) sarlavhali maqolasida bugungi adabiy jarayondagi ijodiy izlanishlar, xususan, modernistik yo'nalishda yozilgan asarlarga tanqidchilikning yondashuvi, ijodiy ta'sir, absurd asarlar va uning adabiyotdagi ko'rinishlari qanday samara berayotgani kabi masalalarni ma'naviyat bilan bog'lab talqin etishga harakat qilgan.

Abstraksionizm - (lotincha uzoqlashish, mavhumlik so'zidan) Tushkun, o'ta formalistik oqimlardan biri. Bu oqim real voqelik va konkret narsalarni aks ettirishni rad etadi. U XX asrning 20 yillarida AQSHda paydo bo'lgan.

Ekzistensializm Ekzistensiya («exsistentia») – mavjudlik absurd asar zamirida haqiqat ma'nosida keladi. Insonning mavjudligi – ekzistensiyasi, absurd asarda, unga qaysidir yo'sinda ta'sir o'tkazishi mumkin bo'lgan tashqi omillarni, deylik g'oyalar, pandu nasihatlarni, yo'l-yo'riqlarni tan olmaydi. YA'ni absurd asar qahramoni bularning

---

[34] Затонский Д. В наше время // Книга о зарубежных литературах XX века. – М.: Сов. писатель, 1979. –С.51.

[35] Хоружий С.С. «Улисс» в русском зеркале // Жойс Ж. «Улисс». – М.: Знаменитая книга, 1994. Т.3. –С. 405.

hammasidan xoli – u tamoman «ozod». Absurd qahramon fojiasi uning o'zida va buni uning sa'y-harakati, fikr-o'yi, o'zininggina ekzistensiyasi–mavjudligi belgilaydi. Bunday qahramon uchun hayotda ma'ni yo'q, yashashning o'zi arzimas bir mashg'ulotdir. Ayni paytda esa, u nimagadir umid bog'lamaydi va umidsizlikka berilmaydi, u shunchaki mavjud, xolos.

Qolaversa, absurd asarning strukturasi, badiiy-estetik prinsiplari ham realistik asarlardan butkul farqlanadi. Masalan, S.Bekketning «Godoni kutish» asari syujeti o'ta oddiy: ikki daydi qishloq yo'lida Godoni kutib o'tirishadi. Godoning kimligi ham, kelishi, yo kelmasligi ham noma'lum. Kutish jarayonida bo'lib o'tgan gap-so'zlar, harakatsizliklar ham na bir maqsad va na bir mantiqqa bo'ysunadi. Pesa oxirida personajlar ketishga shaylanishadi, biroq, joylaridan qimirlashmaydi. Bir so'z bilan aytganda, absurd asar matnidan qurilishigacha, vaziyat, holat ifodasidan yakunigacha absurdga bo'ysundirilgan bo'ladi. Bunday asarlarda real hayotdan ayrim detallar, iboralar ishlatilsa-da, asosan, realistik tasvir uslubidan tamoman farqli tasvir ustunlik qiladi.

Absurdizm bu ham mavhum tushunchalardan iborat oqim. Modernizm ko'rinish deb qaralgan absurdizm, ekzistensializim, postmodernizm singari oqimlarning mazmun-mohiyati, o'zbek adabiyotida ham ushbu oqimlarga xos ayrim jihatlar mavjud ekani va bu xususiyatlar o'zbek nasrida uslubiy rang-baranglikka bo'lib ko'rinayotgani masalasi o'tgan asrning 90-yillari va yangi asrning dastlabki yillari adabiy tanqidida etakchi, qizg'in munozaralarga sabab bo'lgan muammo sifatida zohir bo'ldi. Xususan, «absurd» tushunchasi, «absurd adabiyot», «absurd inson obrazi» iboralari atrofida kechgan bahslarda bir guruh olimlar o'zbek adabiyotida «absurd asarlar», «absurd qahramonlar» paydo bo'lganini ijobiy tendensiya sifatida baholasalar, boshqa bir guruh munaqqidlar badiiyatdagi,

xususan, g'arb adabiyotidagi bunday xususiyatlarni butkul rad etib, absurdizmning o'zbek adabiyotiga mutlaqo aloqasi yo'q degan fikrni aytdilar.

Jahon adabiyotshunosligida «absurd adabiyot», «absurd san'at», «absurd qahramon» tushunchalari o'tgan asrning 40-yillarining boshida fransuz adibi A.Kamyuning «Begona» romani yaratilishi bilan yuzaga kelgan. Fransuz adibi va adabiyotshunosi, faylasuf J.P.Sartrning «Begona» romani chiqishi munosabati bilan yozgan ««Begona»ni tushuntirish» sarlavhali maqolasi «ekzistensializm manifesti», deya ta'riflandi, fransuz adabiyotida ekzistensializm mavqeining mustahkamlanishiga xizmat qildi. 50-yillarda Fransiyada paydo bo'lgan yangi teatr yo'nalishi esa absurd san'ati, deya nom oldi. Absurd dramaturgiyasiga oid pesalar g'arbdagi ko'plab mamlakatlar sahnalarida namoyish etildi.

A.Kamyuning «Begona» romani qahramoni haqida so'z yuritib J.P.Sartr shunday yozadi: «Uning qahramoni yaxshi ham, yomon ham emas, ma'naviyati boy ham emas, ma'naviyatsiz ham emas. U haqida bunday tushunchalarga tayanib muhokama yuritib bo'lmaydi: u mutlaqo boshqa bir zotga mansubki, bunga yozuvchi absurd so'zi bilan aniqlik kiritadi. Biroq, bu ibora janob Kamyuning qalami ostida butunlay boshqa-boshqa ikki xil ma'no kasb etgan: absurd – ayni paytda narsa-hodisalarning ayrim odamlar aniq anglagan mohiyati»[36].

Katarsis. Katarsis - ruhiy poklanuv ta'limoti, kaolokogot-ma'naviy ta'sirga berilgan shaxsdagi ruhiy-estetik o'zgarishlarni uqish ilmidir. Aristotelning "Poetika" asarida katarsis va kaolokogot ta'limoti haqida ma'lumot mavjud. Aristotel san'atning insonga ta'siri muammosini tragediya asarlari tahlili orkali ko'rsatgan. Inson qalbi nozik, eng ta'sirchan, billurday pokizadir. Qalbga ta'sir etuvchi vosita

[36] Сартр Ж.П. Называт вещи своими именами. –М.: Прогресс, 1986.-С.92.

yana ham nozik, yana ham pokiza, olmosday serjilo-serqirra, bebaho bo'lmog'i lozim. Xalqda «achchiqni achchiq kesadi», degan naql bor. A'zoyi badanga tikan kirsa, uni (tikandan-da qattiq) igna bilan chiqaradilar. Eng qattiq jismlar olmos (qattiqlarning qattig'i) bilan qirqiladi. Nozik, ta'sirchan kalbga yana ham nafis, pokiza san'at ta'sir etishi mumkin. Aristotel yaratgan katarsis ta'limotining eng yorkin talqinlaridan biri CHo'lponing -Adabiyot nadur» maqolasidir.

Mif – grekcha so'z, rivoyat. Mif, asotir. Qadimgi kishilarning koinot, tabiat hodisala mohiyati, paydo bo'lish sabablarini tushunmasliklari natijasida shu hodisalar, xudolar va afsonaviy qahramonlar to'g'risidagi aqida va xayollarini bayon qilgan qarashlari

"ADABIYOTSHUNOSLIK METODOLOGIYASI" FANIDAN TESTLAR TO'PLAMI

1. "Adabiyotshunoslik metodologiyasi" nima haqda bahs yuritadi?
A. Adabiyotshunoslik fanlarining tasnifi haqida
B. O'tmish va hozirgi zamon adabiyotini o'rganish tamoyillari va usullari haqida
S. Ijod metodlarining turlari haqida
D. Badiiy ijodga yondashuvning mohiyati haqida

2. Rus formal metodi asoschilari, namoyondalari ko'proq nimaga e'tibor berishgan?
A. Badiiy adabiyotning shakliga
V. Asarning kompozitsion qurilishiga
S. Asarning lug'at tarkibiga.
D) Asarning yaratilish davriga.

3. Sotsiologik metoddan ko'proq foydalangan rus olimlari kimlar?
A) V.G.Belinskiy, D.Dobrolyubov
B) L.Stross, R.Bart
S) Z.Freyd, E.Fromm
D) V.G.Belinskiy, D.Dobrolyubov, N.CHernishevskiy

4. Asosiy prinsiplari bevosita tilshunoslik fani bilan bog'liq metod qaysi?
A) Lingvistik metod
B) Biografik metod
S) Germenevtik metod
D) Bunday ilmiy metod yo'q.

5. «She'r san'ati» asarining muallifi kim?
A) Ibn Sino
B) Forobiy
S) Fitrat
D) A.Husayniy

6. Meditativ she'riyatning asosini nima tashkil qiladi?
A) inson fe'l-atvori
B) inson taqdiri
S) hissiy mushohada, his-tuyg'uga yo'g'rilgan mushohada
D) jamiyat masalalar

7. Poetik semiotika masalasini o'rgangan olim kim?
A) Bart R.
B) R.Yakobson
S) V.Y.Propp
D) N.Veselovskiy

8. She'riy yo'lda yozilgan lirik asardagi kayfiyatning hosil qilinishi, kechinmaning o'quvchiga "yuqtirilishi"da uning qaysi tomoni muhim ahamiyat kasb etadi?
A) morfologik tomoni
B) uning mazmuni
S) ritmik-intonatsion tomoni
D) sintaktik qurilishi

9. Ritmik bo'laklar sifatida nimalar tushuniladi?
A) bo'g'in (hijo), turoq (rukn), misra va band
B) sintaktik parallelizmlar
S) misra va band
D) turoq (rukn) va bo'g'in (hijo)

10. Bir misradagi sintaktik qurilma ikkinchisida teskari tartibda takrorlansa qanday san'at hosil bo'ladi?
A) Tazmin
B) anafora
S) Giperbola
D) Tardu aks (Xiazm)

11. Tonik she'riyatda nima o'lchov asosi qilib olinadi?
A) misralardagi urg'ular miqdori
B) misralardagi bo'g'inlar miqdori
S) misralardagi bo'g'inlar sifati
D) misralardagi bo'g'inlar ohangdoligi

12. A.Fitrat qaysi qaysi vaznni milliy vazn deb atagan?
A) barmoq vaznini
B) aruz vaznini
S) erkin vaznni
D) sarbastni

13. Aruzshunos olim nomi berilgan javobni belgilang.
A) A.Qayumov
B) A.Hojiahmedov
S) D.Quronov
D) B.Sarimsoqov

14. Aruzda o'zgarishsiz takrorlangan asllardan hosil bo'luvchi bahrlar qanday nomlanadi?
A) solim bahrlar
B) far'iy bahrlar
S) Zihoflar
D) Hijolar

15. "Istoricheskaya poetika" asarining muallifi kim?
A) V.Y.Propp
B) R.Yakobson
S) Veselovskiy A.N.
D) V.M. Jirmunskiy

16. Badiiy asar va ijodiy jarayonni biografik o'rganish tarafdori bo'lgan Evropa olimlari orasida Sent-Byovdan qariyb yuz yil keyin yashagan olim kim?
A) A.Morua
B) L.Stross
S) R.Bart
D) Z.Freyd

17. Badiiy asarni muallifining hayot yo'li kontekstida o'rganishni nazarda tutadigan metod qaysi?
A) Biografik metod
B) Ijodiy-genetik metod
S) Strukturalizm
D) Sotsiologik metod

18. Tadqiqotchining asar qoralamalari, uning turli nashr

variantlari, tarixiy hujjatlar va h.ni chuqur o'rganishini, konkret faktlar asosida asarning yaratilish tarixi va omillarini ochib berishini taqozo etadigan tadqiqot usuli – bu ...
A) Ijodiy-genetik metod
B) Biografik metod
S) Tarixiy-madaniy metod
D) Tarixiy-tipologik metod

19. XX asrning 20-yillarida biografik metodning evropacha talqindan bir qadar farqli ko'rinishi qaysi adabiyotshunos tadqiqotlarida kuzatiladi?
A) G.O.Vinokurning
B) A.Moruaning
S) L.Strossning
D) R.Bartning

20. «Ruhiy bezovtalik tadqiqi» (1895), "Tushlar talqini» (1900), «Kundalik hayot psixopatologiyasi» (1904), «Chechanlik va uning ongsizlikka munosabati» (1905), «Seksuallik nazariyasi xususida uch ocherk» (1905), «Totem va tabu» (1913), «G'ayriodatiy lazzatlanish tamoyili», «Omma psixologiyasi va inson «men»i tahlili» (1921), "Men va U» (1923), «Tamaddun va undan norozilar» (1929) kabi qator tadqiqotlar muallifi bo'lgan olim kim?
A) Z.Freyd
B) E.Fromm
S) K.Yung
D) R.Yakobson

21. O'zining ko'p yillik amaliy faoliyati, izlanishlari natijasi o'laroq. psixoanalizning markaziy konsepsiyalarini ishlab chiqqan, asoslashga uringan va amaliyotda qo'llagan olim kim?
A) Z.Freyd
B) A.Morua
S) L.Stross
D) E.Fromm

22. Nazariy jihatdan anglangan ijodiy dasturiga ega bo'lgan, tashkiliy tuzilma sifatida shakllangan ijodkorlar guruhi qanday tushuniladi?
A) Adabiy yo'nalish sifatida
B) Adabiy oqim sifatida
S) Adabiy maktab sifatida
D) Ijodiy uyushma sifatida

23. "Qiyosiy adabiyotshunoslik"ka sinonim sifatida qo'llanuvchi istilohni toping?
A) Komparativistika
B) Germenevtika
S) Psixoanalitika
D) Psixoanaliz

24. Qiyosiy-tarixiy metodning shakllanishi haqida so'z borganda mifologik maktab asoschilaridan bo'lgan kimlarning nomi tilga olinadi?

A) germaniyalik aka-uka Grimmlar - Vilgelm va Yakoblarning
B) rossiyalik F.I.Buslaev, V.YA.Propplarning
S) fransiyalik Sent-Beyov va A.Morualarning
D) rossiyalik M.Jirmunskiy va A.N.Veselovskiylarning

25. Rossiya mifologik maktabining asoschisi kim?
A) F.I.Buslaev
B) A.N.Afanasev
S) A.N.Pыpin
D) A.A.Potebnya

26. Badiiy asarni milliy madaniy an'analar, shuningdek, davr adabiy-madaniy kontekstida o'rganishga qaratilgan metod qaysi?
A) tarixiy-madaniy tahlil metodi
B) tarixiy-qiyosiy metod
S) tarixiy-tipologik metod
D) sotsiologik metod

27. Adabiyotshunoslik metodologiyasi va metodlari muammosiga bag'ishlangan "Tahlil san'ati» kitobining muallifi nomi qaysi javobda berilgan?
A) H.Umirov
B) A.Rasulov
S) U.Jo'raqulov
D) S.Meliev

28. Psixoanaliz amaliyoti va nazariyasining asoschisi hisoblanadigan olim kim?
A) Z.Freyd
B) E.Fromm
S) K.Yung
D) V.Y. Propp

29. Adabiyot tarixi, adabiyot nazariyasiga oid manbalarni izlab topish, tasniflash, ro'yxatga olish kabi amaliy vazifalarni bajarish, shuningdek, manbalarni qidirish va o'rganish yo'llarini ishlab chiqish bilan shug'ullanadigan adabiyotshunoslikning yordamchi sohalaridan biri qanday nomlanadi?
A) Manbashunoslik
B) Matnshunoslik
S) Adabiyot tarixi
D) Bibliografiya

30. Talqin atamasining sinonimi sifatida tushunish mumkin bo'lgan istiloh qaysi?
A) interpretatsiya
B) tahlil
S) tavsir
D) tanqid

31. Adabiyotshunoslik metodologiyasining ob'ekti nima?
A) badiiy asar
B) ijodkor,
S) adabiyot tarixiga doir tadqiqotlar

D) adabiy-tanqidiy asarlar ekanligi;

32. Sotsiologik metod bilan ish ko'radigan adabiyotshunos nimaga asoslanadi?
A) badiiy adabiyot bilan ijtimoiy hayot, badiiy voqelik bilan real hayotiy voqelik orasini tadqiq etadi.
B) Jamiyat hayoti haqidagi uydirmalarni o'rganadi
S) romantik va real voqealar talqinini o'rganadi
D) asardagi real hayotiy voqelikni o'rganadi.

33. Struktural-analiz metodining asoschilari nomi ko'rsatilgan javobni toping.
A) L.Stross, R.Bart
B) R.Yakovson, N.Veselovskiy
S) Z.Freyd, E.Fromm
D) V.G.Belinskiy, D.Dobrolyubov,

34. Ijodkor tarjimai holini o'rganishda qaysi metod qo'l keladi?
A) Germenevtik metod
B) Sotsiologik metod.
S) Biografik metod
D) Bunday ilmiy metod yo'q.

35. Psixologik metod imkoniyatlari to'g'ri ko'rsatilgan javob qaysi?
A) Badiiy asar qahramonlari ruhiyatini o'rganish
B) Badiiy asar qahramonlari psixologiyasini o'rganish
S) Muallif ruhiyatini qiyosiy o'rganish.
D) Barchasi.

36. Eposning o'zagi nima?
A) Rivoya
B) Meditativlik
S) Syujet
D) Obraz
37. «Shoirlarning she'r yozish san'ati qonunlari haqida» asarining muallifi kim?
A) Beruniy
B) Ibn Sino
S) Forobiy
D) Ahmad Donish

38. Alisher Navoiyning adabiy-tanqidiy qarashlarini aks ettirgan asarlari qaysilar?
A) Muhokamat ul-lug'atayin, Nazm ul-javohir
B) Mufradot, Majolis un-nafois
S) Munshaot, Muxtasar
D) Risolai muammo, Tarixi anbiyo va hukamo
39. Qisqa va cho'ziq hijolarning ma'lum tartibda guruhlanishidan hosil bo'ladigan hodisa qanday nomlanadi?
A) Band
B) Hijo
S) Turoq
D) Rukn

40. She'rning alohida satrga joylashtirilgan bo'lagi nima deb yuritiladi?
A) Misra
B) Turoq
S) Band
D) Bayt

41. She'rning ma'lum miqdordagi misralardan tarkib topib, mazmun va ritmik-intonatsion jihatdan nisbiy tugallikka ega bo'lgan bo'lagi nima deb yuritiladi?
A) Band
B) Bayt
S) Qator
D) Misra

42. Ikkilik bandning alohida bir ko'rinishi -
A) Fard
B) Band
S) Bayt
D) Masnaviy

43. Antik adabiyotdagi metrik sistemada qisqa hijo (v) nima deb nomlangan?
A) Izoxroniya
B) Mora
S) Vatad
D) Inversiya

44. Struktural, stilistik va semiotik metodlar qaysi metod tarkibiga kiradi?
A) immanent metod
B) biografik metod
S) ijodiy-genetik metod
D) sotsiologik metod

45. Mumtoz adabiyotshunoslikda "talqin" so'zining ma'nosi qaysi atamalar bilan berilgan?
A) "sharh", "tafsir"
B) "sharh", "tahlil"
S) "tahlil", "tafsir"
D) "sharh", "talqin"

46. Matnning uslubiy o'ziga xosligini o'rganuvchi metod qaysi?
A) stilistik tahlil
B) semiotik tahlil
S) lingvistik tahlil
D) struktural tahlil

47. Qiyosiy adabiyotshunoslik rivoji, metodologiyasi shakllanishida xizmatlari beqiyos bo'lgan rus akademik olimi nomi qaysi javobda ko'rsatilgan?
A) V.M.Jirmunskiy
B) A.N.Veselovskiy
S) F.I.Buslaev
D) V.Y.Propp

48. "Strukturalizm – matnni o'qish, uqish, huzurlanish haqidagi fan... Strukturalizm – talqin va tahlilning nozik, go'zal yo'sini.... Strukturalizm – modernizm mohiyatini ishonarli yoritib beruvchi vositadir", – deb yozgan o'zbek olimi kim?
A) A.Rasulov
B) Suvon Meli
S) U.Hamdam
D) H.Boltaboev

49. Adabiyot tarixi va nazariyasi uchun manbaviy asos yaratib beruvchi adabiyotshunoslik sohasi qaysi?
A) Matnshunoslik
B) Manbashunoslik
S) Bibliografiya
D) Arxeogrfiya

50. "Strukturalizm undan foydalanuvchi hamma uchun faoliyat" degan olim kim?
A) Rolan Bart
B) R.Pento
S) M.Gravit
D) M.Baxtin

51. Qiyosiy-tarixiy metod dastlab qaerda shakllana boshlagan?
A) Germaniyada
B) Rossiyada
S) Fransiyada
D) Angliyada

52. Badiiy asarni chuqur falsafiy va hatto kvantfizikaviy asosda tekshiruvchi adabiyotshunoslik metodi qaysi?
A) strukturalizm
B) germenevtika
S) psixoanalitika
D) immanent

53. Birinchilardan bo'lib sehrli ertaklarni o'rganishda struktur tahlil metodini qo'llagan rus olimi kim edi?
A) V.Y.Propp
B) A.N.Veselovskiy
S) M.Jirmunskiy
D) A.Potebnya

54. Hamza arxivi yuzasidan biografik tadqiqotlar yuritgan olim nomi qaysi javobda ko'rsatilgan?
A) A.Qayumov
B) L.Qayumov
S) K.Yashin
D) G'.Mo'minov

55. Biografik metodga yaqin va u bilan birlikda qo'llanib, badiiy asarning ijodiy tarixini o'rganishni maqsad qiluvchi metod qaysi?
A) Ijodiy-genetik metod
B) Germenevtika
S) Strukturalizm
D) Semiotik metod

56. Adabiyotshunosga hayot materialining badiiy obrazga aylanish jarayoni, badiiy matnning sayqallanish yo'lini kuzatish imkonini beradigan metod qaysi?
A) Ijodiy-genetik metod
B) Struktural analiz metodi
S) Tahlil metodi
D) Stilistik metod

57. Jahon adabiyotshunoslari tomonidan biografik metodning asoschisi deb e'tirof etilgan olim kim?

A) Sharl Sent-Byov.
B) Z.Freyd
S) E.Fromm
D) M.Baxtin
S) A.Potebnya

58. Frans Kafkaning "Jarayon" romanini psixoanalitik usulda tadqiq etgan olim kim?
A) E.Fromm
B) Z.Freyd
S) J.Eshonqul
D) Sharl Sent-Byov.

59. Psixologik metod asoschilari kimlar?
A) L.Stross, R.Bart
B) R.Yakovson, N.Veselovskiy
S) Z.Freyd, E.Fromm
D) V.G.Belinskiy, D.Dobrolyubov

60. - v - - / - v - - / - v - - / - v -. Ushbu bayt bayt paradigmasi (taqte'si) aruzdagi qaysi bahrga tegishli?
A) Hazaj
B) Ramal
S) Rajaz
D) Sari'

61. She'r sintaksisiga xos normadan og'ishning eng keng tarqalgan ko'rinishi qaysi?
A) Oq she'r shaklida namoyon bo'lish
B) Turoqlanish
S) Bandlarga birlashish
D) Inversiya

62. She'riy misralarda aynan bir so'zning emas, balki ma'noni kuchaytirib takrorlashga asoslangan usul nima deb yuritiladi?
A) Gradatsiya
B) Anafora
S) Epifora
D) Alliteratsiya

63. Sillabik she'r tizimida nima o'lchov asosi sanaladi?
A) urg'uli va urg'usizligi
B) bo'g'inlarning uzun-qisqaligi
S) bo'g'inlar miqdorining tengligi
D) bo'g'inlar ohangdorligi

64. San'atni tabiatga "taqlid qilish" deb tushungan olim kim?
A) Aristotel
B) Platon
S) Ibn Sino
D) Forobiy

65. Adabiy turlarni ajratishda taqlid usulini asosga qo'yish an'anasi qachongacha davom etgan?
A) XYII
B) XY
S) XYI
D) XYIII asrgacha

66. Badiiy adabiyotni turlarga ajratishda tasvir perdmetini, ya'ni konkret asarda nima

tasvirlanayotganini asos qilib olgan olim kim?
A) Gegel
B) Aristotel
S) Platon
D) Forobiy

67. She'riy yo'lda yozilgan epik asar berilgan javobni belgilang.
A) B.Boyqobilov, "Kun va tun".
B) H.Sharipov, "Bir savol".
S) Muhammad Ali, "Boqiy dunyo".
D) Fitrat, "Oila.

68. "Hozir ko'ngildan kechayotgan" his-tuyg'ularni tasvirlashi bilan xarakterlanadigan asar ko'rsatilgan javobni toping.
A) A.Navoiy, "Kelmadi" radifli g'azali.
B) Cho'lpon, "Kecha va kunduz"
S) Bobur, "Boburnoma".
D) Fitrat, "Abulfayzxon".

69. Dramatik turga mansub asarda badiiy konfliktning qaysi turi etakchilik qiladi?
A) xarakterlararo konflikt
B) ijtimoiy konflikt
S) ichki konflikt
D) Dramatik turga mansub asarda badiiy konflikt tasvirlanmaydi.

70. Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha-o'zbekcha izohli lug'atini kimlar tuzgan?
A) Hotamov N., Sarimsoqov B.
B) A.Zunnunov, S.Ibrohimova
S) T.Boboev, D.Quronov
D) H.Umurov, A.Zunnunov

71. Badiiy asarlarni turlarga ajratish an'anasini boshlab bergan olim kim?
A) Gegel
V) Aristotel
S) Platon
D) Ibn Sino

72. O'zbek adabiy tanqidchiligining metodologik asoslari va tamoyillari atroflicha tadqiq etilgan dissertatsiya muallifi nomi to'g'ri ko'rsatilgan javob qaysi?
A) B.Nazarov
B) A.Rasulov
S) Sh.Ahmedova
D) B.Karimov

73. Z.Freydning badiiy asar va muallif biografiyasi asosida olib borgan tadqiqotlaridan birining nomi ko'rsatilgan javobni toping?
A) «Dostoevskiy va padarkushlik»
B) «Leonardo da Vinchi psixoseksuallik nazariyasiga chizgi sifatida»
S) «Muso va yakkaxudolik"
D) "Tushlar talqini"

74. Badiiy asar qismlari va ularning o'zaro aloqalarini o'rganuvchi metod qaysi?
A) struktural metod

B) sotsiologik metod
S) germenevtik metod
D) psixologik metod

75. Badiiy asardagi lisoniy belgilarning ma'no qirralarini o'rganishga qaratilgan metod qaysi?
A) semiotik tahlil
B) stilistik tahlil
S) kontekstual tahlil
D) psixoanalitik metod

76. Badiiy asarni, aniqrog'i, uning ijtimoiy mavjudligini o'rganishda qaysi tadqiqot metodidan foydalaniladi?
A) sotsiologik tadqiqot metodidan
B) struktural metoddan
S) immanent metoddan
D) germenevtik metoddan

77. Badiiy asarni uning ichki va tashqi aloqalarini birlikda olib o'rganishni taqozo etuvchi metod qaysi?
A) kontekstul tahlil metodi
B) immanent tahlil metodi
S) sotsiologik metod
D) stilistik metod

78. Badiiy asarga alohida mavjudlik sifatida qarab, uning ichki aloqalarini o'rganishni taqozo etuvchi metod qaysi?
A) immanent tahlil metodi
B) kontekstul tahlil metodi
S) germenevtik metod
D) sotsiologik metod

79. Matn asosida ish ko'rishishni taqozo etuvchi adabiyotshunoslik metodi qaysi?
A) germenevtika
B) immanent tahlil
S) kontekstul tahlil
D) semiotik tahlil

80. Badiiy asar tahlilida shu metodgagina tayangan va shuning asosidagina baholagan tanqidiy maqolalar keyincha ularning mualliflarini qatag'on qilish uchun dastakka aylandigina emas, o'quvchi ommani o'sha ijodkorlarni "xalq dushmani", asarlarini "zararli" deb tushunishga tayyorladi. Gap qaysi metod haqida bormoqda?
A) sotsiologik metod
B) tarixiy-qiyosiy metod
S) ijodiy-genetik metod
D) biografik metod

81. A.N.Veselovskiy ilmiy faoliyatining cho'qqisi bo'lgan asari qaysi edi?
A) "Tarixiy poetika" asari
B) "Ertaklar morfologiyasi" asari
S) Sehrli ertaklarning tarixiy asoslari" asari
D) "Marosim va folklor" asari

82. O`zbek xalq maqollarini ilk bor yozib olish va kitobat qilish kimning nomi bilan bog`liq?

A) Zamaxshariy
B) Gulxaniy
C) Z.Husainova
D) A.Navoiy

83. Grekcha so'zdan olingan bo'lib, "talqin", "tushuntirish" degan ma'nolarni bildiruvchi metod qaysi?
A) germenevtika
B) immanent tahlil
S) kontekstul tahlil
D) semiotik tahlil

84. Qadimgi adabiy yodgorliklarni talqin etish nazariyasi va san'ati ma'nosida qo'llanadigan metod nomi nima?
A) germenevtika
B) poetika
S) semiotika
D) strukturalizm

85. Badiiy asarlarni turlarga ajratish qaysi asarda birinchi marta ko'rsatib berilgan?
A) "She'r san'ati"
B) Metafizika
S) Poetika
D) "Badoe ul-sanoe"

86. Lirik turga mansub asarda badiiy konfliktning qaysi turi etakchilik qiladi?
A) ijtimoiy konflikt
B) tashqi konflikt
S) xarakterlararo konflikt
D) ichki konflikt

87. O'zbek adabiyotida uzoq vaqt lirikaning etakchilik qilgani nima bilan bog'liq?
A)) ijodkorlar qiziqishi bilan
B) tarixiy sharoit bilan
S) adabiy-madaniy an'ana bilan
D) nasrning rivojlanmaganligi bilan

88. Frans Kafkaning «Jarayon» romanini psixoanalitik usulda tadqiq etgan olim kim?
A) E.Fromm B) Z.Freyd S) J.Eshonqul D) Sharl Sent-Byov.

FOYDALANILGN ADABIYOTLAR RO`YXATI

1.Apresyan Y.D. Idei i metodы sovremennoy strukturnoy lingvistiki. – M.: Prosveщenie, 1966.

2.Bar L.B. Analiz xudojestvennogo proizvedeniya. – T.: O'qituvchi, 1995.

3.Bart R. Izbrannыe rabotы. Semiotika. Poetika. – M, 1989. – 254 s.

4.Baxtin M.M. Estetika slovesnogo tvorchestva. – M., 1986.

5.Dima A. Prinsipы sravnitelnogo literaturovedeniya. M., 1977.

6.Dyurishin D. Teoriya sravnitelnogo izucheniya literaturы. M., 1979. S. 143.

7.Depretto K. Formalizm v Rossii: predshestvenniki, istoriya, kontekst. — M.: Novoe literaturnoe obozrenie, 2015.

8.Do'stqoraev B. Romanning bir fazilati. // "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasi, 2009, 10 aprel, №15 (3998).

9.Eyxenbaum B. M. Kak sdelana «Shinel» Gogolya[1] (1919).

10.Eyxenbaum B. M. Melodika russkogo liricheskogo stixa Arxivnaya kopiya ot 29 maya 2011 na Wayback Machine (1922).

11.Eyxenbaum B. M. O. Genri i teoriya novellы Arxivnaya kopiya ot 7 marta 2007 na Wayback Machine (1925).

12.Eyxenbaum B. M. Teoriya «formalnogo metoda» Arxivnaya kopiya ot 16 iyulya 2006 na Wayback Machine (1925, opubl. na russkom yazыke 1927).

13.Engelgardt B.M. Izbrannыe trudы. - SPb, 1995.

14.Eshonboev A. Qiyosiy-tarixiy metod haqida // O'TA, 2008, 4-son, 38-46-betlar.

15. Freyd 3. Psixologiya bezsoznatelnogo. – M, 1989. – S. 225-242.

16. Freyd 3. «Ya» i «Ono». Kniga 2. – Tbilisi, 1991.S.407-426.

17. Freyd 3. Vvedenie v psixoanaliz (Posleslovie). – M.: Nauka, 1989. – S.430-434.

18. Fromm E. Dusha cheloveka. – M., 1992. – S.79.

19.Gadamer G.G. Istina i metod: Osnovы filosofskoy germenevtiki. – M., 1988.

20.Genneken E. Sotsiologicheskiy analiz URL:http:// www.textology.ru/ article. aspx?aId=189 URL:http://nataliabedzir.com/2013/12/11/leksii-po-metodologi-literaturovedch/ (data obraщeniya: 14.05.16).

21.Gasparov B.M. Literaturnыe leytmotivы. Ocherki russkoy literaturы XX veka. M,, 2004.

22.Ginzburg L. Y. O literaturnom geroe. L., 1979. S. 192.

23.Grigorev V. Poetika slova. – M.,1979.

24.Ivanov S.N. Grammatik tadqiqotlarning metodologik muammolari. Rus tilidan I. Birshaev tarjimasi. – Samarqand: SamDU, 2004. – 80 b.

25.Jirmunskiy V.M. Iz istorii zapadnoevropeyskix literatur. - L., 1981. S. 76.

26.Jirmunskiy V.M. Epicheskoe tvorchestvo slavyanskix narodnostey i problemы sravnitelnogo izucheniya eposa. – M ., 1958. S. 435.

27.Jirmunskiy V.M. Sravnitelnoe literaturovedenie. L., 1979. S.100.

28.Jolkovskiy A.G. Blujdayuщie snы i dr. rabotы. – M.,1994.

29.Jo'raev M. Qiyosiy tipologik metod // Folklorshunoslik asoslari. – T.: Fan, 154-169.

30. Jo'raev T. Ong oqimi va tasviriylik: filol. fan. nomz. ... dis. – Toshkent, 1994.

31.Jo'raqulov U. Hududsiz jilva. – T.: Fan, 2006.

32.Jolkovskiy A.G. Blujdayuщie snы i dr. rabotы. M.,1994.

33.Zinchenko V.G. Metodы izucheniya literaturы. Sistemnыy podxod

URL:http://www.twirpx.com/file/142065/(data obraщeniya: 30.05.16).

34.Karimov B. Abdulla Qodiriy: tanqid, tahlil va talqin. – T.: Fan, 2006.

35.Karimov B. Adabiyotshunoslik metodologiyasi. Filologlar uchun o'quv qo'llanma. – Toshkent, 2011. – 88 b.

36.Kuznetsov V.G. Germenevtika i gumanitarnoe poznanie. – M., 1991.

37.Komilova S. Qiyosiy adabiyotshunoslik metodologiyasi masalasiga doir // O'TA, 2009, №6, 76-80-betlar.

38.Konrad N.I. Zapad i Vostok: Stati. Izd. 2-e, ispr. i dop. M., 1972.

39.Konstantinovich 3. Komparativistika. Amsterdam: Atlanta, 1997. S. 90.

40.Lapasov J. Badiiy matn va lisoniy tahlil. – T.: O'qituvchi, 1995.

41.Lixachev D.S. Konseptosfera russkogo yazыka // Russkaya slovesnost. M., 1997. S.280-287.

42.Levinton G.A. OPOYAZ // Lingvisticheskiy ensiklopedicheskiy slovar. — M.: Sovetskaya ensiklopediya, 1990.

43.Levchenko YA. S. Drugaya nauka: Russkie formalisты v poiskax biografii. — M.: Izdatelskiy dom Vыsshey shkolы ekonomiki, 2012.

44.Meliev S. Strukturalizm va struktur tahlil haqida.//O'zbek tili va adabiyoti. 2008. – 2-son. – B.12-20.

45.Meli Suvon. Yangi tanqid (G'arb adabiyotshunosligidagi bir oqim haqida) // "Sharq yulduzi" jurnali, 2010, № 4.

46.Mixaylov A.A. Sovremennaya filosofskaya germenevtika. – Minsk, 1984.

47.Meylax B.S. Biografiya kak metodologicheskaya problema / Chelovek nauki. – M.:Nauka, 1974. – S.12.

48.MoruaA. Literaturnыe portretы. – M.: Progress, 1971. – S.224-225.

49.Meliev S. Strukturalizm va struktur tahlil haqida. –O'zbek tili va adabiyoti. –Toshkent. 2009. № 2. B 12.

50.Murodov G'. Tarixiy roman: genezisi, keyingi taraqqiyoti. – Toshkent: Fan, 2005. – 164 b.

51.Murodov G'. "Yulduzli tunlar" romanida badiiy kodlar. – BuxDU ilmiy axboroti, 2000, 3-son.

52.Narkirer F. Morua – literaturnыy kritik / Andre Morua. Literaturnыe portretы. – M.: Progress, 197. – S.8.

53.Ne'matov H., Hamroeva Sh. Lingvistik tadqiqot metodikasi metodologiyasi va metodlari. – Buxoro, 2005. – 98 b.

54.Neupokoeva I. G. Istoriya vsemirnoy literaturы // Problemы sistemnogo i sravnitelnogo analiza. M, 1976.

55.Nurmonov A. Lingvistik tahlil metodlari. – T.: Akademnashr, 2010.

56.Putin D. **Sotsiologicheskiy metod** // Kratkaya literaturnaya ensiklopediya / Gl. red. A. A. Surkov. — M.: Sov. ensikl., 1962—1978.

57.Obщee yazыkoznanie. Metodы lingvisticheskix issledovaniy. – M., 1973

58.Polyakov M. Voprosы poetiki i xudojestvennoy semantiki. – M., 1986.

59.Psixoanaliz i literatura / Psixoterapevticheskaya ensiklopediya // [Elektronnыy resurs] .– Rejim dostupa: http://dic.academic.ru/

ic.nsf/enc_psychotherapeutic/ 281/Psixoanaliz. – Data dostupa: 20.03.09.

60.Obщaya stilistika i filologicheskaya germenevtika. – Tver, 1991.

61.Qosim Y. Yangi o'zbek she'riyatida ramzlar // O'zbek tili va adabiyoti. – 1998. – №5. – B.3-8.

62.Quronov D., Mamajonov 3., Speralieva M. Adabiyotshunoslik lug'ati. - Toshkent: Akademnashr, 2013

63.Rankur-Laferer, D. Russkaya literatura i psixoanaliz / D.Rankur-Laferer / Per. s angl. – M.: Ladomir, 2004. – 1013 s.

64.Rasulov A. Badiiy asarga yondashuv asoslari. Filolog-magistrlar uchun o'quv qo'llanma. – T., 2003.

65.Rasulov A. Tanqid, talqin, baholash. – T.: Fan, 2006.

66.Rikyor P. Konflikt interpretatsiy: Ocherki o germenevtike. – M., 1995.

67.Rustamov E. Nekotorыe voprosы sravnitelnogo izucheniya uzbekskoy literaturы XV veka s drugimi vostochnыmi literaturami. ADD. Tashkent, 1966.

68.Saidova R. Badiiy matnda belgi munosabatlari. - filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)dissertatsiyasi avtoreferati. Buxoro, 2021.

69.Sarimsoqov B. Adabiyotning ijtimoiy tabiati // O'zbek tili va adabiyoti. – 1995. – №2. – B.46-52.

70.Sent-Byov Sh. Per Kornel / Literaturnыe portretы. – M.: Xudojestvennaya literatura, 1970. – 47 s.

71.Sent-Byov Sh. Didro / Literaturnыe portretы. – M.: Xudojestvennaya literatura, 1970. – 117 s.

72.Shpet G.G. Germenevtika i ee problemы // Kontekst. Literaturno-teoreticheskie issledovaniya. – M., 1989.

73.Smirnov I.P. Porojdenie interteksta: Elementы intertekstualnogo analiza primerami iz tvorchestva B.Pasternaka. 2-e izd. SPb., 1995.

74.Stepnov Y.S. Slovo // Russkaya slovesnost: Antologiya /M, 1997. S. 302.

75.Teoriya metaforы. – M.,1990

76. Treskunov M. Sent-Byov / Literaturnыe portretы. – M., 1970. – 33 s.

77. Toporov V.N. O «poeticheskom» komplekse morya i ego psixofiziologicheskix osnovax / V.N.Toporov // Mif. Ritual. Simvol.

Obraz. Issledovaniya v oblasti mifopoeticheskogo / V.N.Toporov. – M.: Progress-Kultura, 1995. – S. 578–605.

78.Tomashevskiy B.V. Stilistika. – L.,1983

79. Trotskiy L. D. Formalnaya shkola poezii i marksizm Arxivnaya kopiya ot 16 iyulya 2006 na Wayback Machine (glava iz knigi «Literatura i revolyusiya», 1923).

80. Veselovskiy A.N. Istoricheskaya poetika. M., 1989. S. 16.

90.Xanzen-Leve O. A. Russkiy formalizm: Metodologicheskaya rekonstruksiya razvitiya na osnove prinsipa ostraneniya. — M.: YAzыki russkoy kulturы, 2001.

91.Xolbekov M. Struktur adabiyotshunoslik. Risola. – Toshkent: "Fan", 2014. 136 bet.

92.Yusubova R.N. Hozirgi o'zbek poeziyasida lisoniy tejamlilik va ortiqchalik (A.Oripov lirikasi misolida): Filol. Fan. nomz... diss. Avtoref. – T., 2011. – 25

93. Zelinskiy, S. A. Tvorchestvo i psixoanaliz // [Elektronnыy resurs]. – Rejim dostupa: http://zhurnal.lib.ru/z/ zelinskij_sergej_ alekseewich/tytyt.shtml. – Data dostupa: 21.03.09.

94. Zimovets, S. Pushkin: tolkovanie snovideniy / S.Zimovets //Arxetip. – 1996. – №2. – S. 98–107

95.Valsel O. Problema formы v poezii Arxivnaya kopiya ot 27 avgusta 2006 na Wayback Machine. — Pg.: Academia, 1923

96.Vinokur G.O. O yazыke xudojestvennoy literaturы. – M.,1991.

97.Yakobsan R. Rabotы po poetike. – M., 1987. – S.166.

98.Yaroshenko, L.V. Mifologicheskaya kritika i psixoanaliz. Mif i arxetip // Neo mifoogizm v literature XX veka: Ucheb.-metod. posobie / L.

99.Shklovskiy V. B. Iskusstvo kak priyom Arxivnaya kopiya ot 12 noyabrya 2006 na Wayback Machine (1917).

100.Shpet G.G. Germenevtika i ee problemы // Kontekst. Literaturno-teoreticheskie issledovaniya. – M., 1989.

101.O'zbek adabiy tanqidi. XX asr adabiyotshunosligi. Antologiya. –T.: Turon-Iqbol, 2011.

Mundarija

Kirish 3
1-mavzu. Adabiyotshunoslik metodlarining ijodiy metodlardan farqi 9
2-mavzu. Sotsiologik metod 21
3-mavzu. Qiyosiy-tarixiy metod 32
4-mavzu. Qiyosiy-tipologik metod 56
5-mavzu. Formal metod 73
6-mavzu. Struktural metod 86
7-mavzu. Germenevtika yoki talqin nazariyasi 98
8-mavzu. Psixologik va psixoanalitik metodlar 119
9- mavzu. Biografik metod 144
10-mavzu. Lingvistik metod 162
Glossariy 175
"Adabiyotshunoslik metodologiyasi" fanidan testlar to'plami 191
Foydalanilgn adabiyotlar ro`yxati 202



Ғайрат Муродов 1956 йилда Ғиждувон туманида туғилган. Бухоро давлат педагогика институти ўзбек филологияси факультетини имтиёзли диплом билан тугаллаган. 1977 йилдан ҳозирга қадар Бухоро давлат университетида ишлаб келмоқда. БухДУ ўзбек тили ва адабиёти кафедраси профессори, филология фанлари доктори.

Романчилик, структурал поэтика, семиотика соҳалари бўйича тажрибали мутахассис. Бу соҳалардаги ишлари Канада, Туркия, Россия, Германия, Озарбайжон, Қозоғистонда нашр этиладиган нуфузли журнал ва илмий тўпламларда эълон қилинган.

Муҳаррир сифатида ўттиздан ортиқ бухоролик ёш ижодкорларнинг шеърий китобларини чоп этишда иштирок этган, профессор Т. Қораев "Танланган асарлари" иккинчи жилдини ҳамда физик ва лирик Мустақим Рофийнинг "Кўнгилга йўл" шеърий мажмуасини нашрга тайёрлаган. Таниқли туркман шоирлари Махтумқули, Залилийнинг салмоқли тўпламларига сўзбоши ёзган.

Университет талаба ва магистрантларига "Жаҳон адабиёти тарихи", "Жаҳон адабиёти муаммолари", "Структурализм ва семиотика" фанларидан маъруза ўқиб, семинар ва амалий машғулотларни ўтиб келаётир. Унинг дарслари мазмундорлиги, интеллектуал савияси, қизиқарлиги балан ажралиб туради. Университет, академик лицей, касб-ҳунар коллежлари талабалари учун 3 та тестлар тўплами, 2 та намунавий дастур нашр эттирган. Вазирлик грифи асосида "Халқ амалий безак санъати ва бадиий адабиёт" (2021), "Замонавий ўзбек адабиёти ва адабий жараён (тарихий роман мисолида)" (2022), "Адабиётшунослик назарияси. Эпик тур жанрлари" (2022)

ўқув қўлланмалари, шунингдек, "Тарихий роман тараққиёти" (2017), "Тарихий роман" (2019) ўқув-методик қўлланмалари чоп этилган.

1988 йили профессор Э.А. Каримов раҳбарлигида "Тарихий шахс ва бадиий тўқима" мавзусида номзодлик диссертациясини ёқлаган. 2018 йилда академик Б.А. Назаров раҳбарлигида "Тарихий романнинг муштараклик ва ўзига хосликлар уйғунлиги муаммолари" мавзусидаги докторлик тадқиқотини ҳимоя қилган.

"Амир Темур абадияти" (1994), "Мозий ва бадиий адабиёт" (1994), "Тарихий жараённинг бадиий талқини", "Тарихий роман: генезиси, кейинги тараққиёти" (2005), "Тарихий романда сюжет муаммоси" (2008), "Миқёс ва қиёс" (2009), "Элпарвар ижодкор" (2009), "Ёруғлик одами" (2016), "Ҳайрат ва самимият куйчиси", "Қалбим – дунёдаги энг дилбар китоб", "Шоир қалби наволари" (2017), "Бадиий матнда белги муносабатлари" (2019, ҳаммуаллифликда) монография ва рисолалари чоп этилган.

2012 йили "Бухоро" нашриёти унинг "Дунё кемаси" шеърий тўпламини нашр этди.

Халқаро "Research Focuc" илмий журнали таҳририяти аъзоси. БухДУ ҳузуридаги илмий даражалар берувчи 03/04.06.2021. Fil.72.09 рақамли Илмий кенгаш раиси ва DSc. 03/04.06.2021. Fil.72.03 рақамли Илмий кенгаш аъзоси ҳамда Тошкент давлат ўзбек тили ва адабиёти университети ҳузуридаги DSc.03/30.12.2019.Fil.19.01 рақамли Илмий кенгаш аъзоси.

2002-2011 йилларда "Бухоро университети" газетасида бош муҳаррир лавозимида фаолият кўрсатган. Ўзбекистон Журналистлар уюшмаси (1982), Ўзбекистон Ёзувчилар уюшмаси (2020) аъзоси.

Самарали педагогик фаолияти учун Ўзбекистон Республикаси Таълим вазирлигининг Фахрий ёрлиқлари билан тақдирланган.



Ўраева Дармон Саидахмедовна. 1967 йил 7 майда Чоржўй шаҳрида туғилган. 1984 йилда Олот шаҳридаги 1-мактабни "Олтин медаль", 1988 йилда Бухоро давлат педагогика институтини "Имтиёзли диплом" билан тугатган. Ҳозирда Бухоро давлат университети Ўзбек тили ва адабиёти кафедраси профессори, филология фанлари доктори. "Дўстлик" ордени (2021) соҳибаси.

Ўзбек маросим фольклори ва халқ қўшиқлари назарияси бўйича таниқли мутахассисларидан бири. Фольклоршунослик, адабиётшунослик, тилшунослик, этнография ва этнопедагогика муаммолари бўйича салмоқли изланишлари мавжуд. 9 та монография, вазирлик грифи билан 2 та дарслик ва 5 ўқув қўлланма, 5 ўқув-услубий қўлланма, 2 илмий рисола, 300 дан ортиқ илмий ва илмий-оммабоп мақолалар (республикамиз ва Америка, Россия федерацияси, Туркия, Тожикистон, Қирғизистон каби мамлакатлар илмий нашрларида) эълон қилган.

"Ўзбек халқ лирик қўшиқларида параллелизмларнинг характери ва бадиий-композицион вазифалари" мавзусида фан номзоди (1993), "Ўзбек мотам маросими фольклорининг жанрий таркиби, генезиси ва бадийяти" мавзусида фан доктори (2005) илмий даражасини олиш учун О.Сафаров раҳбарлигида диссертациялар ҳимоя қилган. 2006 йил доцент, 2018 йил профессор унвонига эришган.

Вазирлик грифи билан чоп этилган "Ўзбекистон халқлари этнографияси ва фольклори", "Ўзбек халқ оғзаки ижоди", "Ўзбек мифологияси" дарсликлари, "Ўзбек халқ оғзаки бадиий ижоди хрестоматияси", "Жаҳон адабиёти атамаларининг изоҳли луғати", "Фольклор амалиёти" ўқув қўлланмалари ўқув жараёнига татбиқ қилинган.

"Ўзбек мотам маросими фольклори" (2004), "Бўзлардан учган ғазал-ай" (2004), "Бухор элда гул сайли" (2010), "Охунжон Сафаров" (2010), "Авазхон" достонини коллежларда ўрганиш" (2011), "Рустамхон" достони бадиияти" (2011), "Ўзбек халқ қўшиқларида радиф" (2015), "Мақолларни синквейин усулида ўргатиш" (2015), "Бухоро давлат университети: Юз йилликка қадам" (2016), "Семурғ қўнар давлатманднинг бошига" (2017), "Илмлига дунё ёруғ (2017), "Эл хизматида бўлиш саодати" (2017), "Ёшларни касб-ҳунарга йўналтиришда фольклордан фойдаланиш" (2018), "Ўзбек халқ қўшиқларида параллелизм" (2019), "Uzbek Funerari traditions. Classifikation and character of folklore of Uzbek lament traditions" (2020), "Талабалар энциклопедияси" (2022) сингари китобларидан соҳа мутахассислари фойдаланиб келишмоқда.

"Истиқлол даври адабиётида Ғарб ва Шарқ адабий анъаналари синтези" номли фундаментал давлат гранти лойиҳасига раҳбарлик қилган (2012-2016).

"Бухоро давлат университети илмий ахбороти", "Педагогик маҳорат" журналлари таҳририяти аъзоси. БухДУ ҳузуридаги илмий даражалар берувчи DSc. 03/04.06.2021. Fil.72.03 рақамли Илмий кенгаш раиси ҳамда 03/04.06.2021. Fil.72.09 рақамли Илмий кенгаш раиси ўринбосари. ЎзР ФА Ўзбек тили, адабиёти ва фольклори институти ҳузуридаги DSc.02/30.12.2019.Fil.46.02 рақамли Илмий кенгаш аъзоси.

Илмий маслаҳатчилиги ва раҳбарлигида 3 фан доктори (DSc) ва 25 фалсафа доктори (PhD) ҳимоя қилган.

G‘.N. Murodov, D.S. O‘rayeva

ADABIYOTSHUNOSLIK METODOLOGIYASI

Darslik

Muharrir: *A. Qalandarov*
Texnik muharrir: *G. Samiyeva*
Musahhih: *Sh. Qahhorov*
Sahifalovchi: *M. Bafoyeva*

Nashriyot litsenziyasi AI № 178. 08.12.2010. Original-maketdan bosishga ruxsat etildi: 20.04.2023. Bichimi 60x84. Kegli 16 shponli. «Times New Roman» garn. Ofset bosma usulida bosildi. Ofset bosma qog‘ozi. Bosma tobog‘i 13,2. Adadi 100. Buyurtma №189.

"Sadriddin Salim Buxoriy" MCHJ
"Durdona" nashriyoti: Buxoro shahri Muhammad Iqbol ko‘chasi, 11-uy.
Bahosi kelishilgan narxda.

"Sadriddin Salim Buxoriy" MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Buxoro shahri Muhammad Iqbol ko‘chasi, 11-uy. Tel.: 0(365) 221-26-45

ISBN 978-9943-9448-5-5





